Bir xil molekulalardan tashkil topgan bir jinsli moddalar, masalan suv, spirt, glitserin muayyan haroratda qaynaydi. Neftdan olingan barcha yoqilg'ilar turli qaynash haroratlariga ega bo'lgan uglevodorodlarning murakkab birikmasidan tashkil topgan. Masalan, dizel yoqilg'isi 170-360 °S, benzin esa 35-200 °S haroratlarda qaynaydi. yoqilg'ining tarkibida juda past haroratlarda engil bug'lanadigan uglevodorodlarning bo'lishi maqsadga muvofiq emas. Bu holda karbyuratorli dvigatellarning yoqilg'i o'tkazgichlarida bug'lar tiqini hosil bo'lib, uning ish rejimining buzilishiga olib keladi. Bu hol ko'pincha qishki sort benzinlarni yozda ishlatganda sodir bo'ladi. Shuning uchun ham yoqilg'i tarkibida engil fraksiyalarning tarkibi cheklanib, uning qaynay boshlash harorati 35 °S dan past bo'lmasligi kerak.

Yoqilg'ini tarkibida juda yuqori haroratlarda bug'lanadigan uglevodorodlarning miqdori ko'p bo'lishi ham maqsadga muvofiq emas, chunki bu uglevodorodlar, ya'ni og'ir fraksiyalar dvigatelda yonish jarayonida to'la bug'lanmaydi, natijada chala yonadi. Yoqilg'ining chala yonishi o'z navbatida qurum hosil bo'lishiga, dvigatel detallarining eyilishiga olib keladi. Shuning uchun avtoobil benzini tarkibida og'ir fraksiyalar miqdori cheklanib, ular 195 °S da to'la bug'lanib bo'lishi shart.

Dvigatelning engil o't olishi, qizish tezligi, o'tuvchanligi va eyilmasdan ishlashi avtoobil benzining fraksiya tarkibiga bog'liq.

Yoqilg'ini hajmining haroratga bog'liq holda o'zgarishi *fraksiya tarkib* deb ataladi.

Yoqilg'ini tarkibdagi uglevodorodlarning bug'lanuvchanligiga qarab uchta fraksiyaga bo'linadi -o't oldirish, ishchi va qoldiq. Bu uchta fraksiya o'z navbatida 5 ta asosiy nuqtalar bilan baholanadi.

Yoqilg'ining qaynay boshlashidan, to uning 10% qaynab bug'languncha bo'lgan fraksiya - *dvigatelni o't oldirish fraksiyasi* deb ataladi. Bu fraksiyaning ma'lum miqdori dvigatelni o't oldirish va qizdirish uchun kerak bo'ladi.

Yoqilg'ining 10% bug'lanishi harorati yozgi sort benzinlarda 70 °S dan, qishki sort benzinlarda esa 55 °S dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Agar benzin tarkibidagi engil bug'lanuvchi uglevodorodlar miqdori etarli bo'lmasa (bunda 10% bug'lanish harorati andozada ko'rsatilgan harorattan yuqori bo'ladi), u holda dvigatelni o't oldirish vaqtida benzin to'la bug'lanmasdan suyuq holatda bo'lib, uning yurgizib yuborishini qiyinlashtiradi. Bundan tashqari suyuq benzin porshen bilan silindr yuzalaridagi moylarni sidirib, ularning eyilishini tezlashtiradi.

Yoqilg'ining 10% dan 90% gacha qismi bug'lanishi - *ishchi fraksiyasi* deb ataladi. Dvigatelning qizish davri, past ish rejimidan yuqorisiga tez o'tish imkoniyati (qabul qiluvchanligi) yoqilg'ining ishchi fraksiyasiga bog'liq.

Ishchi fraksiyasining 50% qaynash nuqtasi standart bilan me'yorlanadi. U qancha past bo'lsa, yoqilg'ining tarkibi shuncha bir xil bo'ladi va dvigatel shuncha turg'un ishlaydi. Egri chiziqning bu qismi mumkin qadar tikroq bo'lgani ma'qul. Benzinning 50% bug'lanish harorati qanchalik yuqori bo'lsa, avtoobilning o'tuvchanlik qobiliyati shunchalik susayadi. Standart talabiga binoan yozgi sort benzinlar uchun bu harorat 115 °S dan, qishki sort uchun esa 100 °S dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Benzinning 90% qaynab bug'lanishidan keyin og'ir uglevodorodlar bug'lanadi, bu fraksiyani *qoldiq fraksiya* deb ataladi. Bu nuqtalar orasidagi haroratlar farqi qancha kam bo'lsa, yoqilg'ining sifati, uning tejamligi shuncha yuqori bo'ladi va dvigatel detallari shuncha kam eyiladi. Yoqilg'ida og'ir uglevodorodlarning ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas, chunki ular batamom bo'linib ketmaydi. Ular suyuq tomchi holatida qolib, porshen xalqalari orasidagi tirqishdan dvigatel karteriga tushib, uning eyilishini va yonilg'ini sarfini oshiradi. Bu harorat yozgi sort benzinlar uchun 180 °S dan, qishki sort benzinlar uchun esa 160 °S dan yuqori bo'lmasligi kerak. Qaynashning tugashi esa sifati yaxshi benzinlarda 97,8 yoki 98% ni tashkil qiladi, uning harorati esa yozgi sort benzinlar uchun 195 °S dan, qishki sort uchun esa 185 °S dan oshmasligi kerak.

Standart va benzinning sifat pasportida, uning kinematik qovushoqligi, alanganlanish va qotish haroratlari me'yorlanmaydi, chunki ular barcha ish sharoitlarida ham dvigatelning ishlashini ta'minlaydi.


Avtomobil benzinlari tarkibida og'ir uglevodorodlarning me'yordan ko'p bo'lishi, yonilg'ining to'la bug'lanmasligiga olib keladi. Ular suyuq tomchi holatida qolib, porshen xalqalari

orasidagi tirqishdan dvigatel karteriga tushadi, silindr yuzasidagi moylash materialini yuvib ketadi, moyni suyultiradi, natijada detallar tez eyiladi va yonilg'i sarfi ortadi.

Dizel dvigatellarda ham yoqilg'ining bug'lanuvchanligi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, ya'ni yoqilg'ining to'zitish sifati, chiqayotgan gazning tutashi, qurum hosil bo'lish tezligi yoqilg'ining fraksiya tarkibiga bog'liq.

Agar dizel yoqilg'isida engil uglevodorodlar ko'p bo'lsa, dizel dvigateli qattiqroq taqillab ishlaydi. Qaynash harorati yuqori bo'lgan og'ir yonilg'i yirik tomchilar tarzida to'zitaladi, bunda yonuvchi aralashma sifati yomonlashadi va yoqilg'i sarfi ortadi. Ish bajargan gazlar qorayib chiqadi, silindr-porshen guruhi zonasida qurum miqdori ortadi, forsunkalar to'zitgichi kokslandi qoladi. 100 sm³ benzin namunasi o'lchab olinib, rasmda ko'rsatilgan kolba 1 ga quyiladi va benzin 13..18 °S gacha sovitiladi. Kolbaning bo'g'ziga termometr 2 o'rnatilgan tiqin joylashtiriladi.


So'ngra kolba shtativga o'rnatilib, uning naychasi sovutgich trubkasi 3 ga kiritiladi. Kolba naychasi sovutgich trubkasi 3 ichiga kamida 25 mm kirib turishi lozim. So'ngra kolbani tik holatga qo'yib, ustiga g'ilof 9 kiydiriladi. Sovutgich 5 ga quyilgan suv harorati tajriba davomida 0..1°Sda ushlab turiladi. O'lchash menzurkasi 7 ni sovutgich 5 ning chiqish trubkasi tagiga joylashtirilib, uning tepa qismini qog'oz filtr yoki paxta bilan berkitiladi. Kolba 1 gaz gorelkasi yoki elektr isitgich yordamida yoqilg'i qaynaguncha qizdiriladi. Bu benzinnng *qaynash jarayoni* deyiladi. Qaynayotgan benzindan chiqqan bug'lar sovutgich 5 dan o'tish davomida kondensatsiyalanadi va tomchi holatda o'lchash menzurkasi 7 ga to'planadi. Tajriba davomida kolbani shunday qizdirish kerakki, bunda benzinni qizdirishni boshlashdan o'lchash menzurkasi 7 ga birinchi tomchi tushguncha o'tgan vaqt 5...10 minutni tashkil qilsin. O'lchash menzurkasi 7 ga birinchi tomchi tushishi qaynashning boshlanishi hisoblanadi va bu harorat *qaynay boshlash harorati* deb ataladi.



Benzinning asosiy fraksiya tarkibi.

Qaynay boshlash haroratidagi termometr ko'rsatkichi yozib olinadi va so'ngra qizdirish tezligi o'zgartiriladi. Bunda 95 sm³ benzinni bug'latib olguncha 1 minut davomida kondensatsiyalangan benzinning miqdori 4...5 sm³ ni tashkil qilishi yoki 10 sek davomida 20-25 tomchi tushishi kerak.

Shu tariqa har 10 % benzinning o'lchash menzurkasiga o'tish harorati belgilab boriladi. Olingan 95 sm³ benzindan to qaynashning tugaguncha bo'lgan vaqt 3...5 minutni tashkil etishi kerak.



Neft mahsulotining bug'lanuvchanligini aniqlash asboblari.

Zamonaviy ko'rinishi	Mavjud bo'lgan ko'rinishi
1- qizdirish lampasi; 2-maxsus kolba; 3-shtativ; 4-sovitgich; 5-sovitish trubkasi; 6-sovuq suv quvuri; 7-termometr; 8-tiqin; 9-bug'latib olingan yonilg'i; 10-uch asosli shtativ.	1 – shtativ; 2 – qizdirgich; 3 –g'ilof (kojux); 4 – kolba; 5 – termometr; 6 – tiqin; 7 – chiqarish trubkasi; 8 – tiqin; 9 – sovitgich trubkasi; 10 – sovitgich; 11 – o'lchov silindri.

Qaynashning tugashi deb shunday harorat qabul qilinadiki, bunda termometr simob ustuni bir necha daqiqaga to'xtab, so'ngra tusha boshlaydi. Qaynash to'xtagach qizdirgich o'chirilib, 5 minut vaqt o'tgandan so'ng o'lchash menzurkasidagi benzinning hajmi yozib olinadi.

Kolbada qolgan qoldiq 20 °S gacha sovigandan so'ng 10 ml o'lchash idishiga quyilib, standart ko'rsatkich bilan solishtiriladi. Standart bo'yicha kolbada qolgan qoldiq benzin 1,5 % dan oshmasligi kerak. Tajriba davomida bug'lanib uchib ketgan ya'ni yo'qotilgan benzin miqdori standart bo'yicha 4 % dan oshmasligi kerak. Olingan ma'lumotlar yordamida yoqilg'ining egri chiziqli xarakteristikasi chiziladi va standart ko'rsatkichlari bilan solishtirish natijasida tajribaga olingan yoqilg'ining sifati baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov, K., & Bozorov, J. (2021, September). Key factors reducing energy consumption in gas supply. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 839, No. 4, p. 042083). IOP Publishing.

2. Булатов А.И., Рябченко В.И., Сухарев С.С. Основы физикохимии промысловых жидкостей и тампонажных растворов. М.: Недра, 2008. – 176 с. 3. Базаров Ж.Т. Получение пав на основе фракций жирных кислот хлопкового мыла и их применение в буровых растворах. Дисс. На соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техн.наук, Ташкент, 2018. -129 с.

4. Тошев Ш.О., Артыкова Р.Р. (2014) Особенности получения утяжеленных буровых растворов для вскрытия продуктивных пластов // Материалы республиканской научно-практической конференции «Актуальные проблемы химической технологии». Бухара, С.197-199.

5. J.A. Khalilov, D.K. Nazarbekova, B.N. Nurtoev / Technical and technological solutions to increase the productivity of oil and gas wells / European Journal of Emerging Technology and Discoveries ISSN (E): 2938-3617 Volume 2, Issue 9, September – 2024.

6. Журабек Туронович Бозоров, Акрам Холмуминович Эргашев Новые полимерные композиции для вскрытия нефтегазовых пластов с аномально низкими давлениями. // "Экономика и социум" www.iurp.ru №2(129) 2025.

СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ РЕФОРМ В АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ»

Усманов Рустамбек Равшан угли

Магистрант 2-курса направления «Международные товарно-сырьевые и энергетические рынки» Ташкентского филиала МГИМО МИД России

Аннотация. В статье рассматриваются особенности технологических реформ в нефтяной и газовой отрасли Узбекистана. Анализируется процесс цифровизации процессов добычи природного газа на месторождениях АО «Узбекнефтегаз».

Ключевые слова: нефть, газ, углеводород, проект цифровизации, скважина, технология.

Введение. Нефтегазовая промышленность Узбекистана является одной из ведущих и перспективных направлений деятельности, так как обеспечивает не только поддержание роста экономики, но и позволяет сохранить энергетическую независимость: быть крупным поставщиком нефти, реализовывать проекты и привлекать иностранные инвестиции в имеющиеся активы. Преимуществом является и геополитическое расположение — многие территории Узбекистана, в процентном соотношении около 60% от общего их числа, открыты и перспективны для добычи нефти и газа. Это говорит о том, что Узбекистан богат углеводородным сырьем, так, нефть и газ считаются главными ресурсами для последующей переработки и производства топлива. «За весь период проведения разведывательных работ в Узбекистане открыто более 246 месторождений нефти и газа. Нельзя не отметить и значительное влияние нефтегазового сектора на объем ВВП. Так, на нефтегазовую отрасль Узбекистана приходится около 16% ВВП страны, а в доходной части бюджета ее доля составляет более 20%»⁹.

Методы научного исследования. При решении поставленных задач применены структурно-системный подход, метод классификации, сравнительный и статистический анализ, индукции и дедукции, экстраполяции, обобщение, экономико-математическое моделирование, а также эмпирические и логические методы.

⁹ Нефтегазовая промышленность: перспектива, статистика, инвестиции.

<https://vzglyad.uz/ru/post/2022/01/20/neftegazovaya-promyshlennost-perspektiva-statistika-investiczi>

Результаты. В 2023 году проект «E-kon» стал одной из ключевых инициатив АО «Узбекнефтегаз» в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030».

Целью проекта является цифровизация процессов добычи природного газа на месторождениях компании. Этот проект направлен на внедрение передовых технологий для повышения прозрачности учета, улучшения контроля и управления процессами добычи углеводородов, а также на автоматизацию ключевых производственных операций.

Проект предусматривает комплексное оснащение месторождений современными измерительными приборами и системами передачи данных, что позволяет в режиме реального времени отслеживать работу скважин и обеспечивать более точный учет газа. Благодаря этому значительно уменьшается зависимость от человеческого фактора, повышается производительность и общая эффективность добычи природного газа.

Основные цели проекта:

Проект «E-kon» направлен на достижение следующих целей:

- Круглосуточное управление всеми технологическими и организационными процессами добычи углеводородов.
- Минимизация человеческого фактора за счет повышения уровня автоматизации процессов.
- Оптимизация работы скважин путем подбора рациональных технологических режимов эксплуатации.
- Повышение коэффициента эксплуатации скважин за счет сокращения времени ожидания проведения операций и своевременного реагирования на изменения условий эксплуатации.
- Повышение точности учета добычи газа на всех этапах, что способствует улучшению контроля и отчетности.

Обсуждение. До внедрения проекта «E-kon» компания сталкивалась с рядом проблем, которые ограничивали эффективность добычи газа:

- Отсутствие круглосуточного мониторинга технических параметров скважин, что приводило к задержкам в управлении процессами.
- Недостаточный технологический учет расхода газа по каждому месторождению, что затрудняло точную отчетность и управление ресурсами.
- Снижение коэффициента эксплуатации скважин из-за увеличенных простоев и неэффективного планирования операций.

Реализация проекта позволила устранить эти проблемы за счет автоматизации процессов и создания систем мониторинга в реальном времени. Информация о состоянии скважин теперь передается на центральные серверы Компании в онлайн-режиме, что позволяет своевременно реагировать на любые изменения и оптимизировать работу добычных объектов.

Одним из ключевых аспектов проекта «E-kon» является подготовка квалифицированных кадров для работы с новыми системами. Для этого в компании организованы курсы повышения квалификации для инженеров-операторов.

- Обучено 700 сотрудников;
- В учебном центре «Нефтегаз-малака» организованы 8-дневные курсы для сотрудников из Мубарекского, Шуртанского, Устюртского и Газлийского НГДУ;
- Программа обучения охватывает 9 направлений, связанных с автоматизацией добычи и разработкой месторождений, с привлечением профессоров Российского

государственного университета нефти и газа имени И.М. Губкина и Университета технологии PETRONAS (Малайзия).

Обучение направлено на повышение профессиональных навыков инженеров и операторов в области применения автоматизированных систем и передовых технологий в процессе добычи газа

По состоянию на 2023 год проект «E-kon» достиг значительных успехов¹⁰:

- Полностью оцифровано 1 406 скважин (100% от запланированных).
- Оцифровано 96 из 154 газосборных пунктов (62%).
- Установлены 3 024 датчика давления и 1 597 датчиков температуры, обеспечивающих мониторинг технических параметров скважин в реальном времени.
- Внедрены 86 базовых станций для сбора и передачи данных.

Проект обеспечил полный онлайн-мониторинг всех ключевых параметров работы скважин и систем сбора газа. В день с одной скважины поступает от 800 до 900 данных, которые позволяют оперативно отслеживать изменения давления, температуры и других показателей, что в свою очередь улучшает управляемость процессами.

Технологические достижения. Реализация проекта «E-kon» также позволила внедрить новые технологические решения для подготовки и транспортировки газа на месторождениях. Примером является проект на месторождении Янги Алат, где внедрены установки для предварительной подготовки газа, конденсата и пластовой воды.

В технологическую схему добавлены трехфазный сепаратор, емкость для нестабильного конденсата и насосы для дегазации пластовой воды. Это позволило снизить потери давления на газопроводе и повысить производительность системы сбора газа.

После внедрения новых установок добыча газа на месторождении Янги Алат увеличилась с 792 до 864 тыс. м³ в сутки, что соответствует росту на 9,1%. Этот результат был достигнут за счет оптимизации технологических процессов и внедрения инновационных решений.

Запуск центра Управления бурением АО «Узбекнефтегаз» при поддержке «Газпром Нефти». Одним из ключевых событий 2023 года стало открытие в тестовом режиме первого в республике Узбекистан центра управления бурением (ЦУБ). Центр обеспечивает круглосуточное онлайн-сопровождение процесса строительства скважин, что позволяет повысить эффективность и оперативность буровых работ.

Основные цели проекта и задачи Центра управления бурением. Проект направлен на достижение следующих целей:

- Круглосуточное управление технологическими и организационными процессами;
- Сокращение затрат на бурение скважин;
- Контроль соблюдения требований HSE;
- Сокращение сроков строительства скважин.

Цифровизация и мониторинг в режиме реального времени

Информация о параметрах бурения каждой установки передается на сервер в головной офис компании и обрабатывается с помощью специализированного программного обеспечения. Данные отображаются в виде параметров и диаграмм, что позволяет оперативно реагировать на изменения в процессе бурения. Одной из ключевых

¹⁰ АО «Узбекнефтегаз». Отчет об устойчивом развитии. 2023. Фокус на устойчивое будущее. С.11.

задач центра является предотвращение аварийных ситуаций и несчастных случаев за счет быстрого анализа и реагирования на потенциальные риски.

Основные результаты реализации проекта¹¹

	2023 год	2024 год
Буровая проходка (тыс.м)	444	310
Завершено строительство скважины	143	127
Привлеченные буровые установки (станки)	84	67
Введено в эксплуатацию месторождений	20	н/д
Открыто месторождений	7	н/д

Важной задачей центра также является обучение и переподготовка кадров для работы с новыми технологиями. На данный момент специалисты центра проходят обучение с использованием специализированных программных продуктов для улучшения управления буровыми процессами.

Заключение. Проект «Е-коп» является важным шагом в цифровой трансформации АО «Узбекнефтегаз». Внедрение передовых технологий позволило компании значительно повысить эффективность процессов добычи природного газа, улучшить контроль за работой скважин и систем транспортировки, а также обеспечить более точный учет и управление ресурсами. Проект продолжает развиваться, и планируется дальнейшая интеграция новых технологий, что позволит еще больше улучшить производственные показатели компании и укрепить ее позиции на рынке энергоресурсов.

Центр управления бурением продолжит развиваться, внедряя новые технологические решения. Планируется создание Управления капитальными ремонтами и Управления по минимизации травматизма, что также будет способствовать улучшению показателей безопасности и эффективности.

Список использованной литературы.

1. Нефтегазовая промышленность: перспектива, статистика, инвестиции. <https://vzglyad.uz/ru/post/2022/01/20/neftegazovaya-promyshlennost-perspektiva-statistika-investiczi>
2. АО «Узбекнефтегаз». Отчет об устойчивом развитии. 2023. Фокус на устойчивое будущее. 159 стр.

AGRO INJINER SOHASI TALABALARINI O'QITISHDA TABIIY FANLARNING AHAMIYATINING TAHLILI

*Andijon davlat texnika instituti
t.f.f.d, PhD. A'zamov S.S*

¹¹ Составлено автором по материалам: АО «Узбекнефтегаз». Отчет об устойчивом развитии. 2023. Фокус на устойчивое будущее. С.13.

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida texnik va aniq fanlar (agrotexnologiya, muhandislik va boshqalar) asosiy o'rin tutsa-da, gumanitar fanlarning ham o'rni katta. Malumki Turkiston zamini qadimdan ilm-u fan va taraqqiyotning beshiklaridan hisoblanadi, shu o'rinda tarixga yuzlansak, muhandislik va qishloq xo'jaligi bo'yicha dunyoni lol qoldirarli olim va ulomlarni yetishtirgan diyorumiz bugungi kunda ham agrotexnologiya va muhandislik yo'nalishlari talabalari uchun gumanitar fanlar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarurdir. Ushbu maqolada gumanitar fanlarning texnik yo'nalish talabalari uchun ahamiyati, ularning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalariga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ilmiy asoslangan tadqiqotlar, tanqidiy fikrlash, madaniy va etik qadriyatlar, Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar.

Kirish: Ijtimoiy Gumanitar fanlar (falsafa, psixologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, ijtimoiy fanlar va boshqalar) quyidagi jihatlarida muhim rol o'ynaydi: Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish muhandis va agrotexnolog mutaxassislar ish jarayonida turli odamlar (hamkasblar, mijozlar, rahbarlar) bilan muloqot qilishlari kerak. Gumanitar fanlar orqali talabalar nutq madaniyati, muloqot usullari va o'z fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini oshirishadi. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, texnik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuv va tizimli fikrlash talab qilinadi. Falsafa, adabiyot va san'at tarixi kabi fanlar talabalarga turli nuqtai-zardan fikr yuritish va muammolarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Madaniy va etik qadriyatlarni esga olsak mamlakatimizdan yetishib chiqqan bobolarimiz tomonidan yaratilgan Zich ko'ragoniy jadvali yoki Al-Farg'onining "Nilometr" qurilmasi yordamida dexqonlar kelasi yilgi suv hajmini ilmiy bashorat qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ilmiy asoslangan bashoritlar orqali iqtisodiy va muhandislik muammolariga yechim topishgan bugungi kunda agrotexnologiya sohalarida ishlayotgan mutaxassislar turli madaniyat va millat vakillari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Gumanitar fanlar orqali ular xalqaro hamkorlikda muhim bo'lgan madaniy tafovutlarni tushunishadi. Psixologik Bardoshlik va Stressga Chidamlilik Kasbiy faoliyatda stressli vaziyatlar, qiyin qarorlar qabul qilish talab etiladi.

Asosiy qism:

Psixologiya va pedagogika kabi fanlar talabalarga shaxsiy va professional hayotda psixologik barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Innovatsiyalar va iqtisodiy tushuncha gumanitar fanlar (iqtisodiyot, menejment, intellektual huquq) talabalarga loyihalarni boshqarish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish va resurslardan samarali foydalanishni o'rgatadi. **Sun'iy Intellekt va raqamli texnologiyalar orqali** zamonaviy agrotexnologiya va muhandislik sohalarida sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (big data) va avtomatlashtirish keng qo'llanilmoqda. Biroq, xnologiyalarning insoniyatga ta'siri haqida fikr yuritish uchun gumanitar fanlar (axloq falsafasi, texnoetika) muhimdir. Masalan: **Qishloq xo'jaligi dronlari** – qishloq joylarida maxfiylik uammolari. **Genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)** – ekologik va sog'liq uchun oqibatlar. **Global Muammolar va Barqaror Rivojlanish BMTning 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs)** ga erishishda muhandislar va agronomlarning roli katta. Gumanitar fanlar orqali talabalar quyidagilarni o'rganadi: **Atrof-muhitni muhofaza qilish** – ekologik adolat va iqlim o'zgarishi. **Qashshoqlikni kamaytirish** – agrotexnologiyalar orqali ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish.

Qishloq xo'jaligi sohasida ijtimoiy mas'uliyat zamonaviy agrotexnologiya atrof-muhitni asrash, barqaror qishloq xo'jaligi va ijtimoiy adolat masalalarini hal qilishni talab qiladi.

Gumanitar fanlar mutaxassislariga ekologik va ijtimoiy jihatlarni hisobga olgan holda qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Muhandislik loyihalarida inson omili muhandislik loyihalari nafaqat texnik jihatdan, balki insonlar uchun qulay va xavfsiz bo'lishi kerak. Psixologiya va sotsiologiya bilimlari orqali muhandislar foydalanuvchilar ehtiyojlarini tushunishadi. Rahbarlik va jamoa boshqaruvi Har qanday texnik loyiha jamoada ishlashni talab qiladi. Gumanitar fanlar (menejment, liderlik psixologiyasi) talabalarga rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bugungi kunda injinerlik va qishloq xo'jaligi sohasida tarqqiy etib borayotgan g'arb mamlakatlarida (AQSh, Germaniya, Yaponiya) texnik universitetlarda gumanitar fanlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan, Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) va Stenford kabi universitetlarda muhandislik talabalari san'at, falsafa va ijtimoiy fanlardan majburiy dars oladilar. O'zbekistonda ham yangi ta'lim standartlari bo'yicha gumanitar fanlarning ahamiyati oshirilmoqda. Biroq, talabalar va ba'zi o'qituvchilar orasida "bu fanlar keraksiz" degan noto'g'ri fikrlar hali ham uchraydi. Aslida, gumanitar bilimlar texnik mutaxassislarni "quruvchi" emas, balki "ijodkor va fikrlashchi" mutaxassisa aylantiradi.

Xulosalar:

Agrotexnologiya va muhandislik yo'nalishlari talabalari uchun gumanitar fanlar nafaqat umummadaniy bilimlar manbai, balki ularning professional faoliyatidagi muvaffaqiyatining kalitidir. Yuqorida keltirilgan Al-Farg'oni bobomizning yoki dunyoga iqtisodiy savdo sotiq va ilm fan ulashgan Imomi Azam bobomiz kabi ulug' ota bobolarimizning munosib izdoshlari sifatida yosh mutaxassislarni kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo'lish uchun texnik bilimlar bilan birga gumanitar fanlarni chuqur o'zlashtirish zarur. Ta'lim tizimida ikkala yo'nalishning uyg'unlashishi orqali butun dunyo talablariga javob beradigan kompetent mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Nussbaum, M. (2010). *Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities*.
2. MIT Humanities Requirement. (2023). MIT Official Website.
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2023). *Yuqori ta'lim standartlari*.
4. UNESCO. (2021). *The Importance of Humanities in Technical Education*.

YENGILLASHTIRILGAN BURG'ILASH ERITMALARINING KO'RSATKICHLARINI O'LGHASH ORQALI ANIQLASH

*Xolmuxammadiyev Abduxoliq Mahammadi o'g'li, assistant
Toshev Sherzod Orziyevich, dotsent
TerDMAU, BuxDTU*

Burg'ilash eritmalarining fizik xossalarni boshqarish va eritma xossalarni o'zgarishi qayd qilinmagan, chunki o'sha vaqtlarda ushbu savollar na nazorat qilingan va na amaliy jihatdan yaratilmagan edi. Faqatgina faraz qilish mumkinki, burg'ilash loyi juda quyuq bo'lib qolgan hollarda unga suv qo'shib suyultirilgan. Aksincha burg'ilash loyi yetarlicha qovushqoqlikka ega bo'lmasa unga yer omborlaridan, ya'ni burg'ilangan tog' jinslaridan hosil bo'lgan loydan qo'shishib quyultirishgan.

Yengillashtirilgan burg'ilash loyi solishtirma og'irlikka ega bo'lgan hollarda ochiq favvoralar yuz bergan. Yuqori suv ajratish ko'rsatkichiga ega bo'lgan burg'ilash loylari qo'llanilganida esa quduq devorlarida qalinlik qobig'i hosil bo'lib burg'ilash quvurlar jamlamasining ushlanib qolishiga sabab bo'lgan. Ushbu vaqtda burg'ilash loyining fizik xossalarini boshqarish suv qo'llanishiga asoslangan. 1901 yilda rotorli usulda birinchi quduq muvaffaqiyatli burg'ilangandan so'ng oradan 13 yil o'tib 1914 yilda Xeggem va Pollard tomonidan birinchi marta burg'ilash eritmaları haqidagi ilmiy ishlar matbuotda paydo bo'ldi. Ular kanat usulida Oklaxomada quduq burg'ilanganda gilli eritma ishlatish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishdi. Ular o'zlarining ishlarida 1901 yillardayoq Texasda birinchi neft qudug'ini burg'ilashda gilli burg'ilash eritmasi qo'llanilgani, lekin 1913 yilgacha kanat usulida quduqlar burg'ilanganda burg'ilash eritmasi ishlatilmaganligini ta'kidlab o'tishgan.

Xeggem va Pollard burg'ilash jarayonida mahsuldor qatlamdan gaz chiqishini bartaraf etish uchun zarbali quduq burg'ilash usuli qo'llanilganida quduqning ustki qismigacha gilli burg'ilash eritmasi to'ldirib qo'yish bilan gazli qatlamga qarshi bosim hosil qilishga harakat qilishgan. Ular tomonidan kanatli usulda quduqlar burg'ilash uchun taklif qilingan gilli burg'ilash eritmasining tarkibi va xossalari o'sha vaqtlar uchun juda yaxshi bo'lgan.

Yengillashtirilgan burg'ilash eritmasidan olingan namunalarning ko'rsatkichlari sirkulyatsiya qilinayotgan eritmalar va maxsus idishlar va yer omborlarida saqlanayotgan burg'ilash eritmalarining ko'rsatkichlariga mos kelishi uchun namuna olingan joyni, uning hajmi va namuna olingan vaqt bilan uni tahlil qilish orasidagi vaqtni aniqlashtirish zarur.

Yengillashtirilgan burg'ilash eritmasining ko'rsatkichlarini sinovdan o'tkazish va tadqiqot qilish uchun o'lchash jixozlari to'plami mavjud bo'lib, to'plam cho'l va dala sharoitida ishlashga mo'ljallangan. Jixozlar to'plami burg'ilash eritmasini sinovdan o'tkazish uchun ya'ni eritmaning parametrlarini operatsion nazorat qilishda muhim hisoblanadi (1-rasm).

Jixozlar to'plamini qo'llash doirasi quyidagicha: neft va gaz quduqlarini burg'ulash jarayonida burg'ulash jarayonini nazorat qilishda, geologik va texnik nazorat stantsiyalarida, burg'ulash suyuqliklari uchun mobil va statsionar laboratoriyalarda qo'llaniladi.

1-rasmdagi jixozlar to'plami yordamida burg'ulash eritmasining zichligi, yopishqoqligi, filtrlash tezligi va boshqa parametrlarini aniqlashga imkon beradi.

Yengillashtirilgan burg'ulash eritmasining sinovdan o'tkazish uchun asboblarga quyidagilar kiradi:

Areometr ABR-1 (Ареометр АБР-1). Burg'ilash loyining zichligini aniqlash ($0,8-2,6 \text{ g/sm}^3$).

VM-6 qurilmasi (Прибор ВМ-6). Burg'ilash eritmasini filtrlash (suv ajratish) ko'rsatkichini aniqlash.

Viskozimetr VBR-2 (Вязкозиметр ВБР-2). Burg'ilash eritmasining nisbiy viskozitesini o'lchash (15-100 s).

SNS-2 qurilmasi (Прибор СНС-2). Burg'ilash eritmasining statik siljish kuchlanishini aniqlash.

Mikroprotessorli ionomer (Иономер микропроцессорный). Burg'ilash eritmasining kimyoviy faolligini aniqlash: vodorod ko'rsatkichi pH (0-14) va oksidlanish-qaytarilish potentsiali Eh (+999 mV).

Mikroprotessorli konduktometr (Кондуктометр микропроцессорный). RS-232 interfeysi va UEP o'lchov diapazoni 0,001 dan 100 mS/sm gacha va C 0,001 dan 20g/l gacha bo'lgan konduktor-salinometr.

Magnit aralashtirgich MM-5 (Магнитная мешалка MM-5). Sinov eritmasini aralashtirish.

Termometrli elektron ko'chma pH o'lchagich (pH-метр электронный портативный с термометром). Burg'ilash eritmasining kimyoviy faolligini aniqlash (vodorod indeksi 0-14 pH).

Sarf materiallari to'plami (Набор расходных материалов). Kimyoviy shisha idishlar, kimyoviy reagentlar, filtrlar, indikatorlar.

Ushbu to'plamdagi qurilmalar quduqlarning geologik va texnologik tadqiqotlarni o'tkazishda va burg'ulash jarayonini kuzatish uchun asbob-uskunalar va qurilmalarning umumiy majmuasini to'ldiradi.



1-rasm. Yengillashtirilgan burg'ilash eritmasining ko'rsatkichlarini sinovdan o'tkazish va tadqiqot qilish uchun o'lchash jixozlari to'plami

Quduqda sirkulyatsiya qilinayotgan burg'ilash eritmasi haqida ma'lumotlar olish zarur bo'lganda, namuna burg'ilash eritmasi tozalovchi qurilmalardan o'tmasdan oldin olish kerak. Namunani faqatgina sirkulyatsiya vaqtida olish zarur.

Quduqqa haydalayotgan burg'ilash eritmasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun namunani burg'ilash nasosining qabul qiluvchi idishdan olish zarur. Agar burg'ilash eritmasining tahlili bevosita burg'ilash maydonida amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda namuna 53 ta tahlilga yetadigan miqdorda olinadi. Agar namunani burg'ilash maydonidan uzoqda joylashgan tajribaxonada tahlil qilish zarur bo'lsa u holda 3-5 l hajmda namuna olinadi. Ushbu hajmni olish uchun har 5-15 minut 0,5 litrdan burg'ilash eritmasi olinib bir idishga quyiladi va uni viskozimetr setkasidan o'tkaziladi. Burg'ilash eritmasi saqlanadigan idishlardan namuna olishdan oldin nasoslar yordamida uni yaxshilab bir xil holatga keltuncha aralashtiriladi. Bir hil holatga kelganligi eritmaning asosiy xarakteristikalarini bir-biriga mos kelganligi hech bo'lmas idishning bir-biridan uzoqroq qismidan olingan namunalarda o'z isbotini topishi kerak. Quduqdan burg'ilash eritmasi bilan chiqib kelgan gaz tezda uchib ketishi mumkin va buning natijasida uning zichligi ortadi. Qizdirilgan burg'ilash eritmasi soviydi va uning ko'pgina xarakteristikolari o'zgaradi, ayniqsa bu zichlik, qovushqoqlik va gaz miqdori kattaliklariga o'z ta'sirini bildiradi. Shuning uchun ham burg'ilash eritmasining ushbu ko'rsatkichlari bevosita jeloblardan olinib aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рязанов Я.А. Энциклопедия по буровым растворам. – Оренбург. Летопись. 2005. – 664 с.
2. Мыслюк, М.А. О выборе оптимальной рецептуры обработки бурового раствора Текст. / М.А. Мыслюк, Ю.М. Салыжи // Строительство нефтяных и газовых скважин на суше и на море, №4, 2003. с. 35-38.
3. Андресон Б.А., Маас А. Буровой раствор нового поколения. // Нефть и капитал. М. - 1997. - С. 93-94.
4. Ганджумян Р.А. Улучшение качества глинопорошков для приготовления буровых растворов//Вестник ассоциации буровых подрядчиков №1, 2011. С. 25-27.
5. Михеев В.Л. Технологические свойства буровых растворов – М.: Недра, 1979-239 с.
6. Рябченко В.И. Управление свойствами буровых растворов-М.: Недра, 1990-230 с.

YENGILLASHTIRILGAN BURG'ILASH ERITMASINING FIZIK VA REOLOGIK XOSSALARINI O'LCHASH USULLARI

Xolmuxammadiyev Abduxoliq Mahammadi o'g'li

TerDMAU assistenti

Toshev Sherzod Orziyevich

BuxDTU dotsent

Dastlabki davrlarda yaratilgan burg'ilash eritmalari haqida ma'lumotlar juda ham ozdir. Birinchi rotorli usulda burg'ilangan quduqlarda burg'ilash jarayonida hosil bo'lgan suyuq loy ko'rinishidagi eritma qo'llanilgan. Shubhasiz o'sha davrlarda burg'ilash eritmalari haqidagi ta'surotlar bo'lmagani uchun ham suyuq loy ishlatilgan.

Gilli burg'ilash eritmasi – bu suv va turli turdagi gil aralashmasida ma'lum bir vaqt oralig'ida gilning qattiq bo'laklari muallaq holatda turishini Xeggel va Pollard tomonidan aniqlanadi. «Gumbo» deb atalmish qovushqoq va yopishqoq gillar gilli burg'ilash eritmasi tayyorlash uchun yaxshi sifatli gil hisoblangan. Burg'ilangan qumtosh yoki qattiq slanes bo'lakchalari burg'ilash eritmasi tayyorlash uchun yaroqsiz hisoblangan, chunki yaxshi natijalarni yopishqoq gillar bergan. Burg'ilash eritmasi tayyorlash uchun suvning hajmiga nisbatan 20% gacha gil qo'shish tavsiya qilingan.

Levis va Makmarey o'zlarining ishlarida gilli burg'ilash eritmasini kanatli usulda quduq burg'ilashda qo'llash bo'yicha gilli burg'ilash eritmasi bo'yicha tushunchalarni kengaytirib ochib berdilar. Ularning ta'kidlashicha, ma'lum bir vaqt oralig'ida turli turdagi gil materiali muallaq holatda turishi bilan birgalikda, ushbu gilli burg'ilash eritmasi tarkibida burg'ilangan ohaktosh, qumtosh va boshqa tog' jinsi bo'lakchalari bo'lmasligi kerak. Ular yana shuni ta'kidlashganki burg'ilash eritmasining solishtirma og'irligi 1,05 dan 1,15 g/sm³ gacha o'zgarishi zarur bo'lgan. Shu bilan birga ular operatorlarga ba'zi tog' jinsi qatlamlariga salbiy ta'sir etuvchi suvga o'xshash eritmalarni qo'llamaslikni taklif qilishgan. Ularning fikricha yaxshi burg'ilash eritmasi yetarlicha quyuq bo'lib, g'ovakli qumtosh va boshqa g'ovakli qatlamlarni berkitishi va bir vaqtning o'zida ularga yutilmasligi zarur deb hisoblangan.

1921 yildan boshlab burg'ilash eritmalarining zamonaviy tarixi boshlanib, ushbu vaqtda ularning sifatini yaxshilash uchun maxsus qo'shimchalarni qo'llash bo'yicha birinchi urinishlar amalga oshirilgan. Stroud 1921 yilda yuqori qatlam bosimiga ega bo'lgan gaz qatlamlarini ochish uchun burg'ilash eritmalarini og'irlashtirish usulini ishlab chiqish bo'yicha dastlabki qadamini qo'ydi. Bir qancha gazli qatlamlarni burg'ilash davrida burg'ilash eritmasining gazga to'yinishi natijasida sodir bo'lgan bir qancha kuchli ochiq favvoralar va yong'inlar sababli burg'ilash eritmasini og'irlashtirish uchun zarur bo'lgan materiallarni topish bo'yicha ishlar olib borildi va maydalangan temir oksidi yordamida solishtirma og'irligi $1,8-2,16 \text{ g/sm}^3$ teng bo'lgan eritma yaratildi. Stroud baritni sinovdan o'tkazib temir oksidiga ko'ra og'irlashtiruvchi modda sifatida yaroqli ekanligini isbotladi, chunki temir oksidi bir qator kamchiliklarga egadir. Birinchi marta 1929 yildan boshlab kaustik soda va natriy alyuminati burg'ilash eritmalariga kimyoviy ishlov berishda qo'llanilgan. Xuddi shu yili Krossu va Xartga bentonit gillari va struktura mexanik xossalari yaxshi bo'lgan eritma tayyorlash uchun bentonit giliga magniy oksidini qo'shib ishlatishni taklif etishgani uchun patent berildi. Bentonit gillarini burg'ilash eritmalarini tayyorlash uchun qo'llanishi keng miqyosda amalga oshiriladi, chunki bentonit gili tez topiladigan, burg'ilash eritmasining struktura mexanik xossalarini yaxshilaydigan va eritmaning suv ajratish ko'rsatkichini pasaytiruvchi xom ashyo hisoblanadi. Biroq tuz qatlamlarini burg'ilashda bentonit va boshqa gillar burg'ilangan tog' jinslarini olib chiqish uchun burg'ilash eritmasini tayyorlash uchun yaroqsizligi ma'lum bo'lib qoldi. Attapulgitli gillar minerallashtirilgan suvlarda burg'ilash eritmasining qovushqoqligini oshirishda yaxshi natijalar berdi. 1921 yilgacha burg'ilash eritmalari bo'yicha chop etilgan ishlarda eritmaning suv ajratish ko'rsatkichi haqida ma'lumotlar keltirilmagan, lekin burg'ilash eritmasi suvash xossasiga ega bo'lishi zarur deb tan olingan. 1937 yilda burg'ilash eritmasining suv ajratish ko'rsatkichini kamaytirish maqsadida organik moddalarni qo'llash boshlandi va ularning dastlabkisi kraxmaldir. Burg'ilash qurilmasida kraxmalni oldin kaustik sodaning suvli eritmasida yaxshilab eritib olinib, so'ngra gilli burg'ilash eritmasiga qo'shilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida 1944 yilda erishga moyil bo'lgan karboksimetilsellyuloza sintez qilinib, burg'ilash amaliyotida burg'ilash eritmasining suv ajratish ko'rsatkichini kamaytiruvchi reagent sifatida qo'llanildi. Burg'ilash ishlarini ko'ngildagidek olib borish uchun burg'ilash eritmasining fizik va kimyoviy xossalarini yaxshi bilish zarur, buning uchun esa burg'ilash eritmalarini tadqiqot qilish usullari va apparaturalar kerak edi. Burg'ilash eritmasini qovushqoqligi va suv ajratish ko'rsatkichini aniqlaydigan asbob uskunalarni yaratish bo'yicha katta ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Birinchi ishlab chiqarishda burg'ilash eritmasining qovushqoqligini o'lchash Marsh tomonidan 1930 yilda yaratilgan voronka edi. Keyinchalik ushbu voronka Amerika neft instituti (ANI) tomonidan standart asbob sifatida qabul qilinib, hozirgi kungacha keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Marsh voronkasi neft va gaz quduqlarini burg'ilashda qo'llanila boshlangandan so'ng injener, texnik xodimlar burg'ilash eritmasining qovushqoqligini aniqlash uchun Storlar yaratgan viskozimetrdan foydalana boshlashdi. Ushbu viskozimetrning afzalligi burg'ilash eritmasining tiksotropik xossalari va qovushqoqligini o'lchash imkoni borligidadir. Burg'ilash eritmalarining Stormer vizkozimetrida qovushqoqligini standartli o'lchash uchun 1931 yilda 600 ayl/min tezlikda aylantirish tavsiya qilinib, ushbu tezlik standartlashtirildi. Burg'ilash eritmasining tiksotropik xossalari Stormer viskozimetri bo'yicha statik kuchlanishli siljishni nol va 10 mindan so'ng o'lchangan natijalar orqali aniqlanadi. 1937 yilda Djons statik sharoitlarda burg'ilash eritmasining suv ajratish ko'rsatkichini aniqlaydigan asbobni yaratdi. Ushbu asbob hozirgi kunlarda ham keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda va u «Baroid»

firmasining burg'ilash eritmalarining suv ajratish ko'rsatkichini aniqlovchi asbob nomi bilan tanilgan.

Burg'ilash eritmalarining eng ko'p ishlatiladigan turi bu chuchuk (texnik) suvdur. Ammo quduq devorlarini tashkil qiluvchi tog' jinslarini turg'un holatini va mahsuldor qatlamlarini tabiiy kollektorlik xossalarini asrab qolish kabi bir qancha savollar maxsus burg'ilash eritmalarining turini va tarkibini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Dastlabki maxsus maqsadlar uchun yaratilgan burg'ilash eritmasi bu silikat-natriyli burg'ilash eritmasi hisoblanib, ushbu eritma yordamida yuqori qatlam bosimiga ega bo'lgan o'piriluvchan gil tog' jinslari burg'ilangan. Ushbu burg'ilash eritmasi 1930 yillarning o'rtalariga kelib keng miqiyosda qo'llanila boshlandi, lekin ohak bilan ishlov berilgan burg'ilash eritmasi yaratilib quduqlarni burg'ilash jarayonidan ishlatila boshlanilganidan so'ng esa, silikat natriyli burg'ilash eritmasidan voz kechildi. Shundan so'ng beqaror gil tog' jinslarini burg'ilash mo'ljallangan gipsli, yuqori kalsiyli, alyuminatli, xlor-kaliyli va boshqa burg'ilash eritmalarining turlari ishlab chiqilib burg'ilash amaliyotida qo'llanilib kelinmoqda.

Maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan burg'ilash eritmasining bir turi bu neft asosida burg'ilash eritmalaridir. Neft asosidagi burg'ilash eritmaları mahsuldor qatlamni ochish va quduqni yaxshilab o'zlashtirish, beqaror gil qatlamlari va tuz qatlamlarini burg'ilashda qo'llaniladi. Neft asosidagi burg'ilash eritmasining turlaridan biri bu neft emulsion burg'ilash eritmalaridir. Neft emulsion burg'ilash eritmaları ma'lum bir burg'ilash eritmasining sinfini hosil qilmaydi, chunki ular suv asosidagi turli turdagi burg'ilash eritmalarining xossalarini yaxshilovchi vosita hisoblanadi. Odatda bunday burg'ilash eritmalarining tarkibida 8 dan 15% gacha neft, asosan dizel yoqilg'isi bo'ladi.

Yengillashtirilgan burg'ilash eritmasining solishtirma og'irligi. Burg'ilash eritmasining zichligi quduq tubidagi va quduq devoridagi bosimga qarshi gidrostatik bosim hosil qiladi. Suyuq va qattiq fazalarning og'irligini hajmga nisbatan munosabati solishtirma og'irlik bilan ifodalanadi.

“Zichlik va solishtirma og'irlik” atamaları ko'pincha burg'ilash eritmalariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu atamalar bir xil ma'noni anglatmaydi.


Solishtirma og'irlik – bu bir xil massa va hajm birliklarida o'lchanadigan modda og'irligining suv hajmining og'irligiga teng bo'lgan munosabatdir. Ushbu ko'rsatkichlarni aniq o'lchash uchun harorat kiritilgan.

“Solishtirma og'irlik $25^0/20^0\text{C}$ ” ko'rsatkichi suyuq yoki qattiq modda og'irligining hajmga nisbatan munosabatini ifodalab, 25^0C haroratda o'lchangan 20^0C haroratlardagi suvning hajmiga teng bo'lgan holat uchun. Ko'pincha suvning haroratining etaloni qilib 4^0C qabul qilingan, chunki 4^0C haroratda suv o'zining doimiy massasiga ega bo'ladi.

Zichlik. Qattiq yoki suyuq moddaning hajmga nisbatan og'irligidir: zichlik turli o'lchov birligidagi o'lchamli kattalik hisoblanadi. Aniqlik uchun harorat ham hisobga olinadi. Masalan suvning zichligi 4^0C haroratda $1,0 \text{ g/sm}^3$ yoki 1000 kg/m^3 ga tengdir. Zichlik va solishtirma og'irlik $1,0 \text{ sm}^3$ hajmda massa o'lchanayotganda son jihatdan bir xil bo'lib qoladi. $1,20 \text{ g/sm}^3$ zichlikdagi burg'ilash eritmasining solishtirma og'irligining hisobini ko'rib chiqamiz. Demak suvning og'irligi $1,0 \text{ sm}^3$ hajmni tashkil etadi, u holda solishtirma og'irlik:

$$\gamma = \frac{1,20 \text{ g/cm}^3}{1,0 \text{ g/cm}^3} = 1,20$$

Yengillashtirilgan burg'ilash eritmasining solishtirma og'irligi yoki zichligi areometrlar yoki piknometrlar yordamida o'lchanadi. Dala sharoitida ko'pincha yelkali tarozi VRP-1M (1-rasm), AG-1, AG-2 va AG-3PP areometrlari ishlatiladi.



1-rasm. Yelkali tarozi - plotnomer VRP-1M

Ushbu asboblarning ishlash prinsipi bir xil hajmdagi tadqiqot qilanayotgan eritma va suvning zichligini taqqoslashga asoslangan.

Yengillashtirilgan burg'ilash eritmalarining zichligini aniqlashda qo'llaniladigan yelkali tarozilar (1-rasm) asos, uchli tirgak, darajalangan richag, hajmiy idish, qopqoq, tayanchlar, havo pufakchali to'g'rilagich va reyterdan iborat. Darajalangan richagning bir uchiga hajmiy idish mahkamlangan. Idish va richag asos uchidagi uchli taglik tekisligiga perpendikulyar tekislikda yotadi va reyterni richag bo'yicha harakatlantirish orqali tenglashtiriladi.

Qovushqoqlik: Marsh viskozimetri burg'ilash eritmasining qovushqoqligini aniqlash uchun ishlatiladi. Fenn viskozimetri ba'zi hollarda (asosan statik siljish kuchlanishini (SSK) aniqlashda) Marsh viskozimetridan olingan ma'lumotlarni baholashda ishlatiladi.



2 - rasm. MLN-3 modelidagi Marsh viskozimetri va voronkasi

V-G viskozimetri ehtimoliy qovushqoqlikni, plastik qovushqoqlikni, statik siljish kuchlanishini va quyqum qattiqligini aniqlashga xizmat qiladi. Marsh viskozimetri (2 - rasm) diametri 152,4 mm va uzunligi 304,8 mm bo'lgan voronkadan iborat.

Voronkaning pastki qismiga silliq yuzali, uzunligi 50,8 mm ichki diametri dyuym bo'lgan trubka o'rnatilgan. Bu trubka voronka bilan birlashish qismida hech qanday o'zgarish hosil qilmaydi. 1/16 dyuym o'lchamli simto'r voronkaning ustidan pastga 3/4 dyuym masofada o'rnatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Городнов В.Д. Буровые растворы. – М.: Недра, 1985-206 с.
2. Литяева З.А. Глинопоорошки для буровых растворов. М.: Недра, 1992-192 с.
3. Михеев В.Л. Технологические свойства буровых растворов – М.: Недра, 1979-239 с.
4. Рязанов Я.А. Энциклопедия по буровым растворам. – Оренбург. Летопись. 2005. – 664 с.
5. Андресон Б.А., Маас А. Буровой раствор нового поколения. // Нефть и капитал. М. - 1997. - С. 93-94.
6. Ганджумян Р.А. Улучшение качества глинопоорошков для приготовления буровых растворов//Вестник ассоциации буровых подрядчиков №1, 2011. С. 25-27.

ДЕСТАБИЛИЗАЦИЯ ЭМУЛЬСИИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ТОВАРНОЙ НЕФТИ

О.О.Хамроев, А.А.Бабаев, М.О.Сатторов

Бухарский государственный техничекий университет

Аннотация: для получения товарной нефти потребуется разрушение сложных эмульсий в процессе обезвоживания нефти. Оптимальное ведение разрушения эмульсии достигается путем выявления многих факторов, влияющих на этот процесс, а также их правильного выбора.

Ключевые слова: нефть, эмульсия, деэмульсация, деэмульгатор, температура, расход, вода, соль.

Введение. Деэмульсация – это распад эмульсии сырой нефти на нефтяную и водную фазы. С технологической точки зрения производителя нефти интересуют три аспекта процесса деэмульсации:

- Скорость, с которой осуществляется это разделение.
- Количество воды, которое выходит из эмульсии после отделения.
- Качество отделяемой воды, то есть содержание остаточной нефти в воде.

То есть, подбирая деэмульгатор, стремятся добиться высокой скорости отделения, низкого содержания остаточной воды в нефти и низкого содержания нефти в воде.

Материалы и методы. Добытая нефть, как правило, должна соответствовать определенным спецификациям компании и спецификациям трубопроводов, например, согласно ГОСТ Р 51858—2020, нефть, подготовленная к транспортировке и/или использованию, должна содержать не более 0,5-1,0% масс. воды и не более 100, 300, 900 мг/дм³ (в зависимости от группы качества), не более 0,05% механических примесей. Этот стандарт может быть общим отраслевым или зависеть от спецификаций компании или требований к трубопроводу.

Соль нерастворима в нефти, при этом при обработке сырой нефти остается остаточная вода, для уменьшения коррозии и их отложения требуется низкое содержание основных осадков, воды и соли.

Основной задачей нефтеперерабатывающих заводов (НПЗ) является удаление неорганических солей из сырой нефти до того, как они вызовут коррозию или другие

последствия, которые могут повредить оборудование на этих предприятиях. Соли удаляются путем промывки или обессоливания сырой нефти пресной водой с применением электрического поля на установках ЭЛОУ (электрообессоливающие установки).

Результаты. Как упоминалось ранее, эмульсии, добываемые на нефтяном месторождении, обладают определенной кинетической стабильностью, это связано с образованием межфазных пленок, препятствующих слиянию капель воды и отделению воды от нефти.

В таблице 1 показаны факторы, которые ускоряют разрушение эмульсии.

Таблица 1.

Факторы, ускоряющие разрушение эмульсии

Фактор	Поведение
Температура	Применение тепла способствует сепарации и ускоряет процесс разделения эмульсии за счет снижения вязкости нефти, увеличивает подвижность и скорость осаждения мелких капель воды, увеличивает вероятность столкновений капель и способствует их слиянию, увеличивает разницу в плотности жидкостей и т. д. Необходимо провести экономический анализ, чтобы учесть затраты на нагрев, сокращение времени очистки и количество сточных вод
Напряжение сдвига	Уменьшение напряжения сдвига снижает стабильность эмульсии. Это связано с тем, что высокое напряжение сдвига вредно, и его следует избегать, поскольку оно может вызвать бурное смешивание воды и нефти, что, в свою очередь, приведет к диспергированию капель (уменьшению их размеров)
Время пребывания в аппарате	Увеличение времени пребывания в отстойнике и/или сепараторе также приводит к увеличению эффективности сепарации и уменьшению количества остаточной воды в нефти. Однако необходимо учитывать, что это также приводит к высоким затратам на сепарационное оборудование
Удаление твердых частиц	Механические примеси имеют сильную тенденцию стабилизировать эмульсии, особенно если они присутствуют в виде мелких твердых частиц или смачиваются нефтью и водой. Удаление их или их источника иногда является всем, что требуется для устранения или уменьшения проблемы с эмульгированием. Смачиваемые нефтью твердые вещества стабилизируют эмульсии типа вода в нефти, а твердые вещества, смачиваемые водой, также могут стать смачиваемыми нефтью при наличии поверхности из сильнополярных материалов и могут также эффективно участвовать в стабилизации эмульсий типа вода в нефти
Контроль эмульгаторов	Эмульгаторы необходимы для стабилизации эмульсий, их контроль позволяет добиться эффективности дестабилизации эмульсии и ее разделения. Для борьбы с ними можно принять такие меры, как: тщательный выбор химических веществ (деэмульгаторов), которые закачиваются во время добычи нефти; избегание несовместимых смесей сырой нефти (несовместимые нефти или воды – смешение их

	приводит к осаждению органических и неорганических твердых веществ), использование диспергаторов для контроля осаждения асфальтенов и использование точечных восстановителей для контроля парафинов, нейтрализация эффекта стабильности пленки – бронирующего слоя мелких капель воды, с помощью деэмульгаторов
Реконструкция	Дополнительное отделение воды может быть достигнуто за счет модернизации существующего оборудования. Проблемы с эмульсией неизменно усугубляются после установки сепарационного оборудования, необходимого из-за старения месторождения, увеличения перебоев в водоснабжении, неадекватной конструкции оборудования и т. д.

Вывод. Все указанные факторы могут иметь место одновременно, при этом имея синергетический эффект.

α-modifikatsiyali fosfogips bog‘lovchisining asosiy xossalari 5.6-jadvalda berildi. Fosfogips kompozitsion bog‘lovchisiga (α-modifikatsiya) gidrotermal ishlov berilganda turg‘un kichik asosdagi gidrosilikatlar hosil bo‘ladi.

2-jadval

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Birinchi partiya	Ikkinchi partiya	Uchinchi partiya
Kukunlik darajasi (02 elakdagi qoldiq)	%	1,1	1,7	1,2
Normal quyuqligi	%	42	40	41

Qotish davri Boshlanishi oxiri	min min	8 13	6 11	7 12
2 s keyingi mustahkamlik siqilishga egilishga	MPa MPa	16 9	18 10	18 9
Tsh 40-224-01:2008 Bo'yicha markasi	MPa	G-16	G-18	G-18

Bunda $\text{CaO}:\text{SiO}_2$ nisbati 0,8-1,2 oraliqda bo'lib, kompozitsion bog'lovchining yuqori mustahkamligini ta'minlaydi. Avtoklavda bug' ta'sirida kalsiy va magniy gidrosilikatlarning hosil bo'lishi qattiq fazada $\text{Ca}(\text{OH})_2$ bilan MgO va SiO_2 o'rtasida yuz beradigan kimyoviy reaksiyalar suv yoki bug' ishtirokida yuz beradi. Qotish sistemasida kalsiy va magniy gidrosilikatlarning bo'lishi α -modifikatsiya kalsiy sulfat degidрати kristall fazalarining joylashishini muayyan tartibga soladi. Bu omil S/B (suv/bog'lovchi) nisbatini kamaytiradi va fizik-mexanik xossalarini yaxshilaydi.

Serqum fosfogips va faol gidravlik qo'shimchalar-ohak, portlandsement, belitli klinker, elektrotermofosforli shlaklardan iborat kompozitsiyalardan gidrotermal ishlov berish usulida mustahkamligi va suvda turg'unligi yuqori bo'lgan α -modifikatsiyadagi fosfogips bog'lovchisining tarkibi, energiya va resurs tejamkor texnologiyasi ishlab chiqildi. Serqum fosfogips tarkibidagi qo'shimchalarning qotish jarayonini sekinlashtiruvchi ta'sir mexanizmi o'rganildi va uni bartaraf etish usuli yaratildi. Portlandsement, belitli klinker va elektrotermofosfor shlakining fosfogips asosidagi α -modifikatsiya kalsiy sulfatining qotish mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Kompozitsion bog'lovchi asosidagi materiallar atmosfera muxiti chidamliligi, umrboqiyligi, suv ta'siriga turg'unligi, suvga to'yintirish va quritish sikllariga, sovuqqa bardoshliligi yuqoriligi isbotlandi. Uning suvda turg'unligi bino va inshootlarga tashqi va ichki bezak berishda, og'ir yuk tushmaydigan beton buyumlar tayyorlashda portlandsement o'rnida ishlatish mumkin. Bog'lovchi kompozitsiyaning sinov-sanoat partiyasi "Olmalik tog'-metallurgiya kombinati" OTAJ ning Markaziy ta'mirlash-mexanika zavodi sexidagi avtoklavda 4 tonna olindi. Undan P-3VA markali 12 ta armaturalangan to'siq panellari tayyorlandi. Olingan bog'lovchi yuqori mustahkamligi va suvga turg'unligi jihatlaridan an'anaviy texnologiyada olingan fosfogips bog'lovchisidan farq qiladi.

Serqum fosfogips va modifikatorlar asosida yaratilgan α -modifikatsiyali fosfogips bog'lovchisining tarkiblar, mustahkamligi va suvga to'yintirish-quritish sikllariga bog'liqligi 3-jadvalda berildi.

3-jadval

Bog'lovchi tarkibi, massa %			Tayyorlash usuli	Siqilishdagi mustahkamlik, MPa	Mustahkamlikning yo'qotilishi, %, keyin	
α - $\text{CaSO}_4 \cdot 0,5\text{H}_2\text{O}$	Portland- sement	Belitli klinker			50 sikl	100 sikl
100	-	-	Gidrotermal ishlov	32,4	60,5	73,3
90	10	-	Gidrotermal ishlov	35,7	21,2	24,4
85	15	-	Gidrotermal	32,6	18,1	23,7

			ishlov			
90	-	10	Gidrotermal ishlov	31,8	16,4	19,8
90	-	10	Aralash	31,0	14,5	18,3

Xulosa

MDH davlatlaridagi ko'pgina ilmiy tadqiqot muassasalari fosfogips chiqindilaridan foydalanish masalasi ustida tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Armaniston Respublikasi FA Umumiy anorganik kimyo institutining VNIStrom (Rossiya) bilan hamkorlikda ishlab chiqqan fosfogipsdan texnikaviy gips ishlab chiqarish usuli bosim ostida fosfogipsni digidratatsiyalashga asoslangan.

Fosfogipsni modifikatsiyalash texnologiyasi va undan sement ishlab chiqarishda foydalanish bo'yicha taklifga respublika idorasidan patenti olingan. Taklif etilgan usul yiriklashtirilgan laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazilgan.

Rossiyada fosfogips solonli tuproqlar uchun o'g'it sifatida ishlatiladi. Qurilish materiallaridagi radionuklidlarning maksimal miqdori GOST 30108-94 tomonidan tartibga solinadi.

AQSh Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) 10 pikokuri/g (0,4 Bq/g) dan yuqori konsentratsiyalarda Radiy-226 ni o'z ichiga olgan fosfogipsdan ko'p foydalanishni taqiqladi. Ushbu taqiq natijasida ushbu chegaradan oshib ketgan fosfogips katta axlatxonalarda saqlanadi. So'nggi yillarda respublikada fosforit xomashyosining mahalliy bazasini shakllantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi. Bu o'z navbatida uni import qilishdan voz kechish imkonini berdi. Jeroy-Sardara koni fosforit xomashyosidan fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishning muqobil texnologiyasi yaratildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Розенталь, Н. К. Коррозия бетона при взаимодействии щелочей с диоксидом кремния заполнителя / А. Н. Розенталь, Г. В. Любарская // Ладья: Бетон и железобетон, №1(6), 2012, с. 50-60.
2. Брыков, А. С. Щелочно-силикатные реакции и коррозия бетона // Журнал Цемент и его применение, изд-во Журнал "Цемент", 2009 г. №5, с. 31-37.
3. Брыков, А. С. Щелоче-силикатные реакции и коррозия бетона [Текст]: учебное пособие / А.С. Брыков. – СПб.:СПбГТИ(ТУ), 2009. – 27 с.;
4. Бабушкин, В. И. Физико-химические процессы коррозии бетона и железобетона / под ред. В. Б. Ратинова М.: Стройиздат, 1968.-237с.
5. Zatler, B. Alkali-aggregate reaction in lightweight concrete, in: G.M. Idorn, S. Rostam (Eds.) / B. Zatler, E. Mali // 6th International Conference—Alkalis in Concrete Research and Practice Proceedings, Danish Concrete Association, Copenhagen, 1983, pp. 495– 502.
6. Lindgård, J. Alkali aggregate reactions in LWAC—introductory laboratory testing / J. Lindgård, H. Justnes, M. Haugen, P. A. Dahl // SINTEF report SBF52 F06004, Trondheim, Norway, 2006.
7. RILEM TC 2-AAR, 'Alkali aggregate reaction' A. TC 2-2—Detection of potential alkali-reactivity of aggregates—the ultra-accelerated mortar-bar test B. TC 2-3—Detection of potential alkali-reactivity of aggregates—method for aggregate combinations using concrete prisms, Mater. Struct. 33 (2000) 283–293.

8. Wu, H. C. Nonlinear acoustic non-destructive testing for concrete durability / H. C. Wu, K. Warnemuende // Non-destruct Eval Highways 2000;39:501–7.
9. Corinaldesi, V. Reuse of ground waste glass as aggregate for mortars / V. Corinaldesi, G. Gnappi, G. Moriconi, A. Montenero // Waste Manag 2005;25(2):197– 201.
10. Dolar-Mantuani, L. Handbook of Concrete Aggregates, Noyes Publications, New Jersey, 1983, pp. 80– 113

GEOSINTETIK MATERIALLARNING YO‘L QURILISHIDA QO‘LLANILISHI

Odinayev Rustam Qurbonaliyevich

Termiz davlat muhandislik va agroyexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Amanova Nozima SHavkatovna

Termiz davlat muhandislik va agroyexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Aliqulova Madina Ural qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotasiya Ushbu maqolada geosintetik materiallar va ularning turlari haqida ma’lumotlar berildi. Geosintetik materiallarning sohada va yo qurilishida qo‘llanilishi o‘rganildi. Chet elda qo‘llaniladigan geosintetik materiallardan foydalanib yo‘llarni qurish texnologiyasini tahlil qilish maqsad qilib olindi.

Kalit so‘zlar Geosintetik , muhandislik, material, geotekstil, Geoner

Kirish Geosintetik materiallar - bu qurilish muhandisliklarida ishlatiladigan sintetik materiallar uchun umumiy atama. Qurilish qurilish materialining bir turi sifatida u xom ashyo sifatida sun'iy sintez qilingan polimerlardan (plastmassa, sintetik tolalar, sintetik kauchuk va boshqalar) tayyorlanadi va har xil turdagi mahsulotlar ichkariga, yuzasiga yoki har xil turlari orasiga joylashtiriladi. tuproqni mustahkamlash yoki himoya qilish uchun tuproq. Geosintetik materiallarni qo'llash bo'yicha Texnik spetsifikatsiya geosintetik materiallarni geotekstillarga, geomembranlarga, geosintetik maxsus materiallarga va geosintetik kompozit materiallarga, shuningdek, geotekstillar, shisha tolali to'r va geosintetik yostiqlar kabi turlarga ajratadi. Geosintetik materiallar - bu geotexnika va qurilish qurilishida ishlatiladigan sintetik materiallardan tayyorlangan turli xil mahsulotlar uchun umumiy atama. Ular asosan geotexnika injeneriyasida qo‘llanilganligi sababli ularni tabiiy materiallardan farqlash uchun “geosintetik” deb nomlanadi. Geosintetik materiallar bir vaqtlar "geotekstillar" va "geomembranalar" deb atalgan. Muhandislik ehtiyojlari bilan geogridlar, geotekstillar va geotekstil qoplar, geotekstil paspaslar, geotekstillar, kompozit geotekstillar, bentonitli suv o'tkazmaydigan adyol, kompozit drenaj tarmoqlari va boshqalar kabi bunday materiallarning yangi navlari paydo bo'lishda davom etmoqda. Geosintetik materiallar — bu yo‘l qurilishida foydalaniladigan, sintetik materiallar bo‘lib, ularning asosiy maqsadi yo‘llarning barqarorligini oshirish, tuproqni mustahkamlash, eroziya va yuvinishning oldini olishdir. Geosintetik materiallar o‘zining turli xususiyatlari va turlariga ko‘ra, yo‘l qurilishida keng qo‘llanadi. Ular asosan to‘rt asosiy turga bo‘linadi:

1. Geotekstil:

Geotekstil materiallari to‘qilgan yoki to‘qilmagan matolardan iborat bo‘lib, ular tuproqning yuvilishi va eroziyasini oldini olish uchun ishlatiladi. Yo‘l qurilishida geotekstil yo‘llarning qismlarini ajratish, suv o‘tkazish va mustahkamlashda qo‘llaniladi.

2. Geogrid:

Geogridlar — bu polimerni yoki to'qilgan materiallardan tayyorlangan to'r shaklidagi materiallardir. Ular asosan yerning bosimini teng taqsimlash va tuproqning bosimga qarshiligini oshirish uchun ishlatiladi. Yo'l qurilishida geogridlar poydevor va ustki qatlamlar orasida mustahkamlash uchun ishlatiladi.

3. Geomembran:

Geomembranlar — suyuqlik yoki gazlarni o'tkazmaydigan plastmassa materiallar bo'lib, ular asosan gidroizolyatsiya sifatida ishlatiladi. Yo'llarda geomembranlar suvning to'planishi va yo'l asosining zaiflashishining oldini olishda yordam beradi.

4. Geocell:

Geocell — bu o'ta mustahkam va elastik materiallardan tayyorlangan uch o'lchovli tuzilma bo'lib, u ko'pincha tuproqning deformatsiyasini oldini olish va yo'l ustki qatlamini barqarorlashtirish uchun ishlatiladi. Geocell materiallari tuproqning joylashishiga qarshi barqarorlikni oshiradi.

Yo'l qurilishida geosintetik materiallarning afzalliklari:

1. Mustahkamlash va barqarorlikni oshirish:

Geosintetik materiallar yo'lining mustahkamligini oshirib, uning uzoq muddatli foydalanishiga imkon beradi. Ular tuproqni konsolidatsiya qilish, qirqish va teshilishlarga qarshi kurashishda yordam beradi.

2. Eroziya va yuvilishning oldini olish:

Geosintetik materiallar, ayniqsa geotekstil, eroziyani kamaytirish va yuvilishning oldini olish uchun samarali vositadir.

3. Suvni to'g'ri yo'naltirish:

Geosintetik materiallar suvning tuproqqa kirishini tartibga solish va uning jo'nashini nazorat qilishda yordam beradi, bu esa yo'lining qulab tushishini oldini olishga yordam beradi.

4. Tez va arzon qurilish:

Geosintetik materiallar yordamida qurilish jarayonini tezlashtirish mumkin, chunki ular orasida yuqori samaradorlik va minimal parvarishlash talab etiladi.

Qo'llanilishi:

Yo'l qurilishi (avtomobil yo'llari, temiryo'l yo'llari) Dam olish hududlari va aviatsiya maydonlarini qurish.

Suv resurslarini boshqarish, suv omborlari va kanallar qurilishi Yirik infratuzilma loyihalarida tuproq mustahkamlash.

Geosintetik materiallar, shuningdek, ekologik jihatdan ham foydalidir, chunki ular resurslarni tejashga yordam beradi va texnologik jarayonlarda ekologik xavfsizlikni oshiradi. (1-rasm)



1-rasm.

Asl nomlar endi aniq qoplamaydi. barcha mahsulotlar. Shuning uchun keyingi davrda ular "geotekstillar, geotekstillar va tegishli mahsulotlar" deb nomlanadi. Shubhasiz, bunday nom texnik yoki akademik atama sifatida mos kelmaydi. Shuning uchun 1994 yilda Singapurda o'tkazilgan Geosintetik materiallar bo'yicha 5-Xalqaro konferentsiyada ushbu turdagi materiallarning nomi rasman "Geosintetik materiallar" deb belgilandi. Geosintetik materiallarning xom ashyosi polimer hisoblanadi. Ular ko'mir, neft, tabiiy gaz yoki ohaktoshdan olingan kimyoviy moddalardan ishlab chiqariladi, keyinchalik tolalar yoki sintetik materiallar qatlamlariga qayta ishlanadi va nihoyat turli xil mahsulotlarga aylanadi. Geosintetik materiallarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan polimerlarga asosan polietilen (PE), poliester (PET), poliamid (PER), polipropilen (PP) va polivinilxlorid (PVX), xlorli polietilen (CPE), polistirol (EPS) va boshqalar kiradi.

Geotekstilning yana bir nomi geotekstildir. Dastlabki mahsulotlar kam edi, ya'ni geotexnik ishlarda ishlatiladigan matoga o'xshash material edi.

Geotekstillarni ishlab chiqarish jarayoni birinchi navbatda polimer xomashyosini ipak, kalta tolalar, iplar yoki chiziqlarga qayta ishlashni, so'ngra tekis strukturali geotekstillarni tayyorlashni o'z ichiga oladi. Geotekstillarni ishlab chiqarish usullariga ko'ra to'quv geotekstillari va to'qilmagan geotekstillarga bo'lish mumkin.



2-rasm

To'qilmagan geotekstillar tolalarni yo'naltirish yoki tasodifiy tartibga solish va keyin ularni qayta ishlash orqali amalga oshiriladi. Elyaflarni ulashning turli usullariga ko'ra, uch turdagi ulanish usullari mavjud: kimyoviy (yopishqoq) aloqa, termal aloqa va mexanik aloqa. Geotekstillarning ajoyib afzalliklari engil vazn, yaxshi umumiy uzluksizlik (bir butun sifatida katta maydonlarni yaratish mumkin), qulay qurilish, yuqori kuchlanish kuchi, yaxshi korroziyaga chidamlilik va mikrobial eroziyaga chidamlilikdir. Kamchilik shundaki, maxsus davolashsiz ultrabinafsha nurlarga qarshi qobiliyati past. Agar tashqi ta'sirga duchor bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri ultrabinafsha nurlanishi ostida qarish oson, lekin to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmasa, qarishga qarshi va chidamlilik hali ham yuqori.

Geomembranlarni odatda ikkita toifaga bo'lish mumkin: asfalt va polimerlar (sintetik polimerlar). Asfaltni o'z ichiga olgan geomembranlar asosan (shujumladto'quv yoki to'qilmagan geotekstillar) bo'lib, asfalt namlovchi biriktiruvchi sifatida ishlatiladi. Polimer geomembranalar turli xil asosiy materiallarga asoslangan plastik geomembranlarga, elastik geomembranlarga va kompozit geomembranlarga bo'linadi. Ko'pgina muhandislik amaliyotlari shuni ko'rsatdiki, geomembranlar yaxshi o'tkazuvchanlik, kuchli elastiklik va deformatsiyaga moslashish qobiliyatiga ega, turli qurilish sharoitlari va ish kuchlanishlari uchun mos bo'lishi mumkin va yaxshi qarish qarshiligiga ega. Geomembranlarning suv osti va tuproq muhitida chidamliligi ayniqsa sezilarli. Geomembranlar ajoyib piyodalarga chidamli va suv o'tkazmaydigan xususiyatlarga ega. Zichlik: Zichlik uni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan materialga bog'liq va geomembranlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan polimerlar bir xil toifaga tegishli bo'lsa ham, ko'pincha sezilarli farqlar mavjud. Misol uchun, polietilen materiallari ultra past zichlik, past zichlik, o'rta zichlik va yuqori zichlik kabi turli toifalarga bo'linishi mumkin, bu esa pe geomembranlarining zichligidagi farqlarga olib keladi. Geomembran polimerlarining zichlik diapazoni taxminan 0,85mg/L dan 1,50mg/L gacha, muhandislikda keng qo'llaniladigan zichlik esa odatda 0,94mg/L dan yuqori. Qalinligi: Qalinligi 20kPa normal bosim ostida membrananing yuqori va pastki qismi orasidagi masofani bildiradi. Silliqliq geomembranalar uchun (yuzada bo'rttirma yoki naqshsiz) qalinlikni o'lchash usuli geotekstillarga o'xshaydi, lekin o'lchash uchun aniqroq mikrometrdan foydalanish kerak. Har bir namunani kamida uch xil pozitsiyada o'lchash kerak va o'rtacha qiymat pe kompozit geomembran qalinligi sifatida olinishi kerak. Geogrid asosiy geosintetik material bo'lib, u boshqa geosintetik materiallarga nisbatan noyob ishlash va samaradorlikka ega. Geogridlar odatda mustahkamlangan tuproq konstruktsiyalari yoki kompozit materiallar uchun mustahkamlovchi materiallar sifatida ishlatiladi.

Geogridlar ikki turga bo'linadi: shisha tolali va polyester tolali.

Ushbu turdagi geogrid cho'zish natijasida hosil bo'lgan kvadrat yoki to'rtburchaklar shaklga ega bo'lgan polimer to'r materiali bo'lib, uni ishlab chiqarish jarayonida turli cho'zish yo'nalishlariga qarab ikki turga bo'lish mumkin: bir tomonlama cho'zish va ikki o'qli cho'zish. U ekstrude qilingan polimer plitalarga (asosan polipropilen yoki yuqori zichlikdagi polietilendan) teshiladi, so'ngra isitish sharoitida yo'nalishli cho'ziladi.

Bir tomonlama cho'zish to'rlari faqat varaqning uzunlik yo'nalishi bo'ylab cho'zish yo'li bilan amalga oshiriladi, ikki o'qli cho'zish to'rlari esa bir tomonlama cho'zish to'rlarini uning uzunligiga perpendikulyar yo'nalishda cho'zishni davom ettirish orqali amalga oshiriladi. Geogridlarni ishlab chiqarishda qizdirish va cho'zish jarayonida polimer polimerlarning qayta joylashishi va yo'nalishi tufayli molekulyar zanjirlar orasidagi bog'lanish kuchi mustahkamlanadi, ularning mustahkamligini oshirish maqsadiga erishiladi. Uning cho'zilishi asl taxtaning atigi 10% dan 15% gacha. Agar uglerod qora kabi qarishga qarshi

materiallar geogridga qo'shilsa, u kislota qarshiligi, gidroksidi qarshilik, korroziyaga chidamlilik va qarish qarshilik kabi yaxshi chidamlilikka ega bo'ladi.

Ushbu turdagi geogrid yuqori quvvatli shisha toladan tayyorlangan bo'lib, ba'zida geogrid va asfalt qoplamasini mahkam birlashtirish uchun o'z-o'zidan yopishtiruvchi bosim sezuvchi yopishtiruvchi va sirt asfalt emdirish bilan ishlov berish bilan birlashtiriladi. Geogrid tarmog'i ichida tuproq va tosh materiallar o'rtasida o'zaro bog'lanish kuchayishi tufayli ular orasidagi ishqalanish koeffitsienti sezilarli darajada oshadi (0.8-1.0 gacha). Tuproqqa o'rnatilgan geogridning tortib olinadigan qarshiligi geogrid va tuproq o'rtasidagi kuchli ishqalanish va tishlash kuchi tufayli sezilarli darajada oshib, uni yaxshi mustahkamlovchi materialga aylantiradi.

Shu bilan birga, geogrid engil, moslashuvchan tekis to'r materialidir, uni kesish va saytda ulash oson, shuningdek, bir-birining ustiga chiqishi va bir-birining ustiga chiqishi mumkin. Qurilish oson va maxsus qurilish texnikasi yoki professional texnik xodimlarni talab qilmaydi. Geomembran sumkasi ikki qatlamli polimerlashtirilgan sintetik tolali matodan tayyorlangan doimiy (yoki individual) sumkaga o'xshash materialdir. U beton yoki ohakni sumkaga quyish uchun yuqori bosimli nasosdan foydalanadi, plastinka o'xshash yoki boshqa shaklli tuzilmani hosil qiladi. Odatda nishab himoyasi yoki boshqa poydevorni tozalash loyihalarida qo'llaniladi. Membran sumkalar materiallari va ishlov berish texnikasiga ko'ra ikki toifaga bo'linadi: mexanik va oddiy membrana sumkalari. Mexaniklashtirilgan membran qoplarini filtrlash drenaj nuqtalarining mavjudligi yoki yo'qligi va inflyatsiyadan keyin shakliga qarab uch turga bo'lish mumkin: filtrlash drenaj punkti membrana qoplari, filtrlash bo'lmagan drenaj punkti membrana sumkalari, drenaj punkti bo'lmagan beton membrana sumkalari va menteşe blokli membranalar.

Geonet - bu katta gözenekleri va tekis yoki uch o'lchovli tuzilishdagi yuqori qattiqlikli bo'lgan, sintetik materiallar chiziqlaridan, qo'pol iplardan to'qilgan yoki sintetik qatronlar bilan presslangan geosintetik materiallar tarmog'idir. Yumshoq poydevorni mustahkamlash yostiqsimon qatlami, qiyaliklarni himoya qilish, o'larni ekish va kompozit geotexnik materiallarni ishlab chiqarish uchun substrat sifatida ishlatiladi.

Geotekstillar, geomembranalar, geogridlar va ba'zi maxsus geosintetik materiallar ikki yoki undan ortiq materiallarni birlashtirib, geosintetik materiallarni hosil qiladi. Geokompozit materiallar muayyan muhandislik ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun turli materiallarning xususiyatlarini birlashtirishi va turli funktsional rollarni o'ynashi mumkin. Kompozit geotekstil - bu ma'lum talablarga muvofiq ishlab chiqarilgan geotekstil va geotekstilning kombinatsiyasi.

Ular orasida geotekstil asosan sızdırmazlık uchun ishlatiladi va geotekstil mustahkamlash, drenajlash va geotekstil va tuproq yuzasi o'rtasidagi ishqalanishni oshirishda rol o'ynaydi. Yana bir misol - geotekstil kompozit drenaj materiallari, ular to'qilmagan geotekstillar, geotekstil tarmoqlari, geotekstil membranalar yoki turli shakldagi geosintetik yadro materiallaridan tashkil topgan drenaj materiallaridir. Ular yumshoq poydevor drenajini mustahkamlash, yo'l tubining uzunlamasına va ko'ndalang drenaji, binolardagi er osti drenaj quvurlari, yig'ish quduqlari, qo'llab-quvvatlovchi binolarning devor drenajlari, tunnel drenajlari, qirg'oq drenaj inshootlari va boshqalar uchun ishlatiladi. Plastik drenaj plitasi odatda yo'l qurilishida ishlatiladi. geosintetik kompozit drenaj materialining bir turi. Chet elda yo'llar uchun keng qo'llaniladigan geosintetik kompozit materiallar shisha tolali poliestere yorilishga qarshi mato va yorilishga qarshi trikotaj kompozitsion mustahkamlangan matodir. Bu yo'llarning xizmat qilish muddatini uzaytirishi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan, Xitoy uchun geosintetik kompozit materiallarni

faol ravishda qabul qilish va targ'ib qilish zarur. Geosintetik materiallar turli xil mahsulotlar uchun turli xil xususiyatlarga ega va ko'plab muhandislik sohalarda qo'llanilishi mumkin. Qo'llaniladigan sohalarga geotexnika muhandisligi, qurilish muhandisligi, suvni muhofaza qilish muhandisligi, atrof-muhit muhandisligi, transport muhandisligi, kommunal muhandislik va melioratsiya muhandisligi kiradi.

Himoya nuqtai nazaridan:

Tuproq eroziyasi gidravlika va shamol kuchlari ta'sirida yuzaga keladigan tabiiy jarayon bo'lib, tuproq, o'simlik qoplami va relyefi kabi ko'plab ta'sir etuvchi omillardir. Muayyan sharoitlarda inson faoliyati ham bu jarayonni tezlashtirishi mumkin. Agar bu eroziya ta'siri to'g'ri davolanmasa, u mavjud binolar va atrof-muhitga jiddiy zarar etkazishi mumkin. Tuproq eroziyasini nazorat qilish nuqtai nazaridan, geosintetika qiyaliklarni himoya qilish, suv o'tkazuvchi kanallarni himoya qilish, qirg'oq chizig'ini himoya qilish, balchiqlarni melioratsiya qilish, o'simliklarni tiklash, toshlarni himoya qilish tarmog'i va suv toshqini to'g'onlarini qurishda qo'llanilishi mumkin. Loyihaning xususiyatlariga va sayt sharoitlariga ko'ra, eroziyaga qarshi muhandislik bir yoki bir nechta geosintetik materiallarni o'z ichiga olishi mumkin. Nishabni himoya qilish muhandisligida himoya tizimining barqarorligini ta'minlash uchun ba'zi geosintetik materiallardan foydalanishdan tashqari, tuproq mixlari va hatto tosh ankraj tayoqlari kerak. Ba'zi hollarda, og'ir ohak bilan to'ldirilgan geotekstil qoplar ham himoya sirtini mahkamlash uchun ishlatiladi va o'simliklarni etishtirish va tuproq eroziyasini oldini olish uchun o't urug'lari himoya strukturasining bo'shliqlariga kiritiladi.

Xulosa

Geosintetik materiallar yo'l qurilishida drenaj tizimlarini yaxshilashda ham yordam beradi. Suvning yo'l qatlamlarida to'planishi uning qulashiga yoki yuvilishiga olib kelishi mumkin. Geosintetik materiallar, masalan, geomembranlar va geotekstil drenaj tizimlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Geosintetik materiallar yuklarni teng taqsimlash va yo'lning yuqori qatlamini mustahkamlashda yordam beradi. Geocell materiallari, masalan, yo'lning ustki qatlamini birlashtirish va mustahkamlash uchun ishlatiladi, bu esa yo'lning deformatsiyasini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berg, R. R., & Smolczyk, E. L. (2000). "Geosynthetics in Civil Engineering" (Proceedings of the International Conference).
2. Jiang, X., & Liu, W. (2015). "Geosynthetics in Road Construction: Application and Design."
3. Shah, H., & Kankara, S. (2010). "Geosynthetics: Applications in Civil Engineering and Construction."

KONLARDAGI QATLAM SUVLARNI TOZALASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Bokiyeva Shahnoza Komolovna
Buxoro muhandislik va texnologiya universiteti, t.f.f.d.(PhD)
Umarova Nazira G'ofurovna
Buxoro muhandislik va texnologiya universiteti, assistant

Annatosiya: Maqolada sanoat miqyosida ishlatiladigan faollashtirilgan uglerodli adsorbentlar foydalaning, karbonizatsiya va oksidlovchi gazlar yordamida faollashtirish jarayoni natijasida g'ovakli

tuzilma, faollashgan uglerodning tuzilishi va xossalari biokimyoviy tarkibi piroliz jarayonining dinamikasini, unumdorligini, ishqalanishini va kul miqdorini belgilaydigan prekursorning tabiatiga bog'liq.


Tayanch soʻzlar: Oʻsimlik xomashyosi, faollantirilgan uglerodlar, oksidlovchi gazlar, sellyuloza biopolimerlari, sintezi, noorganik birikmalar, biomassa, piroliz, biokimyoviy xossalari, zaharli gazlar, fotodegradatsiya.

Butun dunyoda bugungi kunda koʻpchilik neft konlari ishlatishning yakuniy bosqichida ekanligi ularda bosimni saqlab turish usullaridan keng foydalanishni talab etadi. Neft konlarida mahsuldor qatlamning bosimini saqlash maqsadida anʼanaviy usullardan tashqari neft beraoluvchanlikni oshirishning ikkilamchi va uchlamchi usullaridan foydalanilmoqda. Bu esa oʻz navbatida qatlamga haydaladigan suvga boʻlgan talab va uning sifat koʻrsatkichlarini ortishiga olib keladi. Shuning uchun mahsuldor qatlamdan neft bilan birgalikda qazib olinayotgan qatlam suvini neft, mexanik aralashma va h.k.lardan tozalash nafaqat iqtisodiy tomondan balki atrof muhit muhofazasini himoya qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida neft va gaz konlari qatlam suvlarni talab darajasida tozalash murakkab jarayon boʻlib har bir holatda tozalashning energiyatejamkor va yuqori samarador texnologiyasini ishlab chiqishda quyidagi ilmiy yoʻnalishlar boʻyicha yechimlarni asoslash: neft va gaz konlari qatlam suvlarini uglevodorod qoldiqlaridan tozalash texnologiyasini takomillashtirish; yangi turdagi adsorbentlar olish yoki ularni modifikatsiyalash; neft va gaz konlari qatlam suvlari yoki sanoat oqava suvlarini uglevodorod qoldiqlari va mexanik aralashmalardan tozalashda modul qurilmalardan foydalanish; turli xil adsorbentlarni qoʻllagan holda neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvlarini qoldiq uglevodorodlardan tozalashning maqbul sharoitlarini ishlab chiqish zarur.

Shuni taʼkidlash lozimki, mahalliy xomashyolar asosida yangi turdagi uglerodli adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va neft va gaz konlari mahsuldor qatlam suvi tarkibidagi mexanik zarrachalar hamda uglevodorod qoldiqlaridan tozalashning kombinatsion modul qurilmasini ishlab chiqish boʻyicha ilmiy-tadqiqot ishlari bugungi kungacha amalga oshirilmagan. Neft qazib chiqarishda mahsuldor qatlam suvlarini tayyorlashda import mahsulotlarini qoʻllash jarayonning qimmatlashuviga sabab boʻlmoqda. Ushbu ishida mahalliy xomashyolar asosida adsorbentlar olish va bir vaqtning oʻzida qatlam suvlarini neft qoldiqlari hamda mexanik zarrachalardan tozalashning modul qurilmasidan foydalanish orqali neft konlari qatlam suvlarini mahsuldor qatlamga haydash uchun moʻljallangan talab darajasigacha tozalash texnologiyasini yaratish muammolarini hal etish ushbu sohada texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlarni oshirish imkonini beradi.

1-rasm. Termik ishlov berish jarayonida massaning kamayishi



Dastlab adsorbsiyalangan suv molekullarining namuna tarkibidan chiqishi 100-110°C haroratda sodir boʻldi va ushbu haroratda massa faqat $\approx 2-3\%$ qiymatga kamaydi. Namunalar massasining sezilarli pasayishi $T > 150^\circ\text{C}$ haroratda kuzatildi.

**1-rasm. Termik ishlov berish jarayonida
massaning kamayishi (%)**

Jadval-1

Ko'mir adsorbentlarning elementar tarkibi

	Namunalar	C	O	K	Ca	S
	FTK-500	82,1	8,9	4,1	3,7	1,2
	FTK-700	91,9	-	3,7	3,5	0,9
	FTK-900	93,1	-	3,2	3,1	0,6
	FTK-S	94,2	-	2,7	2,8	0,3

Neft konlari mahsuldor qatlam suvlarini tozalash va uztilizatsiya qilishning zamonaviy usullari uglerodli adsorbentlarning asosiy jihatlari bo'lib, uglerod saqllovchi xomashyoning strukturalari va xususiyatlariga issiqlik bilan faollashtirishning ta'siri, g'ovakli tuzilishni yaxshilash maqsadida uglerod saqllovchi xomashyoni kimyoviy faollashtirish usullari, organik ifloslantiruvchilardan tozalash uchun daraxt poyasi asosida faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishning zamonaviy sanoat usullari va texnologiyalari tahlil qilingan. Mazkur ishimda faollashtirish usullari hamda faollashtirilgan ko'mir ishlab chiqarishda mahalliy daraxt poyasi hamda turli xil xomashyolarning salohiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özsin G., Kılıç M., Apaydın-Varol E., Pütün A.E. Chemically activated carbon production from agricultural waste of chickpea and its application for heavy metal adsorption: Equilibrium, kinetic, and thermodynamic studies. *Appl. Water Sci.* 2019;9:56. doi:10.1007/s13201-019-0942-8.
2. Ghorbani F., Kamari S., Zamani S., Akbari S., Salehi M. Optimization and modeling of aqueous Cr(VI) adsorption onto activated carbon prepared from sugar beet bagasse agricultural waste by application of response surface methodology. *Surf. Interfaces.* 2020;18:100444. doi:10.1016/j.surf.2020.100444
3. Bokiyeva Sh.K., Sharipov Q.Q., Ochilov A.A., Sattorov M.O. Mahalliy neft konlari oqova suvlarini tozalash usullari. Monografiya. Buxoro. Durdona nashriyoti. 2021. 100 b.
4. Бокиева, Ш. К., & Адизов, Б. З. (2023). РАЗРАБОТКА СОРБЕНТОВ ДЛЯ ПРИМЕНЕНИЯ В КАЧЕСТВЕ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД НЕФТЯНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. *Universum: технические науки*, (11-5 (116)), 17-19.
5. Бокиева, Ш. К., & Адизов, Б. З. (2024). АНАЛИЗ СОДЕРЖАНИЯ АЗОТА В СТОЧНЫХ ВОДАХ НЕФТЯНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. *Universum: технические науки*, 6(2 (119)), 18-20.
6. Бокиева, Ш. К., Адизов, Б. З., Халбаев, Х. Н., & Обидов, Ш. Ш. (2024). АДОРБЕНТЫ, АКТИВИРУЕМЫЕ НА ОСНОВЕ РАСТИТЕЛЬНЫХ ОТХОДОВ, ПОЛУЧЕННЫХ В ЛАБОРАТОРНОМ ОБОРУДОВАНИИ. *Universum: технические науки*, 3(9 (126)), 32-35.

ГАЗ ФАЗАСИДАН РЕНИЙНИ УШЛАБ ҚОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

*Хакимов Камол Жураевич
техника фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети*


Аннотатсия: Ушбу мақолада чангдан тозаланган газлар иссиқ циклондан (400°C) сўнг кириш қувурига узатилади, юмалоқ шаклдаги газ йўлидан ўтиб, диаметри 6 мм бўлган қатор тешиқлар жойлашган тақсимлаш панжараси остига келиши кўрсатиб ўтилган. Газ панжарадан ташқарига чиқиб кетмаслиги учун унга вертикал тўсиқ токчаси ўрнатилган; суюқлик массаси эса қайтарувчи соябон ёрдамида орқага қайтиш жараёнлари кўрсатиб ўтилган. Тадқиқот натижалари рений қазиб олиш ва қайта ишлаш саноати учун муҳим аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: рений, концентрат, куйдириш, газ фазаси, конденсация, оксидлар, Чиқинди, сувли ишқорли, барботёр, ишқорий эритмалар.

Молибден сульфидли концентратларни куйдиришда, куйдириш шароитига қараб, чиқинди газларга 50 % дан 96 % гача рений буғланади. Ҳозирги кунда газ фазасидан турли чанг тутғич қурилмалар ёрдамида 80 % гача рений ушлаб қолинмоқда. Тегишли шароитларда рений оксидлари газ суспензияси кўринишида конденсацияланиб, 10-4 - 10-5 см ўлчамдаги заррачалар ҳосил қилади, яъни туман ва тутун шаклида пайдо бўлади. Бундай майда заррачалардан газни чанг камералари ёки циклонлар ёрдамида тозалаш самарали эмас. Чанг зарраларини электр усулида чўктириш ёки газни эритмалар орқали барботаж қилишга асосланган усуллар энг яхши натижаларни беради.

Чиқинди куйдириш газларида Re_2O_7 ва ReO_3 буғларининг концентрацияси жуда паст. Шу сабабли, рений оксидларининг куюнди газларидан амалда конденсацияланиш ҳарорати уларнинг қайнаш ҳароратидан анча паст бўлиб, 100°C дан ҳам пастроқда жойлашган. Бу ҳолат рений буғланмаларини қуруқ электрофилтрлар ёки қопли филтрлар ёрдамида тутиб олишни қийинлаштиради, чунки 100°C дан паст ҳароратда газлар таркибидаги сульфат кислота буғлари ҳам конденсацияланади. Чиқинди газларни турли хил нам ютувчилар (сувли, ишқорли ёки кислотали) орқали барботация қилиш натижасида ренийни газ фазасидан деярли тўлиқ ажратиш олиш мумкин. Бу жараёнда ренийнинг бир қисми эритмага ўтади, бошқа қисми эса шлам билан бирга чўкмага тушади. Ренийни тутиб қолиш учун мўлжалланган барботёр схемаси 1-расмда кўрсатилган.

Чангдан тозаланган газлар иссиқ циклондан (400°C) сўнг кириш қувурига узатилади, юмалоқ шаклдаги газ йўлидан ўтиб, диаметри 6 мм бўлган қатор тешиқлар жойлашган тақсимлаш панжараси остига келади. Газ панжарадан ташқарига чиқиб кетмаслиги учун унга вертикал тўсиқ токчаси ўрнатилган; суюқлик массаси эса қайтарувчи соябон ёрдамида орқага қайтади.



1-расм. Ренийни тутиб қолувчи барботёр схемаси:

- 1 - тақсимлаш панжараси; 2 - қайтарувчи токча; 3 - қайтарувчи соябон; 4 - жалюзили томчи тутгич; 5 - барботёр корпуси;
6 - тозалаш люки; 7 - шламни чиқариш тешиги

Барботажд вақтида ҳосил бўладиган томчиларни тутиб қолиш учун томчи тутгич ўрнатилган. Томчилардан ажратилган тозаланган газ вентилятор ёрдамида атмосферага чиқариб юборилади. Ушлаб қолинган чангдан ҳосил бўлган шлам эса бак-бункернинг пастки қисмида жойлашган қувур орқали чиқариб ташланади. Барботёрга кириш қисмида газнинг ҳарорати 110-140°C, чиқиш қисмида 35-46°C, барботёрдаги эритманинг ҳарорати эса 30-45°C ни ташкил этди. Юқорида баён этилган барботёрда 96% рений тутиб қолинади. Барботёр эритмасидаги рений миқдори узлуксиз равишда кўпайиб боради, бу билан бир вақтда эритманинг кислоталилиги ҳам ортади. Кислоталилик даражасининг сезиларли ошиши ренийни тутиб қолиш самарадорлигини пасайтириши сабабли, кислоталилик 30-60 г/л га етганда (рений концентрацияси 0,3 г/л га етганда) бўтқани барботёрдан чиқариб юбориш мақсадга мувофиқ. Ютгич сифатида ишқорий эритмалардан фойдаланиш ренийни тутиб қолиш самарадорлигини оширади.

Мис эритиш заводларининг қайтарувчи печлари газларидан ренийни ушлаб қолиш техник жиҳатдан жуда мураккаб вазифа, чунки юқори ҳарорат ва катта ҳажмдаги газлар мавжуд. Печь ва конвертор газлари олтингугурт кислотаси ишлаб чиқаришга йўналтирилганда, рений олтингугурт кислотаси ишлаб чиқариш электр филтрларининг юувчи кислотасида тўпланади. Бу жараёнда мис концентратларидаги ренийнинг 45 % дан 80 % гача бўлган қисми ушбу кислотага ўтади. Бу газларнинг қанча қисми олтингугурт кислотаси ишлаб чиқаришга йўналтирилишига боғлиқ.

1-жадвалда мисол сифатида кам миқдорли молибден концентратлари, газ йўлида чўкадиган чанглар ва электрофилтр чангларининг таркиби келтирилган.

Таблица 1

Кам миқдорли молибден концентратлари ва чанг заррачаларининг таркиби

Компонент	Бойитма	Газ йўлида чўкадиган чанглар	Электрофилтр чанглари
Молибден, %	18-22	7-10	3,5 – 7,5

Рений, г/т	300 - 600	1000 - 2000	2000 – 4000
Мис, %	2-5	0,5-2,0	0,5-2,0
Олтингугурт, %	19-23	8-13	11-15
Кремнезём, %	21-24	7-8	3-4

Олтингугурт кислотаси ишлаб чиқариш жараёнининг ювувчи кислотаси тахминан қуйидаги таркибга эга: 500 г/л H_2SO_4 , 0,1 - 0,5 г/л Re; аралашмалар сифатида Zn, Cu, Fe, As ва бошқа моддалар мавжуд. Шундай қилиб, мис концентратларини қайта ишлаш жараёнида ренийни йўл-йўлакай ажратиб олишнинг асосий манбаи электрофилтрларнинг ювувчи кислотаси ҳисобланади.

Мис-никель рудаларини қайта ишлаш жараёнида, улар таркибидаги ренийнинг асосий қисми газ ҳолатига ўтади ва ҳўл газ тозалаш тизимларининг ювувчи кислотаси томонидан ушлаб қолинади. Ювувчи кислотадаги рений концентрацияси 2-15 мг/л ни, сульфат кислотасиники 300-600 г/л ни ташкил этади, хлорид иони (Cl^-) концентрацияси эса 10 г/л гача етади. Шунингдек, металл аралашмалар ҳам мавжуд бўлиб, уларга мис, никель, рух ва темир киради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кокушева А.А., Дайрабаева Г.А., Усабекова А.Ш., Перфельев Н. А. Извлечение рения из сернокислотных шламов Джекказганского медеплавильного завода // Цветные металлы. – 1992. - № 5. – С.14 – 15.
2. Палант А.А., Трошкина И.Д., Чекмарёв А.М. Металлургия рения. – М.: Наука, 2007. 298 с.
3. Савицкий Е.М., Тылкина М.А., Поварова К.Б. Сплавы рения. – М.: Наука, 1965.
4. Санакулов К.С., Мухиддинов Б.Ф., Хасанов А.С. Химические Элементы свойства, получение, применение. Тошкент «Турон замин зиё» 2016 г. 493с.
5. Хакимов К.Ж., Ражабов Ш.Х. Методы извлечения, обработки и обогащения рения // Цифровые технологии в промышленности - Қарши, 2024 - №1 С. 54-59.
6. Хасанов, А. С., Ахмедов Ў. Ч., Хакимов К.Ж. Обжиг сульфидных ренийсодержащих концентратов // Композиционные материалы – Ташкент, 2025 №1, С 192-195
7. Хасанов, А. С., Ахмедов Ў. Ч., Хакимов К.Ж. Технологии получения, переработки и применения рения в высокотехнологичных отраслях промышленности // Цифровые технологии в промышленности - Қарши, 2025 - №3(1) С. 63-69.
8. Хасанов, А. С., Хакимов, К. Ж., Шодиев, А. Н., & Эшонкулов, У. Х. (2018). Уран и Золото. Мухофаза+ Ижтимиойсийосий, илмий-амалий ва бадий журнал, (01 (157)), 13.
9. Хасанов, А. С., Хакимов, К. Ж., Шодиев, А. Н., & Эшонкулов, У. Х. (2018). Уран и Золото. Мухофаза+ Ижтимиойсийосий, илмий-амалий ва бадий журнал, (01 (157)), 13.
10. Хакимов, К. Ж., Эшонкулов, У. Х., & Умирзоков, А. (2020). Complex Processing Of Lead-Containing Technogenic Waste From Mining And Metallurgical Industries In The Urals. *The american journal of engineering and technology (TAJET) SJIF-5.32 DOI-10.37547/tajet*, 2(9), 2689-0984.

IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA YER OSTI SUVLARINING MIQDORIY VA SIFAT KO'RSATKICHLARIDAGI O'ZGARISHLARI

Axmatov Sobir Farxod o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti assistenti

Bahromov Abdulazizjon Shuhrat o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilik miqdori va taqsimoti o'zgarishi kuzatilmoqda. Ba'zi hududlarda yog'ingarchilik kamayib, qurg'oqchilik kuchaymoqda, bu esa yer osti suvlarining tabiiy zaxiralari kamayishiga olib kelishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Akviferida, miqdoriy ko'rsatkich, arsenik, ekstremal, qurg'oqchil.

Kirish

Global iqlim o'zgarishlari butun dunyo bo'ylab suv resurslariga, ayniqsa, yer osti suvlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning oshishi, yog'ingarchilikning notekis taqsimlanishi va inson faoliyatining intensivlashuvi natijasida yer osti suvlarining miqdori va sifati o'zgarib bormoqda. Ushbu tezisda iqlim o'zgarishlarining yer osti suvlariga ta'siri, yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

1. Iqlim o'zgarishining yer osti suvlariga ta'siri

Iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilik miqdori va taqsimoti o'zgarishi kuzatilmoqda. Ba'zi hududlarda yog'ingarchilik kamayib, qurg'oqchilik kuchaymoqda, bu esa yer osti suvlarining tabiiy zaxiralari kamayishiga olib kelmoqda. Masalan, NASA tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2015-yildan beri Yer sayyorasi 290 kub milya (taxminan 1,200 kub kilometr) chuchuk suv yo'qotgan, bu esa global isish bilan bog'liq bo'lib, yog'ingarchilikning kamayishi va buxarishning oshishi natijasida yuzaga kelgan.

2. Miqdoriy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar

Yer osti suvlarining tiklanish tezligi sekinlashmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab 30% dan ortiq akviferlarda yer osti suvlari darajasi pasaymoqda, ayniqsa qurg'oqchil qishloq xo'jaligi hududlarida bu jarayon tezlashgan. Masalan, Eronning Rashtxar akviferida suv sathi har yili o'rtacha 2,6 metrga pasaymoqda, bu esa qishloq xo'jaligi uchun suv ta'minotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

3. Sifat ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar

Iqlim o'zgarishi natijasida yer osti suvlarining sifati ham yomonlashmoqda. Yog'ingarchilikning kamayishi va buxarishning oshishi natijasida suv tarkibidagi tuzlar va boshqa kimyoviy moddalar konsentratsiyasi ortib bormoqda. Masalan, O'rta Yer dengizi mintaqasida yer osti suvlari tarkibida xlorid, nitrat va arsenik kabi moddalar miqdori oshganligi kuzatilgan. Bundan tashqari, dengiz sathining ko'tarilishi qirg'oqbo'yi akviferlariga dengiz suvi kirib borishiga sabab bo'lib, bu ichimlik suvining sho'rlanishiga olib keladi.

4. Ekstremal ob-havo hodisalarining ta'siri

Iqlim o'zgarishi natijasida ekstremal ob-havo hodisalari, masalan, kuchli yomg'irlar va suv toshqinlari soni ortib bormoqda. Bu hodisalar yer osti suvlarining sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kuchli yomg'irlar natijasida yuzaki ifloslantiruvchi moddalar yer osti suvlariga osonroq kirib boradi, bu esa suvning biologik va kimyoviy tarkibini yomonlashtiradi.

5. Inson faoliyatining ta'siri

Aholi sonining ortishi va qishloq xo'jaligi faoliyatining intensivlashuvi yer osti suvlaridan foydalanishning oshishiga olib kelmoqda. Masalan, Hindistonda yer osti suvlari yillik iste'moli Xitoy va AQShning umumiy iste'molidan ham yuqori bo'lib, bu resurslarning tez tugashiga sabab bo'lmoqda.

6. Oldini olish va moslashuv choralar

Yer osti suvlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni kamaytirish uchun quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- Monitoring tizimlarini kuchaytirish: Suv resurslarini doimiy kuzatish va tahlil qilish orqali muammolarni erta aniqlash.
- Suvdan oqilona foydalanish: Qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va aholining suvdan foydalanish madaniyatini oshirish.
- Qonunchilikni takomillashtirish: Yer osti suvlari ekspluatatsiyasini tartibga soluvchi qonun va me'yorlarni kuchaytirish.
- Ekologik ta'lim: Aholi o'rtasida ekologik muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tushunchalarni oshirish.

Xulosa

Iqlim o'zgarishi yer osti suvlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar suv resurslarining barqarorligiga, qishloq xo'jaligi samaradorligiga va ichimlik suvining sifatiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun, yer osti suvlaridan foydalanishda ilmiy asoslangan yondashuvlar, samarali boshqaruv tizimlari va ekologik ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. UNESCO (2022). World Water Development Report: Groundwater – Making the Invisible Visible. [www.unesco.org \(https://www.unesco.org/reports/wwdr/2022/en/climate-change\)](https://www.unesco.org/reports/wwdr/2022/en/climate-change)
2. NASA Earth Observatory (2024). Groundwater Losses Accelerating in Key Aquifers Worldwide. [earthobservatory.nasa.gov \(https://earthobservatory.nasa.gov/\)](https://earthobservatory.nasa.gov/)
3. International Institute for Sustainable Development (IISD). The Effects of Climate Change on Groundwater: Out of Sight, a Crisis in the Making. [www.iisd.org \(https://www.iisd.org/articles/insight/effects-climate-change-groundwater-out-sight-crisis\)](https://www.iisd.org/articles/insight/effects-climate-change-groundwater-out-sight-crisis).

МИС ЭРИТИШ ЗАВОДЛАРИ ЧИҚИНДИЛАРИДАН РЕНИЙНИ АЖРАТИБ ОЛИШ

Хакимов Камол Жураевич

*техника фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети*


Аннотатсия: Ушбу мақолада Мис концентратларини қайта ишлаш жараёнида ренийнинг асосий қисми газлар билан бирга учиб кетиб, ювувчи сульфат кислотасида тўпланиши туфайли, кучсиз асосли АН-21 анионитидан фойдаланган ҳолда уни тўғридан-тўғри сорбцион усулда ажратиб олиш схемаси ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: *рений, концентрат, сорбцион ажратиб олиш, Сульфат кислотали ювиш, анионит, механик аралашмалар, аммоний перренат, органик фаза, схема, ишқорий эритмалар.*

Мис концентратларини қайта ишлаш жараёнида ренийнинг асосий қисми газлар билан бирга учиб кетиб, ювувчи сульфат кислотасида тўпланиши туфайли, кучсиз асосли АН-21 анионитдан фойдаланган ҳолда уни тўғридан-тўғри сорбцион усулда ажратиб олиш схемаси ишлаб чиқилди (1-расм). Бу анионит билан ренийни сорбцион ажратиб олиш фақат сульфат кислотанинг концентрацияси 200 г/л дан кам бўлгандагина (одатда 60-100 г/л оралиғида) амалга оширилиши мумкин. Ушбу схема Балхаш конь-металлургия комбинатида (Қозоғистон) ишлаб чиқилиб, амалиётга татбиқ этилган.

Бу схемага кўра, ювиш учун ишлатилган кислота эритмалари сорбциядан олдин механик аралашмалардан назорат филтрациясидан ўтказилади. Таркибида 0,05-0,15 г/л Re бўлган бошланғич эритмалар H^+ шаклида бўлган АН-21 анионитида сорбцияланиш учун йўналтирилади. Таркибида 0,5 мг/л дан кам рений бўлган сорбция эритмаларини қолдиқлари чиқинди омборига жўнатилади. Рений бўйича тўйинган анионит (4-5%) сув билан ювилади ва 8-10% NH_4OH концентрацияли аммиак эритмаси ёрдамида десорбцияланади. Қайта тикланган анионит сув билан ювилгандан сўнг, HCl эритмаси билан ишлов бериш орқали H^+ -шаклга ўтказилади. Таркибида 1,5 г/л Re мавжуд бўлган аммиак рений десорбати буғлантирилади. Эритма совутилгач, ундан аммоний перренат ажратиб олинади. Аммоний перренат кристаллари ажратиб олингандан.

1-расм. Сульфат кислотали ювиш эритмасидан ренийни кучсиз асосли АН-21 анионити ёрдамида сорбцион ажратиб олиш схемаси.



Бу схемага кўра, ювиш учун ишлатилган кислота эритмалари сорбциядан олдин механик аралашмалардан назорат филтрациясидан ўтказилади. Таркибида 0,05-0,15 г/л Re бўлган бошланғич эритмалар H^+ шаклида бўлган АН-21 анионитида сорбцияланиш учун йўналтирилади. Таркибида 0,5 мг/л дан кам рений бўлган сорбция эритмаларини қолдиқлари чиқинди омборига жўнатилади. Рений бўйича тўйинган анионит (4-5%) сув билан ювилади ва 8-10% NH_4OH концентрацияли аммиак эритмаси ёрдамида десорбцияланади.


десорбцияланади. Қайта тикланган анионит сув билан ювилгандан сўнг, HCl эритмаси билан ишлов бериш орқали H^+ -шаклга ўтказилади. Таркибида 1,5 г/л Re мавжуд бўлган аммиак рений десорбати буғлантирилади. Эритма совутилгач, ундан аммоний перренат ажратиб олинади. Аммоний перренат кристаллари ажратиб олингандан сўнг, қолган қолдиқ эритма ренийни сорбциялаш жараёнига қайтарилади.

Аммоний перренатнинг қолдиқ кристаллари аралашмалардан тозалаш мақсадида қайта кристалланади. Соф аммоний перренат қуригилади ва ўралади. Қайта кристаллаш жараёнидан қолган қолдиқ эритмалар айланма жараёнга қайтарилади. Бу усулнинг камчилиги бошланғич ювувчи сульфат кислотасини суюлтириш зарурияти ҳисобланади.

Балхаш мис эритиш заводида металлургия газларини ювишдан ҳосил бўлган оқова сувларидан ренийни ажратиб олиш бўйича ярим саноат синовлари муваффақиятли ўтказилди. Бу жараёнда кучсиз асосли А-170 анионити (Purolite ишлаб чиқариши) қўлланилди.

Мис эритиш заводининг газ тозалаш электрофилтрлари ювувчи кислотасидан ренийни ажратиб олишнинг яна бир мисоли металлни ТАА эритмаси билан экстракция қилишдан иборат. Ренийни ТАА (ТОА) ёрдамида экстракцион усулда ажратиб олишнинг асосий технологик схемаси 2-расмда кўрсатилган. Ушбу схемага кўра, ювувчи кислота олдиндан суюлтирилмасдан тўғридан-тўғри экстракцияга юборилади. Бу усулнинг АН-21 да сорбциялашга нисбатан сезиларли афзаллиги айнан шунда намоён бўлади (1-расм) да курсатилган. Ювиш кислотасининг таркиби: 500 г/л H_2SO_4 , 0,1-0,5 г/л Re, ҳамда Cu, Zn, Fe, As ва бошқа аралашмалар мавжуд.

Тўйинган органик фаза кучсиз сульфат кислотаси билан ювилгандан сўнг, ренийнинг 8-10% ли аммоний гидроксид (NH_4OH) билан қайта экстракцияси амалга оширилади. Қайта экстракция жараёни органик ва сув фазалари нисбати 5:1 бўлган ҳолатда, сув фазасини айлантириб, қайта экстрактдаги рений концентрацияси 10-15 г/л га етгунча олиб борилади. Рений қайта экстрактдан буғлатиш усули билан ажратиб олинади. Дастлабки рений концентрати қайта кристаллантирилади. Ушбу схема бўйича ренийнинг умумий ажралиб чиқиши 98,5% ни ташкил этади.



2-расм. ТАА ёрдамида ренийни экстракция усулида ажратиб олишнинг асосий технологик схемаси.

Рений 10% октил спирти кўшилган керосиндаги 0,3-0,4 М ли ТАА эритмаси ёрдамида экстракция қилинади. Рени 0,3-0,4 М ТАА эритмаси билан керосинда ва 10% октил спирти кўшилган ҳолда экстракция қилинади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Кокушева А.А., Дайрабаева Г.А., Усабекова А.Ш., Перфельев Н. А. Извлечение рения из серноокислотных шламов Дзержинского медеплавильного завода // Цветные металлы. – 1992. - № 5. – С.14 – 15.
2. Палант А.А., Трошкина И.Д., Чекмарёв А.М. Металлургия рения. – М.: Наука, 2007. 298 с.
3. Савицкий Е.М., Тылкина М.А., Поварова К.Б. Сплавы рения. – М.: Наука, 1965.
4. Санакулов К.С., Мухиддинов Б.Ф., Хасанов А.С. Химические Элементы свойства, получение, применение. Тошкент «Турон замин зиё» 2016 г. 493с.
5. Хакимов К.Ж., Ражабов Ш.Х. Методы извлечения, обработки и обогащения рения // Цифровые технологии в промышленности - Қарши, 2024 - №1 С. 54-59.
6. Хасанов, А. С., Ахмедов Ў. Ч., Хакимов К.Ж. Обжиг сульфидных ренийсодержащих концентратов // Композиционные материалы – Ташкент, 2025 №1, С 192-195
7. Хасанов, А. С., Ахмедов Ў. Ч., Хакимов К.Ж. Технологии получения, переработки и применения рения в высокотехнологичных отраслях промышленности // Цифровые технологии в промышленности - Қарши, 2025 - №3(1) С. 63-69.
8. Хасанов, А. С., Хакимов, К. Ж., Шодиев, А. Н., & Эшонкулов, У. Х. (2018). Уран и Золото. Мухофаза+ Ижтимоийсийосий, илмий-амалий ва бадий журнал, (01 (157)), 13.
9. Хасанов, А. С., Хакимов, К. Ж., Шодиев, А. Н., & Эшонкулов, У. Х. (2018). Уран и Золото. Мухофаза+ Ижтимоийсийосий, илмий-амалий ва бадий журнал, (01 (157)), 13.
10. Хакимов, К. Ж., Эшонкулов, У. Х., & Умирзоков, А. (2020). Complex Processing Of Lead-Containing Technogenic Waste From Mining And Metallurgical Industries In The Urals. *The american journal of engineering and technology (TAJET) SJIF-5.32 DOI-10.37547/tajet*, 2(9), 2689-0984.

FOYDALI QAZILMA KONLARI HUDUDIDA YER SIRTI DEFORMATSIYASINI ANIQLASH

*Umedulloyev Munirbek Mirzoqul o'g'li,
Xursandov Elyor O'ktamovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kon sanoati korxonalari faoliyatida kuzatiluvchi geodinamik jarayonlarni monitoring qilish maqsadida sun'iy yo'ldosh orqali geodezik usullardan foydalanish yer sirti deformatsiyalarini aniqlash ishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Geomexanika, geodinamika, deformatsiya, karta, plan, geodezik usul, kon sanoati, neft-gaz, seysmik xavfsiz va ekspluatatsiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5066-son «Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni,. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3190- son «O'zbekiston Respublikasi hududi va aholisining seysmik xavfsizligi,

The experimental process involved preparing a water-based drilling fluid using locally sourced bentonite (containing approximately 25% clay content) as the primary viscosifier. Additives included a polymer (xanthan gum, 0.5% w/w) to enhance viscosity and a salt (NaCl, 1.5% w/w) to inhibit clay swelling. The experiment was conducted in three phases:

1. Raw Material Preparation: Bentonite samples were dried at 110°C for 4 hours to remove moisture, pulverized, and sieved through a 200-mesh screen to ensure uniform particle size.
2. Fluid Formulation: A base fluid was prepared by mixing 25 g of bentonite with 500 ml of distilled water, stirred at 800 rpm for 15 minutes using a high-speed mixer. Xanthan gum and NaCl were then gradually added, with continuous stirring for an additional 10 minutes to ensure homogeneity.
3. Performance Testing: The fluid underwent rheological testing at 25°C, followed by a 30-minute filtration test at 100 psi to measure fluid loss. A clay swelling test was performed using a linear swell meter to quantify the inhibition of clay expansion in the presence of the fluid.

Procedural Steps.

The methodology followed a chronological sequence:

1. Material Characterization: XRD analysis confirmed the bentonite's composition (58% SiO₂, 18% Al₂O₃, 10% Fe₂O₃), while FTIR identified hydroxyl and silicate groups critical to its reactivity.
2. Fluid Preparation: The pH was maintained between 8.5 and 9.0 using a pH meter to optimize bentonite dispersion.

3. Rheological Measurement: Viscosity was recorded at 60-second intervals using a Brookfield viscometer, and gel strength was assessed after 10 seconds and 10 minutes of static conditions.

4. Filtration and Swelling Tests: Fluid loss was measured in milliliters, and clay swelling was expressed as a percentage increase in sample height over 24 hours.

5. Data Analysis: Results were compared against a control fluid (standard bentonite mud without additives) to evaluate improvements.

3. Results and Discussion.

Experimental Results.

XRD analysis revealed that the local bentonite contained 58% SiO_2 , 18% Al_2O_3 , and 10% Fe_2O_3 , with minor impurities, confirming its suitability as a viscosifier. The formulated drilling fluid exhibited a viscosity of 28 cP, a yield point of 12 lb/100 ft², and a 10-minute gel strength of 15 lb/100 ft². The API filtration test showed a fluid loss of 10 ml after 30 minutes, compared to 14 ml for the control fluid. The clay swelling test indicated an 18% height increase in the presence of the formulated fluid, significantly lower than the 30% increase observed with the control fluid.

Relevant Findings.

The addition of xanthan gum enhanced the fluid's viscosity and shear-thinning behavior, improving its ability to suspend solids and maintain borehole stability. NaCl effectively reduced clay hydration by altering the ionic balance, decreasing dispersion by 25% compared to the control. These combined effects resulted in a drilling fluid that outperformed the standard formulation in terms of filtration control and formation protection, which are critical for high-absorbency formations.

Discussion of Results.

The results align with Jones's (2022) findings on the economic benefits of local bentonite, extending its application to high-absorbency formations through the strategic use of additives. The reduced fluid loss (10 ml vs. 14 ml) suggests improved sealing capacity, while the 18% swelling rate indicates better inhibition of clay hydration compared to Smith et al.'s (2020) polymer-only fluids, which reported a 22% swelling reduction. The synergy between bentonite, xanthan gum, and NaCl highlights the potential of tailored formulations to address specific formation challenges, offering a practical alternative to imported fluids.

Author's Insights and Recommendations.

This study demonstrates that locally sourced raw materials can be effectively utilized to formulate high-performance drilling fluids, providing both cost savings and technical advantages. The improved rheological and filtration properties suggest scalability for field applications, though further testing across diverse formation types (e.g., carbonate-rich or shale-heavy reservoirs) is recommended to validate versatility. A notable limitation is the lack of high-temperature testing, as deep wells may alter fluid behavior—future research should explore thermal stability. Additionally, incorporating nanomaterials, such as silica nanoparticles, could further enhance filtration control and viscosity, warranting investigation in subsequent studies. The findings advocate for increased adoption of local resources in drilling operations, aligning with sustainability goals in the oil and gas industry.

Literature used:

1. Kadirov V. R. Nurboboev Y. T., Umirzoqov A. A. Muhammadiyev Elbek

INTERNATIONAL JOURNAL ON HUMAN COMPUTING STUDIES "Rock Displacement at

Underground Coal Gasification" <https://journals.researchparks.org/index.php/IJHCS> e-ISSN: 2615-8159 | p-ISSN: 2615-1898 Volume: 03 Issue: 10 |Dec 20213. Левчук Г.Р. Новак В. Е. Лебсев Н. Н. Прикладная геодезия.

2. M.SH.Eshnazarov Qurbonox X.A. "Scientific medhotical journal of scientific progress" "Инновационный методы мониторинга состояния бортов гидротехнических сооружениях примере пскемской гэс" issn: 2181-1601 volume 1, issue:6 www.scientificprogress.uz april 2021 year

3. Botirov Shokhbos Soibjon ugli. "International bulletin of applied science and technology" "development of measures to ensure the stability of a rock massif with the use of modern surveying instruments" In Volume 2, Issue 9 of ISSN: 2750-3402 Impact factor: 8,2 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7089030> Date 17.09.2022

5-SHO‘BA. SURXONDARYO VILOYATIDA AGRAR SOHA YO‘NALISHLARIDA ILMIY IZLANISH OLIB BORAYOTGAN TADQIQOTCHILARNING ILMIY LOYIHALARNI TIJORATLASHTIRISHNING SAMARALI METODLARINI TADBIQ ETISH

GIDROPONIKA VA AN‘ANAVIY DEHQONCHILIKNING ILMIY TAQQOSLANISHI

Sh.B.Yusupov – “TIQXMMI” MTU dotsenti

S.E.Qurbonazarov – TerDMAU assistenti

Annotatsiya Ushbu maqolada gidroponik va an‘anaviy tuproqli dehqonchilik tizimlari ilmiy jihatdan taqqoslangan. Tadqiqot gidroponikaning suv va oziq moddalarni samarali ishlatishi, yuqori hosildorlikka ega ekani hamda ekologik jihatdan barqarorligi haqida dalillar keltiradi. Shuningdek, tuproqli dehqonchilikning tabiiy resurslarga bog‘liqligi va muayyan afzalliklari tahlil qilinadi. Gidroponikaning urbanizatsiyada va kelajakda rivojlanish istiqbollari, shu jumladan, AI va IoT texnologiyalarining qo‘llanilishi ko‘rib chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari gidroponika tizimlarini kengroq joriy etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: gidroponika, tuproqli dehqonchilik, hosildorlik, suv tejash, oziq moddalarning o‘zlashtirilishi, urbanizatsiya, ekologik barqarorlik, texnologik rivojlanish.

Kirish. *Gidroponika* – bu tuproqsiz muhitda o‘simlik yetishtirish tizimi bo‘lib, oziq moddalar eritma orqali bevosita ildizlarga yetkaziladi. Bu usul suvdan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va ekologik barqarorlik kabi afzalliklarga ega. An‘anaviy dehqonchilik esa tuproq resurslariga bog‘liq bo‘lib, hosildorlik va o‘sinh tezligi tuproq unumdorligi, iqlim va suv ta‘minotiga bog‘liq. Ushbu maqola gidroponika va an‘anaviy tuproqli dehqonchilikni ilmiy jihatdan taqqoslash orqali ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlashga qaratilgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda gidroponika va an‘anaviy dehqonchilikning ilmiy asoslari taqqoslandi. Asosiy ma‘lumotlar mavjud ilmiy adabiyotlar, laboratoriya tajribalari va BMT FAO (Food and Agriculture Organization) ma‘lumotlari asosida tahlil qilindi. Quyidagi mezonlar asosida tahlil olib borildi:

1. Oziq moddalarning o‘zlashtirilishi
2. Suv sarfi va samaradorligi
3. O‘simlik o‘sinh tezligi va hosildorlik
4. Kasallik va zararkunandalarga chidamlilik
5. Atrof-muhitga ta‘siri
6. Iqtisodiy samaradorlik
7. Gidroponikaning turli turlari (NFT, DWC, Aeroponika)
8. Tuproq unumdorligining pasayishi va gidroponikaning bu muammoga yechim bo‘lishi
9. Energiya sarfi va uglerod izlari taqqoslanishi
10. Gidroponikaning yirik xo‘jaliklarda va urbanizatsiyada qo‘llanilishi
11. Howard Reshning gidroponika haqidagi asarlarida keltirilgan ilmiy yondashuvlar

Natijalar.

Oziq moddalar biofoydalanishi: Gidroponik tizimlarda oziq moddalar bevosita ildizlarga beriladi, bu esa tuproqli usulga nisbatan 30-50% samaraliroqdir (Hoagland & Arnon, 1950).

Suvdan foydalanish: Tuproqli dehqonchilikda suvning 60-70% bug‘lanish yoki yuvilish orqali yo‘qoladi, gidroponik tizimlarda esa suv 80-90% tejab qolinadi (Resh, 2013).

Hosildorlik: Gidroponikada hosildorlik an‘anaviy usulga nisbatan 20-30% yuqori bo‘lib, o‘sinh tezligi ham tezlashgan (Wheeler et al., 1996).

Kasallik va zararkunandalar: Gidroponik tizimlarda tuproq kasalliklari uchramaydi, bu esa pestitsidlar iste‘molini kamaytiradi (Stanghellini & Rasmussen, 1994).

Atrof-muhitga ta‘siri: Tuproqli dehqonchilik eroziya va yer degradatsiyasiga olib kelishi mumkin, gidroponika esa ekologik barqarorroqdir (Tilman et al., 2002).

Iqtisodiy tahlil. Dastlabki investitsiya gidroponikada yuqori, ammo uzoq muddatda yuqori hosildorlik va resurslarni tejash orqali samaradorlik oshadi (Savvas et al., 2013).

- *Energiya sarfi va uglerod izlari:* Gidroponikada sun‘iy yoritish va suv nasoslari talab qilinishi sababli energiya sarfi oshishi mumkin, ammo zamonaviy qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh va shamol energiyasi) orqali bu muammo kamaytirilishi mumkin.

- *Gidroponikaning urbanizatsiyada qo‘llanilishi:* Shahar muhitida gidroponik fermalar binolar tomlarida yoki yopiq issiqxonalarda tashkil qilinishi mumkin, bu esa oziq-ovqat ta‘minotini mahalliyashtirishga yordam beradi.

- *Howard Reshning ilmiy qarashlari:* Uning "Hydroponic Food Production" asarida gidroponikaning asosiy tizimlari, oziq moddalar balansi, avtomatlashtirish va urbanizatsiya sharoitida gidroponik dehqonchilikning istiqbollari yoritilgan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gidroponika o‘simlik yetishtirishning ekologik va iqtisodiy jihatdan istiqbolli usuli bo‘lib, suv va oziq moddalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Biroq, bu usulni keng tadbiiq qilish uchun texnologik infratuzilma va dastlabki investitsiyalar talab etiladi. Tuproqli dehqonchilik esa tabiiy sharoitlarga moslashgan bo‘lib, resurslar yetarli bo‘lgan joylarda samarali bo‘lishi mumkin. Kelajakda gidroponika texnologiyalarini yanada rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash mumkin.

Gidroponikada suvga solinadigan eritmalar. Gidroponika tizimida o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan oziq moddalar maxsus tayyorlangan eritmalar orqali yetkaziladi. Bu eritmalar o‘simliklarning sog‘lom o‘shini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan barcha makro va mikroelementlarni o‘z ichiga oladi. Gidroponik tizimlar tuproqsiz ekin yetishtirishni nazarda tutganligi sababli, to‘g‘ri tayyorlangan oziq moddalar eritmasi o‘simliklar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning tarkibi va konsentratsiyasi optimal bo‘lishi kerak. Eritmalarni to‘g‘ri tayyorlash va boshqarish gidroponikada yuqori hosildorlikka erishish uchun juda muhimdir.

1. Makroelementlar. O‘simliklarning sog‘lom o‘shida va rivojlanishida makroelementlar muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘simliklarda yuqori konsentratsiyada bo‘lib, oziqlanish jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi:

Azot (N): O‘simliklarning tez o‘shiga yordam beradi, ayniqsa barglarning rivojlanishiga. Azotli birikmalar fotosintez jarayonini kuchaytiradi va o‘simlikka kerakli energiyani ta‘minlaydi. Azotning yetarli miqdori bo‘lmaganda, o‘simliklarning o‘shishi sekinlashadi va barglar sariq tusga kiradi.

Fosfor (P): Ildiz tizimining rivojlanishini va energiya almashinuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Fosfor birikmalari o‘simlikda energiya yig‘ilishi va uning harakatini ta‘minlaydi, shuningdek, mevalar va gullarning rivojlanishiga yordam beradi.

Kaliy (K): Kaliy o'simliklarda suyuqlik balansini tartibga soladi, shuningdek, kasalliklarga chidamlilikni oshiradi va fotosintez jarayonini kuchaytiradi. Kaliy yetishmovchiligi hosildorlikni pasaytiradi va o'simlikning stressga chidamliligini kamaytiradi.

Kalsiy (Ca): Kalsiy hujayra devorlarini mustahkamlashda ishtirok etadi, shuningdek, oziq moddalarning o'zlashtirilishiga yordam beradi. Bu elementning yetishmovchiligi o'simliklarda o'sish nuqtalarida deformatsiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Magniy (Mg): Xlorofill tarkibiy qismi bo'lib, fotosintez jarayonining samaradorligini oshiradi. Magniy yetishmovchiligi o'simlikda rang o'zgarishlariga olib keladi va fotosintez jarayonini susaytiradi.

Oltingugurt (S): Oltingugurt o'simliklar uchun aminokislotalar va vitaminlar sintezida zarur bo'lgan elementdir. U shuningdek, o'simliklarning umumiy metabolizmini qo'llab-quvvatlaydi.

2. Mikroelementlar. Mikroelementlar o'simliklar uchun kerak bo'lgan, ammo nisbatan kichik miqdordagi elementlardir. Ular ham o'simliklarning normal rivojlanishida muhim ahamiyatga ega:

Temir (Fe): Xlorofill sintezida muhim bo'lib, o'simliklarda o'simlik hujayralarida kislorod tashish jarayonini kuchaytiradi. Temirning yetishmovchiligi o'simliklarning sariqlanishiga olib keladi.

Marganes (Mn): Fotosintez jarayonida va azot almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Marganes yetishmovchiligi o'simliklarda o'sishning sekinlashishiga olib keladi.

Bor (B): Borning asosiy vazifasi o'simliklarning gul va meva hosil qilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdir. Bor yetishmovchiligi o'simliklarning o'sish nuqtalarida uzilishlarga olib kelishi mumkin.

Mis (Cu): Mis o'simliklarning enzymatik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Misning yetishmovchiligi o'simliklarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Rux (Zn): Rux gormonlar sintezi va o'sishda muhim rol o'ynaydi. U shuningdek, hosildorlikni oshiradi va o'simliklar uchun zarur bo'lgan ko'plab fermentlarning faoliyatini ta'minlaydi.

Molibden (Mo): Azot fiksatsiyasi jarayonida ishtirok etadi va nitratlarni o'simlik tomonidan samarali ishlatilishiga yordam beradi.

3. Eritmaning pH va EC darajalari. Gidroponik oziq moddalar eritmasining pH darajasi va elektr o'tkazuvchanligi (EC) o'simliklar o'zlashtira olishlari uchun muhimdir. pH darajasi odatda 5,5 dan 6,5 gacha bo'lishi kerak, chunki o'simliklar bu diapazonda oziq moddalarni eng samarali tarzda o'zlashtiradilar. EC darajasi esa eritmadagi tuzlarning umumiy konsentratsiyasini bildiradi va bu parametрни muntazam nazorat qilish orqali o'simliklarning o'sish tezligini optimallashtirish mumkin.

4. Eritmalarni tayyorlash. Gidroponikada foydalaniladigan oziq moddalar eritmaları yuqori tozalikka ega bo'lishi kerak, chunki aralashmaning har qanday ifloslanishi o'simliklar uchun zararli bo'lishi mumkin. Eritmalarni tayyorlashda asosan ikki xil usul qo'llaniladi: "yagona eritma" tizimi, bu yerda barcha oziq moddalar bir eritma ichida bo'ladi, va "aralash eritmalar" tizimi, bu yerda turli xil elementlar alohida eritmalarda bo'ladi. Har ikkala tizimda ham eritma muntazam ravishda yangilanib, o'simliklar uchun to'g'ri oziqlantiruvchi muhitni yaratib turadi.

Gidroponik tizimlarda o'simliklar oziqlanishining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun oziq moddalar eritmasining to'g'ri tarkibi va nazorati juda muhimdir. Eritmada bo'lgan makro va

mikroelementlarning to'g'ri miqdorlari va pH, EC darajalari o'simliklarning optimal o'sishiga yordam beradi. Eritmalarni tayyorlashda ehtiyotkorlik va ilmiy yondashuv talab qilinadi, chunki ularning to'g'ri miqdori o'simliklarning yuqori hosildorlikka erishishiga ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, gidroponikaning kelajakdagi o'sish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Kosmik gidroponika: NASA gidroponikani uzoq muddatli kosmik missiyalar uchun o'rganmoqda.

Yuqori texnologik yechimlar: AI (sun'iy intellekt) va IoT (Internet of Things) orqali gidroponikani avtomatlashtirish.

Atrof-muhitga ta'siri: Gidroponikaning karbon izini kamaytirish uchun ekologik jihatdan barqaror energiya manbalaridan foydalanish.

Xulosa Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, gidroponika suv tejash, hosildorlikni oshirish va atrof-muhitga kam ta'sir ko'rsatish kabi jihatlari bilan tuproqli dehqonchilikdan ustun turadi. Biroq, texnologik va iqtisodiy omillar uning ommaviylashishini cheklashi mumkin. Kelajakda innovatsion gidroponik tizimlarni rivojlantirish orqali uning yanada samarali bo'lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Hoagland, D. R., & Arnon, D. I. (1950). The water-culture method for growing plants without soil. *California Agricultural Experiment Station Circular*, 347.
2. Howard M. Resh, (2013). *Hydroponic Food Production*. CRC Press.
3. Stanghellini, M. E., & Rasmussen, S. L. (1994). Hydroponics: A solution for zoosporic pathogens. *Plant Disease*, 78(12), 1129-1138.
4. Tilman, D., Cassman, K. G., Matson, P. A., Naylor, R., & Polasky, S. (2002). Agricultural sustainability and intensive production practices. *Nature*, 418(6898), 671-677.
5. Wheeler, R. M. (2017). Agriculture for space: People and places paving the way. *Open Agriculture*, 2(1), 14-32.
6. Savvas, D., & Gruda, N. (2013). Application of soilless culture technologies in greenhouse horticulture. *European Journal of Horticultural Science*, 78(6), 225-238.
7. Yusupov Sh.B., Qurbonazarov S.E. - Gidroponika uchun eritmalar va ularning tarkibi – "Коллоидная химия: инновации и решения для химической технологии, экологии и промышленности" материалы международной научно-технической конференции, посвященной светлой памяти академика МАНЭБ, д.х.н., проф. А.А.Агзамходжаева 7-8 февраля 2025-г., Термезский государственный педагогический институт.

YONG'OQ ISHLAB CHIQRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Jo'rayev Fayzulla Ashurovich
TerDMAU

Annotatsiya. Ushbu maqolada yong'oq mevasinining axamiyati, yetishtirish texnologiyasi, dastlabki ishlash, qayta ishlash va saqlashning zamonaviy texnologiyalarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar. Yong'oq, juglans regiya, yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, innovatsiya, texnologiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-iyundagi PQ-3025-son «Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlarida lalmi yerlardan foydalanishni rag'batlantirish va samaradorligini yanada oshirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lgan yong'oq ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, tarmoqqa xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish hisobiga zamonaviy yong'oq bog'larini barpo qilish hamda yong'oq yetishtirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor berilgan.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida Xitoy, AQSH, Eron, Turkiya, Meksika, Ukraina va Chili davlatlari yong'oq mevasini yetishtirish va eksport qilish bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda.

Yong'oqdan chiqadigan qimmatbaho mahsulotlar va ulardan foydalanish: I. Ildizidan - tuproq strukturasini oshirishda, bo'yoq olishda, faner tayyorlashda foydalanish mumkin. Suvi sochni oqartirmaslik uchun foydalaniladi II. Po'kagidan - Sariq, jigar rang bo'yoq tayyorlanadi. Rak, jigar kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. III. Yog'ochidan - yoqilg'i, pardoz-andoz, asbob-uskuna yasashda foydalaniladi. Mebel, avtomobel, qurolga dasta, tola, kanop olish ham mumkin. Ko'miri bilan bod kasalligi davolanadi. IV. Bargidan - bo'yoq, kuyaga qarshi naftalin o'rnida ishlatiladi, fitonsid ishlab chiqaradi. Vitamin C, efir moyi, oshlov moddasi, alkaloid olish mumkin. Sariq kasal, ko'z, bosh, oyoq shamollaganda gipertaniyada qo'llaniladi. V. Gulidan - bo'yoq olinadi, asalarilarga oziq bo'ladi, ishtahani ochuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. VI. G'ura mevasidan - murabbo qilishda, konserva tayyorlashda, vitaminoz kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. VII. Mag'izi - oziq-ovqat sifatida iste'mol qilinadi. Har xil shirinliklar tayyorlanadi. Dori-darmon sifatida gipertaniya, tuberkulyoz, yurak, miya, revmatizm, buyrak, diabet, ateroskleroz va gijja haydashda qo'llaniladi. VIII. Moyi - oziq-ovqat tayyorlashda ishlatiladi. Texnik moyi, bo'yoq, tush, holva, konfet, sovun ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ko'z, quloq, asab, oshqozon kasalliklarini davolashda ishlatiladi. IX. Kunjarasi - oziq-ovqat sifatida va chorva mollariga, parrandalarga oziq, yerga o'g'it bo'ladi. Xolva, sirka, spirt, kislotalar olish mumkin. Dizenteriya, ichak, gastrit kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. X. Yashil yumshoq po'chog'idan - bo'yoq, oshlov moddalar, ishqor olinadi. Vitamin C, tanid olish mumkin. Teri tuberkulyozini, tomir, temiratki kasalliklarini davolashda foydalanish mumkin. XI. Qattiq suyaksimob po'chog'i - yoqilg'i sifatida foydalanish mumkin. Aktivlashgan ko'mir, rang, qog'oz, tol, linoleyum tayyorlash mumkin. Gimoroy, singan va chiqqanlarni davolashda qo'llaniladi. XII. Mag'iz pallasidagi pardasini - choy qilib ichish mumkin. Qog'oz tayorlash mumkin. Ko'zning qon bosimini pasaytirishda qaynatib ichiladi.

Insoniyatning ovqatlanish ratsionida yong'oqning ahamiyati juda katta. Yong'oq mevasi boshqa mevalardan tarkibiy elementlari va xususiyatlariga ko'ra yuqori kaloriyaligi bilan ajralib turadi. Yong'oq mag'zi kaloriyaliligi bo'yicha mol go'shtidan 7 marotaba yuqori hisoblanadi. Grek yong'og'i mag'zi tarkibida temir, fosfor, mis, serotonin moddalari, 58-77% yog', 12-25% oqsil va 5-25% uglevodlar mavjud bo'lib, uni iste'mol qilgan insonning asab tizimi me'yorlashadi, xotirasi mustahkamlanadi. Yong'oq tarkibidagi yog' qondagi xolesterinni kamaytiradi, yurak-qon tomirlari kasalliklarini oldini olishga yordam beradi.

Yong'oq yetishtirishda innovatsion texnologiyalar hosildorlikni oshirish, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

-Birinci o'rinda tuproqning tarkibi chuqur tahlil qilinib, o'simlik ehtiyojiga qarab o'g'itlar miqdori aniqlanadi. Sug'oriladigan plantatsiyalarda 150 kg/ga azot va 120 kg/ga fosfor o'g'itib beriladi. Sug'orilmaydigan joylarda esa 60-90 kg/ga azot 60 kg/ga fosfor va 30 kg/ga kaliy beriladi.

-Tomchilatib sug'orish suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi, ayniqsa qurg'oqchil hududlarda. Yillik yog'ingarchilik miqdori 800-850 mmdan kam bo'lgan hududlarda birinchi yili 6-8 marta keyingi yillari 4-5 marta sug'orish lozim.

-Yong'oq bog'larini xaritalash, monitoring qilish, zararkunandalarni aniqlashda dronlar yordam beradi. Olma qurti yong'oqqa eng ko'p zarar beradigan zararkunanda hisoblanadi. U qishni daraxt tanasidagi yorilgan qobiqlar orasida lichinka holida o'tkazadi. Ular barglar va mevara birma-bir urug' qo'yishadi. Urug'dan chiqqan lichinkalar meva ichiga kirib oziqlanadi.

-Tez o'sadigan, kasalliklarga chidamli yong'oq navlari yaratish uchun genetik seleksiya texnologiyalaridan foydalaniladi. Marssoninoz kasalligi marssonina juglandis zamburug'i keltirib chiqaradigan kasallik bo'lib, u yong'oq daraxti bargida jigarrang-to'q sariq rangli dog'lar ko'rinishida harakterlanadi.

-Mehnat unumdorligini oshirishda va yig'im-terim vaqtini qisqartirishda avtomatlashtirilgan mashinalar yordam beradi. Mevani yig'ib olishdagi eng yaxshi usul silkitish hisoblanadi.

-Yong'oqni quritishda energiya tejankor qurilmalar, vakuumli saqlash usullardan foydalaniladi. O'z vaqtida pishib yetilgan yong'oq mevalarida namlik miqdori standart bo'yicha 5-8% dan oshmasligi kerak.

Yong'oq ishlab chiqarish korxonalariga qabul qilingan mevalar qobig'idan ajratiladi, quritiladi, saralanadi va qadoqlanadi.

Yong'oq mevasini saqlashda xitozan biologik faol moddasi mevaning sifati va saqlanish muddatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xitozan - tabiiy polimer bo'lib, yong'oq mevasini saqlashda mikroorganizmlarning ko'payishini cheklashga yordam beradi. Shuningdek, u mevaning namligini saqlashga yordam beradi va mevaning tez qurib ketishining oldini oladi. Yong'oq mevalari maxsus omborxonalarda 0-4 °C haroratda va quruq havo holatida saqlanadi.

Xulosa. Yong'oqchilik infratuzilma tarmoqlari rivojining hozirgi holati tahlili, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozimligini taqozo etmoqda:

-ishlab chiqarish infratuzilmasining bir qancha ob'ektlari monopol sharoitda faoliyat ko'rsatayotganliklarini inobatga olgan holda, ularning faoliyatini davlat tomonidan tartibga keltirish;

-ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarining yong'oqchilik xo'jaliklariga nisbatan qulay joylashganligi va ko'rsatiladigan xizmatlarning narxi arzon hamda sifatli bo'lishi;

-qishloq hududlarida muqobil xizmat ko'rsatish turlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligi. Ushbu xususiyatlarni yong'oq yetishtirish samaradorligini baholash, jumladan, iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar va ularning hisob usullarini takomillashtirishda e'tiborga olish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Умурзаков Э.У., Пўлатов О.А., Абдуллаев К.Т. Грек ёнғоғи (*Juglans regia* L.). Монография. - Самарқанд. 2023. – 224 б.

2. Raxmonova Barno Soxibjonovna. "Yong'oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish"(Monografiya). "Step by step print" MChJ bosmaxonasi, Andijon, 2023 y. 152 b

NOAN'ANAVIY KVINOА: GLOBAL EKOLOGIK SHAROITDA HOSILDORLIKNI OSHIRISH VA OZIQLANISHDAGI YANGI INNOVATSION YONDASHUVLAR

Ko'chkeldiyeva Shahnoza Chorshanbiyevna
TerDMAU tayanch doktoranti.
Jumayev Shuxrat Maxsodovich
TerDMAU q.x.f.f.d(PhD) dots.

Annotatsiya: Ushbu maqolada noan'anaviy kvinoaning global ekologik sharoitda hosildorlikni oshirish va oziqlanishdagi yangi innovatsion imkoniyatlari o'rganilgan bo'lib, tadqiqotda kvinoaning yuqori ozuqaviy qiymati, turli o'sish sharoitlariga chidamliligi va global iqlim o'zgarishlari sharoitida uning qishloq xo'jaligida qanday rol o'ynashi tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasiga dala tajribalari, tuproq tahlillari va agroteknik usullarni taqqoslash kiradi. Olingan natijalar kvinoaning kam suv sarfi, yuqori hosildorlik va ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan qishloq xo'jaligi uchun istiqbolli ekin sifatida muhim ekanligini ko'rsatadi. Maqola noan'anaviy kvinoa ekishning global oziqlanishdagi o'rni va iqlim o'zgarishiga moslashish imkoniyatlari haqida yangi ilmiy tafakkur va amaliy tavsiyalar beradi.

Аннотация: В статье рассматривается инновационный потенциал нетрадиционной киноа для повышения производительности и питания в глобальных экологических условиях. В исследовании анализируется высокая пищевая ценность киноа, устойчивость к различным условиям выращивания и ее роль в сельском хозяйстве в условиях глобального изменения климата. Методология исследования включает полевые эксперименты, анализ почвы и сравнение агротехнических приемов. Полученные результаты свидетельствуют о том, что киноа имеет важное значение как перспективная культура для сельского хозяйства с точки зрения низкого потребления воды, высокой урожайности и экологической устойчивости. В статье представлены новые научные идеи и практические рекомендации относительно роли нетрадиционного выращивания киноа в глобальном питании и его потенциала адаптации к изменению климата.

Abstract: This article explores the innovative potential of non-traditional quinoa for increasing productivity and nutrition in global environmental conditions. The study analyzes the high nutritional value of quinoa, its tolerance to different growing conditions, and its role in agriculture in the context of global climate change. The research methodology includes field experiments, soil analysis, and comparison of agrotechnical methods. The results show that quinoa is an important promising crop for agriculture in terms of low water consumption, high productivity, and environmental sustainability. The article provides new scientific insights and practical recommendations on the role of non-traditional quinoa cultivation in global nutrition and the possibilities of adapting to climate change.

Kalit so'zlar: Kvinoa, Peru, Boliviya, Ekvador, oziq-ovqat xavfsizligi, oqsil, vitaminlar, o'rtacha sho'rlangan taqirsimon tuproqlar.

Ключевые слова: Киноа, Перу, Боливия, Эквадор, продовольственная безопасность, белок, витамины, умеренно засоленные засушливые почвы.

Keywords: Quinoa, Peru, Bolivia, Ecuador, food security, protein, vitamins, moderately saline arid soils.

Dunyo aholisi soni tobora ortib borayotgan hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlariga va uning sifatiga bo'lgan talabning ham oshayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishlari, tuproq degradatsiyasi va suv resurslarining kamayishi kabi ekologik tahdidlar qishloq xo'jaligi sohasini sezilarli darajada muammolarga duchor qilmoqda. Bularning barchasi o'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, hosildorlikni oshirish va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekinlarning hosildorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 22-apreldagi qarori, shuningdek, "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish"ga oid qarorlar, mamlakatda qishloq xo'jaligi va oziqlanishning muhim yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash innovatsion yondashuvlar va yangi ekin turlarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kvinoa (*Chenopodium quinoa* Willd.) - Janubiy Amerikaning qadimiy donli ekinlaridan biridir, lekin uning hozirgi kunda global miqyosda keng tarqalishi va ekilish hududlari kengaygan. O'simlikning yuqori ozuqaviy qiymati, o'sish sharoitlariga chidamliligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlari uni dunyo bo'ylab qishloq xo'jaligi uchun istiqbolli ekin sifatida e'tirof ettirgan. O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida kvinoa ekish, o'zining tuproq va iqlim sharoitlari bilan bu ekin uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Kvinoa (*Chenopodium quinoa* Willd.) – bu janubiy Amerikadan kelgan, ammo o'zining ozuqaviy qiymati va iqlim o'zgarishiga chidamliligi bilan dunyoning turli burchaklarida ekilgan noan'anaviy ekin sifatida katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning ekologik sharoitlari va iqlimi kvinoaning o'sishi uchun maqbul bo'lib, uning mamlakatda yetishtirilishi global oziqlanish muammolarini hal qilishga yordam berishi mumkin. Prezident qarorlari va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid tashabbuslar kvinoaning ekilishini rag'batlantiradi va bu ekinni oziqlanishdagi yangi imkoniyatlarni yaratishda muhim rol o'ynashiga zamin yaratadi.

Kvinoaning tarixiy rivojlanishi va ozuqaviy ahamiyati, uning qishloq xo'jaligida ahamiyatini oshirdi. Olimlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, kvinoaning yuqori oqsil, vitamin va minerallar bilan boy ekanligini tasdiqlagan. (Vasquez, 2020)

Nanduri K.Rao o'zining olib borgan izlanishlari asosida kvinoa o'simligini shunday deb ataydi: "Kvinoa – iqlimga mos qishloq xo'jaligi uchun kelajak ekinidir." Va ushbu fikriga asoslanib, o'z ma'lumotlarida kvinoaning barcha xususiyatlarini keltirib o'tadi.

Y.Tang tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda kvinoa hamda amarant o'simligi urug'laridagi fitokimyoviy moddalar va ularning antioksidantlik xossalari, yallig'lanishga qarshi va sog'liq uchun potensial foydali xususiyatlari mavjud ekanligi hamda foydalanish uchun ko'rsatmalar ham keltirilgan.

A.M.Filho, M.R.Pirozi, J.T.Da Silva Borges kvinoaning tabiiy oqsilga boyligi, oziq-ovqat sifatida iste'mol qilishdagi foydali jihatlarni o'z tadqiqotlari asosida isbotlab berishgan. Kvinoaning iqlim sharoitlariga moslashish xususiyatlari ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Biroq, O'zbekistonda kvinoaning ekilishi hali yangi yo'nalish bo'lib, bu ekin bo'yicha ilmiy izlanishlar kam hisoblanadi.

O'zbekistonning janubiy hududlari, jumladan Surxondaryo viloyati qurg'oqchil va issiq iqlim sharoitlariga ega bo'lib, kvinoa kabi qurg'oqchilikka chidamli ekinlarni yetishtirish uchun mos keladi.

Kvinoa ekinini Surxondaryo viloyatining o'rtacha sho'rlangan taqirsimon tuproqlari sharoitida tajribani o'tkazishda eksperimental, fenologik, biometrik, agroximik ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Dunyo bo'yicha kvinoa hosildorligi mamlakatlarga qarab sezilarli farq qiladi:

Peru: Dunyoning eng yirik kvinoa ishlab chiqaruvchisi bo'lib, 2023 yilda 70,479 tonna kvinoa hosilini yetishtirgan.

Boliviya: 2023 yilda 41,380 tonna kvinoa hosilini ishlab chiqarib, ikkinchi o'rinda turadi.

Ekvador: 2022 yilda 1000 kg/ga hosildorlikka erishgan. Dunyo bo'yicha o'rtacha hosildorlik 2022 yilda 8,209 kg/ga ni tashkil etgan.

Hozirda Surxondaryo viloyati o'rtacha sho'rlangan taqirsimon tuproqlari sharoitida kvinoa ekish me'yori hamda ekish sxemasining o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rganish ustida tadqiqotlar olib bormoqdamiz. Shuningdek, o'simlikning o'sishi va rivojlanishida iqlim o'zgarishlari ta'siri haqida dastlabki ma'lumotlar tahlil qilindi.

Iqlim o'zgarishining ta'siri: Iqlim o'zgarishi kvinoaning hosildorligiga ta'sir etishi mumkin. Tadqiqot davomida shuni aniqladikki, iqlimning o'zgarishi va havo haroratining pasayishi kvinoaning o'sishi va hosil berish darajasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, kvinoa uchun optimallashtirilgan iqlim sharoitlari mavjud bo'lib, bu sharoitlarni aniqlash kelajakdagi tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi.

Boshqa ekinlarga nisbatan, kvinoaning suvga bo'lgan ehtiyoji pastroq, bu esa uni qurg'oqchil hududlarda ham ekish uchun mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatining iqlimi va tuproqlari kvinoa ekish uchun ma'lum bir sharoitlarni yaratadi, ammo hosilni oshirish uchun optimal agrotexnik usullarni tanlash zarur. Kvinoa uchun sug'orish va o'g'itlash usullarining ahamiyati kattadir, va bu omillarni to'g'ri boshqarish kvinoaning hosildorligini 30-40% darajasida oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, kvinoaning ekologik sharoitlarga moslashuvchanligi uning uzoq muddatli qishloq xo'jaligi uchun istiqbolli ekin ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi va suv resurslari muammolariga qaramay, kvinoaning rivojlanishi uchun muhim tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1.06.2017y. PQ-3027-son «2017 yilda boshqoli don ekinlaridan bo'shaydigan maydonlarga takroriy ekinlarni joylashtirish, ekin uchun talab etiladigan moddiy texnika resurslarini o'z muddatida yetkazib berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. Toshkent, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi PQ-4575-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. T-2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024 dagi " Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-36 son farmoni.T-2024

4. Alandia G., Rodriguez J.P., Jacobsen S.-E., Bazile D., Condori B. Global expansion of quinoa and challenges for the Andean region. *Global Food Chemistry*. 2020;(26):100429. <https://doi.org/10.1016/j.gfs.2020.100429>.
5. Bazile D., Salcedo S., Santivañez T., Bertero D., Nieto C. State of the art of quinoa in the world in 2013. Santiago de Chile, Chile.
6. Bhargava A., Shukla S., Ohri D., *Chenopodium quinoa*—An Indian perspective, *Ind. Crops Prod.* 2006;23(1):73-87. <https://doi.org/10.1016/j.indcrop.2005.04.002>.
7. Khaitov Botir; Aziz A. Karimov; Kristina Toderich; Zulfiya Sultanova; Azimjon Mamadrahimov; Kholik Allanov; Sokhib Islamov., 2020. Adaptation, grain yield and nutritional characteristics of quinoa (*Chenopodium quinoa*) genotypes in marginal environments of the Aral Sea Basin. *Journal of Plant Nutrition*: 12-21. DOI: 10.1080/01904167.2020.1862200.
8. Куренкова Евгения Михайловна, Кухаренкова Ольга Владимировна “МИРОВОЙ РЫНОК КИНОА”. Ст.901-905
9. www.refseek.com (<http://www.refseek.com/>)
10. www.worldcat.org (<http://www.worldcat.org/>)
11. <https://link.springer.com> (<https://link.springer.com/>)
12. www.bioline.org.br (<http://www.bioline.org.br/>)

URUG‘ MEVALI BOG‘LARNING SO‘RUVCHI VA KEMIRUVCHI ZARARKUNANDALARI HAMDA ULARGAQARSHI KURASH CHORALARI

Qurbanov Abduraim Norboyevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida mevali bog‘larda zarar keltiruvchi so‘ruvchi va kemiruvchi zararkunandalari bioekologiyasini o‘rganish orqali so‘ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarga qarshi kurash chora va usullari to‘grisida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalitso‘zlar: Pestidsid, avlod, entomofag, imoga, lichinka, gumbak, tuxum.

ABSTRACT: This article provides information on measures and methods for combating sucking and gnawing pests by studying the bioecology of sucking and gnawing pests that damage gardens in the Surkhandarya region.

Keywords: Pesticide, generation, entomophage, imago, larva, pupa, egg.

АННОТАЦИЯ: В данной статье представлена информация о мерах и методах борьбы с сосущими и грызущими вредителями путем изучения биоэкологии сосущих и грызущих вредителей, наносящих ущерб садам Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: Пестицид, поколение, энтомофаг, имаго, личинка, куколка, яйцо.

Kirish: Viloyatimiz bog ekin erlarida yetishtirilayotgan mevali daraxtlarni turli hil zararkunandalardan o‘z vaqtida himoya qilish orqali mevlarning sifati va hosildorligi oshishiga olib keladi. Yer yuzida hasharotlarning 1,5 milliondan ortiq turi fanga ma‘lum. Tabiatda hasharotlarning ahamiyati katta bo‘lib, ular ozuqa zanjirida organik moddalarining doiraviy aylanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shu bilan bir qatorda oziq ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun ham ularning zararli turlariga qarshi kurash lozim.

Asosiy qism: Surxondaryo viloyatida mevali daraxtlarni 250 dan ortiq bo'g'imoyoqlilar zararkunandalar zararlaydi. So'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalardan asosan o'simlik bitlari, o'rgamchakkana, qalqondorlar, qandalalar, sarq meva qurti, olma qurti kabi zararkunandalar mevali daraxtlarga katta zarar beradi.

Shiralar (o'simlik bitlari) *aphididae*- kattaligi 0,5-8 mm ba'zi turlari bitta turdagi o'simlikda barcha bo'g'inlari rivojlansa, ba'zilar bir o'simlikdan yoz faslida boshqa o'simlikga o'tib, kuzda yana o'sha o'simlikga qaytadi. Bir yilda 20-25 bo'g'in beradi. Shiralar yosh novda va barglarning shirasini so'rishi orqali daraxtning kuchini yo'qotadi, hosilni pasaytiradi, novda va barglar qiyshayadi va keyingi yil qishlab chiqishga kuchsiz bo'lib qoladi.

-Olma shirasi- asosan olma, behi, nok daraxtlariga zarar yetkazadi. Kattaligi 2 mm, yosh novdalarda tuxumlari qishlab chiqib, bahorda shu joyda oziqlanib boshlaydi. Yetuk holga kelgach bahorda partogenetik usulda 50 ta, yozda 20-30 ta lichinkani tirik tug'adi.

-Qizil qon shirasi – kattaligi 2,1-2,6 mm usti oq g'uborli ezilganda qizil rang chiqadi. Lichinka va yetuk zoti daraxt po'stloq osti, yo'g'on shoxlar asosida qishlab chiqadi. Mart-aprel oylarida uyg'onadi. Bir yilda 15-16 bo'g'in beradi. Zararlangan novdalarda g'urralar paydo bo'ladi, novdalar qiyshayadi. May oyida qanotli zotlari paydo bo'lib, uchish yoki ko'chatlar orqali tarqaladi.

Qalqondorlar – erkaklari qanotli oziqlanmaydi faqat ko'payishda ishtirok etib, bir necha soatdan 2-3 kungacha yashaydi. Urg'ochilari qalqoni ostida qishlab chiqqan lichinkalari bahorda o'simlik bo'ylab tarqaladi va po'stloq yoki bargga joylashib oziqlanadi. Natijada barglar tez to'kiladi, mevalar tamsiz bo'lib qoladi. Novdalar yelim bilan qoplanadi.

- Olma vergulsimon qalqondori – novdada to'p-to'p bo'lib yashaydi. Ona qalqoni ostida qishlab chiqadi. Urg'ochisi qalqoni ostiga 50-100 gacha tuxum qo'yadi. Bir yilda 1-2 bo'g'in beradi.

- Gunafsha rangli qalqondor – barcha mevali daraxtlarni zararlaydi. O'simlik zararlaganda barg, novda va mevasida binafsha rangli yumoloq dog'lar qoladi. O'talangan ona zoti qishlab chiqib, bahorda 70 ga yaqin tuxum qo'yadi.

- Akatsiya soxta qalqondori – hammaxo'r, lichinka holida po'stloq osti va yerga yaqin joyda qishlaydi. Asosan barglarni zararlaydi.

O'rgamchakkanalar- ikki oilaga 4 oyoqliva 2 juftoyoqli oilaga bo'linadi. 2 juft oyoqli kanalar 15-20 marta kattalashtirilganda ko'rinadi.

- Oddiy o'rgamchakkana – hammaxo'r (ko'plab o'simliklarga olma, gilos, olcha, olxo, riga zarar keltiradi), yiliga 11-13 bo'g'in beradi. Kattaligi 0,3-0,4 mm, lichinkasi 3 juftoyoqli, nimfa va imogasi 4 juft oyoqli bo'ladi. Birinchi bo'g'ini begona o't (qo'yechak)da bo'lib, keyingi avlodlari daraxtlarga shamol va iplari orqali tarqaladi. O'talangan urg'ochi zotlari turli joylarda minus -20-29 C gacha qishlaydi.

- Do'lana kanasi – olma, nok, olxo'ri, gilos, olcha, shaftoli, o'rik kabilarga zarar keltiradi. Kattaligi 550-300 mikron to'qqizil rangli, orqasida 12 juft tuki bor. O'talangan urg'ochi zotlari xazonlar orasida qishlab chiqadi. Biryilda 7-9 avlod beradi. Bahorda urg'ochisi 40 kun yashab, 150-160 ta tuxum qo'yadi.

- Bog' o'rgamchakkanasi – olma, gilos, olcha, olxo'ri, toklarga zarar keltiradi. Yiliga 7-10 bo'g'in beradi. Orqasida 13 ta tuki bor. O'talangan urg'ochi kana paraxt po'sloqlarida qishlaydi. Bitta kana 40-60 kun yashab, 50 tacha tuxum qo'yadi.

- Shish qo'zg'atuvchi nok kanasi – olma, nok, behi, do'lana kabilarni zararlaydi. 4 juft oyoqli, yetuk zoti daraxt kurtagi yoni va po'stloq ostida qishlab chiqadi. Bahorda navda yuqorisidagi novda barglari ostiga shishlar hosil qilib ichida oziqlanadi.

Qandalalar – olma va nok qandalalari- to'qilgan doira to'rlarini eslatadi. Ser harakat uchadi. Barg orqasidan zararlab, usti och yashil oq bo'lib tovlanadi. Yetuk zoti daraxt po'slog'i yoki xazonlar orasida qishlaydi.

Qishloq xo'jalik ekinlari zararkunandalardan himoya qilishda agrotexnik, biologik, kimyoviy va uyg'unlashgan himoya turlarini ketma ketlikda amalga oshirish zarur. Zarurat tug'ilganda keyingi bosqichga o'tiladi. Daraxtlar gullagandan keyin har 100 novdada 10 ta shiralar to'plami borligi kuzatilsa, ularga qarshi kimyoviy kurash olib boriladi. Biroq, bunda entomofaglar soni hisobga olinishi zarur.

Agar afidofaglar bilan bitlar nisbati 1:20, 1:30 bo'lsa, kimyoviy kurash chorasidan voz kechiladi. Zararkunanda hashoratlarning biologik xususiyatlarini o'rganish, ularning rivojlanish bosqichlari, rivojlanishiga turli xildagi omillar ta'sirini o'rganish orqali ularga eng maqbul fazalarida va maqbul usullar bilan samarali qarshi kurashni qo'llash mumkin bo'ladi.

Olma qurti, olma mevaxo'ri (*Carpocapsa pomonella*) — [urug'li mevalarning zararkunandasi](#), barg o'rovchi [kapalaklar oilasidan](#). [Olma, behi, nok](#), ba'zan [o'rik](#), [shaftoli](#), [olxo'ri](#) mevalariga zarar yetkazadi. Mevaning [urug'i](#) va eti bilan oziqlanadi. Olmaqurti kapalaklarining [qanotlari](#) yozilganida" 18–21 mm, oldingi qanotlari kulrang, kanotlari asosi va uchi qoramtir; keyingi qanotlari och qo'ng'ir, oqish tukli. So'nggi yoshdagi [qurtlari](#) 14–20 mm, och pushti. [G'umbak](#) davrida daraxt po'stlog'i, to'kilgan shoxshabba va [barglar](#) ostida, [tuproqning](#) yuza qavatida, meva omborlari devorlari kavagida, meva yashiklari tirqishlarida qishlaydi. Erta bahorda olma gullaganda pilladan kapalak uchib chiqib, daraxt bargi va gullariga tuxum qo'yadi. [Tuxumlardan](#) 6-8 kundan so'ng qurtlar chiqib, mevalarni zararlaydi. Mavsumda 3-4 marta nasl beradi.

Kurash choralari: erta bahorda daraxt poyasidan eski ko'chgan po'stloq olib tashlanadi; ildizi atrofidagi tuproq yaxshi yumshatiladi; meva saqlanadigan omborlar va yashiklar dezinfeksiya qilinadi; to'kilgan mevalar har doim yig'ib olib turiladi; kapalaklar har qaysi naslining paydo bo'li-shi davrida daraxtlar insektitsidlar (fozalon, Bi-58) va boshqa preparatlar bilan ishlanadi

Sharq mevaxo'ri – Grapholitha molesta Busck.Zarari. Shaftoli, olxo'ri, gilos, olcha, o'rik, olma, nok va behiga jiddiy zarar yetkazadi. U asosan novda va mevani zararlaydi. Gilos daraxtlarida esa yangi o'sgan novda uchidan kirib o'rtasini yeydi. Shaftolining yosh novdalarini zararlab, bora-bora quritib qo'yadi. Shaftolida meva ichiga kirib danak atrofini yeydi.

Ta'rifi. Kapalagi qanotlarini yozganda uzunligi 1,0-1,5 sm, qo'ng'ir tusli, ko'kragi qornidan qoramtirroq. Oldingi qanotlarining chekkasida oq dog'chalari bor. Qanotlarning p opugi qo'ng'ir tusli. Tuxumi 0,7 mm; yumaloq yoki oval shaklda, yuqori tomoni burishgan. Qurtining kattaligi 12 mm gacha, yoshligida oq, rivojlanib bo'lishiga yaqin och qizg'ish tusga kiradi. G'umbagi jigar rang, qurtining so'nggi segmentining yuzasida qillari bor, shu orqali bu qurti olma qurti va boshqa qurtlardan farqlash mumkin.

Kurash choralari. Agrotexnik tadbirlar – kuzda xazon barglarni to'plab ko'mib yuborish; daraxt tanasini eski po'stloqlardan tozalash; daraxt atrofini chopiq qilish; daraxtlar tanasini oqlash; bog'larda tutqich belbog'lar o'rnatish; pishmay to'kilayotgan mevalarni har kuni terib olish.

Kimyoviy usul: Tarkibida xloratraniliprol, dimetoat, malation, tiokloprid bo'lgan kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish kerak.

Agrotexnik tadbirlar – tuproq strukturasi yaxshilash, oraliq masofani normallashtirish, begona o'tlarni yo'qotish chunki zararkunandalarning ko'p qismi dastlab begona o'tlarda ko'payib keyin qishloq xo'jaligi ekinlariga o'tadi. Me'yorida suv berish va o'simlik uchun ozuqa sifatida mineral o'g'itlar, makro va mikro elementlar zarur bo'ladi. Mineral o'g'it tuproq zarrachalari orasiga kirib tuproqning g'ovvakligini ortiradi. Makro-mikro elementlar yetishmaganda ham o'simlikda belgilari paydo bo'ladi. Masalan azot yetishmasa o'sishdan orqada qoladi, barglari maydalashib ketadi va och yashil rangga kiradi. Fosfor yetishmaganda meva hosil qilishi pasayadi, barg va tomiri qizg'ish rangga kiradi. Kaliy yetishmaganda barg chetidan quriy boshlaydi, novdada ko'p sonli mayda kurtaklar paydo bo'ladi. Kalsiy yetishmasa o'simlik ildiz qismi yaxshi rivojlanmaydi. Temir yetishmasa yuqori qismida xloroz (barg sarg'ayishi) kuzatilib, barglar to'kilib ketadi.

Biologik qarshi kurash - tabiatda bu zararkunandalarga qarshi hashoratlar ham mavjud lekin, o'simlik, zararkunanda va entomofaglar (ozuqa zanjiri ketma-ketligi)da paydo bo'lib, bu zararkunandalar ko'paygandan so'ng entomofaglar (biz uchun foydali hashoratlar) paydo bo'ladi. Entomofaglar tabiiy holda paydo bo'lguncha o'simlikning yosh navda va barglariga katta zarar yetkazib qo'yadi. Shuning uchun entomofaglarni sun'iy ravishta biolaboratoriyalarda ko'paytirib qishloq xo'jaligi ekinlaridagi zararkunanda hashoratlarga qarshi qo'yiladi.

Kimyoviy kurash - o'ta kuchli zaharlilik va tez ta'sir xususiyatiga ega lekin, noto'g'ri qo'llanilganda tuproq, o'simlikda va uning hosilida uzoq vaqt parchalanmasdan saqlanib qolishi bilan bir qatorda hashoratlarda pestitsidlarga bo'lgan chidamliligi oshib boradi. Xlororganik va Fosfororganik pestitsidlar yaxshi samarali bo'lishi bilan bir qatorda inson va issiqqonli hayvonlar organizmida kumilyativ (yig'ilib borish) xususiyatiga ega. Zaharli modda birdaniga ta'sir qilmasda yig'ilib borishi natijasida bir qancha yillardan keyin ma'lum bir a'zoni umuman ishdan chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda sintetik peritroidlar va (o'simlik, bakteriya, viruslardan olinuvchi zaharli moddalar) bilan navbatma-navbat almashtirib ishlatib turish lozim. Ayniqsa pestitsidlarni ishlatishda ularning sarf me'yoridan ortiq qo'llamaslik, ikkinchi bora qo'llashda oraliq masofa 20-30 kundan so'ng qo'llash, hosilni yig'ishda ham 20-30 kun oldin pestisid qo'llashni to'xtatish lozim. Hozirda O'zbekistonda deyarli xlororganik pestitsidlar qo'llanilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami

1. O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda ig'or tajriba (maqolalar to'plami) Toshkent-Talqin 2008

2. O'simliklarni himoya qilish E.Sh.Toreniyazov, Sh.T.Xo'jayev, E.A.Xolmurodov Toshkent 2018

3. O'simliklar klinikasida bog', tokzor va dala ekinlarining zararkunanda, kasalliklarini aniqlash hamda ularga qarshi kurash usullari. I.K.Ergashev, B.E.Murodov, O.A.Sulaymonov, B.A.Sulaymonov, B.S.Boltayev, A.R.Anarboyev. Toshkent-2018 "Navruz" nashriyoti.

4. Urug'li intensiv meva bog'lari. A.U.Aripov, A.A.Aripov. "Sharq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2013.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tuproqdagi kaliyning shakllari va ularning o'zgarishi haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Tuproq tarkibida kaliy yetishmaganda o'simlikda sodir bo'ladigan o'zgarishlar hamda o'simliklarning kaliy bilan bog'liq xususiyatlari o'rganilgan. Kaliy yetishmovchiligi belgilarining rivojlanishi o'simlik ichidagi kaliyning xatti-harakati bilan bog'liq. O'simliklarning ochligi ulardagi kaliy miqdori normaga nisbatan 3-5 barobar kamayganda aniqlanadi. Kaliy yetishmovchiligi ekinlarning rivojlanishi va pishishini kechiktiradi. Don ekinlarida somonning hujayra devoridagi sklerenximaning ulushi va epidermisning qalinligi pasayadi, bu esa uni kamroq bardoshli qiladi.

Kalit so'zlar: Kaliy yetishmovchiligi, almashiniladigan kaliy, suvda eruvchan kaliy, almashinilmaydigan kaliy, Kirsanov usuli, Chirikov usuli, Machigin usuli, dala shpati, slyuda.

Kirish. Kaliy o'simliklarning asosiy va muhim oziq moddalaridan biridir. Uning o'simliklardagi tarkibi, azotdan tashqari, tuproqdan olingan boshqa oziq moddalarga qaraganda sezilarli darajada ko'pdir. Uning o'simlik hujayralarida etarli darajada bo'lishi bilangina biokimyoviy va fiziologik jarayonlar sodir bo'lishi mumkin.

Kaliy o'simliklarning metabolik jarayonlarida ishtirok etadigan o'simliklarning eng muhim oziqlantiruvchi elementlaridan biri bo'lib, ekinlarning sovuqqa chidamliligi va qurg'oqchilikka chidamliligini, o'simliklarning zamburug'li va bakterial kasalliklarga chidamliligini sezilarli darajada oshiradi, azot fiksatsiyasini kuchaytiradi va dukkakli o'simliklarning ildizlarida tugunlar paydo bo'lishiga yordam beradi, o'simliklarga radionuklidlarni olishni kamaytiradi [1].

O'simliklar kaliyning ko'p qismini tuproqdan oladi, unda element turli darajadagi mavjud birikmalar bilan ifodalanadi. Tuproqlarning kaliy holatining modeli mavjud [2], unga ko'ra kaliyga nisbatan tuproqning unumdorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan va umumiy qabul qilingan [3-4].

Kaliyning maqbul ta'minlanishi o'simlikda uglevodlarning intensiv to'planishiga olib keladi. Mahsulot sifati oshadi: meva va sabzavotlarda shakar miqdori ortadi, kartoshkadagi kraxmal miqdori ortadi, zig'irdagi tolaning nozikligi va mustahkamligi oshadi. Shu bilan birga, ekinlarning sovuqqa chidamliligi ortadi, chunki hujayra shirasining osmotik bosimining oshishi uning muzlash haroratini pasaytiradi. O'simliklarning kaliy bilan oziqlanishini optimallashtirish ularning kasalliklariga qarshi turadi. Don ekinlarining ildiz chirishi va chang chiriyotganga moyilligi sezilarli darajada kamayadi (Prokoshev, Deryugina, 2000). O'simlik hujayrasida kaliy miqdori ortishi bilan sabzi bakterial barg dog'iga va piyozning chiriyotgan va piyoz chivinlariga sezgirligi pasayadi (Yakimenko, 2003). O'simliklarning ammiak bilan oziqlanishi bilan kaliyning roli ortadi - azot yaxshiroq so'riladi, ko'proq oqsillar hosil bo'ladi.

Ekinlar tuproqdagi kaliydan foydalanish qobiliyatida sezilarli darajada farqlanadi. Pomidor va karam kuchli ildiz tizimiga ega va ularning ehtiyojlarini nisbatan erishib bo'lmaydigan kaliy shakllari bilan qondirishi mumkin. Ildiz tizimiga ega bo'lgan kartoshka, piyoz va sabzi ulardan sezilarli darajada past. Agar kaliy yetishmovchiligi mavjud bo'lsa, ular azot-fosforli o'g'itlarni qo'llashga javob bermaydilar va kaliyning past dozalarini hisobga olgan holda, ba'zan hosilni kamaytiradi. Donli ekinlar tuproq kaliysidan intensiv foydalanadi va og'ir granulometrik tarkibga ega bo'lgan tuproqlarda kaliyli o'g'itlarni qo'llashga kamdan-kam javob beradi.

Kaliy yetishmovchiligi belgilarining rivojlanishi o'simlik ichidagi kaliyning xatti-harakati bilan bog'liq. O'simliklarning ochligi ulardagi kaliy miqdori normaga nisbatan 3-5 barobar kamayganda aniqlanadi. Kaliy yetishmovchiligi ekinlarning rivojlanishi va pishishini kechiktiradi. Don ekinlarida somonning hujayra devoridagi sklerenximaning ulushi va epidermisning qalinligi pasayadi, bu esa uni kamroq bardoshli qiladi. Donni joylashtirish xavfi ortadi.

Tuproqlardagi kaliy rejimining tabiati tuproqlarning tuproqni singdirish kompleksining xususiyatlari va ularning gidrotermik rejimi - namlash-quritish va muzlash-erish davrlarining almashinishi bilan belgilanadi. O'simlikning kaliy bilan oziqlanishiga bo'lgan ehtiyojini qondirishning asosiy manbai almashtiriladigan kaliydir. Suvda eruvchan kaliy almashinadigan kaliyning o'rtacha 10-20% ni tashkil qiladi.

O'simliklar uchun mavjud bo'lgan kaliy shakllarining doimiy yangilanishi uchun zaxira almashtirilmaydigan shakllardir. Ular juda muhim. Ildiz zonasidagi chernozem tuproqlarida ularning zaxiralari 7 t / ga gacha baholanadi. Zaxira tarkibiga kaliyli organik moddalar ham kiradi. Uning miqdori kichik - soz-podzolik va bo'z o'rmon tuproqlarida 70 ga yaqin va chernozemlarda 300 kg / ga dan biroz ko'proq. Umuman olganda, potentsial zaxirada umumiy kaliy zahiralarning 50-80% jamlangan. 0,001 mm dan katta mexanik elementlarda taqdim etilgan. Ularda dala shpati va slyuda bor.

O'simliklar uchun mavjud bo'lgan kaliyni to'ldirishning asosiy manbai eng yaqin zahiradir. U qatlamli loy minerallari bilan bog'liq bo'lgan kaliy shakllari bilan ifodalanadi. U umumiy kaliy zaxirasining chorak va yarmini tashkil qiladi.

Shunday qilib, o'simliklar uchun eng qulay bo'lgan kaliy gil fraktsiyasi bo'lib, u asosan almashinadigan holatda bo'ladi. Aynan shu fraksiya tarkibida slyuda minerallarining yuqori miqdori mavjud.

Almashinadigan kaliyni aniqlash

Almashinadigan kaliyni aniqlash fosfor bilan bir xil ekstraktlarda amalga oshiriladi: Chirikov usuli va Kirsanov usuli yordamida. Usullar kaliyni tuproqning yutilish kompleksidan qandaydir kation, masalan, H^+ bilan siqib chiqarishga asoslangan. Karbonatli tuproqlarda almashtiriladigan kaliyni aniqlash Machigin bo'yicha 1% ammoniy karbonat ekstraktida amalga oshiriladi.

Usulning printsiplari

Tuproqni 0,5 n sirka kislota eritmasi bilan ishlov berishda, tuproqning eritmaga nisbati 1:2,5 bo'lsa, almashtiriladigan kaliy vodorod ionlari bilan almashtiriladi.

Tuproqdagi almashtiriladigan kaliyning ta'minoti mahalliy gradatsiyalar bo'yicha baholanadi (1-jadval).

1-jadval

Almashtiriladigan kaliy miqdori bo'yicha tuproqlarni guruhlash.

Ta'minlanganlik darajasi	K ₂ O ₅ , mg/100 g tuproqda			Ekinlarning turli guruhlari uchun tuproqni kaliy bilan ta'minlash		
	Kirsanov bo'yicha	Chirikov bo'yicha	Machigin bo'yicha	Don, donli dukkaklilar	Qatorli ekinlar va ko'p yillik o'tlar	Kartoshka, sabzavot, ildiz ekinlari.
1	<5	<5	<10	Past	Juda past	Juda past

2	5-10	5-7	10-20	Past	Past	Juda past
3	10-15	7-9	20-30	O'rtacha	Past	Juda past
4	15-20	9-11	30-40	Oshgan	O'rtacha	Past
5	20-30	11-15	40-60	Yuqori	Oshgan	O'rtacha
6	30-40	15-20	60-80	Juda yuqori	Yuqori	Oshgan
7	40-50	20-25	80-100	Juda yuqori	Juda yuqori	Yuqori
8	>50	>25	>100	Juda yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori

Ekinlarning o'sishi va rivojlanishining turli davrlarida kaliy bilan oziqlanishiga bo'lgan talablari bir xil emas. Bug'doyning kaliyni intensiv iste'mol qilish - bug'doy ekish va gullash davrida sodir bo'ladi. Taxminan 30 kun ichida bahorgi bug'doy o'zining butun hayoti uchun zarur bo'lgan barcha kaliyni tuproqdan o'zlashtiradi. Kaliyning eng yuqori konsentratsiyasi ekish bosqichida (3,5-4%), nisbiy minimali pishib etish davrida kuzatiladi.

Tuproqdagi kaliyning fraksiyonel tarkibi oson almashinadigan, almashinadigan, almashinmaydigan va tuproq skeleti kaliy kabi elementning turli shakllarini o'z ichiga oladi.

Almashtiriladigan kaliy o'simlikning kaliy bilan oziqlanishiga bo'lgan ehtiyojini qondirishning asosiy manbai hisoblanadi. Suvda eruvchan kaliy almashinadigan kaliyning o'rtacha 10-20% ni tashkil qiladi. O'zgarmas shakllar o'simliklar uchun mavjud bo'lgan kaliy shakllarini doimiy yangilash uchun zaxira hisoblanadi. Ildiz zonasidagi chernozem tuproqlarida ularning zaxiralari 7 t / ga gacha baholanadi.

Tuproq skeletining kaliysi tuproq kaliy fondining asosini tashkil qiladi. U dala shpati, slyuda va boshqalar kabi yomon eriydigan tuproq minerallarining bir qismidir. Eng yaqin zaxira o'simliklar uchun mavjud bo'lgan kaliyni to'ldirishning asosiy manbai hisoblanadi. U qatlamli loy minerallari bilan bog'liq bo'lgan kaliy shakllari bilan ifodalanadi. U umumiy kaliy zaxirasining chorak va yarmini tashkil qiladi. O'simliklar uchun eng qulay kaliy gil fraksiyasida joylashgan bo'lib, u asosan almashinadigan holatda bo'ladi. O'simliklarning kaliy bilan oziqlanishiga tashxis qo'yish uchun kaliyning turli fraksiyalarini miqdoriy jihatdan ifodalash kerak. Buning uchun tuproqqa ta'sir qilish intensivligi har xil bo'lgan ekstraktlar qo'llaniladi, ular turli bog'lanish energiyasiga ega bo'lgan pozitsiyalardan kationlarni ajratib oladilar.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, tuproqda kaliyning bir qancha shakllari mavjud bo'lib, ular suvda eruvchan, almashinadigan, almashinadigan kaliy kabi bir qancha shakllari mavjud. O'simlik uchun kaliy mahsulot sifati oshadi: dukkakli ekinlarda tugunak hosil bo'lishini kuchaytiradi, meva va sabzavotlarda shakar miqdori ortadi, kartoshkadagi kraxmal miqdori ortadi, zig'irdagi tolaning nozikligi va mustahkamligi oshadi. Shu bilan birga, ekinlarning sovuqqa chidamliligi ortadi, chunki hujayra shirasining osmotik bosimining oshishi uning muzlash haroratini pasaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Osipova D. N., Ivanova S. E., Sokolova T. A. Kaliyli o'g'itlarning turli dozalarini qo'llash bilan oddiy chernozemlarning gil fraktsiyasining kaliy holati va mineralogik tarkibi // Moskva universiteti axborotnomasi. 17-seriya "Tuproqshunoslik". 2016. No 2. P. 11–17.
2. Sokolova T. A. Tuproqning kaliy holati, uni baholash usullari va optimallashtirish yo'llari. M: Moskva davlat universiteti, 1985. 46 b.
3. Prokoshev V.V., Deryugin I.P. Kaliy va kaliyli o'g'itlar: amaliy qo'llanma. M.: Ledum, 2000. 184 b.
4. Nikitina L. V. Geosetning uzoq muddatli tajribalarida har xil turdagi tuproqlarning kaliy rejimini o'rganish // Agrokimyo. 2018. No 1. B. 39–51. DOI: 10.7868/S0002188118010040.

PNEVMOMEXANIK YIGIRUV MASHINASINI O'RASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Nabijonov Samandar Hamdamjon o'g'li
Mansurov Eldor Bobirivich
Andijon davlat texnika instituti*

Anotatsiya: Ushbu maqolada, PPM-120 pnevmomexanik yigiruv mashinasining o'rash mexanizmini takomillashtirishga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. O'rash mexanizmi, mashinaning samarali ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada mashinaning joriy kamchiliklari, ularning natijalari va yangi dizaynlarni joriy etish orqali qanday yangiliklar kiritilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari pnevmatik tizimning ishonchligini oshirish, mexanik qismlarning mustahkamligini yaxshilash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotlar natijasida olingan natijalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mashinaning umumiy samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: PPM-120, pnevmomexanik yigiruv mashinasi, o'rash mexanizmi, takomillashtirish, pnevmatik tizim, mexanik qismlar, energiya samaradorligi.

Kirish: PPM-120 pnevmomexanik yigiruv mashinasi sanoat ishlab chiqarishida keng qo'llaniladi. O'rash mexanizmi, uning asosiysi bo'lib, yengil va og'ir mahsulotlar ishlab chiqarishda yuqori aniqlikni ta'minlash uchun zarurdir. Bu mexanizmning samaradorligi, mashinaning tezligi, ishonchligi va energiya samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Ayni paytda, PPM-120 ning mavjud o'rash mexanizmi bir qator kamchiliklarga ega, masalan, yuqori energiya sarfi, mexanik qismlarning tezki eskirishi va pnevmatik tizimning ishonchsizligi. Ushbu maqola, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish va mashinaning ishlash samaradorligini oshirish uchun takomillashtirish usullarini ko'rib chiqadi.[1].

PPM-120 mashinasining o'rash mexanizmida bir qator kamchiliklar mavjud, ular orasida:

✓ O'rash mexanizmi pnevmatik tizim orqali ishlaydi, ammo mavjud tizimda energiya sarfi juda yuqori, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi.

✓ O'rash mexanizmida ishlatilayotgan mexanik qismlar, ayniqsa valf va tizimdagi boshqa elementlar tez eskiradi, bu esa ularning ish faoliyatini susaytiradi.

✓ Hozirgi tizimda pnevmatik kompressorlarning yomon ishlashi va tizimning muammoli holatlari ishlab chiqarish jarayonlarining uzilishlariga olib keladi.[2]

✓ O‘rash mexanizmining javob berish tezligi ba‘zan ishlab chiqarishning tezligini sekinlashtiradi.

Kamchiliklarni bartaraf etish uchun taklif qilingan bir nechta takomillashtirish usullari quyidagilardan iborat:

– Yangi avlod pnevmatik komponentlari va kompressorlarni qo‘llash orqali energiya sarfini kamaytirish va tizimni samarali ishlashini ta‘minlash mumkin. Buning uchun maxsus boshqaruv tizimi va bosimni optimallashtirish texnologiyalarini joriy etish zarur.

– Mexanik qismlarni yuqori mustahkamlikka ega materiallar bilan almashtirish va ularning dizaynini takomillashtirish mexanizmning ishlash muddatini uzaytirishga yordam beradi. Masalan, komponentlarning ishqalanishini kamaytiruvchi qoplamalar qo‘llash mumkin.

– Mashina va uning komponentlarini real vaqtda kuzatib borish va boshqarish uchun zamonaviy sensorlar va mikroprotessor tizimlari yordamida avtomatik boshqaruv tizimini yaratish mumkin. Bu tizim yordamida pnevmatik va mexanik qismlar ish faoliyatini optimallashtirish mumkin.

– Mashina ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni erta aniqlash va ularni hal etish uchun diagnostika tizimlarini takomillashtirish zarur.[3].

Xulosa. PPM-120 pnevmomexanik yigiruv mashinasining o‘rash mexanizmini takomillashtirishda kiritilgan yangiliklar va o‘zgarishlar ishlab chiqarish jarayonlarini sezilarli darajada samarali qilish imkoniyatini beradi. O‘rash mexanizmidagi energiya sarfini kamaytirish, mexanik qismlarning ishonchliligini oshirish va pnevmatik tizimning samaradorligini yaxshilash orqali mashinaning umumiy ishlashini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Shuningdek, intellektual boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali jarayonni optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xusainov, M. (2022). *PPM-120 Mashinasining pnevmatik tizimi va uning samaradorligi*. Toshkent: Texnika universiteti nashri.
2. Karimov, D. (2021). *Mexanik tizimlar va ularning ishlash samaradorligi*. Samarqand: Texnologiya nashri.
3. Abdurahmonov, R., & Yusupov, A. (2023). *Pnevomexanik tizimlarning takomillashtirish yo‘llari*. Toshkent: Xalqaro ilmiy jurnal.

PNEVMOMEXANIK YIGIRUV MASHINASINI O‘RASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Nabijonov Samandar Hamdamjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti*

Pnevnomexanik yigiruv mashinalari zamonaviy sanoat jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mashinalar pnevmatik va mexanik tizimlarning birlashmasidan iborat bo‘lib, ularning asosiy vazifasi materiallarni yig‘ish va o‘rash jarayonlarini avtomatlashtirishdir. Bunday tizimlar ko‘plab sohalarda, jumladan, oziq-ovqat, kimyo, farmatsevtika va boshqa ishlab chiqarish

tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Pnevмомexanik yigiruv mashinalarining asosiy afzalliklari ularning yuqori samaradorligi, ishonchliligi va mahsulot sifatini ta'minlash qobiliyatidir.

Pnevmatik elementlar, masalan, havo bosimini ishlatib, mexanik harakatlarni tez va samarali amalga oshiradi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi va energiya xarajatlarini kamaytiradi. Ushbu mashinalar yordamida materiallarni yig'ish jarayoni ancha soddalashtiriladi, bu esa ishchilarning mehnatini yengillashtiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Ular materiallarni aniq va bir xil tarzda yig'ish imkoniyatiga ega, bu esa yakuniy mahsulotning sifatini ta'minlaydi. Masalan, oziq-ovqat sanoatida, bunday mashinalar yordamida mahsulotlar gigiyenik shartlarga muvofiq ravishda o'raladi, bu esa iste'molchilarning talablariga javob beradi. Shuningdek, farmatsevtika sohasida ham, yuqori sifatli va xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish uchun pnevмомexanik tizimlar juda muhimdir.

Bunday mashinalarning avtomatlashtirilgan tizimlari ish jarayonlarini soddalashtiradi va inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi. Ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan qo'lda yig'ish jarayoni ko'pincha xatolarga olib kelishi mumkin. Pnevмомexanik tizimlar yordamida bu muammolarni bartaraf etish mumkin, chunki ularning dasturlash imkoniyatlari mavjud. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yanada barqaror va ishonchli qiladi. Bundan tashqari, pnevмомexanik yigiruv mashinalarining texnik xizmat ko'rsatish va xizmat muddatini uzaytirish imkoniyatlari ham mavjud. Ular odatda kam parvarish talab qiladi va uzoq muddatli ishlashga mo'ljallangan. Bu esa sanoat korxonalariga qo'shimcha xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pnevмомexanik yigiruv mashinalarining rivojlanishi davom etmoqda. Innovatsion texnologiyalar, masalan, IoT (Internet of Things) va sun'iy intellektning integratsiyasi orqali bu tizimlarning ishlash samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bunday texnologiyalar yordamida mashinalar real vaqt rejimida ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini yanada optimallashtirishga imkon beradi.

Hozirgi kunda o'rash mexanizmlari sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ular mahsulotlarni himoya qilish, saqlash va transport qilish uchun zarur bo'lib, turli xil materiallar va mahsulotlar uchun moslashtirilgan. O'rash mexanizmlarining tahlili ularning samaradorligi, ishonchliligi, texnik xususiyatlari va innovatsion imkoniyatlarini baholashda yordam beradi.

O'rash mexanizmlari turli xil turlarini o'z ichiga oladi. Ular orasida avtomatik o'rash mashinalari, yarim avtomatik o'rash tizimlari, qo'l bilan ishlov berish uskunolari va boshqa innovatsion yechimlar mavjud. Avtomatik o'rash mashinalari asosan yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, katta miqdordagi mahsulotlarni tez va samarali o'rashga imkon beradi. Bunday tizimlar odatda sensorlar va dasturlash imkoniyatlari bilan jihozlangan bo'lib, bu ularning ishlashini yanada optimallashtirishga yordam beradi.

Yarim avtomatik o'rash tizimlari esa ishchilarning ishtirokini talab qiladi, ammo ular ham samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Bunday tizimlar ko'pincha kichik ishlab chiqarish korxonalari tomonidan qo'llaniladi. Ularning afzalliklari arzonligi va foydalanish qulayligidir. Biroq, bu tizimlar to'liq avtomatik variantlarga nisbatan sekinroq ishlaydi.

Qo'l bilan ishlov berish uskunolari esa oddiy va arzon yechim bo'lib, kichik miqdordagi mahsulotlarni o'rashda qo'llaniladi. Bunday uskunalar ko'proq hunarmandchilik va kichik korxonalar uchun mos keladi. Ularning kamchiliklari esa yuqori ishchilar xarajatlari va samaradorlikning pastligi bilan bog'liq.

O'rash mexanizmlarining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Masalan, IoT texnologiyalari yordamida o'rash tizimlari real vaqt rejimida

ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon beradi. Sun'iy intellektning integratsiyasi orqali o'rash mexanizmlari o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlariga ega bo'ladi, bu esa inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi. Bundan tashqari, o'rash materiallari ham o'zgarib bormoqda. An'anaviy plastik qadoqlar o'rmini ekologik toza materiallar egallamoqda. Biologik parchalanadigan qadoqlar va qayta ishlanadigan materiallar iste'molchilar orasida tobora ommalashmoqda. Bu tendentsiya ishlab chiqaruvchilarni yangi materiallar bilan tajriba o'tkazishga undamoqda.

O'rash mexanizmlarining ishonchliligi ham muhim omil hisoblanadi. Ularning uzluksiz ishlashi ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini soddalashtirish orqali mexanizmlarning xizmat muddatini uzaytirish mumkin. Zamonaviy o'rash tizimlari ko'pincha yuqori darajadagi avtomatlashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shuningdek, o'rash mexanizmlarining ergonomik dizayni ham ahamiyatlidir. Ishchilar uchun qulay sharoitlarni yaratish orqali ularning ish faoliyatini oshirish mumkin. Ergonomik dizayn ishchilarning charchoqlarini kamaytiradi va jarayonni tezlashtiradi.

O'rash mexanizmlari sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ular mahsulotlarni himoya qilish, saqlash va transport qilishda keng qo'llaniladi. Har bir o'rash mexanizmining o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo'lib, bu ularning samaradorligini va qo'llanish sohalarini belgilaydi.

Avtomatik o'rash mexanizmlari. Afzalliklari:

- ✓ Avtomatik o'rash mexanizmlari yuqori tezlikda ishlaydi, bu esa katta miqdordagi mahsulotlarni tezda o'rash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi.

- ✓ Bunday tizimlar ko'pincha yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ko'plab mahsulotlarni o'rashga qodir.

- ✓ Avtomatik tizimlar ishchilarni minimal darajada jalb qiladi, bu esa inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytiradi va jarayonni yanada ishonchli qiladi.

Kamchiliklari:

- ✓ Bunday tizimlar dastlabki investitsiyalarni talab qiladi, bu esa kichik korxonalar uchun qiyin bo'lishi mumkin.

- ✓ Avtomatik o'rash mexanizmlari texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi, bu esa qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

- ✓ Ba'zi avtomatik tizimlar faqat ma'lum turdagi mahsulotlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin, bu esa ularni boshqa mahsulotlarga moslashtirishni qiyinlashtiradi.

O'rash mexanizmlarining har bir turi o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Avtomatik tizimlar yuqori samaradorlik va tezlikni ta'minlaydi, lekin dastlabki xarajatlar va texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi. Yarim avtomatik tizimlar iqtisodiy jihatdan qulay, ammo samaradorligi pastroq bo'lishi mumkin. Qo'l bilan ishlov berish uskunolari arzon va oddiy, lekin ularning samaradorligi va xatolar ehtimoli yuqori. Har bir korxona o'z ehtiyojlariga mos ravishda eng maqbul yechimni tanlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.J.Jumaniyozov, Q.G'.G'ofurov, S.L.Matismailov va bosh. To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari. Darslik. - T.: G'.G'ulom, 2012

2. Q.G'. G'ofurov, S.L. Matismailov, M.Sh. Xoliyarov "Yigiruv korxonalari jihozlari", Toshkent, "Sharq" 2007y.
3. Hwanki Lee. Quality Control of Latest Spinning Process and Prevention of Textile Defects. Seoul, 2015.

ISSIQXONALARDA MIKROIQLIMNI BOSHQARISHGA OID ILMIY ISHLANMALARNI SURXANDARYO VILOYATINING AGRAR SEKTORIDA TIJORATLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Abdullayev Abdushukur Xamidovich

*Kadastr agentligi direktori o'rinbosari, "Geoinnovatsiya markazi" DUK direktori, Toshkent
davlat texnika universiteti, t.f.d. dotsenti*

O'raqov Eldor Erkin o'g'li

*Kadastr agentligi, "Geoinnovatsiya markazi" DUK ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktranti,
laboratoriya boshlig'i*


Annotatsiya. Ushbu tezisda issiqxona mikroiklimini boshqarish bo'yicha yaratilgan ilmiy ishlanmalarning Surxandaryo viloyati agrar sektorida amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xorijiy tajriba hamda mahalliy issiqxonalar holati asosida texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar, iqtisodiy samaradorlik va innovatsion mexanizmlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: issiqxona, mikroiklim, ilmiy ishlanma, tijoratlashtirish, Surxandaryo, agrotehnologiya.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda issiqxona xo'jaliklarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Surxandaryo viloyati o'zining iqlimiy sharoiti, quyosh nurlanishining yuqori darajasi va suv resurslariga yaqinligi bilan issiqxona faoliyatini yuritish uchun qulay hudud sanaladi. Biroq amaldagi issiqxonalarning katta qismida mikroiklim (harorat, namlik, havodagi karbonat angidrid miqdori) parametrlarini nazorat qilish an'anaviy usullarda, qo'lda amalga oshirilmoqda. Bu esa mahsulot yetishtirishda energiya samaradorligini pasaytiradi, hosildorlik va sifatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyo tajribasida, xususan Niderlandiya, Turkiya va Ispaniyada avtomatlashtirilgan mikroiklim boshqaruvi orqali issiqxonalarning barqaror ishlashi, hosildorlikni oshirish va eksportbop mahsulot yetishtirishga erishilgan. O'zbekiston ilmiy muassasalarida ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy ishlanmalar yaratilgan, biroq ularning aksariyati tijoratlashtirilmagan, ishlab chiqarishga keng joriy etilmagan. Shuning uchun, Surxandaryo viloyatida ushbu ishlanmalarning tijoratlashtirilishini tashkil etish orqali agrar sektor raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Mazkur tezisda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning samarali mexanizmlari, mavjud muammolar, xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar, iqtisodiy samaradorlik hamda amaliy takliflar yoritilgan.


TADQIQOT USLUBLARI. Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlar asosida olib borildi:

Mikroiklimni boshqarish bo'yicha yetakchi davlatlar — Niderlandiya, Ispaniya va Turkiya tajribalari tahlil qilindi. Bu davlatlarda issiqxona mikroiklimini avtomatik boshqarish tizimlari, masofadan turib monitoring qilish, energiya tejankor ventilyatsiya va irrigatsiya tizimlari, hamda sun'iy intellektga asoslangan optimallashtirish algoritmlari muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ularning texnologik yondashuvlari, boshqaruv modullari va servis infratuzilmasi o'rganilib, mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi [2].



1-rasm. Taklif etilgan issiqxona

Surxandaryo viloyatining iqlimiy sharoiti, suv resurslari, energiya ta'minoti, yer boniteti va agrar potentsiali inobatga olingan holda Termiz, Jarqo'rg'on va Angor tumanlarida faoliyat yuritayotgan issiqxonalarning texnik holati chuqur o'rganildi. Har bir issiqxonaning mikroiklim boshqaruv usullari (qo'lda yoki avtomatlashtirilgan), energiya sarfi, hosildorlik, texnik uskunalar va ishlatilayotgan texnologiyalar reyting asosida baholandi [3].



Nazorat qurilmalari ishlab chiqish



o'Ichangan mikroiklim paramterlarini tahlil qilish

2-rasm. Issiqxona iqlim nazoratini ishlab chiqish algoritmi

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.

Mikroiqlimni avtomatik boshqarishga oid mahalliy ilmiy ishlanmalardan biri (sensorlar to'plami, ventilyatsiya boshqaruvi, namlik regulyatori) 5 ta issiqxonada sinovdan o'tkazish hisoblanadi. Tajriba natijalariga ko'ra, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi o'rnatilgan issiqxonalarda mahsulot hosildorligi o'rtacha 20–25% ga oshishiga xizmat qiladi, energiya sarfi 15% ga kamayadi. Meva va sabzavot sifati yaxshilanib, bozordagi narxi 10–12% arzonroq bo'ladi. Issiqxona harorati va namligi barqaror saqlanib, o'simlik kasalliklarining kamayishi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Surxandaryo viloyatining tabiiy sharoitlari, issiqxona xo'jaliklarining ko'pligi va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholining mavjudligi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun salmoqli asos yaratadi. Ammo to'siq bo'layotgan omillar sifatida fermerlarning texnologik savodxonligi pastligi, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi va xizmat ko'rsatish infratuzilmasining yetarli emasligi qayd etildi. Bunday sharoitda davlat tomonidan rag'batlantirish, ilmiy loyihalarni amaliyotga yaqinlashtirish va xususiy investorlarni jalb qilish muhim strategiya sanaladi [4].

Amaldagi muammolar:

Fermerlarning texnik savodxonligi yetarli emasligi. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi va kredit resurslariga kirish imkoniyatining murakkabligi. Texnologiyalarni joriy etishda texnik xizmat ko'rsatish va ehtiyot qismlar ta'minoti yetarli emas.

XULOSA. Surxandaryo viloyatida issiqxona mikroiklimini boshqarishga oid mahalliy ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali nafaqat issiqxona xo'jaliklarining texnologik darajasini oshirish, balki umumiy samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilash imkoniyati mavjud. Avtomatlashtirilgan mikroiklim tizimlari harorat, namlik, yoritilish va CO₂ miqdorini aniq nazorat qilish orqali o'simliklarning optimal o'sish sharoitini yaratadi, bu esa o'z navbatida hosildorlikni 20–25% ga oshirish va mahsulot sifatini barqaror saqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, energiya sarfini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va mehnat unumdorligini oshirishga ham erishiladi. Ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga innovatsion yechimlar bozorini shakllantirish, servis xizmatlarini yo'lga qo'yish va startup-ekotizimni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Fermerlar esa zamonaviy texnologiyalar yordamida bozordagi raqobatbardoshligini oshirib, ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga eksport salohiyatini ham kuchaytirishlari mumkin. Xususan, ekologik toza, barqaror sifatga ega mahsulot yetishtirish orqali yuqori talabga ega xorijiy bozorlar, ayniqsa yaqin Sharq va MDH mamlakatlariga chiqish imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov A.N. – Issiqxona xo'jaligida mikroiklimni boshqarishning zamonaviy usullari, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, ilmiy maqola, 2021.
2. To'xtasinov B.T. – Yarim avtomatik issiqxonalarni boshqarish tizimlari, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, magistrlik dissertatsiyasi, 2020

3. Nazarov U. – O‘zbekiston sharoitida tomchilatib sug‘orish asosida iqlim nazorati texnologiyalari, “Fan va texnika yangiliklari” jurnali, 2022.
4. Xolmatov D.X. – Issiqxona qurilmalari va ularni avtomatik boshqarish asoslari, O‘quv qo‘llanma, Qishloq xo‘jaligi vazirligi nashriyoti, 2019.
5. Jalilov Sh.K. – Qishloq xo‘jaligida avtomatlashtirilgan tizimlar va ularning issiqxonalaridagi qo‘llanilishi, “Muhandislik muammolari” jurnali, 2023.
6. Saidov Z.M. – Iqlim parametrlarini real vaqt rejimida boshqarish tizimlari va dasturlash, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2021.
7. Karimova N.I. – Resurs tejankor texnologiyalar asosida issiqxona iqlimini optimallashtirish usullari, Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Samarqand, 2022.

SURXONDARYO VILOYATIDA AGRAR SOHA YO‘NALISHLARIDA OLIB BORILAYOTGAN ILMIY LOYIHALARNING DOLZARBLIGI VA DAVOMIYLIGINI TAHLILI

A‘zamov S.S.

Andijon davlat texnika instituti t.f.f.d, PhD.

Annotatsiya: Zamonaviy qishloq xo‘jaligi tizimlarida yuqori samarador va barqaror, ekologik toza muhit va tabiiy, usullardan foydalangan holda va rivojlanmagan tizimlarni ilmiy va zamonaviy raqamli qurilmalar saosida yutilgan Erasmus+ CBHE va amaliy, yoki startap loihalar asosida sohani rivojlantirish va hosildorlikni oshirish hamda ilmiy loyihalarning davomli va samarali maqsadlarni amalga oshirishdan iborat, qolaversa ekologik barqarorlik, resurslarni tejash va ilmiy yutuqlarni amaliyotga tadbqiq etishni talab qiladi. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy loyihalarning atrof-muhitga ta‘sirini, shuningdek, ularni olib borayotgan tadqiqotchilarga ko‘rsatayotgan ta‘siri chuqur tahlil qilingan.

Kirish: Hozirgi kunda global miqyosda inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish tez sur‘atlar bilan rivojlanib bormoqda. Respublikamizda ham qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va ilg‘or innovasiyalarga asoslangan holda rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. “Erasmus+ CBHE loyihalarining qishloq xo‘jaligi, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit sohasidagi oliy ta‘limga ta‘siri” Bunda asosiy vazifalardan biri sifatida agrosanoat majmuasida texnologik yutuqni ta‘minlash va raqamli qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsuldorlikni oshirishga erishish uchun raqamli texnologiyalar va platformali yechimlarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligini raqamli transformasiya qilish qaralmoqda. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ekin yerlari va suvdan samarali foydalanishda raqamli texnologiyalarni, intensiv bog‘lar tashkil etish, bog‘larni avtomatik tarzda boshqarish texnologiyalarini, issiqxona xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan intellektual texnologiyalarni, chorvachilik va parrandachilik sohasiga robotlashtirilgan, avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan texnologiyalarni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga, logistika va sotish markazlarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishiga xizmat qiladi. «Aqlli» qishloq xo‘jaligi tushunchasi – bu mehnat unumdorligini oshiradigan, ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradigan va agrar sektor barqarorligini oshiradigan ilg‘or texnik va raqamli yechimlardan (shu jumladan ishlab chiqarishni integrasiyalashgan avtomatlashtirish va robotlashtirish, katta ma‘lumotlarni qayta

ishlash tizimlari, mashinalarni o'rganish va sun'iy intellekt) foydalangan holda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy usullariga asoslangan qishloq xo'jaligini anglatadi.

Asosiy qisim: Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, moddiy texnika ta'minotini talab darajasida yaratish, ularni zamonaviy raqamli texnologiya bilan qurollantirish hamda qishloq xo'jaligi sektorida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yerga, mulkka bo'lgan egalik hissini yanada oshirish, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, yangi mulkchilikka va raqamli iqtisodiyotga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil qilish va optimal tartibga solish mexanizmlari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Olimlarning qayd etishicha, sensor qurilmalari yordamida, fermerlar masofadan turib, yer maydonlaridagi to'yingan tuproq harorati, tuproqdagi namlik, o'simlikdagi kasalliklar haqida ma'lumotlarni bilish imkoniyati berish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Olingan ma'lumotlar orqali fermerlar shu vaqtning o'zida kerakli chora va tadbirlarni olib borishi mumkin. "Aqlli" qishloq xo'jaligi tizimi orqali fermerlar buyumlar internet orqali bog'lash (IoT) yordamida yuqori ishlab chiqarish samaradorligiga erishishi mumkinligi isbotlangan. Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi jarayonlarni amalga oshirish uchun "bulut" texnologiyalari (cloud technologies) dan ham foydalanilgan. Buyumlar internet orqali bog'lash (IoT) "bulut" texnologiyalaridan foydalanish orqali sensor uzatgan ma'lumotlar jamlanadi va uzatilgan ma'lumotlarni baholab, yuqori natijaga erishish uchun kerakli jarayonlar amalga oshirilib, jarayonlarni amalda qo'llash uchun ma'lum o'lchov funksiyalari mavjud qayd etilgan. Olimlarimiz tomonidan yuqorida keltirilgan dolzarb masalalar bo'yicha 2021- 2023 yillarga mo'ljallangan "O'simliklar himoyasi va avtomatik sug'orish tizimiga asoslangan tuproqlar monitoringida ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalanish" mavzusida Hindiston mexanika va injinerlik muhandislik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan xalqaro ilmiy loyiha doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Loyihada ma'lumotlar bazasini yig'ish, tuproq tarkibini o'rganish, katta maydonlarda qo'llash usullari, shuningdek, avtomatik sug'orish tizimini laboratoriya sharoitida o'rganib, sinovdan o'tkazildi. Hozirda tadqiqotlar Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali Axborot-maslahat markazi tajriba maydonlarida pomidor hamda kartoshka ekinlarida sinovdan o'tkazilmoqda va dasturning algoritmi ishlab chiqilmoqda. Tadqiqotlarimizda ham yaratilgan algoritmlar orqali to'plangan ma'lumotlar asosida o'simliklarning salomatligi va tuproq tahlillari yuqoridagi kabi amalga oshirildi. Jarayonlarni amalga oshirish uchun "bulut" texnologiyalari (cloud technologies) dan ham foydalanildi. Buyumlar internet orqali bog'lash (IoT) "bulut" texnologiyalaridan foydalanish orqali sensor uzatgan ma'lumotlar jamlanadi va uzatilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, o'zaro qiyosiy baholandi. Tajribalarimizda ekinlar yetishtirish jarayoni odatdagi texnologiyalar asosida amalga oshirilib, barcha kuzatuv hamda tahlillar umumqabul qilingan uslub hamda tavsiyalar asosida olib borildi. Qishloq xo'jalik maydonlariga o'rnatilgan sensorlardan olingan tabiiy parametrlar o'lchanadi va yig'ilgan ma'lumotlar buyumlar interneti (IoT) bulut tizimi orqali ARM mikrokontroller (Arduino Uno board) va Zig-Bee moduliga yuboriladi. Mobil qurilma yoki kompyuterlar yordamida, foydalanuvchi masofadan turib ma'lumotlarni qabul qiladi va kuzatadi. So'nggi bosqichda fermer yig'ilgan ma'lumotlar orqali olib borilishi lozim bo'lgan ishlarni (sug'orish, resurslar menejmenti, ekinlarni nazorat qilish va hokazo) olib boradi.

Xulosalar: Taklif etilayotgan sug'orish tizimi mikrokontroller, mobil telefonlar, GSM moduli, sensorlar to'plami va suv nasosini boshqarish blokidan iborat. Sensorlar to'plami haroratni o'lchash sensori, namlikni o'lchash sensori, yorug'lik sensori va yomg'ir sensoridan

iborat bo'lib, u dala sharoitlarini kuzatish uchun ishlatiladi, masalan, havoning harorati, tuproq namligi, quyosh yorug'ligi va yog'ingarchilik kabi ma'lumotlar yig'iladi. Taklif qilinayotgan sug'orish tizimidagi mobil aloqa (GSM) moduli mikrokontroller va smartfon o'rtasida xabarlarini yuborish va qabul qilish uchun ishlatiladi. Turli xil sensorlardan olingan ma'lumotlar va smartfonga o'rnatilgan dastur orqali tahlil qilingan ma'lumotlarni ARM mikrokontroller qabul qiladi va shu ma'lumotlarga asoslanib suv nasosini qo'shish yoki o'chirish orqali sug'orish tizimini boshqaradi. ARM mikrokontroller (GSM) moduli orqali fermerga sug'orish holati to'g'risida ma'lumotlarni jo'natadi va fermer butun sug'orish holatidan xabardor bo'lib turadi.

Adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 26 fevral, PQ-5009-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 1 martdagi PQ-144-son qarori.
3. Ayupov R.X., Djumaniyazova M.Yu. Цифровая трансформация в сельском хозяйстве Республики Узбекистан // Экономические науки DOI: 10.24411/2500-1000-2019-11020.
4. Siddikov I. X., Denmuxammadiyev A. M., A'zamov S. S. Muqobil turdan olingan energiyadan istemol qiluvchi asinxron motor quvvat balansini nazorat va monitoring qilish //jizpi xabarnomasi. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 126-128.
5. Mukhitdinov K. S., Juraev F. D. Methods of Macroeconomic Modeling //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), eISSN. – S. 2456-6470 5. Hasanov S. T., Khonkulov K. K., Akbarov H. U. The importance of a smart irrigation introduction system based on digital technologies in agriculture //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. Speical Issue 1–S. 89-94.
6. Lapidus L.V. Цифровая экономика: управление электронном бизнесом и электронной коммерций. – М.: INFRA-M, 2018. -381 s.
7. Xodiyev B. Yu. Цифровая экономика в Узбекистане // Мировая экономика, 2017. №12.

XO'JAIKON SILVINITI ZAXIRALARIDAN KALIY XLORID ISHLAB CHIQARISHNI YO'LGA QO'YISHNING IQTISODIY VA AGRAR AHAMIYATI

Tursunov S.A.

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

"Kimyo muhandisligi" kafedrası tayanch doktoranti.

Xodjamkulov S.Z.

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

"Kimyo muhandisligi" kafedrası doktori

Anotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida kaliy xlorid ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning iqtisodiy va qishloq xo'jaligi sohasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mahalliy

ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali O'zbekistonning mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini qondirish va importga qaramlikni kamaytirish imkoniyati muhokama qilinadi. Shuningdek, kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishni kuchaytirish natijasida agrar sektor samaradorligini oshirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, kaliy xlorid, kaliy o'g'itlari, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy foyda, mineral o'g'itlar, agrotexnika.

Asosiy qism: O'zbekistonning kaliy xloridga bo'lgan ehtiyoji va ishlab chiqarish imkoniyatlari.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonda qishloq xo'jaligi jadal rivojlanayotgan sektor hisoblanadi va bu sohada kaliyli o'g'itlarga bo'lgan talab yildan-yilga oshmoqda. 2021-yilda mamlakatda 197,4 ming tonna kaliyli o'g'it ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda kamayib, import hajmi ortdi. 2022-yilda mamlakat kaliyli o'g'itga bo'lgan umumiy ehtiyojining bir qismi Rossiya va Belarusdan import qilingan mahsulotlar bilan ta'minlandi. Ammo geosiyosiy vaziyatlar sababli, mintaqada kaliy xlorid eksportining sekinlashuvi O'zbekistonga o'g'it ta'minotida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu sababli, mahalliy ishlab chiqarishni kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan.

Surxondaryo viloyatida kaliy xlorid ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning iqtisodiy ahamiyati.

Surxondaryo viloyati tabiiy resurslarga boy bo'lib, mineral ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarga ega. Ushbu viloyatda kaliy xlorid ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bir necha yo'nalishlarda iqtisodiy foyda beradi:

Ish o'rinlarini yaratish: Yangi ishlab chiqarish korxonalarining ochilishi viloyatdagi bandlik darajasini oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.

Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish: Viloyat byudjetiga tushumlar oshishi natijasida infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga ko'proq mablag' ajratiladi.

Import o'rnini bosish va eksport imkoniyatlari: Mahalliy ishlab chiqarish importga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi va eksportni rivojlantirish imkonini beradi, bu esa tashqi savdo balansini yaxshilaydi.

Qishloq xo'jaligidagi ahamiyati

Kaliyli o'g'itlar qishloq xo'jaligida o'simliklarning o'sishi va mahsuldorligini oshirishda asosiy ahamiyatga ega. Kaliy xloridning qo'llanilishi o'simlik ildiz tizimining rivojlanishini rag'batlantirib, meva va don sifatini yaxshilaydi. O'zbekistonning g'alla, paxta va bog'dorchilik ekinlari uchun kaliyli o'g'itlarga bo'lgan ehtiyoji yuqori bo'lib, bu mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish agrar sektor samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Surxondaryo viloyatida kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali mahalliy fermerlarga o'g'itlar o'z vaqtida yetkazib beriladi va hosildorlik oshadi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar va samaradorlik.

Kaliy xlorid ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish jarayon samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratish, kimyoviy chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish orqali ekologik barqarorlikka erishish mumkin.

Surxondaryo viloyatida bunday yondashuvlar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Xulosa. Surxondaryo viloyatida kaliy xlorid ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish viloyat va respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. Mahalliy ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali O'zbekistonning o'g'itga bo'lgan ehtiyoji qoplanadi va import qaramligi kamayadi. Shu bilan birga, kaliy xlorid ishlab chiqarish orqali mamlakatda qishloq xo'jaligining samaradorligi oshib, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi. Yangi korxonalar ish o'rinlari yaratib, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar Surxondaryo viloyatida kaliy xlorid ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali agrar va iqtisodiy sohalarda erishiladigan natijalarni keng yoritishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "O'zbekistonning jahon kaliyli o'g'it bozoridagi imkoniyatlari qanday?" – Daryo.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi to'g'risidagi hujjatlar – Lex.uz.
3. "O'zbekistonda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari" – Daryo.uz.
4. "Kaliy xloriddan xlorsiz kaliyli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish". - Tursunov Sarvarbek Anvar o'g'li, Normurotov Jahongir Boymurodovich.
5. Yakovlev VA, "Flotatsion protsessy v rudnoy promyshlennosti", Metallurgiya,
6. Ostrovskiy A., "Dlya flotatsii reagenti: novye tendentsi i perspekti"
7. Mixaylov AG, "Flotatsiya va foydali qazilmalarni", Naukova Dumka, 2020.
8. Tursunov Sarvarbek Anvar o'g'li, Normurotov Jahongir Boymurodovich., "Kaliy xloriddan xlorsiz kaliyli o'g'itlar olish texnologiyasini ishlab chiqish".
9. [KALIY XLORIDINI SILVINITDAN AYRISHDA FLOTATSION REAGENTLARINING AHAMIYATI](#) S. Tursunov, S. Xojamqulov - Universum: texnicheskie nauki, 2024.
10. [SURXONDARYO VILOYATIDA KALIY XLORID ISHLAB CHIQARISHNI YO'LGA QO'YISHNING AHAMIYATI](#) S.A. Tursunov, S.Z. Xodjamkulov - Technical science research in Uzbekistan, 2024.

O'ZBEKSTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI SOHASINI RIVOJLANISHIDA O'LCHOV QURILMALARINING AHAMIYATI

*Abdimajidov Farrux Abdilamitovich
TDMAU*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishida o'lchov qurilmalarining tutgan o'rni, ularning samaradorlikka ta'siri va zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgan innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, o'lchov qurilmalarining sifat nazorati va mahsulot unumdorligiga qo'shgan hissasi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье освещено значение измерительных приборов в развитии сельского хозяйства Республики Узбекистан, их влияние на эффективность и инновационные подходы, основанные на современных технологиях. Также

рассматривается вклад измерительных приборов в контроль качества и повышение продуктивности продукции.

Abstract: This article highlights the importance of measuring instruments in the development of agriculture in the Republic of Uzbekistan, their impact on efficiency, and innovative approaches based on modern technologies. It also discusses the contribution of measuring instruments to quality control and productivity improvement.

Kalit so'zlar: O'lchov qurilmalari, qishloq xo'jaligi, samaradorlik, sifat nazorati, texnologiyalar, innovatsiyalar, o'lchash tizimlari.

Keywords: Measurement facilities, agriculture, efficient, quality control, technology, innovation, measurement systems.

Ключевые слова: измерительные приборы, сельское хозяйство, эффективность, контроль качества, технологии, инновации, измерительные системы.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi har doim jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib kelgan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish insoniyat uchun nafaqat oziq-ovqat, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni taminlovchi muhim omil hisoblangan. Texnika va texnologiyalarning rivojlanishi esa qishloq xo'jaligiga yangicha yondashuvlarni olib kirdi. Ayniqsa, o'lchov qurilmalari bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Dastlab, odamlar qishloq xo'jaligi ishlarini faqat o'z tajribasi va sezgilariga tayangan holda amalga oshirgan bo'lsalar, hozirgi zamonda har bir amaliyot aniq o'lchovlarga tayanadi. Qaysi ekin qancha suv olishi kerak, o'g'itlar qanday miqdorda qo'llanilishi zarur, chorva hayvonlarining salomatligi qanday baholanishi kerakligi kabi savollarga javob berishda o'lchov qurilmalari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham qishloq xo'jaligi sohasida tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Islohotlar natijasida ilg'or texnologiyalar, zamonaviy uskunalar, va ayniqsa, o'lchov qurilmalarining keng joriy qilinishi natijasida mahsulot sifatini oshirish va resurslardan samarali foydalanishga erishilmoqda.

Qishloq xo'jaligida o'lchov qurilmalarining umumiy o'rni

O'lchov qurilmalari qishloq xo'jaligida bir necha asosiy vazifalarni bajaradi:

- Suv sarfini nazorat qilish;
- O'g'itlar va pestitsidlar dozalarini aniqlash;
- Ekinlarning o'sish holatini monitoring qilish;
- Tuproq va suv sifatini tahlil qilish;
- Chorva hayvonlari sog'ligini nazorat qilish.

Bu vazifalar aniq va ishonchli natijalarga erishish uchun o'lchov qurilmalarining yuqori aniqlikda ishlashini talab qiladi. Masalan, suv ta'minoti tizimlarida foydalaniladigan oqim o'lchagichlar suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida o'lchov qurilmalaridan foydalanish tajribasi

O'zbekistonda so'nggi yillarda agrar sohani rivojlantirish uchun maxsus dasturlar qabul qilindi. "Har bir fermer – innovator" tamoyiliga asosan fermer xo'jaliklariga zamonaviy o'lchov texnikalari yetkazib berildi. Misol uchun, tuproq namligini o'lchovchi qurilmalar yordamida sug'orish tizimlarini optimallashtirish va suv tejashga erishildi. Sug'orish tizimlarida ishlatilayotgan lazerli darajalashtiruvchi asboblari, GPS asosida yuritilayotgan traktorlar, agrodronlar tomonidan olib borilayotgan kuzatuv ishlarida o'lchov qurilmalari asosiy o'rinni egallaydi.

O'lchov qurilmalarining mahsulot sifati va unumdorlikka ta'siri

Mahsulot sifatini nazorat qilish uchun ham aniq o'lchovlar zarur. Paxtaning tolali qismini, g'alla va poliz mahsulotlarining namlik darajasini aniqlash uchun maxsus laboratoriya o'lchov vositalari qo'llaniladi. Namlikni o'lchashda aniqlik bo'lmasa, mahsulot saqlash jarayonida chirish yoki sifatdan chiqish xavfi oshadi. Shuningdek, o'lchov qurilmalari yordamida o'g'itlash me'yorlarini aniq belgilash mumkin bo'lib, bu hosildorlikni oshiradi va ortiqcha resurs sarfini kamaytiradi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning roli

Agrotexnologiyalar sohasida sensorlar, IoT (Internet of Things) tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi qurilmalar keng qo'llanilmoqda. Masalan, masofadan tuproq harorati, namligi va minerallar tarkibini o'lchash imkonini beruvchi qurilmalar ishlab chiqilmoqda. Bu qurilmalar orqali real vaqt rejimida ma'lumot olish va ularga asoslanib qaror qabul qilish mumkin bo'ladi. Natijada, agrotexnologiyalarda resurslardan maksimal darajada foydalangan holda, minimal zarar bilan yuqori sifatli mahsulot yetishtirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida o'lchov texnologiyalari rivojlanish istiqbollari

Kelgusida O'zbekistonda:

- Aqli o'lchov tizimlari (Smart measuring systems) keng joriy etilishi;
- Kichik fermer xo'jaliklari uchun arzon va ixcham o'lchov qurilmalari ishlab chiqarilishi;
- Qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida o'lchov ma'lumotlari almashinuv tizimining yaratilishi;
- Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda optimal boshqaruv tizimlarining joriy etilishi kutilmoqda.

Bu yo'nalishlar orqali qishloq xo'jaligi sohasi yanada raqobatbardosh va barqaror bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'lchov qurilmalari qishloq xo'jaligining har bir bosqichida ekishdan to yig'im-terimgacha, mahsulotni saqlash va qayta ishlashgacha ajralmas yordamchi vosita sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi agrar sohani zamonaviylashtirishda o'lchov texnikalarining ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu sohani rivojlantirish uchun keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. O'lchov qurilmalaridan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatini oshirish, resurslardan tejab-tergab foydalanish va natijada, umumiy iqtisodiy o'sishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat". Toshkent, "O'zbekiston", 1997.
2. Matnazarov S. "Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar", Toshkent, 2020.
3. Handbook of Agricultural Instrumentation, Springer, 2019.
4. UzStandard agentligi rasmiy veb-sayti: www.standart.uz (2024-yil ma'lumotlari).

RESPUBLIKAMIZ JANUBIY MINTAQALARI SHAROITIDA POLIZ EKINLARINING ZAMBURUG'LI KASALLIKLARI

Qurbanov Abduraim Norboyevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

Norboyeva Hilola Jamshid qizi

Annotatsiya: ushbu maqolada Surxondaryo viloyati sharoitida poliz ekinlarining zamburug‘lar dunyosiga oid ma’lumotlar mavjud. Bunda asosiy poliz ekinlaridan qovun va tarvuzda keng tarqalgan zamburug‘ turlari va ularning o‘simliklar bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari o‘rganilgan. Olingan ma’lumotlar poliz ekinlarini zamburug‘li kasalliklardan himoya qilishda nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so‘zlar: тўқима, Deuteramycetes, Ascomycetes, Oomycetes, нам камера, микромицет, Cucumis melo, Citrullus lanatus, замбуруғлар олами, микобиота, форма, замбуруғ.

Аннотация: в данной статье приводятся сведения о микобиотах бахчевых культур в условиях Сурхандарьинской области. Определены основные виды микромицетов и изучена закономерность распространения по растениям основных бахчевых культур как дыни и арбузов. Полученные данные имеют научное и практическое значение для защиты от грибных болезней бахчевых культур.

Abstract: This article provides information on the mycobiota of melons and gourds in the Surkhandarya region. The main types of micromycetes are determined and the distribution pattern of the main melons and gourds such as melons and watermelons is studied. The data obtained are of scientific and practical importance for protecting melons and gourds from fungal diseases.

Kirish. Dunyo olimlari tomonidan poliz ekinlari zamburug‘lari dunyosi, zamburug‘larning rivojlanish qonuniyatlari, turlarning bioekologik xususiyatlarini o‘rganish asosida ularga qarshi ilmiy asoslangan samarali kurash choralarini ishlab chiqilmoxda. Bunday ko‘p qirrali tadqiqot ishlari AQSh, Braziliya, Gresiya, Isroil, Ispaniya, Italiya, Meksika, Tunis, Turkiya, Xitoy, Xindiston va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan olib borilgan. Olimlarimiz tomonidan ham poliz ekinlarining zamburug‘li kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini o‘rganish ishlari amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan Respublikamiz sharoitida o‘rganilmagan hududlar ham mavjud bo‘lib, Surxondaryo viloyati shular jumlasidandir. Biz Surxondaryo viloyatining asosiy poliz ekinlarining zamburug‘li kasalliklarini tur tarkibi va ularning biologik xususiyatlarini o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqot usullari. Ilmiy ishni bajarishda kasallangan poliz ekinlari gerbariy namunalari manba bo‘lib xizmat qildi. Namunalarni yig‘ish marshrut asosida o‘simliklarning butun vegetatsiya davrida amalga oshiriladi. Kasallangan o‘simlik namunalari qabul qilingan usullar asosida gerbariy namunalari tayyorlandi.

Gerbariy namunalari taxlil qilish laboratoriya sharoitida mikroskopik va biologik usullarda olib borildi. To‘qima ichidagi mikromitsetlarni ajratishda nam kamera (Naumov, 1937) usulidan foydalaniladi. Mikromitsetlarni oziqa muxitiga ekish, ularni saqlash ishlari qabul qilingan usullarda olib boriladi (Naumov, 1937, Dudka i dr, 1982). Ajratilgan mikromitsetlarning tur tarkibini aniqlashda mavjud aniqlagichlar (Vasilevskiy, Karakulin, 1936, Azbukina, 1974, Bilay, 1977, Pidoplichko, 1977-1978 va bosh.) va «Uzbekistonda zamburuklar florasi» (1983-1997) ma’lumotlaridan foydalanildi. Aniklangan zamburug‘ turlarini tizimga solishda Aisworth va Bisbi (1998) monografiyasidan foydalanildi.

1-jadval

Qovun va tarvuz ekinlaridan ajratilgan kasallik ko‘zg‘atuvchi zamburug‘ turlari va ularning tizimli joylanishi (2023-2024 yillar).

Sinf	tartib	Oila	Turkum	Tur va formalari
1	2	3	4	5
Oomycetes	Peronosporales	Pythiaceae	Pythium	P.debarianum DB.
		Peronosporaceae	Peronoplasmopora	P.cubensis (Berk et.Curt) Clinton
Ascomycetes	Erysiphales	Erysiphaceae	Erysiphe	E. cichoracearum DC.
				E.cichoracearum f.cucurbitaecearum Pot.
			Sphaerotheca	S.fuliginea f.cucumidis Jacz.
Deuteromycet	Moniliales	Moniliaceae	Aspergillus	A.clavatus Desm.
			Pencillium	P.expansum Lk.
			Botrytis	B.cinerea Pers.
			Verticillium	Vdahliae Kleb.
				Vnigrescens Pethybr.
		Dematiaceae	Theilaviopsis	Th.basicola (Berk.et.Br) Ferk
			Cladosporium	C.cucumerinum Ell.et.Arth
				C.herbarum Fr.
			Alternaria	A.alternata (Ell.et.Ev). Elliot.
				A.cucumerina Ell.et.Elliot
				A.cucurbitae Let.et. Boum
e	Acervulales	Tuberculariaceae	Fusarium	F.gibbosum App.et.Wr. emend Bilai
s				F.gibbosum f.sp.melonis
				F.moniliforme Schlecht.
				F.oxysporum f.sp.melonis Shed.et.Hans.
				F.oxysporum f.sp.niveum (E. F.Sm.) Sn. ye!
				Fusarium sp.
				F.solani f.sp.melonis Sn. eЦБяш
				A.cucumis Fautr.et.Raum.
	Pycnidiales	Sphaerioideae	Ascochyta	
	Mycelia sterilia	Agronomycetaceae	Rhizoctonia	R.solani Kuehn
Жами: 3	6	8	14	23 тип 6 форма

Olingan natijalar. Ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda Surxondaryo viloyati dala sharoitida o'stirilayotgan asosiy poliz ekinlaridan qovun-Cucumis melo L. va tarvuz-Citrullus lanatus (Thub.) Matsum. et Nakai ekinlaridan gerbariy namunalar yig'ildi. Yig'ilgan gerbariy namunalari laboratoriya sharoitida qabul qilingan usullarda mikologik taxlil qilindi (1-jadval).

Yig'ilgan gerbariy namunalaridan 3 ta sinf, 6 ta tartib, 8 ta oila, 14 ta turkumga mansub 23 ta (6) zamburug' turlari aniqlandi. Aniqlangan zamburug'lardan eng ko'p turlarini Deuteromycetes sinfi vakillari - 19 ta tur, 4 ta formani, Ascomycetes sinfi vakillari - 3 ta tur, 2 ta formani, keyin esa Oomycetes sinfi vakillari - 2 ta turni tashkil etdi. Eng ko'p kasallik ko'zg'atuvchilar Fusarium turkumiga mansub bo'lib, 5 ta tur, 4 ta forma, keyin esa Alternaria turkumi vakillaridan 3 ta tur, qolgan turkum vakillaridan 1-2 turlardan iboratligi qayd etildi. Tadqiqotlar davomida aniqlangan zamburug' turlarining xo'jayin-o'simlikda tarqalishi qonuniyatlari o'rganildi.

2-jadval.

Qovun va tarvuz ekinlaridan ajratilgan va aniqlangan zamburug' turlari.

№	Zamburug' turlari	Qovun o'simligida	Tarvuz o'simligida
1	Alternaria alternate	+	-
2	Alternaria cucurbitae	+	+
3	Alternaria cucumerina	+	+
4	Ascochyta cucumis	-	+
5	Aspergillus clavatus	+	-
6	Botrytis cinerea	+	+
7	Cladosporium cucumerinum	+	+
8	Cladosporium herbarum	-	+
9	Erysiphe cichoriacearum	-	+
10	Erysiphe cichoriacearum f.cucurbitaecearum	+	-
11	Fusarium gibbosum	+	+
12	Fusarium gibbosum f.sp. melonis	+	-
13	Fusarium moniliforme	+	+

14	<i>Fusarium oxysporum</i> f.sp. <i>melonis</i>	+	-
15	<i>Fusarium oxysporum</i> f.sp. <i>niveum</i>	-	+
16	<i>Fusarium</i> sp.	+	-
17	<i>Fusarium solani</i> f.sp. <i>melonis</i>	+	-
1	<i>Penicillium expunsum</i>	+	-
18	<i>Peronoplasmodora cubensis</i>	+	+
19	<i>Pythium debaryanum</i>	+	+
20	<i>Rhizoctonia solani</i>	+	-
21	<i>Sphaerotheca fuliginea</i> f.cucumedis	+	+
22	<i>Thielaviopsis basicola</i>	+	+
23	<i>Verticillium dahlia</i>	+	+
24	<i>Verticillium nigrescens</i>	+	-
Jami		21	16
Shu jumladan		20 ta tur, 4 ta forma	16 ta tur, 2 forma

2-jadvaldagi ma'lumotlarga asosan Surxondaryo viloyati sharoitida ekilgan qovun va tarvuz ekinlaridan kasallik qo'zg'atuvchi 23 ta tur va 6 ta forma zamburug' qayd kilingan. Ulardan 20 ta tur va 4 ta forma qovunda, 15 ta tur 2 formasi tarvuz ekinlarida aniqlandi. Bundan tashkari *Alternaria cucurbitae*, *Alternaria cucumerina*, *Botrytis cinerea*, *Cladosporium cucumerinum*, *Sphaerotheca fuliginea* f.cucumedis, *Fusarium gibbosum*, *Fusarium moniliforme*, *Peronoplasmodora cubensis*, *Pythium debaryanum*, *Thielaviopsis basicola*, *Verticillium dahliae* turlari qovun va tarvuz ekinlaridan ajratildi.

Kasallangan qovun o'simligidan olingan namunalarda *Alternaria alternate*, *Aspergillus clavatus*, *Erisiphe cichoriacearum* f.cucurbitacearum, *Fusarium gibbosum* f.sp.melonis, *Fusarium* sr., *Fusarium oxysporum* f.sp.melonis, *Penicillium expansum*, *Rhizoctonia solani*, *Verticillium nigrescens* lar, tarvuzda *Ascochyta cucumis*, *Cladosporium herbarum*, *Erisiphe cichoriacearum*, *Fusarium oxysporum* f.sp.niveum, *Trichothecium roseum* turlari ajratildi.

Xulosalar: Olib borilgan tadqiqotlar davomida poliz ekinlari kasallangan a'zolaridan yig'ilgan gerbariy namunalardan 3 ta sinf, 6 ta tartib, 8 ta oila, 14 ta turkumga mansub 23 ta (6) zamburug' turlari aniqlandi.

Aniqlangan zamburug'lardan eng ko'p turlarini Deuteromycetes sinfi vakillari - 19 ta tur, 4 ta forma, Ascomycetes sinfi vakillari - 3 ta tur, 2 ta formasi, keyin esa Oomycetes sinfi vakillari - 2 ta tur tashkil etdi.

Umumiy aniqlangan zamburug'larning qovunda 20 ta tur va 4 ta formasi, tarvuzda esa 15 ta tur, 2 formasi rivojlanishi qayd qilindi.

Adabiyotlar:

1. Kirgizboeva X.M, Sagdullaeva M.Sh, Ramazanova S.S.i dr. "Flora gribov Uzbekistana" Tom II, Nizshie griby- Tashkent-, Izd, "Fan" 1985, -S.198.
2. Наимов Н.А. "Методика микологических фитопатологических исследований." М.: Л.: Селхозгиз, 1937, -С.199.
3. Песцов В.И. "Содержание грибов рода *Fusarium* в овоще-бахчевых культур НИИОБК МСХ РУз." //Сб.Материалы юбилейной Рес.конф.по микробиологии, алгологии и микологии, посвящ 50 летию Уз ССР-Ташкент., «Фан». 1974, -С.199.
4. Песцова С.Т "Биологические особенности видов грибов из рода *Fusarium*, вызывающих увядание дынь в Ташкентской области." Дисс..канд.биол.наук.-Ташкент., 1972, -С.146.
5. Пидопличко Н.М. «Грибы паразиты культурных растений.» Киев, 1977-1978. -С.79.
6. Тимоченко В.И. "Фузариозное увядание арбузов и разработка мер борьбы с ним в условиях Левобережья Украины." Автор.дисс..канд. биол.наук.-Харков: 1953. -С.21.

7. Хохряков М.К.,Доброзракова Т.Л.,Степанов К.М.,Летова М.Ф.”Определитель болезней растений.”Изд-во “Колос”-Л.,-1966.-С.589.
8. Aisworth.Bisbi Dictionarg of tne Fungi.-Worid Book Publisching 1988.-P,616.

QOVOQ NAV VA DURAGAY NAMUNALARI URUG‘INING UNISH QUVVATI, LABORATORIYA VA DALA UNUVCHANLIGINI ANIQLASH

*Ostonaqulov T. E., q.-x.f.d., professor,
Chorshanbiyev P.X., tayanch doktorant*

Annotatsiya.Maqolada qovoq nav va duragaylari to‘plamini urug‘ unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanligi bo‘yicha baholash natijalari keltirilgan. Natijalarga ko‘ra, eng yuqori unish quvvati va laboratoriya unuvchanligi (92-96%) Ispanskaya 73 (standart), Palov kadu 268, Pluto F₁, Katta habba kadi, Oshin kadi, Atlas, Balonchik, Pioneer, Tikva atlasniy, Avri 1801, Noaniq 1, Noaniq 2 nav va duragaylarida qayd etildi. Ushbu nav va duragaylarda dala unuvchanlik ham eng yuqori (90-94%) ekanligi kuzatildi.

Kalit so‘zlar: nav va duragaylar, urug‘, ko‘chat, unish quvvati, unuvchanlik.

Аннотация.В статье представлены результаты оценки коллекции сортов и гибридов тыквы по энергию прорастания, лабораторной и полевой всхожести. По результатам исследований выявлено, что самая высокая энергия прорастания и лабораторная всхожесть (92-96%) отмечены у сортов и гибридов Испанская 73 (стандарт), Palov kadu 268, Pluto F₁, Катта хабба кади, Oshin kadi, Atlas, Balonchik, Pioneer, Tikva atlasniy, Avri 1801, Noaniq 1, Noaniq 2. У этих сортов и гибридов тыквы отмечена наибольшая полевая всхожесть семян (90-94%).

Ключевые слова: сорта и гибриды, семена, рассада, энергия прорастания, всхожесть.

Abstract. The article presents the results of the assessment of a collection of pumpkin varieties and hybrids for germination energy, laboratory and field germination. According to the research results, it was found that the highest germination energy and laboratory germination (92-96%) were noted in the varieties and hybrids Spanish 73 (standard), Palov kadu 268, Pluto F₁, Katta habba kadi, Oshin kadi, Atlas, Balonchik, Pioneer, Tikva atlasniy, Avri 1801, Noaniq 1, Noaniq 2. These varieties and hybrids of pumpkin have the highest field germination of seeds (90-94%).

Key words: varieties and hybrids, seeds, seedlings, germination energy, germination rate.

Kirish. Polizchilik – dunyo dehqonchiligida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Poliz ekinlari, ya’ni qovun, tarvuz, qovoq kabilar yer sharining subtropik va mo‘tadil iqlim mintaqalarida jami 6,6 mln. gektar maydonga ekilib, 156,5 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. Shuning 70 foizi tarvuz, 20 foizi qovun va 10 foizi qovoqqa to‘g‘ri kelib, dunyoda yetishtiriladigan qovoq hosili 118-120 mln. tonnani, qovun 30-31 mln. tonnani, qovoq esa 14-16 mln. tonnani tashkil etadi. Eng ko‘p qovoq ishlab chiqaruvchi davlatlar Xitoy (7,8 mln.t), Hindiston (5,1 mln.t), Rossiya (1,2 mln.t), Ukraina (1,2 mln.t) va AQSH (1,0 mln.t) kabilar hisoblanadi. O‘zbekistonda 2022 yilda qovoq maydoni 5 ming gektar bo‘lib, 156,4 ming tonna yalpi hosil yetishtirildi, hosildorlik esa 206,3 s/ga ni tashkil etdi [1,2,3].

Poliz mevalari inson organizmida nisbatan oson hazm bo‘ladigan, shifobaxsh xususiyatga ega mahsulot bo‘lib, tarkibida pektin moddalari, kletchatka va gemitsellyuloza, glyukoza, fruktoza, saxaroza, A, C, E, B guruh vitaminlar, mineral elementlar - Cu, Ca, K, Mn, Fe, Zn, antioksidantlar saqlaydi. Ayniqsa, qovoq mevasi vitaminlar manbai, qish noni deb yuritiladi. U

ko‘rish qobiliyatining yomonlashishiga qarshi kurashadi, oshqozon-ichak trakti, bo‘yrak faoliyatini yaxshilaydi, yurak-qon tomirlar tizimi salomatligini mustaxkamlaydi, antioksidantlar ko‘p saqlaydi, erta qarishning oldini oladi, immunitetni mustaxkamlaydi. Qovoq dorivor mahsulotlar ichida birinchi o‘ringa loyiq bo‘lib, uning mevasi tabobatda astma, kamqonlik, varikoz tomirlari, shamollashni, prostata bezlarini davolashda, urug‘i qaynatmasi, yog‘i gijja haydaydigan dori tariqasida ishlatiladi [4,5].

Polizchilikda asosiy maqsad ekiladigan ekinlarning Davlat reestriga va tumanlashtirilgan nav-duragaylarining yuqori sifatli urug‘larini ekishdan iborat[6]. Chunki, ishlab chiqarish vositasi bo‘lgan urug‘ mahsulot yetishtirishning samaradorligini belgilaydigan omildir. Ekinlardan har yili barqaror mo‘l, sifatli va arzon hosil olish ko‘p jihatdan ekish uchun foydalanilayotgan urug‘ sifatiga – tozaligi, sog‘lomligi, mahsuldorligi, unuvchanligi kabilarga bog‘liq. Bu ayniqsa, sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida sug‘oriladigan yer, suv, o‘g‘it, texnika va ishchi kuchidan samarali foydalanishni belgilaydi [7].

Qovoq respublikamizda asosiy poliz ekini bo‘lib, unga bo‘lgan talab shu kungacha yetarlicha qondirilmasdan kelmoqda. Buning asosiy sababi har bir muayyan hudud tuproq va iqlim sharoitlarini hisobga olga holda ekin nav-duragaylari baholanib, ulardan yuqori hosilli moslashganlari ajratib olinmaganligi, yuqori sifatli unuvchan urug‘lari yetishmasligi hisoblanadi. Amaliyotdan ma‘lumki, to‘g‘ri tashkil etilgan urug‘chilik orqali hosildorlikni 20-25% ga oshirish mumkin. Har bir ekin urug‘ini eng muhim ko‘rsatkichi unuvchanligi hisoblanadi. Qovoq urug‘ining laboratoriya va dala unuvchanligi, uning yoshi, saqlash sharoiti va yetilganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi [8].

Yuqoridagilarni hisobga olib, biz Surxondaryo viloyati sug‘oriladigan taqir tuproqlari sharoitida qovoq duragaylar to‘plamini unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanliklari bo‘yicha baholadik [9,10]. Tatqiqot obekti sifatida olingan qovoqning har bir nav va duragayi 100 donadan 4 ta takrorda urug‘lari olinib, Petri chashkalarida filtr qog‘ozi to‘shilib nishlatilgan urug‘lari plyonkali stakanchalarda ekilib, unish quvvati, laboratoriya va dala unuvchanliklari aniqlandi. Urug‘lar laboratoriya sharoitida unib chiqishi 18-20°C haroratda 9 kun davomida, dala sharoitida esa tuproqning 10 sm chuqurligida ekilib, unuvchanlik darajasi 12 kun davomida kuzatildi.

Olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘rganilgan qovoq nav va duragaylari urug‘ining unish quvvati, laboratoriya unuvchanligi turlicha bo‘lib, 3-kuni 17-30%, 5-kuni 35-49%, 7-kuni 66-78%, 9-kuni 82-96% ni tashkil etdi (1-jadval).

Eng yuqori urug‘ning unish quvvati 25-29 % dan 86-96% gacha Ispanskaya 73, Palov kadu 268, Katta habba kadi, Pluto F₁, Atlas, Avri 1801 va Avri 1906 nav-duragaylari, eng past (17-22 dan 82-87% gacha) unish quvvati va laboratoriya unuvchanligi Xushtam, Ferrari F₁, Japan 10gr, Provanskaya, Noaniq 4 nav-duragaylarida qayd etildi. Eng yuqori (93-96%) laboratoriya unuvchanligi Ispanskaya 73 (standart), Palov kadu 268, Pluto F₁, Katta habba kadi, Noaniq 1, Noaniq 2, Oshin kadi, Tikva jemchujnaya, Atlas, Arvi1906 nav va duragaylarida aniqlandi.

O‘rganilgan qovoq nav va duragaylarining dala sharoitida unib chiqish dinamikasi sezilarli o‘zgardi (2-jadval). Ekilgach, 3-kuni nav va duragaylar urug‘ining unib chiqishi 6-10%, 5-kun 19-30%, 7-kun 32-49%, 9-kuni 63-79% ni, 12-kuni esa 78-94% ni tashkil etdi. Jadval unib chiqish va eng yuqori (90-94%) dala

1-jadval

O‘rganilgan qovoq nav va duragaylari urug‘ining unish quvvati, laboratoriya unuvchanligi

№	Nav-duragay nomi va kelib chiqishi	Ekilgan muddati	Ekilgan urug‘lar o‘rtacha	Urug‘ning unish quvvati, %				
				3-kun	5-kun	7-kun	9-kun	Laboratoriya

			soni					unuvchanlig i, %
1	Ispanskaya 73 (UZ,1949)	22.03.	100	29	49	78	96	96
2	Pluto F ₁ (JP)	22.03.	100	27	46	75	95	95
3	Atlas (TR)	22.03.	100	28	48	73	93	93
4	Palov kadu 268 (UZ,1950)	22.03.	100	30	47	77	96	96
5	Xushtam (Samarqand)	22.03.	100	17	35	66	82	82
6	Xolva kadi (Termiz)	22.03.	100	25	39	70	86	86
7	Ashkadi (Termiz)	22.03.	100	27	40	73	88	88
8	Katta habba kadi (Termiz)	22.03.	100	28	46	76	94	94
9	FerrariF ₁ (JanubiyKoreya)	22.03.	100	22	44	74	87	87
10	Kichkintoy (UZ),	22.03.	100	24	42	69	84	84
11	Stofuntovaya (UZ,1974)	22.03.	100	23	43	73	89	89
12	Rossiyanka (RU)	22.03.	100	20	36	73	90	90
13	Sapcha kadi (Angor)	22.03.	100	22	42	72	88	88
14	Balunchik (Jizzax)	22.03.	100	26	46	76	92	92
15	Waltham butternut (USA)	22.03.	100	24	44	73	90	90
16	Japan 10gr (JP)	22.03.	100	28	48	78	84	84
17	Provanskaya (RU)	22.03.	100	21	40	72	85	85
18	Vitaminaya (RU)	22.03.	100	20	39	69	90	90
19	Oshin kadi (Termiz)	22.03.	100	26	44	77	95	95
20	Olga (RU)	22.03.	100	26	44	77	91	91
21	Pioneer (JP)	22.03.	100	28	46	75	93	93
22	Tikva atlasniy (TR)	22.03.	100	25	45	76	92	92
23	Tikva	22.03.	100	25	46	77	94	94

	jemchujnaya (TR)							
24	Tikva gitara (TR)	22.03.	100	22	43	75	92	92
25	Yaponskaya (JP)	22.03.	100	24	44	74	92	92
26	Shirintoy (UZ, 2006)	22.03.	100	26	42	73	91	91
27	Noaniq 1 (RU)	22.03.	100	25	45	75	96	96
28	Noaniq 2 (RU)	22.03.	100	24	46	76	95	95
29	Noaniq 3 (Termiz)	22.03.	100	20	40	70	88	88
30	Noaniq 4 (Termiz)	22.03.	100	21	39	73	87	87
31	L-1 (1/1, PX-24)	22.03.	100	22	42	72	89	89
32	L-8 (8/1, PX-24)	22.03.	100	24	45	74	90	90
33	Avri 1801 (12/1, PX-24)	22.03.	100	25	46	76	92	92
34	Avri 20270 (16/1, PX-24)	22.03.	100	24	43	73	89	89
35	Avri 1906 (25/1, PX-24)	22.03.	100	26	44	76	93	93

2-jadval

**O'rganilgan qovoq nav va duragaylarining dala unuvchanligi
(ekilgan muddati-22.03.)**

№	Nav-duragay nomi va kelib chiqishi	Dala unuvchanligi, %					Dala unuvchanligi, %
		3-kun	5-kun	7-kun	9-kun	12-kun	
1	Ispanskaya 73 (UZ,1949)	6	24	44	70	90	90
2	Pluto F ₁ (JP)	10	28	48	76	94	94
3	Atlas (TR)	9	26	44	74	92	92
4	Palov kadu 26 (UZ,1950)	9	25	42	73	93	93
5	Xushtam (Samarqand),	9	23	41	72	78	78
6	Xolva kadi (Termiz)	9	28	47	74	85	85
7	Ashkadi (Termiz)	8	20	38	68	85	85
8	Katta habba kadi (Termiz)	8	22	40	70	84	84
9	Ferrari F ₁ (Janubiy Koreya)	9	24	42	73	85	85
10	Kichkintoy (UZ),	8	21	39	69	83	83
11	Stofuntovaya (UZ,1974)	8	20	37	66	85	85
12	Rossiyanka (RU)	7	22	33	65	86	86
13	Sapcha kadi (Angor)	5	19	32	63	85	85

14	Balonchik (Jizzax)	7	25	36	70	90	90
15	Waltham butternut (USA)	7	22	42	72	88	88
16	Japan 10gr (JP)	8	26	44	75	83	83
17	Provanskaya (RU)	8	23	43	73	84	84
18	Vitaminmaya (RU)	7	26	44	76	87	87
19	Oshin kadi (Termiz)	9	30	47	77	93	93
20	Olga (RU)	8	26	45	75	89	89
21	Pioneer (JP)	8	27	48	78	90	90
22	Tikva atlasniy (TR)	8	26	46	76	91	91
23	Tikva jemchujnaya (TR)	7	25	45	75	88	88
24	Tikva gitara (TR)	7	24	43	73	89	89
25	Yaponskaya (JP)	7	25	47	72	87	87
26	Shirintoy (UZ, 2006)	8	24	44	74	88	88
27	Noaniq 1 (RU)	9	29	49	79	94	94
28	Noaniq 2 (RU)	9	27	48	78	92	92
29	Noaniq 3 (Termiz)	7	26	45	75	86	86
30	Noaniq 4 (Termiz)	7	25	42	72	83	83
31	L-1 (1/1, PX-24)	8	25	46	72	84	84
32	L-8 (8/1, PX-24)	8	26	47	73	86	86
33	Avri 1801 (12/1, PX-24)	9	28	48	78	90	90
34	Avri 20270 (16/1, PX-24)	8	26	46	74	85	85
35	Avri 1906 (25/1, PX-24)	8	26	47	77	89	89

unuvchanlik Pluto F₁, Palov kadu 268, Oshin kadi, Atlas, Ispanskaya 73, Balonchik, Pioneer, Tikva atlasniy, Avri 1801, Noaniq 1, Noaniq 2 nav va duragaylarida, nisbatan yuqori (85-89%) dala unuvchanligi Xolva kadi, Ashkadi, Ferrari F₁, Katta habba kadi, Stofuntovaya, Rossiyanka, Sapcha kadi, Waltham butternut, Vitaminmaya, Olga, Tikva jemchujnaya, Tikva gitara, Shirintoy, Noaniq 3, Noaniq 4, L-1, L-8, Avri 20270, Avri 1906 nav va duragaylarida kuzatildi. Eng past (82-84%) dala unuvchanligi Xushtam, Kichkintoy, Japan 10gr navlarida qayd etildi

Xulosa. o'rganilgan qovoq nav va duragaylar urug'ining unish quvvati, unib chiqish dinamikasi, laboratoriya va dala unuvchanligi bo'yicha keskin farqlanib, dala unuvchanligi laboratoriya unuvchanligidan 1-6% past ekanligi aniqlandi. Eng yuqori (90 %dan ziyod) laboratoriya va dala unuvchanligi Ispanskaya 73, Pluto F₁, Palov kadu 268, Atlas, Balonchik, Oshin kadi, Pioneer, Tikva atlasniy, Noaniq 1, Noaniq 2 va Avri 1801 nav va duragaylarda qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.G'.Toramatov, A.J.Shokirov, I.D.Abdurashidov. Texas journal of Agriculture and Biological Sciences.2023.-B.39.
2. FAO. (2019). "Cucurbita Species: Cultivation and Yield".
3. Smith, J. (2020). "Seed Germination and Growth Analysis".
4. V.I. Zuev, A.F.Abdullayev, Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent. 1997.-B.301.

5. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuev, O.Q. Qodirxo‘jayev. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik). Toshkent.2019.-B.520.
6. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestri. Toshkent.2025.-B.98.
7. Ostonaqulov T.E. Seleksiya va urug‘chilik. - Toshkent. Istiqlol.2002 (2017).- B.272.
8. T.E.Ostonaqulov, X.Ch.Bo‘riyev, X.S.Amirov. Polizchilik. Darslik. Toshkent. 2023. - B.252.
9. B.J.Azimov - Sabzavotchilik, Polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o‘tkazish metodikasi. Toshkent, 2002. -B,224;
- 10.Литвинов С.С. Методика полевого опыта в овощеводстве. Москва. ГНУ ВНИИО. 2011. -С.648.

O‘SIMLIKXO‘R QANDALALARGA QARSHI QO‘LLANILGAN TURLI USULLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI VA HOSILDORLIKDAGI FARQI.

*Abduraxmonov Shuxrat Mamatmurotovich
Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi*

Annotatsiya – Hozirgi vaqtda g‘o‘za o‘simligini yetishtirishda zararli hasharot o‘simlikxo‘r qandalalar respublikamizning ko‘pgina hududlarida zarar yetkazayapti. Shu sababli ushbu maqolada 2020-2022 yillardagi mavsum mobaynida o‘simlikxo‘r qandalalarga har hil tarzda agrotexnik, kimyoviy va biologik usullarda kurash olib borilganda olingan natijalar va har xil variantlarning farqi taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar – O‘simliklarni himoya qilish, agrotexnik tadbir, o‘simlikxo‘r qandalalar, kimyoviy usul, hasharot, hosil.

Аннотация – В настоящее время при возделывании растений хлопчатника вредное насекомое растительоядные клопы приносят большой вред во многих территориях республики. С учетом этого в данной статье отражены полученные результаты в сезоне 2020-2022 годов против растительоядных клопов с разными способами агротехнических, химических и биологических методов, а также сравнены разницы различных вариантов опыта.

Ключевые слова – Защита растений, агротехнические мероприятия, растительоядные насекомые, химический метод, насекомое, культура.

Abstract - Currently, when cultivating cotton plants, harmful insect herbivorous bugs cause great harm in many areas of the republic. Taking this into account, this article reflects the results obtained in the 2020-2022 season against herbivorous bugs with different methods of agrotechnical, chemical and biological methods, and also compares the differences between various experimental options.

Key words – Plant protection, agrotechnical measures, herbivorous insects, chemical method, insect, crop.

KIRISH. Qishloq ho‘jaligida nafaqat g‘o‘za ekini, balki barcha ekinlardan ko‘zlangan hosilni olishda butun vegetatsiya davomida agrotexnik, biologik hamda kimyoviy tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish muhim hisoblanadi. Yuksak agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirish evaziga yetishtirilgan hosilni zararli organizmlardan himoya qilish ham juda muhim tadbirlardan hisoblanadi. Xuddi shunday zararkunandalardan biri bu o‘simlikxo‘r

qandalalardir. Qandala bilan zararlangan joyda tolalarning sargʻayishi, chigitning esa qalinlanishi kuzatiladi. Vaqt oʻtishi bilan, koʻsak ichidagi oʻsimtlar kattalashib, agarda koʻproq shikastlangan boʻlsa, koʻsak yorilib, ichidan quyqa oqib chiqadi. Bular esa oʻz navbatida turli mikroorganizmlar uchun ozuqa muhiti boʻlib qoladi. Sanchish soniga qarab, koʻsaklarda qora dogʻlar paydo boʻlishi, koʻsakni yorilib, 1-2 boʻlagi boshqalaridan erta ochilishi, koʻsak ichidagi chigit va tolaning qotib qolishi, sifati va miqdori pasayishi kuzatilishi mumkin (Xoʻjaev va b., 2018). Benda qandalasining gʻoʻza hosiliga yetkazadigan zarari, gʻoʻzani undan samarali himoya qilish boʻyicha olimlar bir qancha tadqiqotlar olib borishgan (Alimuhamedov va b., 1984). Yuksak agroteknik tadbirlarni oʻz vaqtida, sifatli amalga oshirish evaziga yetishtirilgan hosilni zararli organizmlardan himoya qilish ham juda muhim tadbirlardan hisoblanadi. Xuddi shunday zararkunandalardan biri bu oʻsimlikxoʻr qandalalardir. Qandala bilan zararlangan joyda tolalarning sargʻayishi, chigitning esa qalinlanishi kuzatiladi (Sattarov va boshq., 2023) Yuqoridagilarni eʼtiborga olib oʻsimlikxoʻr qandalalarning gʻoʻza hosiliga yetkazadigan zarari boʻyicha tadqiqotlar olib bordik.

TADQIQOT OʻTKAZILGAN HUDUD VA USLUBLAR. Oldimizga qoʻyilgan asosiy maqsadlardan biri shuki, qandalalarga qarshi kurashni takomillashtirish atrof muhit va foydali hasharotlarga kam xavfli boʻlgan yuqori samara beradigan usullarni aniqlash va joriy qilishdir. Bu masala oʻsimliklarni himoya qilish sohasida doim yangilanib, takomillashtirib boriladigan muhim omillardan biridir. Shu bilan bir qatorda boshqa zararkunandalarga qarshi ilmiy asoslangan kurash tadbirlarini paralell ravishda olib borishning maqbul muddat va usullarini belgilab berish zarur. Soha mutaxassislariga maʼlumki zararli organizmlarga qarshi kurashda uygʻunlashgan kurash tizimi talablariga amal qilish har tomonlama muhim hisoblanadi. Yaʼni har bir kurash usulining muayyan zararli organizm uchun samaradorligini bilgan holda kurash tadbirlarini belgilash kerak boʻladi. Shuning uchun katta dala sharoitida tajribalarini oʻtkazib, natijalarni tahlil va xulosa qilish lozim boʻladi.

Bu boʻlimda rejalashtirilgan tadqiqotlarni bajarish uchun qandala keng tarqalgan Angor tumani tanlandi. Tuman hududida joylashgan Oʻsimliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo filialiga qarashli 10 gektarlik dalada 2020-2022-yillarda tadqiqot olib borildi. Izlanishlarni quyidagi variantlarda bajarildi.

2020-2022-yillarda quyidagi sxema boʻyicha tajribalar olib borilgan.

Tajriba sxemasi.

Variant № 1

Tajriba varianti (kimyoviy usul + urugʻdorilagich + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qatʼiy amal qilinadi)

Variant № 2

Tajriba varianti (biologik usul + urugʻdorilagich + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qatʼiy amal qilinadi)

Variant № 3

Nazorat varianti (biologik usul + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qatʼiy amal qilinmaydi)

Izoh: Barcha variantlarda gʻoʻza navi bir xil (oʻrta tola) boʻladi.

Chekanka 2 xil sonda (9-10 shox, 14-15 shox) boʻladi.

Tajriba dalada amalga oshirilgan agrotexnik tadbirlar to'g'risida qisqacha ma'lumot

Angor tumani, Xomkon hududi, O'K va HITI Surxondaryo filiali tajriba dalasi, 2021-2022 yy.

Variantlar	Shudgor va tekislash, sana	Chigit ekish, sana, nav	Organik o'g'it	Mineral o'g'itlar, kg/ga			Bargdan oziqlanti-rish, soni	Yagona qilish, sana, 1pm/dona	Sug'orish, soni	Kultivatsiya (chopiq), soni
				N	P	K				
№ 1 dala	15.12.2021 y. 17.02.2022 y.	15.04.2021 y. "Beshqahromon"	-	500,0	250,0	100,0	2	2-5.05 7-8 dona	3	7
№ 2 dala	15.12.2021 y. 17.02.2022 y.	13.04.2021 y. "Beshqahromon"	-	500,0	250,0	100,0	2	2-5.05 7-8 dona	3	7
№ 3 dala	15.12.2021 y. 17.02.2022 y.	13.04.2021 y. "Beshqahromon"	-	500,0	150,0	75,0	1	2-5.05 10-11 dona	3	4

2-jadval

O'simlikxo'r qandalalarga qarshi turli usullarda kurashilganda olingan biologik hosildorlik
Surxondaryo vil., Angor tum. Xomkon hududi O'KHITI Surxondaryo filiali tajriba dalasi, g'o'za navi "Beshqahramon", 2022 y.

Variantlar			I terim-15.08 (o'rtacha ko'rsatqichlar)				Nazotatdan farqi		Biolo- gik hosil, ts/ga 1 terim	1-terimdan so'ng hosil elementlari o'rtacha ko'rsatqichi (15.08)			Nazotat dan farqi, %
			1 ta o'simlikd a ochilgan ko'sak soni, dona	1 ta ko'sak- dagi pax- taning og'irligi, gr	1 o'sim- likdagi paxta og'irligi, gr	1 gektard agi hosil (Xx 11000) , ts/ga	ts/ga (±)	% (±)		1ta o'simlik -da o'rtacha shona, gul	1ta o'simlik- da ochilmag an ko'sak soni	Jami	
Variant № 1 Tajriba varianti (kimyoviy usul +urug'dorilagich+agrote xnik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat'iy amal qilinadi)	1-dala	9-10 shox	7,1	2,8	19,9					11,9	8,0		
		14-15 shox	8,3	2,9	24,1					12,1	8,2		
		O'rt.	7,7	2,9	22,0	16,9	+5,7	+33,7	16,9	12,0	8,1	20,1	+64,2

Variant № 2 Tajriba varianti (biologik usul + urug‘dorilagich + agrotexnik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat’iy amal qilinadi)	2-dala	9-10shox	5,7	2,8	16,0					8,6	7,1		
		14-15 shox	6,3	2,8	17,6					9,4	7,3		
		O‘rt	6,0	2,8	16,8	12,9	+1,7	+13,2	12,9	9,0	7,2	16,2	+55,6
Variant № 3 Nazorat varianti (biologik usul + agrotexnik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat’iy amal qilinmaydi)	3-dala	9-10shox	39,9	2,7	10,5					3,5	3,1		
		14-15 shox	4,0	2,8	11,2					3,8	3,9		
		O‘rt	4,0	2,8	11,2	11,2	-	-	11,2	3,7	3,5	7,2	-

2022-yilda birinchi navbatda mavsum boshida variantlarni joylashtirish xaritasi tuzildi. Har bir variant uchun 1,5 gektardan maydon belgilanib, variantlarning orasini g'ozadan boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari ekib ajratish rejalashtirildi. Buning uchun yer shudgor qilinishidan oldin variantlar joylashgan o'rni o'lchab, qoziqlar qoqib belgilab olindi. Mavsum davomida har bir variant uchun ish dasturida rejalashtirilgan agroteknik tadbirlar amalga oshirildi (5.1-jadval).

Mavsum oxiriga kelib hosil yig'ib terib olindi. Birinchi terim va birinchi terimdan so'ng g'ozada qolgan hosil elementlar hisob kitob qilinib variantlar orasidagi farq taqqoslandi. Olingan natijalarga ko'ra 3 nchi ya'ni nazorat (biologik usul + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat'iy amal qilinmaydi) variantida 1 gektardan o'rtacha 11,2 s hosil yig'ildi. Qolgan variantlarni ushbu nazorat varianti bilan taqqoslaganimizda quyidagi natijaga erishildi. 1 nchi tajriba (kimyoviy usul + urug'dorilagich + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat'iy amal qilinadi) variantida +5,7 s (+33,7 %), 2 - tajriba (biologik usul + urug'dorilagich + agroteknik tadbirlarni bajarishda tavsiyalarga qat'iy amal qilinadi) variantida +4,1 s (+17,3 %) nazoratga nisbatan ko'p hosil yig'ildi. Xuddi shunday birinchi terimdan so'ng g'ozada qolgan hosil elementlarni hisob qilib o'zaro taqqoslanganda nazoratga nisbatan tajriba variantlarda ularning soni o'rtacha 2-4 donagacha ko'p bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqot ko'rsatgan natijalarni shunday tahlil qilish mumkin, ya'ni qandalalarga qarshi agroteknik va kimyoviy usulda kurash tadbirlari olib borilganda 33,7 % nazorat variantiga nisbatan ko'p hosil olishga erishilgan. Mavsum mobaynida tajriba damimizda 3 ta fitofag qandalalar orasida miqdor jihatdan asosiy o'rinni g'ozaga qandalasi egallagan bo'lib, unga qarshi yuqori samarali kimyoviy vositalar ishlatish yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki respublikamiz sharoitida aksariyat g'ozaga maydonlarida beda va dala qandalalarining soni odatda xuddi tajriba damimizdagidek ya'ni 100 tup g'ozaga o'rtacha 15-30 donagachani tashkil etadi. Beda va dala qandalalarining soni 100 tupda 15-30 dona bo'lganda kimyoviy ishlovga hojat bo'lmaydi. Bu holatda o'tkazilgan kimyoviy usul o'zini iqtisodiy oqlamaydi.





1-рasm. Qandalalarga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullarining samaradorligini o'rganish bo'yicha tajribalar XULOSALAR.

Qandalalarga qarshi agrotexnik va kimyoviy usulda kurash tadbirlari olib borilganda 33,7 % nazorat variantiga nisbatan ko'p hosil olishga erishilgan. Mavsum mobaynida tajriba daramizda 3 ta fitofag qandalalar orasida miqdor jihatdan asosiy o'rinni g'o'za qandalasi egallagan bo'lib, unga qarshi yuqori samarali kimyoviy vositalar ishlatish yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydi.

Beda va dala qandalalarining soni 100 tupda 15-30 dona bo'lganda kimyoviy ishlovga hojat bo'lmaydi. Bu holatda o'tkazilgan kimyoviy usul o'zini iqtisodiy oqlamaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Алимухимедов С.Н., Ходжаев Ш.Т., Эшматов О.Т. Рекомендации по борьбе с вредными клопами, заселяющими хлопчатник. – Ташкент, 1984. – 14 с.

2. Xo'jaev Sh.T., Sattarov N.R., Musaev D.M. Zararli qandala hasharotlar haqida nimalarni bilmoq kerak? Ilmiy-ommabop ocherk. –Toshkent, 2018. B. 64.
3. Sattarov N.R., Sattorov A. B., Abduraxmonov Sh.M., -O'rta tolali g'o'za navlarida o'simlikxo'r qandalalarning zararlilik darajasi. //Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali 2023 yil.

MOSHNING JAHON KOLLEKSIYA KO'CHATZORIDAGI BOSHLANG'ICH MANBALARI

*Idrisov Xusanjon Abdujabborovich q.x.f.f.d (PhD), dotsent
Yoqubova Feruzabonu Muxtorjon qizi
Habibaxon Rustamova Rustamjon qizi
Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya; *Ushbu maqolada moshning jaxon kolleksiya ko'chatzoridagi nav namunalarni o'rganish natijalari bayon etilgan. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra asosiy xo'jalik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan moshning 7 ta nav namunalari tanlab olindi. Keyingi tadqiqot uchun kolleksiya ko'chatzoridan seleksiya ko'chatzoriga eng yaxshi xo'jalik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nav namunalari o'rganish uchun o'tkaziladi.*

Kalit so'zlar; *Mosh, oqsil, vitaminlar, Osiyo, nav, elita, kolleksiya, seleksiya, ko'chatzor, botqoq, tuproq, qum, gullash, dukkaklash*

Kirish O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa yo'nalishlardagi muammolarni hal etish borasida dadil qadamlar qo'yildi. Respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasida o'tkazilayotgan islohatlar asosida hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini tadbqiq etish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari bozor iqtisodi sharoitlariga moslashib o'z o'rinlarini topayotganligi va ishlab chiqarishni rivojlantirayotganliklari albatta katta yutuqlardan biridir.

Serquyosh zaminimizda juda ko'plab qishloq xo'jaligi ekinlaridan jumladan dukkakli don ekinlardan mo'l va sifatli xosil etishtirish uchun juda qulay iklim sharoiti mavjud. Aholini o'sib borayotgan talab va ehtiyojidan kelib chiqqan xolda tarkibida oqsil, vitaminlarga boy ekinlarni parvarishlab, ekologik toza maxsulotlar etishtirish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir.

G'alla ekinlari salmog'ida dukkakli don ekinlari, jumladan moshning o'rni alohida hisoblanadi. Mosh o'zining tarkibida arzon oqsilga boyligi va tuproqni sof azot elementi bilan boyitishi, tabiatdagi erkin azotni o'zlashtiruvchi bo'lganligi tufayli dehqonchilikda muhim ahamiyatga ega.

Mosh-bu loviyaning Osiyo turlaridan bo'lib, doni oziq-ovqatda keng qo'llanilishi, yuqori sifatli va mazali taomlar tayyorlanishi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda qadimdan ekib kelinayotgan va oqsilli manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Mosh biologiyasi bo'yicha ang'izga ham ekilishi mumkin [12-15 b, 1].

Mosh o'z-o'zidan changlanuvchi o'simlik. Changlanishi guli ochilmay o'tadi. Gullash o'simlikning pastki yarusidan boshlanib yuqoriga qarab boradi.

Mosh seleksiyasining asosiy yo'nalishi- yuqori simbiotik faolli va mahsuldorli hamda vegetatsiya davri qisqa (70-90 kun), sovuqqa chidamli, mexanizatsiyaga mos, kasalliklarga chidamli, yukori kulinarli yaxshi ta'mli va oziqali xususiyatlarga ega navlarni yaratish [68 b, 2].

Mosh seleksiyasining muxim yo‘nalishi-tezpishar navlarni yaratish. Tezpisharlikni baxolashda unib chiqishdan-gullashgacha bo‘lgan davr asos kilib olinadi. Tezpisharlik past xaroratga chidamli xususiyati bilan chambarchas bog‘liq. Xaroratni qisqa muddatda 5 gradusdan 0 °S gacha pasayishi aksariyat navlar o‘simliklarning fiziologik faoliyatida chuqur o‘zgarishlarga olib keladi. Natijada vegetatsiya davri uzayadi, mahsuldorlik pasayadi. Shuning uchun past xaroratga chidamli navlar yaratish seleksiyaning muxim vazifasiga kiradi [284 b, 3].

Mosh seleksiyasining asosiy yo‘nalishlari - yuksak simbiotik faolli va yuqori maxsuldor, vegetatsiya davri qisqa (70-90 kun), past xaroratga chidamli, neytral fotoperiodik xususiyatli, mexanizatsiya usulida xosilni yig‘ishgirishga mos, zamburug‘ va bakterial kasalliklarga immunitetli, yukori kulinar, yaxshi ta‘mli va ozikali xususiyatli navlarni yaratish. Mosh seleksiyasining muxim yo‘nalishi - ertapishar navlarni yaratish. Tez pisharlikning kuyidagi kursatkichi bo‘lib unib chikishdan - gullashgacha davr xisoblanadi. Tez pishar navlarda u 35-45 kunni, gullashdan pishishgacha 35-40 kun [2 b, 5].

Tajribamiz sug‘oriladigan erlardan oqilona foydalanib asosiy va takroriy ekish uchun moshning yangi nav namunalarini tanlash, yangi navlar yaratish.

Moshdan yuqori xosil olish uchun bir qancha texnologik tadbirlar majmuasining muammolarini xal qilish talab kilinadi. Ammo olinadigan hosilni 20-30% nav xususiyatiga bog‘liqdir.

Tajribamiz sug‘oriladigan erlardan oqilona foydalanib asosiy va takroriy ekish uchun moshning yangi nav namunalarini tanlash, yangi navlar yaratish.

Tajribaning maqsadi va vazifalari. Ushbu ilmiy ishning maqsadi aholini to‘yimli oziq-ovqat maxsulati bilan ta‘minlash, oqsil tanqisligini hal qilish uchun soya va mosh ekinlarining noqulay sharoitlarga chidamli, serhosil, don tarkibi oqsil va moy moddalariga boy, kasalliklarga chidamli yangi navlarini yaratish.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etildi:

Moshning kolleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalarni ekish, kuzatish, erta, o‘rta, kechpishar guruhlariga ajratish, talabga javob beradigan xo‘jalik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan nav namunalarni baholash, tanlash;

Tajriba o‘tkazish joyi, sharoiti va uslubi. Tajribalar Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba dalasi 12 kartaning 2 chekida olib borildi. Tajriba uchastkasi Toshkent viloyatining janubiy sharqiy qismida, Toshkent shaxridan 15 km uzoqlikda Chirchiq daryosining chap qirg‘og‘ida geografik o‘rni bo‘yicha Grinvich shkalasida 69°18’ Sharqiy uzunlikda va 41°20’ Shimoliy kenglikdagi tekisliklarda joylashgan [253 b, 4].

Tuproq qatlamlari voha uchun harakterli bo‘lib botqoq tipidagi to‘proqlardir. Har xil chuqurlik qatlamlarida esa katta va kichik toshlar va qum aralashmalari ham mavjud. Ushbu tuproqlar daryoning chap qirg‘og‘idagi tipik ortiqcha namlik sharoitlaridan kelib chiqqan holda bo‘lib, sholi ekish uchun juda mosdir. Tuproq-o‘tloqi. Tajriba dalasining tuprog‘i sho‘rlanmagan, xaydov qatlami 30-40 sm. Tuproqdagi eritmalarning pH miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo‘lib, mexanik tarkibi bo‘yicha og‘ir loylidir. Xavodagi foydali xavo harorati yig‘indisi bo‘yicha O‘zbekistondagi qishloq xo‘jalik ekinlarni sug‘oriladigan mintaqalarda etishtirish bo‘yicha shartli ravishda 3 ta guruxga ajratilgan (bunda 10 gradusdan yuqori sutkalik o‘rtacha harorat hisoblangan). Toshkent viloyatining iqlimi ham keskin kontinental bo‘lib, yozi nihoyatda issiq, qishi esa sovuq, hamda havosi quruq va tabiiy yog‘ingarchiliklar o‘simliklar o‘sib rivojlanishi uchun nixoyatda kamligi bilan ta‘riflanadi.

Tajriba uslubi. Soya va mosh seleksiyasi qishloq xo‘jalik ekinlarining Davlat Nav Sinov komissiyasi va O‘zShITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar, dala tajriba metodikasi asosida olib borildi Kolleksiya ko‘chatzorida har bir nav namuna uchun ekin maydoni 1,8 m² (takroriysiz). Tahlilga 5 tadan o‘simlik olindi.

Kuzatuv va hisob-kitoblar. Moshning kolleksiya ko'chatzorlarida fenologik kuzatuvlar o'tkazildi. Bunda moshning o'suv davridagi asosiy: unib chiqishi, g'unchalash, gullash, dukkak hosil qilish va pishish fazalari kuzatildi va amal davrining davomiyligi aniqlandi;

Tajriba natijalari. Kolleksiya ko'chatzorida yangi keltirilgan seleksion materallar o'rganiladi va ularning ichidan eng yaxshilari (elita o'simliklari) tanlanib seleksiya ko'chatzorida o'rganish uchun o'tkaziladi. Kolleksiyada materiallar doim to'ldirilib, yangilanib turadi. Hisobot yilda jahon kolleksiyasi nav namunalaridan tashkil topgan kolleksiya ko'chatzorida moshning 146-ta nav namunasi tadqiqot qilinib o'rganildi. Namunalarining xar birining ekish maydoni 1,8 m² bo'lib qaytariqsiz, ekish me'yori moshda esa 18kg/ga, qator oralig'i 60x10-2 sxemasida aprel oyining uchinchi, may oyining birinchi dekasida qo'lda ekildi. Ekilgan nav namunalar bilan taqqoslash uchun moshning "Radost" navlari nazorat kilib har 10 ta namunadan keyin ekildi.

O'simlikning o'suv davrida nav sinov komissiyasi tomonidan ishlab chiqarilgan qo'llanma asosida barcha fenologik kuzatishlar olib borildi shu jumladan o'simlikning unib chiqishi, shoxlanishi, gullashi, dukkaklashi va pishish davrlari qayd etildi. Pishish davrida biometrik taxlil uchun moshning har bir nav namunasi 5-tadan o'simlik olindi. Bu taxlilda nav namunalarining o'suv davri, bo'yi, pastki dukkak joylanishi, shoxlar soni, bir o'simlikda dukkak soni, bir usimlikdagi don vazni, 1000 ta don og'irligi aniqlandi. Qimmatli xo'jalik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan moshning 7 ta nav namunalari tanlab olindi.

Bu kolleksiya ko'chatzoridan ajratib olingan nav namunalari morfologik va biologik ko'rsatkichlari bilan nazorat naviga nisbatan yaxshi bo'lib, poyasi tik o'suvchan, bir o'simlikda dukkaklar soni yuqori va pastki dukkakni joylanishi yuqori bo'lganligi bilan ajralib turadi. Usuv davri buyicha nazoratga nisbatan tanlab olgan nav namunalar 3-15 kun oldin pishib etildi.

Xulosalar

Moshning kolleksiya ko'chatzorida asosiy xo'jalik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan moshning 7 ta nav namunalari tanlab olindi. Keyingi tadqiqot uchun kolleksiya ko'chatzoridan seleksiya ko'chatzoriga eng yaxshi xo'jalik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nav namunalari o'rganish uchun o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug'oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. 2019 yil. Toshkent
2. Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O'simlikshunoslik. T "Fan va texnologiya". 2018
3. Гуляев Г.В., Гушов Ю.Л., Селекция и семеноводство полевых культур. М. Колос. 1976, 284 с.
4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М., Колос, 1979
5. Когай М.Т. Сроки сева некоторых зернобобовых культур. Автореферат на соискание ученой степени кандидата наук. Ташкент. 1967, 2 с

TUPROQ NAM SIG'IMINI OSHIRISHDA AGRORUDALARNING O'RNI.

*Imamov Foziljon Zokirjonovich
Turdiyev Botirjon Azamat o'g'li
Abduzoirova Hulkar Abdivosiyevna
TerDMAU talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada noan'anaviy organomineral kompostlarning tuproqning suv-fizik xossalarini yaxshilashdagi o'rni to'g'risidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Ilmiy manbalardagi ma'lumotlar asosida noan'aviy organo-mineral kompostlarning tuproq nam sig'imiga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tuproq unumdorligi, nam zaxirasi, cheklangan nam sig'imi, go'ng, kompost, organo-mineral o'g'it, bentonit, namlik, suv-fizik xossasi.

Abstract. This article analyzes the scientific literature on the role of unconventional organomineral composts in improving the water-physical properties of the soil. Based on information from scientific sources, the effect of non-traditional organo-mineral composts on soil moisture capacity is described.

Key words. Soil fertility, moisture reserve, limited moisture capacity, manure, compost, organo-mineral fertilizer, bentonite, humidity, water-physical properties.

Kirish. Bugungi kunda respublikamizda yer resurslaridan, xususan, sug'oriladigan tuproqlardan oqilona hamda samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, tuproqlarning suv-fizik, kimyoviy hamda biologik xossaxususiyatlarini uning unumdorligiga ta'sirini tadqiq etish, baholash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Suv tanqisligi sharoitida tuproqlarning suv xossalarinin yaxshilashda resurstejamkor va innovatsion yondashuvlar dolzarb hisoblanadi. Bunday usullardan biri tuproq suv xossalarini yaxshilashda adsorbentlik hususiyatiga ega agrorudalardan foydalanishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ko'pchilik agrorudalar atsorbent sifatida kation va anion almashinuvida singdirishni oshiruvchi, tuproqning suvni ushlab qolish hususiyatini yaxshilovchi, tuproq va suvni zaharli kimyoviy elementlardan, og'ir metallardan va radiatsiyadan tozalovchidir[1]. Masalan natriyli montmorillonit o'z massasidan 6-7 barobar oshiqcha suvni singdirishi mumkin, kalsiyli montmorillonit faqat 3-5 barobar suvni singdirib olishi isbotlangan [2].

Bentonit loyqalarining shimish hususiyati tuproqning suv-fizik va fizik-kimyoviy xossalariga yaxshi ta'sir qilishi, ularning tarkibida 20-60% va undan ko'p magniyli montmorillonit mineralining mavjudligidadir, shuning uchun o'zgaruvchan, bo'kuvchan va almashuvchan kation va anionlarning hajmi 100 gr tuproqda 23-150 mg/ekv. Solishtirma yuzasi 200-300m² grammni tashkil etadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha agrorudalar o'simliklar uchun makro va mikroelementlar manbasi ekanligini ko'rsatdi, ular tarkibida fosfor 1% dan 8% gacha, kaliy 0,7% dan 4,2% gacha, uglerod 0,7% dan 5,2% gacha va qator mikroelementlar mis, bor, sink, marganets, molibden, kobalt va boshqalar mavjud. Bentonitli loylar va glaukonitli qumlar tuproqning almashinish sig'imi va suv ushlab turish qobiliyatini oshiradi, srukturaviy tarkibi, hajm massasi, oziq elementlari harakatchan shakllari yuvilishini kamaytiradi.

Tuproqqa berilgan montmorillonit minerali uning suv ushlab turish qobiliyatini, oziq elementlar miqdorini oshiradi, shu bilan birga suv eroziyasida yuvilishni kamaytiradi va tuproqning biologik, fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilaydi. Natijada il minerallari tuproq unumdorligini oshirish omili bo'lib xizmat qiladi [3].

Surxondaryo o'tloqli-taqir tuproqlarida bentonit loylarni, ayniqsa ularni organik o'g'itlar bilan qo'shib kompost sifatida kuzda haydov qatlami ostiga berish tuproqqa ijobiy ta'sir ko'rsatadi: tuproq suv-fizik xossalari yaxshilandi, sug'orish me'yori va mineral o'g'itlar tejaldi. SHu bilan g'o'za hosildorligi oshishiga imkon yaratildi [4-8].

Natijalar. Keyingi yillarda matbuot orqali chop qilinayotgan ilmiy maqolalarda noan'anaviy agrorudalar, qolaversa bentonit loyqalari qo'llanilganda tuproqning suv o'tkazish va nam saqlash xususiyatlarining yaxshilanishi haqida ma'lumotlar bayon qilishmoqda [8-15].

S.Boltayev tadqiqotlarida bentonit va go'ng asosida tayyorlangan kompostlar turli me'yorlarining va alohida bentonitning tuproq cheklangan dala nam sig'imiga ta'siri o'rganilgan [13].

S.Boltayev ta'kidlashicha ma'dan o'g'itlarning N-150, P-105, K-75 kg/ga va N-200, P-140, K-100 kg/ga me'yorlari belgilangan variantlarda tuproqning 0-50; 0-70 va 0-100sm li qatlamlariga mutanosib ravishda ChDNS 21,5-21,5; 21,4-21,3 va 21,3-21,3% ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar tajriba dalasining kompost me'yorlariga bog'liq bo'lmagan dastlabki holatidir.

15 t/ga go'ng (N-150, P-105, K-75 kg/ga fonida) qo'llanilgan 3-variantda tuproqning cheklangan dala nam sig'imi yuqoridagi qatlamlarda 21,7; 21,4 va 21,5% ni tashkil qildi yoki nazorat variant (1) ga nisbatan 0,2; 0,1 va 0,1% ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

1-jadval

Kompost me'yorlarining tuproqni cheklangan dala nam sig'imiga (ChDNS) ta'siri, % (chigit ekishdan oldin) S.M.Boltayev [13]


Variant tartibi	Ma'dan o'g'itlarining yillik me'yorlari, kg/ga			Kompost, go'ng va bentonitni 3 yillik me'yorlari, t/ga	Tuproq qatlamlari, sm		
	N	P	K		0-50	0-70	0-100
1	150	105	75	-	21,5	21,3	21,4
2	200	140	100	-	21,5	21,3	21,3
3	150	105	75	15 (go'ng)	21,7	21,4	21,5
4	150	105	75	15+1,5(16,5)	21,7	21,4	21,5
5	150	105	75	15+3,0(18,0)	21,9	21,3	21,4
6	150	105	75	15+6,0(21,0)	22,0	21,4	21,4
7	150	105	75	15+9,0(24,0)	21,9	21,4	21,5
8	150	105	75	9,0(bentonit)	21,6	21,4	21,4

Tuproqning cheklangan nam sig'imi nisbatan yuqori (22,0%) kompost me'yorlari 21,0 t/ga qo'llanilganda (0-50sm da) aniqlandi va 0,5% yuqori bo'ldi. Tuproqning pastki qatlamlarida esa ChDNSni farqi nazoratga nisbatan 0,1% ga teng bo'ldi.

Faqat bentonit (9,0 t/ga) qo'llanilgan variantda tuproqning 0-50; 0-70 va 0-100 sm li qatlamlarida ChDNS 21,6; 21,4 va 21,4% ni tashkil qilgan holda nazoratdan 0,1 (0-50 sm da) % ga farqlandi. Ta'kidlash joizki, izlanishlarning 3-yilida barcha variantlarda ChDNS deyarli nazorat variantiga yaqinlashgani aniqlandi (1-jadval).

S.Bauatdinov va uning jamosi tomonidan glaukonit tuproqning suv-fizik xossalari, gumus holati va pH ga ta'siri o'rganilgan [16]. 1-rasmda glaukonit qo'llashning tuproqning nam sig'imiga ta'sirini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari keltirilgan. Bu ma'lumotlar tuproqlarning ular kesakli bo'lmagan holatidagi namligini aniqlash yo'li bilan olingan. Ushbu chizmalar tahlili mexanik tarkibi yengil bo'lgan qumloq tuproqning suvni saqlab

turish xossasi kamayishini ko'rsatdi. Glaukonit solinganda qumoq tuproq va og'ir tuproqning suvni saqlab turish xossasi ortgani kuzatiadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, qumoq tuproqda eng yuqori suvni saqlab turish xossasi kuzatilgan, ya'ni boyitilgan glaukonit solinishi natijasida qumoq tuproqli yerlarning suvni saqlab turish xossasi deyarli 1,5 marta ortgan.



1-rasm. Glaukonit solishning tuproqning suvni saqlab turish xossalari ta'siri (a-qumloq tuproq, b-qumoq tuproq, v-gil) S.Bauatdinov va boshqalar .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. WWW. P.B. @ Agromage. com 2010
2. Betextin G.A., Kurs mineralogii, M.: Nedra, 1956, 270 str.
3. Axatov A., Butayarov A.T. Tuproq unumdorligini oshirishda loyli minerallarning ahamiyati. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya. Tashkent. 2007.
4. Niyozaliev B.I., Nazarov R.N., Tillabekov B, Siddiqova D., Qodirxo'jaeva M. Yangi organo-ma'dan o'g'itlarning g'o'zadagi samaradorligi. // Paxtachilik va donchilikni rivojlantirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2004. – B. 162-164.
5. S.Boltayev, O.Boynazarov, F.Imamov, J.Abdinazarov, B.Turdiyev, D.Artikova. [Tuproq unumdorligiga noan'anaviy orgona-mineral kompostlarni qo'llash samradorligi](#). Life sciences and agriculture. 2021 № 3 (7). 37-53 p.
6. Botirjon, T., Foziljon, I., Shoxrux, M., Ramozon, X., & Islom, H. UZOQ MUDDAT TA'SIR ETUVCHI SHISHASIMON FOSFORLI O'G'ITLAR VA ULARDAN TAYYORLANGAN KOMPOSTLARNING TUPROQDAGI HARAKATCHAN FOSFOR MIQDORIGI TA'SIRI. THE MINISTRY OF AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TASHKENT STATE AGRARIAN UNIVERSITY МИНИСТЕРСТВО СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, 2
7. Sharofovich, B. O. (2022). WATER-FERTILIZER (NPK) STANDARD IRRIGATION REGIMES OF “BUKHARA-102” AND “PORLOQ-1” COTTON VARIETIES. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 10(12), 816-818.
8. Turdiyev, B. A. o'g'li, & Ergasheva, E. O. qizi. (2023). CHIGITLARNI BENTONENT LOYQASI BILAN KAPSULALAB EKISHNING AHAMIYATI. SCHOLAR, 1(12), 4–9.
9. Abdinazarov J., “The effect of various composts on the amount of salts in the soil” Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia. PP.13-16. 11.03.2024.

10. Abdinazarov, S.M.Boltaev “Surxondaryoning taqirsimon tuproqlari sharoitida ingichka tolali g‘o‘zani parvarishlashda qo‘shimcha oziqalarning ta’siri o‘rganish” *World scientific research journal* J2 Volume-5_Issue-1_July_2022 Y–2022
11. Jamshid, A., & Otabek, K. (2024). THE EFFECT OF COMPOSTS ON THE YIELD OF FINE-FIBER COTTON. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(27), 239-242.
12. Jamshid, A., Saydullo, B., Otabek, P., Umida, M., & Uligberdi, K. (2022). TO STUDY THE EFFECT OF ADDITIONAL NUTRIENTS IN THE CARE OF FINE-FIBER COTTON IN THE CONDITIONS OF BARREN SOILS OF SURKHANDARYA REGION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 156-158.
13. Boltaev, S. M., Abdinazarov, J., & Yusupov, A. (2022). SURXONDARYONING TAQIRSIMON TUPROQLARI SHAROITIDA INGICHKA TOLALI G ‘O ‘ZANI PARVARISHLASHDA QO ‘SHIMCHA OZIQALARNING TA’SIRI O ‘RGANISH. *World scientific research journal*, 5(1), 50-54.
14. . Abdinazarov. (2024). THE EFFECT OF VARIOUS COMPOSTS ON THE AMOUNT OF SALTS IN THE SOIL. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 3(3), 13–16. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/4075>
15. Абдиназаров, Ж., & Болтаев, С. (2023). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ТАҚИРСИМОН ТУПРОҚЛАРИ ШАРОИТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗАНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚЎШИМЧА ОЗИҚАЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. *AGROINNOVATSIYA*, 1(1), 118-121.
16. Sharofovich, B. O., & Shapoatovich, M. S. (2023). EFFECT OF POTASSIUM FERTILIZER RATE ON SUNFLOWER YIELD INDICATORS. *JOURNAL OF AGRICULTURE AND LIFE SCIENCES*, 6(4), 1-6.

YANGI O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISH TARIXI

*Abduhafizova Robiyaxon Alisher qizi
Farg‘ona davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning tarixiy bosqichlari va hozirgi kundagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, klaster tizimini joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlarning soha rivojiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bu islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligiga qo‘shayotgan hissassi haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, qishloq xo‘jaligi, islohotlar, klaster tizimi, raqamlashtirish, fermer xo‘jaligi, eksport, oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsiya, subsidiyalar.

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi — yurtimiz iqtisodiyotining tayanch tarmog‘i sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Mamlakatda mustaqillik yillarida agrar sohani rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksportbop mahsulotlar yetishtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida boshlangan

yangi davrda qishloq xo'jaligini isloh qilish, uni zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish, dehqon va fermerlarga keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu maqolada aynan Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligining rivojlanish tarixiy bosqichlari va zamonaviy yo'nalishlari tahlil etiladi [1].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qishloq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish zaruriyati yuzaga keldi. Sovet davrida qishloq xo'jaligi markazlashgan boshqaruv asosida yuritilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng bu tizim tubdan o'zgartirila boshlandi. Dastlab yirik kolxoz va sovxozlar o'rniga fermer xo'jaliklari tashkil etildi, aholining yerga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgardi [2].

1. Yer va mulk islohotlari

Yangi O'zbekiston davrida yer munosabatlarini erkinlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berilayotgan yer maydonlari ochiq va shaffof tanlov asosida taqsimlanmoqda. Yerga nisbatan mulkdorlik hissi kuchaygani, uni oqilona va samarali ishlatishga undamoqda [45- 60 b, 3].

2. Qishloq xo'jaligida klaster va kooperatsiya tizimi

So'nggi yillarda klaster va kooperatsiya tizimi joriy qilinib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarishidan tortib, uni qayta ishlash va sotishgacha bo'lgan jarayon yagona tizimga birlashtirildi. Bu tizim fermerlarning moddiy manfaatdorligini oshirish, hosildorlikni ko'paytirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda [4].

3. Raqamlashtirish va innovatsiyalar

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Yerni kosmosdan monitoring qilish, avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari, GPS texnologiyasi, dronlar va sensorli uskunalar yordamida yerlarni boshqarish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa hosildorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga olib kelmoqda [5].

4. Davlat qo'llab-quvvatlovi va kredit tizimi

Fermer xo'jaliklariga subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari kabi bir qator qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaratildi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida agronomlar, mexanizatorlar va mutaxassislar tayyorlash tizimi kuchaytirilmoqda [6].

5. Ekologik barqarorlik va suvdan samarali foydalanish

Qishloq xo'jaligida suv resurslarining oqilona ishlatilishi ham dolzarb masalalardan biridir. Suv tejovchi texnologiyalar — tomchilatib sug'orish, yangilangan drenaj tizimlari joriy qilinmoqda. Bu esa ekologik muvozanatni saqlash va barqaror qishloq xo'jaligi rivojiga xizmat qilmoqda [112-125 b, 7].

6. Eksport salohiyatining oshishi

O'zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari xorijiy bozorlar uchun jozibador bo'lib bormoqda. Meva-sabzavot, g'alla, paxta, uzum va boshqa mahsulotlar eksporti yil sayin ortmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti va valyuta tushumining muhim manbasiga aylanmoqda [8].

Xulosa. Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida davom etmoqda. Yer va mulk islohotlari, raqamlashtirish, klaster tizimi va kooperatsiya, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish kabi strategik chora-tadbirlar qishloq xo'jaligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonlar nafaqat qishloq aholisining farovonligini oshirish, balki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun ekologik muvozanatni saqlash va

suv resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu sohada amalga oshirilayotgan innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar qishloq xo'jaligini global miqyosda raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligining rivoji, albatta, mamlakatning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. (2020). Yangi O'zbekistonning yangi iqtisodiy siyosati. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
2. Qodirov, A. (2018). Qishloq xo'jaligi islohotlari: muammolar va yechimlar. Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
3. Xudoyberdiyev, R. (2021). O'zbekistonda qishloq xo'jaligining eksport salohiyati. Journal of Economics and Agriculture, 4(2), 45-60.
4. Shamsiyev, B. (2019). Innovatsiyalar va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish. Tashkent: O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi Universiteti.
5. Ismailov, T. (2022). Yangi O'zbekistonda yer va mulk islohotlari. In: O'zbekiston iqtisodiyoti: holati va rivojlanish istiqbollari. Tashkent: O'zbekiston Davlat Iqtisodiyot Universiteti.
6. O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi (2021). Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar: 2016-2021 yillar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Qishloq Xo'jaligi Vazirligi.
7. Hoshimov, Z. (2020). O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida raqamlashtirish: asosiy tendensiyalar. O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi Jurnali, 6(3), 112-125.
8. Mirzoyev, S. (2021). Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ular asosida ishlab chiqarish samaradorligi. Tashkent: Ziyo-Nur.

AGRAR SOHADAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abduhafizova Robiyaxon Alisher qizi
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida dasturlash va animatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, zamonaviy yondashuvlar, innovatsion tizimlar va ularning ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, aniq dasturiy vositalar va animatsion modellardan amaliy misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, dasturlash, animatsiya, raqamli texnologiyalar, aqlli dehqonchilik, simulyatsiya.

Annotatsiya: V state rassmatrivayutsya vozmojnosti ispolzovaniya texnologiy programirovaniya i animatsii v selskom xozyaystve, sovremennyye podxody, innovatsionnyye sistemy i ix znachenie. Takje privedeny prakticheskie primery ispolzovaniya konkretnykh programmnykh instrumentov i modeley animatsii.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, программирование, анимация, цифровые технологии, умное земледелие, моделирование.

Abstract: This article discusses the possibilities of using programming and animation technologies in agriculture, modern approaches, innovative systems and their importance. Also, practical examples of specific software tools and animation models are given.

Keywords: Agriculture, programming, animation, digital technologies, smart farming, simulation.

KIRISH.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida ham har qanday murakkab zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, raqamli tendensiyalar, avvalo qishloq xo'jaligi sohasining turli yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan etakchi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga qishloq xo'jaligi sohasini rivojlanishiga o'z xissasini qo'shib kelayotgan klasterlar, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, ishbilarmonlar, tadbirkorlar ongiga va tafakkuriga etkazilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda [256 b, 1].

Bu borada viloyatdagi klaster, fermer xo'jaligi, oilaviy dehqon xo'jaligi, yosh tadbirkorlar ongiga to'liq va tez etib borishini yo'lga qo'yilgan bo'lib, seminar treniglar tashkil etilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-sonli qaroridan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish; agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan, davlat xizmatlarini to'liq elektron shaklga o'tkazish; qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish; suv omborlari va irrigatsiya tizimlarida suv resurslaridan foydalanishni "onlayn" rejimida nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish; suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritish hamda ma'lumotlar bazasini shakllantirish kabi masalalar muhim omil sifatida e'tirof etib o'tish muhim sanaladi [312 b, 2].

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasiga ham chuqur kirib bormoqda. An'anaviy dehqonchilik usullari endilikda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashib, samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va hosildorlikni ko'paytirish imkonini bermoqda. Xususan, dasturlash va animatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ekin ekish, hosil etishtirish, sug'orish va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati yaratildi [45-49 b, 3].

Qishloq xo'jaligida dasturlash orqali sensorlar, dronlar, sun'iy intellekt tizimlari va mobil ilovalar yordamida er, suv va ekinlar haqida real vaqt rejimida ma'lumot to'plash imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, animatsiya vositalari orqali o'quvchilar, agronomlar va fermerlarga yangi texnologiyalarni tushuntirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ko'rgazmali tarzda ifodalash, o'quv dasturlarini interaktiv qilish mumkin bo'ldi.

Zamonaviy qishloq xo'jaligi endi oddiy mehnat emas, balki texnologik bilimlarni talab qiluvchi murakkab jarayonga aylanmoqda. Ayniqsa dasturlash tillari yordamida ishlab chiqilgan tizimlar orqali fermerlar hosildorlikni tahlil qilish va prognozlash, sug'orish tizimlarini avtomatlashtirish, zararkunandalarni aniqlash va resurslarni tejash kabi ko'plab muammolarni hal etishga erishmoqdalar. Masalan, mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida o'tgan yillardagi hosil ma'lumotlarini tahlil qilib, kelgusi mavsumdagi hosil miqdorini aniqlash mumkin [22-26 b, 4].

Python yoki C++ kabi dasturlash tillari yordamida mikrokontrollerlar asosida ishlaydigan sugʻorish tizimlari esa ernaing namligi va haroratiga qarab avtomatik ishlaydi. Dronlar va kamera tizimlaridan kelgan tasvirlar sunʻiy intellekt yordamida tahlil qilinib, zararli hasharotlar va kasalliklar erta aniqlanadi. Shu tariqa dasturlash texnologiyalari orqali suv, oʻgʻit va boshqa resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratilmoqda [58-62 b, 5].

Shuningdek, animatsiya texnologiyalari ham qishloq xoʻjaligi sohasida muhim oʻrin egallamoqda. Animatsiyalar yordamida oʻquvchilar va fermerlarga urugʻ ekish, hosil yigʻish, texnika boshqaruvi kabi jarayonlarni 3D koʻrinishda koʻrsatish orqali ularning bilimni mustahkamlash mumkin.

Blender yoki Unity kabi vositalar yordamida traktorlar, kombaynlar va boshqa texnikalarni simulyatsiya qilish, yaʼni virtual tarzda boshqarishni oʻrganish mumkin. Shu bilan birga, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari yordamida foydalanuvchi oʻzini haqiqiy dalada his qilishi va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishi mumkin. Bundan tashqari, qisqa animatsion roliklar orqali qishloq aholisi orasida yangi agrotexnologiyalar, kasalliklar va ularga qarshi kurashish usullari haqida targʻibot olib borish mumkin.

Amaliyotda Python, JavaScript, C++ kabi dasturlash tillari tuproq tahlili, hosil prognozi va monitoring tizimlarini ishlab chiqishda keng qoʻllanilmoqda. IoT (Internet of Things) texnologiyalariga asoslangan Arduino va Raspberry Pi kabi qurilmalar yordamida dalalardan real vaqt rejimida maʼlumot yigʻiladi.

Blender, Unity, Unreal Engine kabi animatsiya vositalari esa 3D koʻrgazmalar va simulyatsiyalar yaratishda yordam beradi. Mobil ilovalar orqali esa fermerlar daladagi ishlarni telefon orqali boshqarish imkoniyatiga ega boʻlmoqdalar.

Qishloq xoʻjaligi sohasida dasturlash va animatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bu sohani zamonaviylashtirishga, ish unumdorligini oshirishga va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida agrar sohaga yoshlarni jalb etish, taʼlimni interaktiv qilish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish mumkin. Shu sababli bu sohalarni chuqur oʻrganish va amaliyotga joriy etish Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xoʻjaligi sohasida dasturlash va animatsiya texnologiyalarining joriy etilishi sohaga yangicha yondashuv olib kirmoqda. Dasturlash orqali ishlab chiqilgan aqlli tizimlar – masalan, avtomatlashtirilgan sugʻorish, hosil monitoringi, er unumdorligini tahlil qilish kabi echimlar – fermerlarga vaqt va resurslarni tejash, samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, animatsion texnologiyalar yordamida oʻquv materiallari yanada tushunarli, qiziqarli va interaktiv koʻrinishga ega boʻlmoqda.

Zamonaviy qishloq xoʻjaligi faqat ogʻir jismoniy mehnat emas, balki raqamli bilimlarni talab qiluvchi innovatsion soha sifatida shakllanmoqda. Bu esa, yosh mutaxassislarni sohaga jalb etish, taʼlimda ilgʻor metodlardan foydalanish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish orqali amalga oshadi.

Kelajakda qishloq xoʻjaligida raqamli texnologiyalar, ayniqsa dasturlash va animatsiya vositalari asosiy vositaga aylanadi. Shuning uchun ushbu yoʻnalishlarda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, kadrlar tayyorlash va amaliy loyihalarni kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Oʻzbekiston uchun bu – nafaqat texnologik rivojlanish, balki oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov, S. S. Axborot texnologiyalari: O'quv qo'llanma. — Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. — 256 b.
2. Xodjayev, S. T. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. — Toshkent: O'zbekiston, 2019. — 312 b.
3. Karimov, A. Raqamli texnologiyalar va ularning agrar sohadagi qo'llanilishi // "Ilm va taraqqiyot" ilmiy jurnali. — 2022. — №2. — B. 45–49.
4. Aslonov, B. Blender asosida 3D animatsiyalar yaratish // "Axborot texnologiyalari" jurnali. — 2021. — №4. — B. 22–26.
5. Farmonov, M. Fermer xo'jaliklarida avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari // "Zamonaviy qishloq xo'jaligi" ilmiy-amaliy jurnal. — 2020. — №3. — B. 58–62.

SHO'RLANISHNING O'SIMLIKLARGA ZARARLI TA'SIRI.

*Imomov Foziljon Zokirjonovich
Turdiyev Botir Azamat o'g'li,
Ahmedova Asal Ikromjonovna
TerDMAU*

Annotatsiya. Sho'rlanish global miqyosda qishloq xo'jaligi uchun jiddiy xavf tug'diradigan muhim ekologik muammodir. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar dunyo aholisining o'sishi bilan yo'qolib bormoqda. Oziq-ovqatga bo'lgan talabni qondirish uchun tuzdan zarar ko'rgan hududlardan foydalanish kerak. Sho'rlanishning o'simliklarning o'sishi va hosildorligiga zararli ta'sirini o'zgartirish o'simliklarning tuz stressiga qanday javob berishini, shuningdek, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarni inklyuziv boshqarish yondashuvlarini to'liq tushunishni talab qiladi. Ushbu tuproqlardan samarali foydalanish uchun tuproqdagi tuzlarning o'simliklarga zararli ta'sirini bilish zarur. Ushbu maqolada tuproqdagi tuzlarning o'simliklarga zaharli ta'sir etish mexanizmi, qishloq xo'jaligi ekinlarning chidamliligi to'risidagi ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Sho'rlanish, tuz stressi, fiziologik jarayonlar, osmotik bosim, o'simlik o'sishi, barg o'g'izchalari, fotosentiz, tuzga chidamlilik.

KIRISH. Zamonaviy jamiyat oldida bir qancha global muammolar mavjud. Tuproqning sho'rlanishi ana shunday muhim global muammolardan biridir, chunki u dehqonchilikka salbiy ta'sir qiladi. Sho'rlanish o'simliklarning o'sib-rivojlanishi, hosildorligi hamda tuproq unumdorligini pasyitiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Dunyoning ko'plab sug'oriladigan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil mintaqalarida sho'rlanish dolzarb muammodir. Hisob-kitoblarga ko'ra, sho'rlanish butun dunyo bo'ylab sug'oriladigan erlarning 20% gacha ekin hosildorligini kamaytirishi, XXI asrning 50-yillariga kelib qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 50 % sho'rlanishi mumkin [24, 39]. Sho'rlangan tuproqlar holatini yaxshilash bilan bir qatorda sho'rlanishning o'simliklarga salbiy ta'sirini o'rganish va o'simliklarning tuzlarning toksiklik xususiyatiga chidamliligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Sho'rlanishning o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri. Tuproqning sho'rlanishi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'siri tuz konsentratsiyasi, o'simlik turlari va navlari, o'simlik yoshi, stress turi, gaz almashinuvi xususiyatlari, fotosintetik pigmentlar va atrof-muhit sharoitlariga bog'liq [1].

O'tkazilgan tadqiqotlarda past sho'rlanish ta'sirida makkajo'xori [2], sholi [3], Vigna [4], va Vika [5] uzunligini oshgan. Biroq, natriy xlorid tuzining yuqori konsentratsiyasi Vigna [6], kungaboqar [7] o'simliklarining o'simliklarning bo'yi pasaygan.

O'simlik bo'yining pasayishi ortiqcha tuzlarning fotosintez tezligiga, va uglevodlar harakatining pasayishiga o'sish gormonlari va fermentlar faolligini cheklash orqali oqsil sintezining pasayishi salbiy ta'siridan dalolat beradi [8].

Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'simlik biomassasi (yangi va quruq biomassa), barglar soni va barg maydoniga 8 dSm⁻¹ gacha bo'lgan sho'rlanish darajasiga keskin ta'sir qiladi [11]. Olimlarning ta'kidlashicha, sho'rlanish tufayli quruq moddahosil bo'lishi va o'simliklarning o'sishi sekinlashishi transport oqsillari faoliyatining izdan chiqishi [1] tufayli yuzaga keladi. O'simliklar o'sishi pasayishining yana bir sababi sho'rlanishning fotosintezga zararli ta'siri bo'lishi mumkin.

Taxminlarga ko'ra, sho'rlanish sharoitida suvning past o'zlashtirishi ildiz o'sishiga qaraganda barg yuzasini kamroq rivojlanishiga olib keladi [11]. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hujayra shirasida Na⁺ va Cl⁻ ionlarining ko'p to'planishi ozuqa muhitida past osmotik gradientni yuzaga keltiradi, buning natijasida suvning so'rilishi kamayadi va bu o'z navbatida o'simlik morfologik xususiyatlariga ta'sir qiladi [12]. Sho'rlanishning o'simliklar o'sishini cheklashining yana bir mexanizmi o'simlikning barg og'izchalari yopilishi tufayli fotosintezning intensivligining pasayishi bo'lishi mumkin [1]. Shuningdek, osmos tufayli oziq moddalar so'rilishining sezilarli darajada kamayishi, o'simlik o'sishi cheklanishining ikkinchi darajali ta'siri sifatida xabar berilgan [14].

Sho'rlanishning o'simliklardagi fiziologik jarayonlarga ta'siri. Tuproqning sho'rlanishi natijasida o'simliklarning o'sishi va hosildorligining pasayishi ko'plab fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning o'zgarishi, ya'ni barglardagi xlorofill (a, b, karotinoidlar) va fotosintez intensivligining kamayishi, ionlarni ajratish mexanizmlari, osmotik va ozuqa moddalar muvozanatining natijasida yuzaga kelishi mumkin [15]. Ko'pincha, sho'rlanish ekinlarga uchta usulda ta'sir qiladi: osmotik stress, ion muvozanati va oksidlovchi shikastlanish [16]. Sho'rlangan tuproqlarning asosiy ta'siri o'simlik to'qimalarida natriy (Na⁺) va xlorid (Cl⁻) ionlarining to'planishining toksik ta'siridir [16,17]. Sho'rlangan tuproqlarda o'sgan o'simlik tarkibida ko'proq Na⁺ ionlarini to'plashi isbotlangan, buning natijasida ion muvozanati buziladi va oksidlanishnatijasida to'qimalarning shikastlanishi kuchayadi [4]. Na⁺ va Cl⁻ ionlarining o'simlik xujayrasiga kirishi o'simlik va tuproqda ion muvozanatining buzilishiga olib keladi va o'simlikdagi bu ion nomutanosibligi muhim fiziologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin [18]. Tuproq tarkibidagi tuzlarning yuqori konsentratsiyasi o'simlikning ildiz zonasida suvning so'rilishi va tuzning to'planishi [15], o'simlik osmotik potentsialining pasayishi tufayli fiziologik qurg'oqchilikka olib kelishi mumkin [18]. O'simliklardagi ortiqcha Na⁺ hujayra membranasi va o'simlik organellalariga zarar etkazadi, natijada fotosintez tezligi, barg og'izchalarining o'tkazuvchanligi, transpiratsiya tezligi kabi o'simlik fiziologik mexanizmlarining pasayishiga olib keladi[17]. Bundan tashqari, o'simlikdagi bu fiziologik o'zgarishlar hujayra membranasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, sho'rlangan muhitda o'stirilgan o'simliklar xlorofill shakllanishiga to'sqinlik qilishi va pigment funksiyalari va tuzilishida turli xil o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tuz ta'sirida xlorofill pigmenti sintezining cheklanishi turli fermentlar faolligining pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[20]. Sho'rlanish ta'sirida xlorofil parchalanishi

tilakoidlar va xloroplastlarning membranalarini buzadigan superoksid radikallari tomonidan amalga oshirilishi mumkin [21].

O'simliklarning sho'rlanishga chidamlilik mexanizmlari va oshirish choralari. O'simliklar sho'rlangan tuproqlarda oziqlanishi uchun hujayra va organ darajasida turli xil moslashuvlarni ishlab chiqdi. Ba'zi qarshilik mexanizmlari ion gomeostazi, barg og'izchalarini tartibga solish, osmoregulyatsiya/osmotik moslashuv, gormonal muvozanatning o'zgarishi, antioksidant himoya mexanizmini rag'batlantirish va hujayralar va to'qimalardan toksik ionlarni to'plashdir. Biroq, bu tuzga chidamli mexanizmlarning barchasi o'simlik turlarida farqlanadi[39]. Tuproqning sho'rlanishi sharoitida biomassa ishlab chiqarishga ko'ra, to'rtta o'simlik guruhi farqlanadi (1-jadval).

1-jadval.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining nisbiy tuzga chidamliligi.

Tolerant emas	Bir oz bardoshli	O'rtacha bardoshli	Bardoshli
Sabzi Yashil loviya Piyoz No'xat Turp Buta mevasi Malina Qulupnay	Karam Seldr Bodring Sutcho'p Qalapmir Kartoshka Shirin bodroq Olma Uzum	Lavlagi Brokkoli Ismaloq Qovoq Pomidor Kabochka Qovun	Sarsabil

Tuzdan ta'sirlangan tuproqlarning o'simlikchilikka salbiy ta'sirini tuproqni boshqarish usullari orqali yumshatish mumkin. O'simliklarning sho'rlanish stressiga javobini yaxshilashning boshqa yondashuvlari orasida urug'larni tayyorlash [26], ekinlarni genetik yaxshilash [27], tuzga chidamli ekinlar (galofitlar) [25] kiradi.

Shuningdek, tuproqlarning sho'rlanishini pasaytirishda agorudalarning o'rni katta bo'lib soha olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Xulosa. Tuproqning sho'rlanishi jahon miqyosida ko'plab mamlakatlar, ayniqsa yarim qurg'oqchil va qurg'oqchil iqlimi bo'lgan mamlakatlar uchun jiddiy muammodir. Tuproqning sho'rlanishi madaniy o'simliklarning fiziologik, biokimyoviy va genetik xususiyatlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'simliklar sho'rlanish stressiga turli xil javob beradi va tuz tarkibiga qarab tuproq sho'rligiga sezgir, o'rtacha sezgir, o'rtacha bardoshli va bardoshli deb tasniflanadi. Sho'rlangan yerlarda sho'rga chidamzis ekinlar ekilish hosil miqdorini keskin kamayishiga olib keladi. Provardida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish rentabilligini kamayishiga va iqdiosdiy zararga olib keladi. Tuproq sho'rlanishi va suv resurslari taqchilligi muommolari sho'rlangan tuproqlarda ana'naviy ekinlar o'rniga sho'r va qurg'oqchilikka chidamli ekinlarni ekish tavsiya etiladi. Sho'rlanish darajasini pasaytirish global qishloq xo'jaligining muhim muammosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aghighi Shahverdi, M.; Omid, H.; Tabatabaei, S.J. Plant growth and steviol glycosides as affected by foliar application of selenium, boron, and iron under NaCl stress in *Stevia rebaudiana* Bertoni. *Ind. Crops Prod.* 2018, *125*, 408–415.
2. Hamada, A.M. Alleviation of the adverse effects of NaCl on germination, seedling, growth and metabolic activities of maize plants by calcium salts. *Bull. Fac. Sci. Assiut Univ.* 1995, *24*, 211–220.
3. Lee, D.G.; Park, K.W.; An, J.Y.; Sohn, Y.G.; Ha, J.K.; Kim, H.Y.; Bae, D.W.; Lee, K.H.; Kang, N.J.; Lee, B.H. et al. Proteomics analysis of salt-induced leaf proteins in two rice germplasms with different salt sensitivity. *Can. J. Plant Sci.* 2011, *91*, 337–349.
4. Ibrahim, E.A. Seed priming to alleviate salinity stress in germinating seeds. *J. Plant Physiol.* 2016, *192*, 38–46.
5. Hanafy, M.S.; El-Banna, A.; Schumacher, H.M.; Jacobsen, H.J.; Hassan, F.S. Enhanced tolerance to drought and salt stresses in transgenic faba bean (*Vicia faba* L.) plants by heterologous expression of the PR10a gene from potato. *Plant Cell Rep.* 2013, *32*, 663–674.
6. Kapoor, K.; Srivastava, A. Assessment of Salinity Tolerance of *Vigna mungo* Var. Pu-19 Using ex vitro and in vitro Methods. *Asian J. Biotechnol.* 2010, *2*, 73–85.
7. Anwar-ul-Haq, M.; Akram, S.; Akhtar, J.; Saqib, M.; Saqib, Z.A.; Abbasi, G.H.; Jan, M. Morpho-physiological characterization of sunflower genotypes (*Helianthus annuus* L.) under saline condition. *Pak. J. Agric. Sci.* 2013, *50*, 49–54.
8. Qados, A.M.S.A. Effect of salt stress on plant growth and metabolism of bean plant *Vicia faba* (L.). *J. Saudi Soc. Agric. Sci.* 2011, *10*, 7–15.
9. Mallahi, T.; Saharkhiz, M.J.; Javanmardi, J. Salicylic acid changes morpho-physiological attributes of feverfew (*Tanacetum parthenium* L.) under salinity stress. *Acta Ecol. Sin.* 2018, *38*, 351–355.
11. Ahmadi, F.I.; Karimi, K.; Struik, P.C. Effect of exogenous application of methyl jasmonate on physiological and biochemical characteristics of *Brassica napus* L. cv. Talaye under salinity stress. *S. Afr. J. Bot.* 2018, *115*, 5–11.
12. Sapre, S.; Gontia-Mishra, I.; Tiwari, S. Klebsiella sp. confers enhanced tolerance to salinity and plant growth promotion in oat seedlings (*Avena sativa*). *Microbiol. Res.* 2018, *206*, 25–32.
14. Cantabella, D.; Piqueras, A.; Acosta-Motos, J.R.; Bernal-Vicente, A.; Hernández, J.A.; Díaz-Vivancos, P. Salt-tolerance mechanisms induced in *Stevia rebaudiana* Bertoni: Effects on mineral nutrition, antioxidative metabolism and steviol glycoside content. *Plant Physiol. Biochem.* 2017, *115*, 484–496.
15. Munns, R. Genes and salt tolerance: Bringing them together. *New Phytol.* 2005, *167*, 645–663.
16. Hussain, S.; Zhang, J.H.; Zhong, C.; Zhu, L.F.; Cao, X.C.; YU, S.M.; Allen Bohr, J.; Hu, J.J.; Jin, Q.Y. Effects of salt stress on rice growth, development characteristics, and the regulating ways: A review. *J. Integr. Agric.* 2017, *16*, 2357–2374.
17. Hussain, S.; Zhong, C.; Bai, Z.; Cao, X.; Zhu, L.; Hussain, A.; Zhu, C.; Fahad, S.; James, A.B.; Zhang, J.; et al. Effects of 1-Methylcyclopropene on Rice Growth Characteristics and Superior and Inferior Spikelet Development Under Salt Stress. *J. Plant Growth Regul.* 2018, *37*, 1368–1384.
18. James, R.A.; Blake, C.; Byrt, C.S.; Munns, R. Major genes for Na⁺ exclusion, Nax1 and Nax2 (wheat HKT1;4 and HKT1;5), decrease Na⁺ accumulation in bread wheat leaves under saline and waterlogged conditions. *J. Exp. Bot.* 2011, *62*, 2939–2947.

19. Hussain, S.; Bai, Z.; Huang, J.; Cao, X.; Zhu, L.; Zhu, C.; Khaskheli, M.A.; Zhong, C.; Jin, Q.; Zhang, J. 1-methylcyclopropene modulates physiological, biochemical, and antioxidant responses of rice to different salt stress levels. *Front. Plant Sci.* 2019, 10.
20. Santos, M.G.; Ribeiro, R.V.; Machado, E.C.; Pimentel, C. Photosynthetic parameters and leaf water potential of five common bean genotypes under mild water deficit. *Biol. Plant.* 2009, 53, 229–236.
21. Subramanyam, K.; Du Laing, G.; Van Damme, E.J.M. Sodium selenate treatment using a combination of seed priming and foliar spray alleviates salinity stress in rice. *Front. Plant Sci.* 2019, 10, 116.
23. Munns, R.; Tester, M. Mechanisms of Salinity Tolerance. *Ann. Rev. Plant Biol.* 2008, 59, 651–681.
24. Wang, W.; Vinocur, B.; Altman, A. Plant responses to drought, salinity and extreme temperatures: Towards genetic engineering for stress tolerance. *Planta* 2003, 218, 1–14.
25. Navarro-Torre, S.; Garcia-Caparrós, P.; Nogales, A.; Abreu, M.M.; Santos, E.; Cortinhas, A.L.; Caperta, A.D. Sustainable agricultural management of saline soils in arid and semi-arid Mediterranean regions through halophytes, microbial and soilbased technologies. *Environ. Exp. Bot.* 2023, 212, 105397.
26. Madani, A.; Hassanzadehdelouei, M.; Zrig, A.; Ul-Allah, S. Comparison of different priming methods of pumpkin (*Cucurbita pepo*) seeds in the early stages of growth in saline and sodic soils under irrigation with different water qualities. *Sci. Hortic.* 2023, 320, 112165.
27. Mansour, M.M.F. Anthocyanins: Biotechnological targets for enhancing crop tolerance to salinity stress. *Sci. Hortic.* 2023, 319, 112182.

G‘O‘ZA OQQANOTI– BEMISIA TABACI GENN ZARARI VA ULARGA QARSHI KURASHNING AHAMIYATI.

Botirov Sodiq Ahmad o‘g‘li
TerDMAU assistenti

Annotatsiya – Maqolada g‘o‘za oqqanotining zarari va uning oqibatida kelib chiqadigan muammolar, ularga qarshi kurash choralari haqida so‘z boradi.

Аннотация - В статье говорится о вреде, причиняемом хлопковым белокрылкам и проблемах, вызываемых им, а также мерах борьбы с ними.

Abstract - The article talks about the harm caused by cotton whiteflies and the problems caused by them, as well as measures to combat them.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, o‘simlik, oqqanot, hosil, so‘ruvchi, lichenka, pupariy, tajriba, tur, oila.

Ключевые слова: Хлопок, белокрылка, урожай, сосущие, личенка, пупарий, опыт, вид, семейство.

Key words: Cotton, white fly, harvest, sucking, larva, puparia, experience, species, family.

Kirish. Qishloq ho‘jaligida nafaqat g‘o‘za ekini balki barcha ekinlardan ko‘zlangan hosilni olishda butun vegetatsiya davomida agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish

muhim hisoblanadi. Yuksak agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida, sifatli amalga oshirish evaziga yetishtirilgan hosilni zararli organizmlardan himoya qilish ham juda muhim tadbirlardan hisoblanadi. Xuddi shunday zararkunandalardan bir oqqanot xisoblanadi. Ular o'simliklarni so'radi va o'zidan shira ajratadi. Bular esa o'z navbatida turli mikroorganizmlar uchun ozuqa muhiti bo'lib qoladi. Shuning uchun ularga qarshi kurash choralarini o'z vaqtida olib borish lozim.[2]

Oqqanotlar teng qanotlilar (Homoptera) turkumining aleyrodid yoki oqqanotlar (Aleyrodidae) oilasiga mansub hasharotlar. Xammasi bo'lib 1200 ta turi aniqlangan. O'zbekistonda bularning 4 turi aniqlangan. G'o'zaga asosan 2 turi zarar keltiradi: issiqxona (*Trialeurodes vaporariorum* Westw.) va g'o'za (tamaki) – *Bemisia tabaci* Genn. oqqanotlari, sitrus daraxtlarini – sitrus oqqanoti (*Dialeurodes citri*), karamni – karam oqqanoti (*Aleyrodes proletella*) zararlaydi. [1].

Oqqanotlar so'ruvchi hasharotlar bo'lib, ularning lichinkalari o'simlik bargining orqasiga yopishib olib, ularning shirasini so'rib oziqlanadi. Ular harakatsiz bo'lib hayot kechiradilar. Lichinkalardan chiqqan chiqitlarda saprofit zambug'ug'lar rivojlanib, o'simlikning barg va mevalarni qoraytiradi va buning natijasida barglar qurib qolib, mevalari esa yaroqsiz holga keladi. Ochiq dalada zararkunadaning zarar keltirishi aprel oyining II-dekadasidan o'simlik rivojlanishining oxirgi davrigacha davom etadi. Maxsus tajribalar shuni ko'rsatdiki, g'o'za erta zararlanganida, oqqanotning zarari 13-18% ni tashkil etadi (Sh. Xo'jaev va H Xoshimov).[6]

G'o'zada oqqanotning har avlodi 22-25 kunda o'tadi. Hammasi bo'lib esa bu ekingda oqqanot 3-4 marta avlod berib rivojlanadi. Iyulning II-III 10-kunligidan boshlab issiqxona oqqanotining miqdori g'o'zada keskin kamaya boshlaydi. Bu yozgi kun isishi va havo namligining pasayishi bilan bog'liqdir. G'o'za oqqanoti bu xususiyatdan holi, chunki havo haroratining issiq kunlarida ham uning zichligi pasaymaydi. Shuning uchun g'o'za oqqanotining bu ekinga yetkazadigan zarari yuqoriroq.[5,6]

G'o'za oqqanoti (*Bemisia tabaci* Genn.) ning vatani Amerika tropiklari hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ularni barcha issiq iqlimli mamlakatlarda, Shimoliy Amerikada va Yevropaning issiqxona va gulxonalari sharoitida uchratish mumkin. G'o'za oqqanotlarining pupariylari oqish-yashilroq bo'lib, lentasimon mum belbog'dan va 5- 8 mm.li ipchalardan tashkil topgan. Ularda mum suyuqlik ishlab chiqaruvchi bezlar tananing ikki yontomonida joylashadi. Oqqanotlar tropik tur hisoblansada, Surxondaryo xususan janubiy tumanlar sharoitida asosan issiqxona va ochiq maydonlarda ya'ni tabiatda ham keng tarqalib, rivojlanadi. Ular issiq binolarda o'stiriladigan bodring, pomidor, qovun, tamaki va boshqa o'simliklarni zararlaydi. Surxondaryo viloyati sharoitida ular xo'jaliklardagi bir qator o'simliklarni zararlash bilan birga, o'simliklarda virus kasalliklarining tarqalishida ham ishtirok etadi.



1-rasm. Sherobod paxta dalasida olingan surat.Oqqanot imagosi, lichenkasi va imago chiqib ketgan pupariy.

Oqqanotlarning eng samarali kushandarlari qatoriga enkarziya (*trixoporus*) – *Encarsia formosa* Gahan. va eretmotserusni – *Eretmocerus haldemani* [Nikolskayae - Myarts.] kiritish mumkin. Bular endoparazit bo'lib: enkarziya – issiqxona oqqanotining lichinkalarini, eretmotserus esa g'o'za oqqanotining lichinkalarini ko'proq zararlaydi. Oqqanot lichinkalarini zararlanishi kuz oylarida eng yuqori darajaga yetib, umumiy populyatsiyani 60-70% ni tashkil etadi. Hammaxo'r entomofaglardan: oqqanotni oltinko'z va koxsinellid qo'ng'izlarining lichinkalari ko'plab qiradi.[2]



2-rasm. *Encarsia formosa* Gahan. zararlagan oqqanot lichenkalari.

Bemisia tabaci Genn. Bu zararkunanda ayniqsa issiqxonalarga yaqin joylarda ekilgan ko'plab o'simliklarni o'simlik 1-2 ta chin barg chiqargandan boshlab kuchli zararlaydi. Natijada salmoqli iqtisodiy zarar yetkazadi. Shuning uchun ham bu zararkunandaga qarshi respublikamizda ishlatishga ruxsat etilgan kimyoviy preparatlar ro'yxatida mavjud va oqqanotga qarshi tavsiya etilgan preparatlardan Nestor, 20 % h.k. – 0,3 l/ga, Imidagold, 35% k.s. – 0,25 l/ga va Konfidor, 20% e.k. – 0,25 l/ga sarf me'yorlarida qo'llansa yaxshi samara berishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuhammedov S. N., Xo'jaev Sh.T. - «G'o'za zararkunandalari va ularga qarshi kurash». «Mehnat», T.,1987.p
2. Alimuxamedov S.N. Xo'jaev Sh.T. G'o'za zararkunandalariga qarshi biologik kurash. T., 1991.

3. Devonova N. K. “Surxondaryo viloyati sharoitida oqqanotlarning (Aleyrodidae) turlar tarkibi va bioekologiyasi” Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi-2015 Toshkent 2015. 263-266 b.
4. Dushamov B., B. Raxmatov , O. Matkarimova G‘o‘za oqqanotiga qarshi enkarziyani qo‘llash va uni samaradorligini oshirish. “O‘simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o‘tlardan himoya qilishning rivojlanish istiqbollari .” Ilmiy-amaliy konferensiya ma‘ruzalarining tezislari 21-dekabr 2001 y. 86-88 b.
5. Xo‘jaev Sh.T. Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 355 b.
6. Xo‘jaev.Sh.T. O‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. Toshkent:<Navruz> -2015 331 b.

ANTAGONIST BIOPREPARATLARNING O‘SIMLIK KASALLIKLARI QO‘ZG‘ATUVCHILARIGA TA‘SIRI

Xalmuminova Gulchexra Qulmuminovna
Termiz davlat muhandislik va agrotehnologiyalar universiteti

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘simlik kasalliklariga qarshi biologik kurash olib borishda qo‘llagilgan, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan mikroorganizmlardan va ularning faoliyati natijasida olinadigan atogonistik biopreparatlarni ishlab chiqilishi hamda **Trichoderma preparatini** qo‘llanilishi va biologik samaradorligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. O‘simlik, kasallik, antagonist, biopreparat, zamburug‘, trixoderma Trichoderma lignorum, Trichoderma harzianum, biologik samaradorlik.

KIRISH. Qishloq xo‘jalik ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashda ko‘zga ko‘rinmas mayda jonivorlar bilan bir qatorda zamburug‘li, bakteriali, virusli va antibiotik biologik moddalar qo‘llaniladi. Antibiotiklar (anti-qarshi va bios-hayot) ba‘zi mikroorganizmlar (zamburug‘lar, [bakteriyalar](#)), hayvon to‘qimalari va ayrim yuksak o‘simliklar hayot faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan va turli xil mikroblarning o‘sishi hamda rivojlanishini to‘xtatadigan organik moddalar. Antibiotiklar terminini Amerika olimi Z. Vaksman mikroblarda hosil bo‘lib, boshqa mikroblarga qarshi ta‘sir etadigan moddalarga nisbatan taklif etgan. Antibiotiklar kasallantiruvchi (patogen) mikroblardagi moddalar almashinuvini buzib, ularni o‘ldiradi yoki o‘sishini to‘xtatadi.

Biologik preparatlar dunyoda sanoqli miqdorda bo‘lib, hozirgi vaqtda 30 ga yaqin sanoatda mikrobiologik preparatlar ishlab chiqariladi. Biologik moddalarning ishlab chiqarilayotgan qismini teng yarmi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligida o‘simliklarni zamburug‘li va bakterial kasalliklardan himoya qilish uchun ishlatiladi (qarang Mikrobiologik himoya usuli). Kasallik qo‘zg‘atuvchilarga ta‘sir qilish tarziga qarab Antibiotiklar bevosita ta‘sir etuvchi Antibiotiklar; kasallik qo‘zg‘atuvchilar ajratgan toksinlarni neytrallovchi Antibiotiklar; xo‘jayin o‘simlikka ta‘sir etuvchi Antibiotiklar; o‘simlik tanasida yuqori faol moddalarga aylanadigan va o‘simliklarning kasalliklarga chidamliligini oshiradigan (bilvosita ta‘sirga ega) Antibiotiklarga bo‘linadi. [Streptomitsin](#), terramitsin, digidrostreptomisin, grizeofulvin (grizovin), anizomitsin, omfoterpsin, filitsin va boshqa samarali Antibiotiklarga kiradi. Trixodermin g‘o‘zaning vertitsillyoz vilti va qishloq xo‘jaligi ekinlarining kasalliklari: himoyalangan tuproqqa bodring, pomidor ildiz chirishi, [kartoshka](#) rizoktoniozi, bug‘doy gelmintosporiozi, makkajo‘xori qorakuyasi va boshqa qarshi kurashda ishlatiladi. Antibiotiklar

purkab ishlatilganda barglarga soʻrilishini kuchaytirish maqsadida eritmaga glitserin, sorbiton, dietilenglikol qoʻshiladi.

Biopreparatlar ishlab chiqish. Oʻsimliklarda kasallik qoʻzgʻatuvchilariga qarshi ishlatishga moʻljallangan, zamburugʻlar asosida tayyorlanadigan bir qator biopreparatlar mavjud. Odatda bunday biopreparatlarni, qishloq xoʻjalik mahsulotlari yetishtiruvchilarning talabnomalariga binoan, ixtisoslashgan firmalar yoki mintaqaviy biolaboratoriyalar ishlab chiqaradi.

Oʻsimliklarni kasalliklardan himoya qilishda qoʻllaniladigan zamburugʻ preparatlarini ikki guruhga boʻlish mumkin:

1. Antagonistik mikroorganizmlar va giperparazitlar tirik kulturalari asosidagi preparatlar.
2. Zamburugʻlar sintez qiladigan antibiotiklar asosidagi preparatlar.

Antibiotiklarni faqat biologik ishlab chiqarishning ixtisoslashgan, murakkab texnologik asbob-uskunalar boʻlgan korxonalarida tayyorlash mumkin. Tirik kulturalar asosli biopreparatlarni biolaboratoriyalar yoki firmalarda ishlab chiqarish mumkin.

Oʻsimliklarni fitopatogenlardan himoya qilishda *Trichoderma* turkumiga mansub boʻlgan zamburugʻlar (*Trichoderma lignorum*, *T. viride* va b.) eng katta ahamiyatga ega. Bu zamburugʻlar asosida tayyorlanadigan barcha biopreparatlar **trixoderminlar** deb ataladi va ularning preparativ shakllari ishlatilgan shtamm, ozuqa muhit tarkibi, oʻstirish metodi va tayyor preparat titri bilan bogʻliq holda, har xil boʻladi. Rossiyada birinchi zamburugʻ preparati VIZR da *T. viride* asosida ishlab chiqarilgan.

Trixodermin Oʻsimliklarning oʻsishi, muvaffaqiyatli qishlash va salbiy atrof-muhit sharoitida oʻsimliklarning chidamliligiga yordam beradi. Natijada oʻsimlik immuniteti va yuqori sifatli hosil olinadi. *Trichoderma* zamburugʻlari patogen mikroorganizmlar bilan ozuqa moddalari va tuproqdagi boʻshliq uchun raqobatlashadi, ularning koʻpayishini qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, ular mukammal profilaktika taʼsirini taʼminlaydi va tuproqni yaxshilaydi. *Trichoderma* zamburugʻlari oʻsimliklar bilan simbiotik munosabatlarni hosil qiladi va hatto quruq davrlarda ham tuproqdagi ozuqa va suv manbalariga kirishga yordam beradi (1-rasm). Mahsulot odamlar, hayvonlar, asalarilar va boshqa changlatuvchilar uchun qulaydir. 500g/50m² 2kg/200m². Quritilgan tuproqlarda doza 2-3 baravar oshiriladi. Belgilangan dozadan yuqori foydalanish oʻsimliklar, odamlar, hayvonlar yoki atrof-muhitga zarar yetkazmaydi va qarshilik koʻrsatmaydi [1,2].



1-rasm. *Trichoderma lignorum* zamburugʻi

Biopreparatlarni qoʻllash. Trixoderminlarning ishlab chiqarishda qoʻllaniladigan asosiy preparativ shakllari quruq va suyuq (nam) shakllardir. Odatda suyuq shaklda sporalar yuqoriroq hayotchanlikka ega, preparat chang hosil qilmaydi, ishlab-chiqarishda uni quritish uchun sarf-

xarajat qilinmaydi. Ammo bunday preparatni 12°C dan yuqori bo'lmagan haroratda faqat 2 haftagacha saqlash mumkin.

Trixodermin J. *T. viride* ning TVD-93 shtammi asosida tayyorlangan. Titr – 1 g preparatda kamida 1 mlrd konidiya. Bodringni ildiz chirishlarga qarshi sug'orish (15-25 l/ga) va chinnigul qalamchalariga fuzarioz so'lishga qarshi purkash (6-8 l/ga) uchun qo'llaniladi.

Trixodermin, G. *T. viride* ning TVD-93 shtammi asosida tayyorlangan. Titri – 1 g preparatda kamida 2 mlrd konidiya. Issiqxonalarda bodring urug'larini dorilash (50 g/kg) va ko'chat ekiladigan chuqurchalarga solish (har bir ko'chat tagiga 2 g) usullari vositasida qo'llaniladi. Novosibirsk viloyatida *T. viride* ning mahalliy shtammi asosida tayyorlangan preparat bug'doy ildiz chirishiga qarshi urug' dorilash va tuproqqa solish (1 g tuproqqa $1,6 \cdot 10^4$ konidiya) uchun ishlatilgan. Preparat o'g'it (superfosfat va ammiak selitrasi) bilan birga solinganda samarasi ortgan.



2-rasm. Trixoderminning birlamchi mahsulotini probirkalarda ko'paytirish

O'zbekistonda *Trichoderma lignorum* zamburug'i (2-rasm) asosida yaratilgan biologik preparat issiqxonalar va ochiq dalalarda sabzavot ekinlarining ildiz chirishi, g'o'zaning vilt, kartoshkaning rizoktonioz va boshqa kasalliklarga qarshi qo'llanilishi mumkin. Preparat tuproqqa solinishi yoki urug' va ko'chat ekilishidan oldin tuproqqa kiritilishi mumkin [4,5].

Ushbu preparat quruq ho'llanuvchan kukun (QHK) bo'lib, 1 g da 6-10 mlrd. spora bo'ladi, suyuq trixodermindan esa sporalar soni 1 g da kamida 1 mlrd.

Qishloq xo'jaligining bir qator tarmoqlarida – paxtachilikda, g'allachilikda, kartoshkachilikda, sabzavotchilikda (pomidor, karam, qalampir, baqlajon, sabzi, piyoz), polizchilikda (bodring, tarvuz, qovun), gulchilikda (chinnigul, xrizantema, atirgul va b.), gul, sabzavot va meva ko'chatlarini yetishtirishda uchraydigan ildiz chirish, so'lish va boshqa kasalliklarga qarshi hamda tuproqdagi infeksiyani yo'qotishda biologik kurash chorasi sifatida trixoderma zamburug'ini preparat shaklida va qattiq substratlarda o'stirilgan tirik kulturasini ishlatish tavsiya etiladi (3-rasm).

Trixoderma yuqoridagi kasalliklarni yo'qotishdan tashqari tuproq orqali so'rilib, o'simlikning butun tanasiga tarqalib, ekinlarning kasalliklarga nisbatan chidamliligini oshiradi va hosilni saqlab qoladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining chiqindilari asosida ishlab chiqilgan trixoderma 600-700 grammdan sellofan paketlarga, suyuq shakli esa 500 ml sig'imli plastmassa idishlarga qadoqlangan holda chiqariladi [2,3].



3-rasm. *Trichoderma lignorum shtami*

Trixodermani qo'llash muddatlari. G'o'za va bug'doy ekiladigan maydonlarga chigit yoki urug'lik donni ekishdan oldin 120-150 kg/ga miqdorda tuproqqa solinadi yoki ekinlarga birinchi ishlov berish davrida uni tuproqqa kiritish tavsiya etiladi.

Bitta polietilen paketdagi trixoderma bir yillik ekinlarning 15-20 ta, mevali va manzarali daraxtlarning 5 ta ko'chati tagiga, ekish bilan birga va vegetatsiya davomida solishga mo'ljallangan [1].

Plastmassa idishlarga solingan trixoderma suyuqligi 150-200 gramm urug'ni 10-12 soat davomida ivitishga va 5-10 mayda ko'chatlarning ildizini 30-40 daqiqa botirib qo'yishga mo'ljallangan. Trixodermin barglarga yaxshi yopishishi uchun suspenziyaga KMS (Karboksimetilsellyuloza KMS elim kimyo sanoati mahsuloti va yog'och pulpasini qayta ishlash natijasidir. KMS qisqartmasi karboksimetilseluloza deb tarjima qilinadi. Oddiy qilib aytganda, KMS yelim yuqori sifatli paxta tsellyulozasidan tayyorlangan va barcha turdagi qog'ozli devor qog'ozini yopishtirish uchun mo'ljallangan yopishtiruvchi vositadir) qo'shiladi [1,4,].

Ko'chatlarni ko'chirib ekgach ularga uch marta – oldin 7-8 chin barg fazasida, keyin har 10-12 kunda yana 2 marta – ishlov beriladi. Natijada bodring askoxitoz, kulrang va oq chirishlar hamda qo'ng'ir dog'lanish bilan zararlanishi keskin kamayadi. Pomidorga trixodermin purkash oq va kulrang chirish, vertitsillyoz vilt, alternarioz va kladosporioz kabi kasalliklar rivojlanishi susayishi yoki to'xtashini ta'minlaydi. Undan tashqari, ***Trichoderma harzianum*** zamburug'idan tayyorlangan trixodermin pastasi bilan bodring va pomidor poya chirishiga qarshi kurash usuli ham yaratilgan. Bodring fuzarioz so'lishiga qarshi esa preparat bir necha usulda qo'llanilgan: urug'ga nam ishlov berish; tuvaklarda torf-tuproq aralashmasiga solish; ko'chat o'tqazilgandan 2 hafta keyin tuproqqa solish. Natijada kasallik kamaygan, ekin barglari yuzasining hajmi va hosildorlik oshgan.

Issiqxonalarda bodring chirishlariga qarshi uch marta: ko'chat ikki chin barg chiqarganida preparat suspenziyasi bilan sug'orish, ko'chat ekiladigan chuqurchalarga solish va ildiz olgan ko'chatlarni sug'orish usuli qo'llaniladi.

Natija va xulosalar: Trixodermaning Toshkent shtammi asosida trixodermin olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. preparat bilan ishlov berish va ko'chat materiallari (ko'chat, qalamcha, tuganak, urug')ni eritmalarda ho'llash bilan foydalaniladi. Antibiotiklar o'simlik tanasiga oson o'tadi va tarqaladi, kuchsiz (0,1 — 0,01 — 0,001 va undan kam) konsentratsiyalarda ta'sir etadi.

Trixoderma solinmagan va urug' hamda ko'chatlarga ishlov berilmay ekilgan dalalarda o'suv davrida yuqorida qayd etilgan kasalliklar kuzatilsa, qattiq substratdagi va suyuq holdagi trixoderma aytilgan miqdoridan 2-3 baravar ko'paytirib, o'simlik tagiga tuproqqa solinishi kerak.

Ko'chat yetishtiriladigan maydonning har 1 m² iga 1,5-2 sellofan paket trichoderma ekinlarning urug'i ekilmasdan oldin solinadi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бондаренко Н. В. Биологическая защита растений. МОСКВА АГРОПРОМИЗДАТ 1986.
2. Чумаков А.Е., Минкевич Н.И., Власов Ю.И., Гаврилова Е.А. Основные методы фитопатологических исследований.-М.: Колос, 1974.-191с.
3. Халмуминова, Г. К., Камилов, Ш. Г., & Аллаяров, Н. Ж. (2014). Возбудители черной гнили моркови. *Вестник Российского университета кооперации*, (2 (16)), 137-140.
4. Khalmuminova, G. K., Kamilov, S. G., Verushkina, O. A., & Khujanazarova, M. K. (2020). Alternaria diseases of agricultural crops in Uzbekistan. *GSC Biol. Pharm. Sci*, 13, 062-067.
5. Khalmuminova G. K., Islomov F. S. Alternaria diseases in seeds of vegetable crops in the condition of Uzbekistan //Journal of actual problems of modern science. – 2019. – №. 5. – С. 166.

EFFECT OF ANTAGONIST BIOPREPARATES ON CAUSATIVES OF PLANT DISEASES

Khalmuminova Gulchekhra Kulmuminovna

Associate Professor, Termez State University of Engineering and Agrotechnology

<https://orcid.org/0009-0005-7309-6589>

Annotation. This article discusses the development of antagonistic biopreparations from invisible microorganisms and their activity, used in biological control of plant diseases, as well as the use and biological effectiveness of the Trichoderma preparation.

Keywords. Plant, disease, antagonist, biopreparation, fungus, Trichoderma Trichoderma lignorum, Trichoderma harzianum, biological effectiveness.

ВЛИЯНИЕ БИОПРЕПАРАТОВ-АНТАГОНИСТОВ НА ВОЗБУДИТЕЛЕЙ БОЛЕЗНЕЙ РАСТЕНИЙ

Халмуминова Гулчехра Кулмуминовна

Заведующий кафедрой защиты растений, агрохимии и агропочвоведения, доцент.

Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий

<https://orcid.org/0009-0005-7309-6589>

Аннотация. В статье рассматриваются разработка антагонистических биопрепаратов из невидимых микроорганизмов и их активность, применяемых в биологической борьбе с болезнями растений, а также применение и биологическая эффективность препарата Триходерма.

Ключевые слова. Растение, болезнь, антагонист, биопрепарат, гриб, Триходерма, Trichoderma lignorum, Trichoderma harzianum, биологическая эффективность.

O‘SIMLIK BITLARINING (SHIRALARI) O‘SIMLIKLARGA YETKAZADIGAN ZARARI VA HOSIL SIFATGA TASIRI.

Razzoqova Ro‘zigul Abdug‘affor qizi
Botirov Sodiq Ahmad o‘g‘li
TerDMAU

Anotatsiya. Ushbu maqolada o‘simlik bitlarining (shiralari) jumladan anor, bug‘doy va beda o‘simliklarga yetkazadigan zarari natijasida o‘simliklarda kechadigan jarayonlar, ushbu kechadigan jarayonlarning o‘simlik o‘sishi, rivojlaishi va hosil sifatiga tasiri haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Shira, anor, beda, bug‘doy, zarar, hosil, o‘simlik, profilaktika, barg, novda, qarshi kurash.

Kirish. Surxondaryo viloyati sharoitida bahorning erta kelishi kunlar isishi bilan kecha kunduzgi xarorat biotsenozdagi hasharotlarning qishlovdan chiqishi uchun yeratli bo‘lishi, qolgan mintaqalarga nisbatan erta ro‘y berishi bilan birgalikda o‘simliklarda vegetatsiya jarayoni boshlanishi bilanoq ularga o‘simlik bitlari hujumi kuzatiladi. O‘simliklarga bitlar ko‘p zarar bergan yillari o‘sishdan va rivojlanishdan orqada qolishi natijasida hosil sifatiga va miqdoriga keskin ta’sir ko‘rsatadi.

O‘simlik bitlari, shiralar – tengqanotli xartumli hashortlar kenja turkumi vakili. Mingga yaqin turi ma’lum. O‘simlik bitlari barg va novdadagi shirani so‘radi. Natijada o‘simlik poyasi va ildizidagi [uglevodlar](#) zaxirasi keskin kamayadi. Bu esa barglarning buralishi, novdalarning qing‘ir qiyshiq o‘sishi, to‘qimalarning kasallanib shish, bujg‘un va boshqalar har xil o‘simtalar hosil qilishiga sabab bo‘ladi. Zararlangan o‘simliklarning hosildorligi 15—20% ga kamayib ketadi. Bundan tashqari, O‘simlik bitlari kasal o‘simlik shirasini so‘rish bilan birga xavfli kasalliklarni tarqatadi ham.[7]

Anor biti - *Aphis punicae*, bitlar- *Aphididae* oilasiga, teng qanotlilar- *Homoptera* turkimiga kiruvchi hasharot. Anor bitining kattaligi 1,3-1,8 mm keladi. Qanotsiz urg‘ochilari och yashil yoki sarg‘ish bo‘lib, to‘q yashil jilosi bor, mo‘ylovlari, oyoqlari va qornini oxirgi qismi oqimtir rangda, shira naychalari silindrsimon, gavdasi uzunchoq. Qanotli bitlarning boshi va ko‘kragi qora, mo‘ylovlari qoramtir, qorni yashil yoki sarg‘ish, mo‘ylovlari gavda uzunligining uchdan ikki qismiga to‘g‘ri keladi. Lichinkasi och yashil tusda. Anor biti tuxumlik bosqichida anor shoxlarida qishlaydi. Bir yilda bir necha bo‘g‘im berib rivojlanadi. Anor biti anor barglarining orqa tomonida tomir atrofida to‘planib turadi, keyinchalik gulband va gultojlarni ham, hatto xom mevalarni ham so‘rib zararlaydi.[4]



1-rasm. Anor biti - *Aphis punicae* anor bargi va novdasidagi zarari

O'rta Osiyoda bedaga o'simlik bitlarining to'rtta turi zarar yetkazadi. Ular jumlasiga *Acyrtosiphon onobryhis* Fonse nomli (ko'pincha sinonimi *Aphis pisi* Ketb. deb atalgan) no'xat biti, *Aphis medicaginis* Koch — akatsiya biti, *Therioaphis onnidis* Kltnb. — xoldor bit va *Trifidaphis faseoli* Pass — ildiz biti kiradi. Bulardan tashqari, bedaga *Aphis incerta* Ners. deb atalgan bitlar ko'plab tushishi ham aniqlangan.[3]

Bitlar so'rishi natijasida beda o'simligi juda noziklashib qolib, hashak va urug' hosili kamayadi. Bit tushgan beda gullash davriga kelib sog'lom bedaga nisbatan 3 — 15% gacha, bit ko'plab tushganda esa 31% gacha o'sishdan orqada qoladi. Xoldor bitning zarari hashaki bedada 21 — 57% gacha, urug'lik bedada 25 — 77% gacha yetadi.[1,2]



2-rasm. Beda o'simligidagi bitlar


G'alla bitlari (shiralar) – G'alla ekinlariga asosan oddiy g'alla biti, katta g'alla biti va arpa biti ko'p zarar etkazadi. Shira 1,8-3 millimetr kattalikdagi hashorat bo'lib, og'zi sanchib-so'ruvchi shaklda. Erta bahorda kunlar isishi bilan bitlar paydo bo'la boshlaydi. Shirada zararlangan o'simlik deformasiyaga uchrab, ba'zan sarg'ayib qurib qoladi. Qattiq zararlangan o'simlik boshoq hosil qilmaydi.[2]



3-rasm. G'alla bitlari (shiralar)

O'simlik bitlari qishlovdan chiqib eniklarga zarar bera boshlashi bilan tabiiy biotsenozdagi bitlarning entomofaglari ham faol xolatga keladi. Tabiiy sharoitda birinchi bo'lib bitlarning entomofaglaridan xon qizi qo'ng'izlari, oltinko'z va shunga o'xshash yirtich, afilinus va afidusga o'xshash parazit entomofaglar ham o'simlik bitlari bilan oziqlana boshlaydi.

Xonqizi qo'ng'izlari, koksineellidlar (Coccinellidae) — asosan, yirtqich qo'ng'izlar oilasi. Xonqizi qo'ng'izlarining tana uz. 3–7 mm, usti do'mboq. Ko'pchilik turlari yorqin tusda bo'lib, odatda, ustqanotlarida chiziqli va dog'lar bor. Tuxumi ko'pincha to'q sariq, 20—25 tasini to'p-to'p qilib qo'yadi. Qurtlari serharakat, o'simliklarda ochiq hayot kechiradi. Ko'pgina Xonqizi qo'ng'izlari — yirtqich entomofag. Qo'ng'iz va lichinkalari o'simlik bitlari, o'rgimchak-kanalar, koksindlar, barg burgalari, kanalar va boshqa bilan oziklanadi Bitta qo'ng'izi bir kunda 50—100, lichinkasi esa 85 tacha o'simlik bitini yeydi. Xonqizi qo'ng'izlari dan o'simliklarni zararkunandalardan biologik himoya usulida foydalaniladi. Buning uchun qo'ng'izlarni yig'ib, o'simlik bitlari koloniyasiga qo'yib yuboriladi. Xonqizi qo'ng'izlari ni so'ruvchi zararkunandalarga qarshi 1:20 nisbatda tarqatilsa, kimyoviy vositalardan foydalanmaslik ham mumkin.[4]



4-kurs. Xonqizi qo'ng'izi va lichenkasi.

2022 - O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklarning o'sishini boshqaruvchi vositalar

RO'YXAT - Toshkent 2022

Preparat, ishlab chiqaruvchi firma, mamlakat, qayta ro'yxatga olish sanasi	Sarf meyori, ga/kg yoki ga/l	Preparat dan foydalaniladigan ekin turi	Qaysi zararkunandaga qarshi ishlatiladi	Ishlatish muddati, usuli va tavsiya etilgan cheklovlar
--	------------------------------	---	---	--

Sipermetrin (cypermethrin)				
SIPERMETRIN 25%, em.k. (B)	0,25	Bugʻdoy	Xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
AGROPLAN SUPER 5% n.kuk. (B)	0,4–0,5	Bugʻdoy	Shiralar, trips, shilimshiq qurt, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Alfasipermetrin (alphacypermethrin)				
SELLER 20 % sus.k.	0,05	Bugʻdoy	Shilimshiq qurt, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Deltametrin (deltamethrin)				
DEFENTOKS 2,5%em.k. (B)	0,25	Bugʻdoy	Shiralar, trips, shilimshiq qurt, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Imidaklopid + alfa-sipermetrin (imidaclopid + alphacypermethrin)				
ESPERO, sus.k (200+120 g/l)	0,1	Bugʻdoy, arpa	Shiralar, trips, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Imidaklopid + bifentrin (imidaclopid + bifenthrin)				
R-LYAMBDA - 20,20% em.k.	0,07	Bugʻdoy	Xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Lyambdasigalotrin (lambdacyhalothrin)				
GRAND-TE 5% s.e. (B)	0,2–0,25	Bugʻdoy	Shiralar, trips, shilimshiq qurt, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
Acetamiprid + lyambdasigalotrin				
NESTOR 20% n.kuk	0,60-0,70 kg\ga	Bugʻdoy	Shiralar, trips, shilimshiq qurt, xasva	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi
KARACHE DUO 25% n.kuk	0,3-0,5 kg\ga	Bugʻdoy	Shiralar, trips,	Oʻsimlikning oʻsuv davrida purkaladi

Xulosa. Oʻsimlik bitlari oʻsimliklarga jiddiy zarar keltiradigan zararkunandalardan biri boʻlib vaqtida ishlov berilmasa oʻsimlik hosili va sifatiga sezilarli darajada zarar kelitishi mumkin. Yuqorida keltirilgan maʼlumotlarda oʻsimlik bitlarini sonini boshqarishda yordam

beradigan entomofaglar haqida ma'lumotlar va kimyoviy kurash chorasi sifatida ishlatishga ruxsat berilgan insektitsidlar ro'yxatini tuzdik va kerakli xulosalarni oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. H.Kimsanboyev, S.Ergashev, R.O'lmasboyeva, B.Sulaymonov. Entomologiya O'qituvchi nashriyot- matbaa ijodiy uyi Toshkent– 2006
2. Hamrayev A.SH . Nasridinov K. "O'simliklarni bitlari, tur tarkibi va hayot tarzi". Toshkent – 2003.
3. Xaytmuratov A.F. Qishloq xo'jaligi entomologiyasi Darslik–T.: «Fan ziyosi» nashriyoti. 2022. 344b.
4. Xo'jaev Sh.T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010. – 355 b.
5. Xo'jaev.Sh.T. O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. Toshkent: <Navruz> -2015 331 b.
6. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o'simliklarning o'sishini boshqaruvchi vositalar. RO'YXAT - Toshkent 2022
7. <https://uz.wikipedia.org/>

SUG'ORILADIGAN MAYDONLARDA SO'YAGA ZARAR KELTIRADIGAN ASOSIY ZARARKUNANDALAR HAMDA ULARGA KURASHNING AMALIY AHAMIYATI

*Yoqubova Feruzabonu Muxtorjon qizi
Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda sug'oriladigan maydonlarda yetishtiriladigan soya ekiniga zarar yetkazuvchi asosiy zararkunandalar aniqlanib, ularning biologik xususiyatlari, tarqalishi va o'simlikka yetkazadigan zarari o'rganildi. Zararkunandalarga qarshi kurashda uyg'unlashgan (integratsiyalashgan) himoya usullarining qo'llanilishi amaliyot nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari soya hosildorligini oshirish va zararkunandalar bilan samarali kurashish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: sug'oriladigan maydon, soya, zararkunanda, biologiya, integratsiyalashgan himoya, kurash usullari, hosildorlik.

Аннотация. В данной научной работе были выявлены основные вредители, повреждающие посевы сои, выращиваемые на орошаемых землях, изучены их биологические особенности, распространение и наносимый растению вред. Проанализировано применение комплексных методов борьбы с вредителями с практической точки зрения. Результаты исследования имеют важное значение для повышения урожайности сои и эффективной борьбы с вредителями.

Ключевые слова: орошаемая площадь, соя, вредитель, биология, комплексная защита, методы борьбы, урожайность

Abstract. In this scientific work, the main pests that damage soybean crops grown in irrigated areas were identified, their biological characteristics, distribution and damage to the

plant were studied. The use of integrated pest control methods was analyzed from a practical point of view. The results of the study are important for increasing soybean yields and effectively combating pests.

Keywords: irrigated area, soybean, pest, biology, integrated protection, control methods, productivity

O'simliklarni himoya qilishning asosiy vazifasi zararkunandalar va ular tomonidan etkazilgan zararining oldini olishdir. Zararli organizmlarga qarshi kurash dasturi o'rim-yig'imdan oldingi davrda va zararli organizmlar sonidagi turli xil tadbirlar majmuasidir. Zararkunandalarga qarshi kurash yuqori hosil olishning muhim usullaridan biridir. Respublikamizda g'alla, dukkakli va moyli o'simliklarni rivojlantirish uchun juda qulay iqlim sharoiti mavjud.

Soya o'simligi oqsillarning asosiy 70% qismini globulinlar tashkil qiladi va qo'shimcha funksiyalarga ega bo'ladi. Soya o'simligi oqsilining boshqa bir qismini albuminlar tashkil qiladi. Ular sutruktura va fermentativ funksiyalarni bajaradi. Soya o'simligining ahamiyatli jihatlaridan yana biri donidan yog' olinishi hisoblanadi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra jahon miqyosida o'simliklardan olinadigan moyning 40% soya o'simligi moyi hissasiga to'g'ri keladi. Soya tarkibidagi uglevodlarga to'xtaladigan bo'lsak, uglevodning asosiy qismini kraxmalsiz polisaxaridlar tashkil qiladi. Lekin uning tarkibida oligosaxaridlar ham mavjud hisoblanadi [45-68, 60 b, 1].

So'ya (*Glycine max*) qimmatli oqsil va yog' manbai bo'lib, oziq-ovqat, yem-xashak va sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Uni yetishtirishda yuqori hosildorlikka erishish uchun agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda, zararkunandalarga qarshi samarali kurashish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, sug'oriladigan maydonlarda namlik va haroratning nisbatan barqarorligi ba'zi zararli hasharotlar va patogenlar uchun qulay muhit yaratadi [45-50 b, 4].

Soya barcha qishloq xo'jaligi ekinlari uchun o'tmishdosh hisoblanadi, chunki u tuproqni o'simlik tomonidan oson so'riladigan azot bilan boyitadi. Bundan tashqari, soya fasulyesi rizosferasida turli kasalliklarni, xususan, vertillyoz va fusariumni yo'q qiladigan antagonistik zamburug'larning o'sishi uchun qulay sharoitlar mavjud. O'zbekistonda soyani g'o'za bilan navbatma-navbat ekilganda vertikillium vilti kasalliklari kamayishi bo'yicha qator tadqiqotlar o'tkazildi. [13-19 b, 3].

Shuni ham aytish joizki, qishloq xo'jaligi uchun zararli hasharotlar sistematik tamoyil (turkumlar bo'yicha) hamda oziqlanish xarakteri bo'yicha tasniflanadi. O'simlikxo'r hasharotlar va kanalar turli oilalarga mansub o'simliklar bilan oziqlanadigan hammaxo'r hasharotlar-polifaglar; bir oilaga mansub har xil turdagi o'simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar-oligofaglar; faqat bir turdagi o'simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar-monofaglar bo'linadi. Turli ekinlar hosiliga hammaxo'r zararkunandalar: chigirtkasimonlar, ba'zi chirildoqlar, qo'ng'izlardan qirsildoq (simqurtlar), qora qo'ng'izlar (soxta simqurtlar) va boshqalar, kapalaklardan kuzgi tunlam, g'o'za tunlami, karadrina va boshqalar katta zarar keltiradi. Bir oilaga mansub har xil turdagi o'simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bularga shved pashshasi, gessen pashshasi va boshqalar kirib, faqat boshqali o'simliklar bilan oziqlanadi. Karamguldoshlarga mansub o'simliklar bilan oziqlanadigan hasharot turlari ham ko'p. Bularga karam oq kapalagi, karam kuyasi, karam pashshasi va boshqalar kiradi. Faqat bir turdagi o'simliklar bilan oziqlanadigan hasharotlardan filloksera (tokning asosiy zararqunandasi), beda barg filchasi (fitonomus) va boshqalar xavfli zararkunandalardan hisoblanadi [33-36 b, 2].

Bundan tashqari, so‘ya o‘rgimchakkana-Bu mayda o‘rgimchaksimon zararkunanda so‘ya barglarida yashab, ularning sharbatini so‘rib oziqlanadi. Natijada barglar sarg‘ayib, quriydi va fotosintez susayadi.

So‘ya kapsula qurtlari-Bu tirtillar so‘ya gullari, g‘unchalari va mevalarini shikastlaydi, natijada hosildorlik keskin kamayadi.

Thripslar (Thrips tabaci va boshqa turlari)-Barglar yuzasida tirnalgan izlar qoldirib, ularning o‘shiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va virus kasalliklarining tashuvchisi bo‘lishi mumkin.

So‘ya nematodalari (Heterodera glycines)-Tuproqdagi ushbu mikroskopik zararkunandalar ildizlarga hujum qilib, o‘simlikni oziqlanishidan mahrum qiladi, o‘shini sekinlashtiradi va ildiz tuganaklarining hosil bo‘lishiga xalaqit beradi.

Aphidalar (Aphis glycines)-So‘ya barglarida yashab, ularning sharbatini so‘rib oziqlanadi, virusli kasalliklar tarqatadi va o‘simlik zaiflashadi.

Zararkunandalarga qarshi kurash usullari quydagilar:

Agrotexnik usullar

- Ekin almashinuvi: So‘yani bir joyda ketma-ket ekmaslik.
- Vaqtida ishlov berish: Yerga chuqur haydash va begona o‘tlarni yo‘qotish.
- Sifatli urug‘lik: Kasalliklarga chidamli navlardan foydalanish.

Biologik kurash

• Zararkunandalar tabiiy dushmanlarini (masalan, ladybug va parasitoidlar) saqlab qolish va ko‘paytirish.

- Biologik vositalar, masalan, *Bacillus thuringiensis* preparatlari bilan ishlov berish.

Kimyoviy kurash

- Faqat zarur holatlarda insektitsidlar va akaritsidlardan foydalanish.
- Xavfsiz preparatlarni tanlash va ularni me‘yorida qo‘llash.
- Qarshilik rivojlanmasligi uchun preparatlarni navbatlashtirib qo‘llash.

Zararkunandalarga qarshi samarali kurashning birinchi darajali foydasi – bu hosilni saqlab qolish va ko‘paytirishdir. Shuningdek:

- O‘simliklar sog‘lom bo‘lishi natijasida oziq-ovqat sifati yuqori bo‘ladi.
- Biologik va agrotexnik usullarni keng qo‘llash orqali ekologik xavfsizlik ta‘minlanadi.
- Resurslar tejraladi va yer unumdorligi uzoq muddatga saqlanib qoladi.

Shuningdek, soyani tuproq unumdorligi turlicha bo‘lgan yerlarda o‘stirish mumkin. Soya kislotali, kuchli sho‘rlangan yoki botqoqlangan tuproqlardan tashqari, boshqa yerlarda ham o‘saveradi. Soya o‘stirish uchun tuproq muhiti pH 6,7- 7,0 qulay hisoblanadi. Soya turli tuproqlarda o‘sa olishdan qat‘iy nazar, uning mexanik tarkibi yengil, unumdor, g‘ovak, chirindilarga boy, tuproqqa ekilganda hosildorlik va uning sifati yaxshi bo‘ladi.¹⁹

Xulosa qilib aytganda, sug‘oriladigan maydonlarda so‘ya yetishtirishda zararkunandalarga qarshi kurash kompleks yondashuvni talab qiladi. Har bir hududga xos zararkunandalarni aniqlab, ularga qarshi eng maqbul usullarni tanlash muhimdir. Faqat shu tarzdagina barqaror hosildorlikka erishish va ekologik muvozanatni saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Прянишников Д.Н. Избранные сочинения 1998г с 45-68.60

2. Н.Розанов А.Н. Посхвы голодной степи. Ср. "Почвы Голодные степи как объект орошения и мелиорации". Труды Почвинного института. Т.33-36 с.
3. Беликов И.Ф.О некоторых биологических особенностях сои в связи с густотой ее посева -Доклады А Н. 1994 г с 13-19.
4. Вавилов П.П., Посыпанов Г.С. Бобовые культуры и проблема растительного белка - М: Россельхозиздат 1983г с 45-50.

SURXONDARYO SHAROITIDA PIYOZDA SOXTA UN SHUDRING KASALLIGNING ZARARI VA TARQALISHI

Xalmuminova Gulchexra Qulmuminovna

G'oibov Baxrullo Fayzulloyevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada Respublikamizning janubiy viloyatlarida yetishtirilayotgan piyoz ekinida zarar berayotgan soxta un-shudring (peronosporoz) kasalligini qo'zg'atuvchi (*Peronospora schleideniana*) zamgurug'ining zarari, tarqalishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqolada **Respublikamizning janubiy mintaqasida yetishtirilayotgan** piyoz ekinida olib borilgan ilmiy tatqiqot va kuzatuvlar natijasida malum bo'ldiki, piyoz ekinlarida *Oomycota* sinfiga mansub zamburug'lar sezilarli darajada zarar keltirishi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Piyoz, kasalliklar, zamburug'lar, *Oomycota*, *Peronospora schleideniana*.

KIRISH. Bugungi kunda Respublikamiz hududida yetishtirilayotgan sabzavot ekinlari turli kasalliklar bilan zararlanishi kuzatilmoqda. O'simliklarning zararli organizmlar tufayli dunyo bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini 15–20 % gacha yo'qotiladi. Shuni hisobga olgan holda, bir qator rivojlangan davlatlarning ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari tomonidan piyoz ekinida zamburug' va bakteriyalarning patogen turlari uchrashi aniqlangan. Ulardan eng ko'p tarqalgan fuzarioz chirish, zang, qorakuya va soxta un-shudring va boshqa kasalliklari o'rganilib, ularga qarshi samarali kurash choralari ishlab chiqilmoqda. Natijada esa, piyoz ekinidan olinayotgan hosil miqdori yil sari oshib, sifatining ham yaxshilanishi ta'minlanmoqda [1,2,].

Respublikamizda ekilayotgan piyoz ekinlarini o'suv va piyoz boshlarini saqlash davrida asosan (fuzarioz) chirishi, (*Fusarium oxysporum* f. sp. *cepae*), Soxta un-shudring - peronosporoz (*Peronospora schleideniana*), Piyoz bo'g'zi chirishi (*Botrytis byssoides*), Piyoz aspergillyoz qora chirishi (*Aspergillus niger*), Piyozda yashil yoki moviy mog'or (penitsillyoz) (*Penicillium expansum*), Piyoz bakteriozi (ho'l chirish) (*Erwinia carotovora*), Piyoz to'q-qizil (*alternarioz*) dog'lanishi (*Alternaria porri*), Piyoz stemfilioz dog'lanishi (*Stemphylium allii*, *S. botryosum*), Piyozning zang kasalligi (*Puccinia allii* va *P. Porri*) va boshqa kasalliklari keng tarqalganligi olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida qayd qilingan, ammo Surxondaryo viloyati sharoitida piyoz ekiniga zarar beruvchi soxta un-shudring - peronosporoz kasalligi va uning qo'zg'atuvchisining (*Peronospora schleideniana*) bioekologik xususiyatlari hamda ularga qarshi kurash choralari rejali asosda o'rganilmaganligi, ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarilishini taqozo qiladi [5,7].

Tadqiqot bajarish uslubi. Piyoz o'simligiga zarar beruvchi zamburug' turlarini ajratish va aniqlashda N.A.Naumov, M.K.Xoxryakov usullaridan; zamburug'larning tur tarkibini aniqlashda V.I.Bilay, P.N.Golovin, T.A.Dobrazrakova, M.F.Letova, K.M.Stepanov,

M.K.Xoxryakov, M.A.Litvinov, N.I.Gaponenko va boshqa olimlarning aniqlagichlaridan foydalanildi. Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug' turining zarar keltirish darajasini aniqlash uchun o'simlikning kasallanish darajasi yoki intensivligi aniqlanadi. Buning uchun esa qo'yidagi ballardan foydalanildi: [9,10].

Unda kasallangan barglar foizi ballarda belgilanib 5 ballik sistemada baholanib chiqildi.

1. 0 ball – shikastlanish kuzatilmaydi.
2. 1 ball –shikastlanish barg maydonining 1/5 qismida yoki 10% gacha.
3. 2 ball –shikastlanish barglarning 1/3 maydonini qoplagan yoki 25% gacha.
4. 3 ball–shikastlanish bargning 2/3 qismini egallagan yoki 50% gacha yuzada.
5. 4 ball–shikastlanish o'simliklardagi barglar yuzasining 2/3 qismini qoplagan yoki 50% dan ortiq).

Zamburug'larning tur tartibini o'rganish bilan bir qatorda kasalliklarning uchrash darajasini tarqalishini aniqlash tadqiqotimizning maqsadiga kiritilgan edi. Shuning uchun kasalliklarning tarqalishi quyidagi formula asosida aniqlandi.

$$P = \frac{\Pi_k \cdot 100}{N}$$

Bunda R – kasallik tarqalishi, % bilan

N – tajribadagi o'simliklar soni, dona

P_k – tajribadagi umumiy kasallangan o'simliklar soni, dona

Aniqlangan zamburug'larning zarar keltirilgan darajasini aniqlash piyoz ekinlarini fitopatogen mikromitsetlar bilan sun'iy kasallantirish usuli orqali amalga oshirildi [4,5].

Tadqiqot vazifalari:

- Piyozning soxta un-shudring (perenosporoz) kasalligi zararini taxlil qilish;
- Piyozning soxta un-shudring (perenosporoz) kasalligi belgilarini o'rganish;
- Piyozning soxta un-shudring (perenosporoz) kasalligi qo'zg'atuvchisining belgilari va biologiyasini o'rganish.
- qarshi kurash choralarining bioligik samaradorligini aniqlash;

Tadqiqot obyekti va predmeti: Sariosiyo va Qumqo'rg'on tumanlari dalalarida ekilgan piyoz o'simligi. Piyozning soxta un-shudring (perenosporoz) kasalligini qo'zg'atuvchi *Peronospora destructor* Casp.


Soxta un-shudring yoki peronosporoz

Kasallik barg va o'zaklarda kulrang-binafsharang g'ubor bilan qoplanuvchi yalpi kulrang dog'lar ko'rinishida paydo bo'ladi. G'uborli joylarda chang to'planadi va unga kir-kulrang tus berib turadi. Zararlangan barglar tezda sarg'ayadi va quriydi, o'simlik rivojlanmaydi va nobud bo'ladi (100-rasm).

Kasallik qo'zg'atuvchisi – *Peronosporales* tartibiga mansub *Peronospora destructor* Casp. tuban zamburug'i. Mitseliysi endofit, o'simlikda diffuz tarqaladi. O'simlikning zararlangan to'qimasi yuzasida hosil bo'ladigan g'uborni zamburug'ning konidiyal konidiyabandlari tashkil etadi. Konidiyabandlar yakka yoki gurux bo'lib chiqib turadi, ular uch-yetti karra dixotomik shoxlanadi, shoxlarining uchi yoysimon egilgan. Konidiyalari bir xujayrali, tuxumsimon, kulrang-binafsharang, o'lchami 35-60x22-25 mkm (1-rasm). Nam havoda ularning xayotchanligi bir necha kun saqlanadi, quruq havoda esa quyosh nurlari ta'sirida 1,5-2 soatda nobud bo'ladi. Konidiyalar havo oqimi va yomg'ir tomchilari bilan tarqaladi. Ular g'ifal o'simta bilan o'sadi, ular o'simlikka og'izcha orqali kiradi. Konidiyalarning o'sishi uchun havoning nisbiy namligi 99-100% va harorat 13⁰S (minimumi 4⁰S va maksimumi 25⁰S) chegarasida bo'lishi qulay sharoit hisoblanadi.[5,8,10]

O'simlikning zararlangan yer ustki a'zolaridan zamburug' piyozboshga o'tadi va asosan

uning yuqorigi qismida joylashadi. Zararlangan joyda u ikki qobiqli (silliq, to‘q qo‘ng‘ir tashqi va sarg‘ish ichki) sharsimon oospora (diametri 17-40 mkm) hosil qiladi. Oosporalar tuproqdagi o‘simlik qoldiqlarida qishlaydi. Ular tabiiy sharoitlarda faqatgina to‘rtinchi-oltinchi yili o‘sadi. Infeksiyaning tarqalishida oosporaning roli aniqlanmagan.



Piyoz kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarining spora hosil qilishi:

1-qorakuya qo‘zg‘atuvchisining teliosporalari; 2-soxta un shudring qo‘zg‘atuvchisining konidial spora xosil qilishi (a-konidiyal konidiyaband, b-konidiyalar); 3-zang qo‘zg‘atuvchisining spora xosil qilishi (a-urediniosporalar, b-teliosporalar); 4-bo‘yin chirishi qo‘zg‘atuvchisining konidiyal konidiyabandi.

Infeksiyaning asosiy manbai zararlangan piyozboshlar, shuningdek piyozning ko‘p yillik turlari (shalot va ko‘p yarusli piyoz) hisoblanadi. Urug‘ bilan va piyozni saqlash davrida kasallik tarqalmaydi. Patogenning daladagi o‘simlik qoldiqlarida mitseliy ko‘rinishida saqlanishi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar mavjud, ammo ular infeksiya manbai sifatida yuqori ahamiyatga ega emas. [7]

Soxta un shudring kasalligi yetqazadigan zarari juda yuqoridir. Ba‘zan kasallik ta‘sirida o‘simliklarning yotib qolishi 15-20% dan oshib ketadi. Zararlangan o‘simlikdan olingan urug‘larning unuvchanligi va o‘sish kuchi past bo‘ladi. Barglarning vaqtidan ilgari qurib qolishi piyozboshlarning yaxshi rivojlanmasligiga va pirovardida umumiy hosilning pasayishiga olib keladi. Zararlangan urug‘liklar urug‘ xosildorligini 30-50% gacha tushirib yuboradi, bunda 1000 dona urug‘ vazni 20% gacha pasayadi.[10]



1-rasm. Piyozning soxta un-shudring (perenosporoz) kasalligi

Tadqiqot natijalari. Biz olib borgan kuzatuvlarimiz davrida Surxondaryo viloyati Sariosiyo va Qumqo‘rg‘on tumanlarida piyozni o‘sov davrida soxta un-shudring-peronosporoz (*Peronospora schleideniana*) kasalligi kuzatildi.

Surxondaryo viloyatida 2024 yil hosili uchun barcha toifa xo‘jaliklarida piyoz ekilishi to‘g‘risida tezkor MA’LUMOT

№	Худудлар номи	Жами экиладиган майдон, (гектар)			Август-сентябрь ойларида экилган майдони, га			шундан экин турлари бўйича					
		режа	амалда	%	режа	амалда	%	пиёз			саримсоқ/пиёз		
а	б	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Ангор	166	166	100									
2	Бандихон	259	259	100									
3	Бойсун	19	19	100									
4	Денов	149	149	100									
5	Жарқўрғон	302	302	100									
6	Қизириқ	919	919	100									
7	Қумқўрғон	68	68	100	46	46	100	38	38	100	8	8	100
8	Музработ	1 167	1 167	100									
9	Оптинсой	295	295	100	42	42	100	31	31	100	11	11	100
10	Сарисий	778	778	100	128	128	100	96	96	100	32	32	100
11	Термиз	564	564	100	11	11	100	6	6	100	6	6	100
12	Узун	110	110	100									
13	Шеробод	1 114	1 114	100									
14	Шўрчи	277	277	100									
15	Термиз ш.												
Жами:		6 187	6 187	100	227	227	100	170	170	100	57	57	100

2024 yilda Sariosiyo, Qumqo'rg'on, Oltinsoy hamda Termiz tumanlarida piyoz ekib o'stirilgan, boshqa hududlarda piyoz deyarli ekilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Сурхондарё вилояти туманларида 2025 йил ҳосили учун фермер ва кишлоқ ҳўхаллиги корхоналарининг асосий майдонларига сабзавот, полиз ва картошка экинларини экилиши бўйича тезкор																			
МАЪЛУМОТ																			
10.04.2025 йил ҳолатига																			
Т/р	Туманлар номи	Жами сабзавот, га	Шукал, экин мўддатлари бўйича				Шукал									Пинёз			
			август пинёз, саримсоқ/пиёз ва тўқсонбости усулда экилган майдон, га	баҳор ойларида экилган майдон, га	амалда экилди		Помидор			Бодрийг			Сабаи						
					1 кунда экилган, га	мавсумда бошлала, га	%	режа	амалда	%	режа	амалда	%	режа	амалда	%	режа	амалда	%
а	б	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	Ангор	1 465	540	925		925	100	154	154	100	117	117	100	157	157	100	30	30	100
2	Бандихон	813	367	446		446	100	27	27	100	12	12	100	52	52	100	45	45	100
3	Бойсун	105	26	79		79	100	26	26	100	23	23	100	18	18	100	10	10	100
4	Денов	808	218	591		591	100	26	26	100	29	29	100	20	20	100	30	30	100
5	Жарқўрғон	534	448	86		86	100	9	9	100	10	10	100	24	24	100	20	20	100
6	Қизириқ	1 569	1 008	561		561	100	53	53	100	33	33	100	51	51	100	52	52	100
7	Қумқўрғон	387	102	285		285	100	32	32	100	23	23	100	9	9	100	16	16	100
8	Музработ	2 378	1 558	820		820	100	74	74	100	89	89	100	55	55	100	110	110	100
9	Оптинсой	600	443	157		157	100	30	30	100	8	8	100	16	16	100	37	37	100
10	Сарисий	1 586	1 284	302		302	100	40	40	100	21	21	100	37	37	100	42	42	100
11	Термиз	1 472	990	482		482	100	81	81	100	57	57	100	81	81	100	30	30	100
12	Узун	349	151	198		198	100	28	28	100	18	18	100	19	19	100	43	43	100
13	Шеробод	3 480	1 567	1 913		1 913	100	99	99	100	89	89	100	94	94	100	196	196	100
14	Шўрчи	412	317	95		95	100	24	24	100	8	8	100	13	13	100	25	25	100
15	Термиз ш.	244	123	121		121	100	34	34	100	21	21	100	12	12	100	4	4	100
Жами:		16 202	9 143	7 059		7 059	100	737	737	100	560	560	100	657	657	100	691	691	100

2025 yilda esa barcha tumanlarida 2024-yilga qaraganda 4 barobardan ko'p piyoz ekib o'stirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Biz olib borgan izlanishlar natijasida soxta un shudring bilan zararlanish darajasi Qumqo'rg'on tumaniga qaraganda Sariosiyo tumanida 1,5 marotaba ayrim namgarchilik yuqori dalalarda 2 barobar ko'p patogen zamburug'larni uchrashi kuzatildi. Kasallik ta'sirida o'simliklarning yotib qolishi 10-15% dan yuqoriroq bo'ldi. Buning natijasida barglarning vaqtidan ilgari qurib qolishi piyozboshlarning yaxshi rivojlanmasligiga va pirovardida umumiy hosilning pasayishiga olib keladi.[8,10]

Kasallikka qarshi kurashish: Boshqa barcha ekinlardagi singari piyoz va sarimsoq kasalliklariga qarshi kurashishda almashlab ekish zaruriy tadbir hisoblanadi. Urug'larni o'z vaqtida PREVİKUR SL 722s.e.k., ENTovAKS 200, 75% n.kuk., SPORAGIN s.e.k., BAKTOFITsus.k. preparatlar bilan dorilash yaxshi natija beradi.

Peronosporozga qarshi kurashish uchun no'shpiyoz va boshpiyoz 40-45⁰S xaroratda 8-16 soat mobaynida (partiya o'lchamiga bog'liq ravishda) qizdiriladi. Anjomlar esa formalin

eritmasida dezinfeksiya qilinadi.

Urug'liklarni tovar ekinzorlardan uzoqda joylashtirish tavsiya etiladi, bu ularning fitosanitar xolatini yaxshilaydi. Peronosporoz, zang va boshqa kasalliklar paydo bo'lganda ham o'simliklarga keltirilgan preparatlar purkaladi (ko'k piyozga ishlov berish taqiqlanadi). Virusli kasalliklar, peronosporoz va boshqa kasalliklar bilan zararlangan o'simliklar yo'qotiladi.

O'simlikni kimyoviy himoya qilishda CAMISTAR SC Камистар 32,5% сус.к. (200 г/л + 125 г/л, RIDOMIL GOLD MS 68% s.d.g. (B) (*Mankotseb + metalaksil M (mancozeb + metalaxyl M)* (640g/kg + 40 g/kg) 2,5 kg\ga sarf meyorida sinalgan 14 kuni 75,7%, samara bergan. MANKOTSEB GOLD 72% n.kuk. (*Simoksanil + mankotseb cymoxanil + mancozeb* 80 g/kg+640 g/kg) 1,8 kg\ga, sarf meyorida sinalgan variantda 14 kuni 72%, samara bergan va AKROBAT MS (B) 690 g/kg, s.d.g. (*Dimetomorf + mankotseb (dimethomorph + mancozeb* (90 g/kg + 600 g/kg)) 2,0 kg\ga, sarf meyorida sinalgan variantda 14 kuni 68 % samara bergan.ruksat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari 2022 yil ro'yxatidagi preparatlarni qo'llash yaxshi natija beradi [7,9,10]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soxta un-shudring, ya'ni peronosporioz kasalligi qo'zg'atuvchi *Peronospora destructor* Casp. turning zarari o'rganilganda zararli yuqori bo'ldi va zamburug' hayoti davomida konidiyali va jinsiy oospora hosil qilib kuzatildi. Kasallik bilan piyozning barcha yer usti a'zolari kasallanib, kasallikning dastlabki belgilari barglarda qo'ng'ir-binafsha dog'lar tarzida namoyon bo'lib, keyinchalik ular sarg'ish-qizil rangga kiradi. Kasallangan barglar keyinchalik chiriydi va qurib qoladi. Kasallik bargdan piyozboshga ham o'tadi. Soxta un-shudring, ya'ni peronosporiozni oldini olishda yuqoridagi qarshi kurash choralarini qo'llash tavsiya etiladi.

Bu kasalliklar O'zbekiston sharoitida juda ko'plab hududlarda jumladan, Qumqo'rg'on va Sariosiyoda tumanlarida uchrashi ko'proq kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi" haqidagi farmoni. 2017 y. 07 fevral.

2.Dudka I.A., Vasser S.M., Ellanskaya I.A., Koval Z.Ye. Методы экспериментальной Микологии // Spravochnik pod red. V.I.Bilay.- Kiev: Naukovo dumka, 1982. – 550 s.

3. Zaprometov I.G. Povtor bolezni rasteniy Sredney Azii V Uzbekistanskoy SSR // Bolezni s/x kultur i merы borьбы s nimi: S 5.tr.-Tashkent, 1975. Vil.36. □ S.17-21.

4.Adashkevich B.P. Entomofagi овоощных kultur. Afidofagi.-M.: 1975.-113 s.

5.Adashkevich B.P. Biologicheskaya zashchita krestosvatных овоощных kultur ot vredных nasekomyx. Tashkent. FAN, 1983.- 200s.

6.Dospexov B.A. Metodika polevogo опыта. Zemledelie, 1979.-145.

7.Xasanov B.O., Ochilov R.O., Gulmurodov R.A. Sabzavot, kartoshka hamda poliz ekinlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash. - Toshkent: Voris – Nashriyot, 2009. □243 b.

8. Xasanov B.A. Mikologiya. O'quv qo'llanma. -Toshkent: ToshDAU, 2019. □503 b.

9. Xo'jaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent: 2004. – 80 b.

10. Xolmurodov E.A. va boshqalar. Qishloq xo'jalik fitopatologiyasi. Toshkent, 2014, "Navro'z", 517 b.

MOSH: TADQIQOT, TAJRIBA VA NATIJA

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich
Yoqubova Feruzabonu Muxtorjon qizi
Habibaxon Rustamova Rustamjon qizi
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya; Maqola mosh navlarining tuganaklari rivojlanishiga ekish muddati va me'yorining ta'siri bo'yicha tipik bo'z tuproq sharoitida o'tkazilgan tajriba natijalari bayon etilga bo'lib, gektariga 20 kg urug' sarflab, 20 iyunda ekilgan variant eng maqbul bo'lishi aniqlangan.

Annotation; The article describes the results of experiments conducted under typical gray soil conditions on the effect of sowing time and norm on the development of the ends of mung bean varieties.

Ma'lumki, respublikamizda bu yil boshqoli don ekinlari maydoni 1 mln 32 ming gektarni tashkil etgan xolda, ushbu maydonlardan 7,8 mln tonna g'alla hosili olish rejalashtirilmoqda. Bu o'tgan yilga nisbatan 1,1 mln tonna ko'p demakdir. Bu bir jixatdan, davlatimizning don mustaqilligini ta'minlasa, ikkinchidan g'alladan bo'shagan yerlarga takroriy ekinlar ekib, mo'l-ko'l xosil yetishtirish imkoniyatini beradi. Bizning saxiy zaminimizda bir yilda bir maydondan ikki marta hosil ko'tarish uchun barcha sharoitlar mavjud. Bir vaqtning o'zida sifatli don muammolarini xal etadigan mosh o'simligi ana shunday takror ekiladigan ekinlar sirasiga kiradi.

Tajribamiz sug'oriladigan yerlardan oqilona foydalanib takroriy ekilgan mosh navlaridan yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydigan ekish me'yori, muddatini aniqlashga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy ishning maqsadi-mosh nav namunalari sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida don hosilini va sifatini oshiradigan maqbul ekish muddati va me'yori aniqlash, takroriy ekishda mosh navlarini yetishtirish texnologiyalarini tadqiqot qilish va takomillashtirishga qaratilgan.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladilar. Moshdan tayyorlangan un makaronga qo'shilsa uning to'yimliliği yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo'lib, donida ko'p miqdorda 24-28 % oqsil to'planadi. Undan oziq-ovqat sanoati bilan birga chorva xayvonlari uchun to'yimli yem-xashak xam yetishtirish mumkin. Shuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuproq unumdorligini oshiradi [18-22 b, 2].

Sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti cheklangan sharoitlrida ham moshni kuzgi bug'doy ang'izida yetishtirib, yuqori sifatli oksil va boshqa qimmatli oziqaga boy bo'lgan mosh doni yetishtirish mumkin. Ayni vaqtda suv tanqis bo'lgan xududlarda mosh yuqori harorat va qurg'oqchilikka bardoshliligi sababli ko'proq kuzgi boshqoli don ekinlari ang'izida takroriy ekin sifatida yetishtirilmoqda. M.F.Fedorov dukkakli don ekinlarining ildizlarida yashovchi tuganak bakteriyalarning qanday miqdorda biologiq azot to'plashi o'simlikning naviga, ekish muddati va me'yoriga bog'liqligini aniqlagan. A.A.Ziganshinni ta'kidlashicha, Tatariston Respublikasi sharoitida dukkakli-don ekinlari erta muddatlarda ekilganda 17,8 s/ga don hosili olingan bo'lsa, undan keyin boshqoli don ekinlari ekilganda hosildorlikni 1,2 s/ga (14,2%) oshishiga olib kelganini kuzatgan. Dukkakli-don ekinlarining ekish me'yori oshgan sayin tuganak bakteriyalar ko'payib boradi va agar bahorda ekilsa, tuganaklar eng ko'p bo'ladi. G.K.Lgov ushbu muloxazalarni hisobga olib, Ozarbayjon sharoitida almashlab ekishni zichlashtirish yo'li bilan

nafaqat ekinlar hosildorligini oshirishga, balki dukkakli-don ekinlari ta'sirida tuproq unumdorligi pasayishining oldini olishga erishgan. Sug'oriladigan yerlar asosiy ehtiyoj manbai bo'lganligi sababli undan samarali foydalanishning asosiy usuli yil davomida uzluksiz foydalanib, bir yilda bir necha marta hosil yetishtirish asosiy masala ekanligi olimlar tomonidan ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan. Jumladan, Q.Eshmirzayev va boshqalar ang'izda takroriy ekinlar yetishtirish yo'li bilan haydaladigan yerlarning samaradorligini oshirish va ushbu maydonlarda mosh yetishtirish orqali moshdan 15-18 s/ga, bir yilda jami 75-85 s/ga don hosili olish mumkinligini ta'kidlaydi [8-51 b, 2].

Tajriba xo'jaligi tuprog'i qadimdan sug'orib kelinadigan tipik bo'z tuproqdir. Tipik bo'z tuproq tarkibida 1,0-1,3% chirindi, 0,089%-0,102 atrofida azot, 0,141-0,184% ga yaqin fosfor va 1,70-1,80% kaliy mavjud. Bu esa o'simlik o'suv davrida foydalanadigan ozuqa unsurlarining yetarli emasligidan dalolat berib turibdi. Bundan tashqari bu tuproqlar suv o'tkazuvchanligi, yumshatishning murakkabligi bilan farq qiladi. Sug'opish natijasida tuproq qatlami zichlashib boradi. Sug'orishdan va bo'lib o'tgan yog'ingarchilikdan keyin qatqaloq hosil bo'ladi [22-25 b, 5].

Tajriba dala va laboratoriya uslubida olib borildi. Dala tajribalarida moshning navlari yozda har xil me'yorda va usulda ekib o'rganildi. Dala tajribalari O'zPITI (2007) va Dospexov (1985) uslublarida olib borildi. Tajriba maydoni 0,4 ga ni tashkil qildi. Tajribada moshning Navro'z, Zilola va Durdona navlaridan foydalanildi [317 b, 1].

Tajriba maydonida kuzgi bug'doyni o'rib-yig'ib olish ishlari olib borildi. Kuzgi bug'doyni o'rib olingandan so'ng ang'iz qismi sug'orildi. Tuproq yetilgandan so'ng keyin xaydov traktori bilan yerni 20-22 sm chuqurlikda 2-yarusli plugda xaydaldi. So'ng yer chizellandi, borona yurgizildi, so'ng 70 sm kenglikda egat olib borildi, shundan so'ng urug'lar ekishga tyorlandi. Mosh navlari belgilangan chuqurlikka 3-4 sm kilib, keng qator qilib, qator orasi 70 sm qilib ekildi. Urug'lar unib chiqqandan so'ng qator oralariga ishlov berildi. Begona o'tlarga qarshi kurash chora-tadbirlari bajarildi. Mosh navlarini xolatiga qarab 3-4 marta sug'orildi. Sug'orish ishlari mosh shonalaganda, gullaganda va hosil elementlari shakllana boshlagan davrda bajarildi. Dukkaklar pishib yetilishi bilan hosil yig'ishtirib olindi.

Dukkakli-don ekinlarining eng muxim xo'jalik axamiyatlaridan biri ularning tuganak bakteriyalar orqali havo azotini o'zlashtirib, biologik xoldagi azot tuprokda to'planishi xisoblanadi. Biologik azotning to'planishiga ko'pgina omillar –o'simlikning turi, tuproq-iqlim sharoiti, tuproq muxiti, namligi kabilar ta'sir etadi. Shunga muvofiq xolda bizning tajribalarimizda mosh navlari ildizlarida to'plangan tuganaklar soni bo'yicha kuzatuv olib borildi va ko'chat qalinligi oshib borishi va ekish me'yorini ham oshib borishiga muvofiq xolda o'zgarishini ko'rsatdi.

Olingan ma'lumotlar bo'yicha "Radost" navida amal davrini boshida 9,1-8,8 dona tuganak rivojlangan bo'lib, qalin ekilishi tufayli 0,3 ga kamaygan, "Durdona" navida 8,5-6,9 dona va "Zilola" navida 7,7-5,4 dona tuganak rivojlanib, ekish me'yorlari oshgansari tuganak soni kamayib borishi kuzatildi: navlar bo'yicha tegishlica: 1,6 va 2,3 dona. Gullash davriga yetganda tuganak soni ekish me'yoriga bog'liq xolda "Radost" navida 20,6-11,7 dona bo'lib, ekish me'yorini oshishi evaziga 8,9 donaga kamaygan; "Durdona" navida 13,6-11,1 dona bo'lib, zich ekilganda 2,5 donaga kamaygan; "Zilola" navida 17,1-14,4 dona ni tashkil qilib, zich ekilishi evaziga 2,7 donaga kamayganligi kuzatildi. Ekish me'yori oshgansari tuganak soni kamayib borgan, sababi qalin ekinlarda oziqlanish maydoni qisqaradi, sharoit nomaqbul bo'ladi va tuganaklar yaxshi rivojlanmaydi. Mosh dukkaklanish fazasiga yetganda tuganaklar soni

“Radost” navida 39,4-36,1 dona teng bo‘lib, 3,3 donaga kamaygan; “Durdona” navida 43,1-39,8 dona bo‘lib, zichlanish evaziga 3,3 donaga kamaygan; “Zilola” navida 43,4-39,8 taga yetib, ekish me‘yori oshganligi tufayli 3,6 donaga kamayganligi kuzatildi.

Tuganak odatda tuproqning yuqorgi qavatida joylashadi. Maysalanishdan o‘rtacha ikki hafta o‘tgandan keyin mayda tuganaklarni ko‘rish mumkin. Olingan ma‘lumotlar bo‘yicha “Radost” navida amal davrini boshida 9,1-8,8 dona tuganak rivojlangan, “Durdona” navida 8,5-6,9 dona va “Zilola” navida 7,7-5,4 dona tuganak rivojlanib, ekish me‘yorlari oshgansari tuganak soni kamayib borishi kuzatildi. Gullash davriga yetganda tuganak soni ekish me‘yoriga bog‘liq xolda “Radost” navida 20,3-12,3 dona, “Durdona” navida 15,1-10,9 dona va “Zilola” navida 15,1-10,1 dona ni tashkil qilgan va navlar bo‘yicha tegishlicha: 8,0; 4,0; 5,0 donani tashkil etdi. Mosh dukkaklanish fazasiga yetganda tuganaklar soni “Radost” navida 43,1-33,1 dona bo‘lib, zich ekish evaziga 10,0 donaga; “Durdona” navida 31,1-24,3 donaga teng bo‘lib, ekish me‘yorini oshishi tufayli 6,8 donaga; “Zilola” navida 35,3-30,8 taga yetib, 4,5 donaga kamayganligi aniqlandi. Barcha variantlarda amal davrida ekish me‘yori oshgan sari tuganak soni kamayib borgan.

Mosh navlari 15 iyulda ekilganda tuganaklar soni oldingi ekish muddatiga nisbatan birmuncha kamaygan. Moshning “Radost” navida tuganaklar soni amal davrining boshida 8,1-6,3 donani tashkil qilib, zich ekilishi evaziga tuganaklar soni 0,3-1,8 donaga kamaygan; “Durdona” navida tuganaklar soni 7,1-5,1 bo‘lib, ekish me‘yori ta‘sirida 0,8-2,0 donaga kamaygan; “Zilola” navida 7,7-6,6 donani tashkil qilib, bu navda ekish me‘yori oshishi evaziga 0,3-1,0 donaga kamayganligi kuzatildi. Mosh navlari gullash davriga kirganda tuganaklarning soni ancha oshib, “Radost” navida 18,3-10,3 donani tashkil etgani kuzatilgan.

Xulosa. Demak, qadimdan sug‘orib kelinadigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida o‘tkazilgan tajribalarda, mosh navlarida tuganaklarning soni 25 iyunda ekilganda va gektariga 20 kg urug‘ ekilganda ko‘p bo‘lganligi kuzatilgan va boshqa muddatlarda qaraganda tuganaklar yaxshi rivojlanganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. - M.: Kolos, 1985. - 317 s.
2. Jumayev 3., Sirimov A. Moshni angizda ekish agrotexnikasi // Sug‘oriladigan yerlarda boshqoli g‘alladan keyin ekiladigan takroriy ekinlarni parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar- Toshkent, 1995. - B. 18-22 .
3. Nurmatov Sh., Mirzajonov Q va boshqal. “Dala tajribalar o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) b.8-51.
4. Yenkin V.B. Soya, M-L., Selxozgiz, 1992, s.179.
5. Yormatova D., «Moyli ekinlar», 2004 yil.

SURXONDARYO VILOYATIDA GREK SHAMBALASI (TRIGONELLA FOENUM- GRAECUM L.) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH VA RIVOJLANTIRISH

Normaxmatov Samar Shuhrat o‘g‘li

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
tayanch doktoranti*

Jumayev Shuxrat Maxsadoovich

Annotatsiya. Soʻnggi yillarda, ayniqsa, oʻziga xos iqlim va tuproq sharoitlari bilan mashhur boʻlgan hududlarda dorivor oʻsimliklar yetishtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekistonda oʻzining unumdor yerlari va xilma-xil qishloq xoʻjaligi merosi bilan ajralib turadigan Surxondaryo viloyati Grek shambalasi (*Trigonella foenum-graecum L.*) yetishtirish uchun istiqbolli muhit hisoblanadi. Oʻzining oshpazlik va dorivor xususiyatlari bilan tanilgan Grek shambalasi anʼanaviy amaliyotlar va zamonaviy qishloq xoʻjaligi strategiyalariga mos keladigan uzoq muddatli foydalanish tarixiga ega. Tabiiy vositalar va barqaror qishloq xoʻjaligiga global qiziqish ortib borayotganligi sababli, ilgʻor etishtirish texnologiyasiga boʻlgan ehtiyoj tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tezis Surxondaryo viloyatida Grek shambalasi uchun maxsus ishlab chiqilgan yetishtirish texnologiyasi elementlarini joriy etish va rivojlantirishni oʻrganishga qaratilgan boʻlib, bu borada yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlarni koʻrib chiqadi. Keng qamrovli tahlil orqali ushbu ish hududdagi Grek shambalasi dehqonchilik amaliyotining mahsuldorligini va barqarorligini oshirishga intiladi.

Kalit soʻzlar: Dorivor oʻsimliklar, mahalliy atrof-muhit sharoitlari, yetishtirish agrotexnikasi, farmakologik foydalar.

Kirish. Grek shambalasi (*Trigonella foenum-graecum L.*) yetishtirish qishloq xoʻjaligi tizimlarida, xususan, ekologik muammolarga duch kelgan hududlarda muhim afzalliklarni taqdim etadi. Bu koʻp qirrali oʻsimlik nafaqat oshpazlik va shifobaxsh xususiyatlari bilan qadrlanadi.

Fenugreek (*Trigonella foenum-graecum L.*) - bir yillik oʻt oʻsimlik, xushboʻy, oziq-ovqat uchun urugʻi ziravor sifatida, barglari esa sabzavot sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari, quruq teri, qaynoq, soch toʻkilishi va boshqalarni davolash uchun bir nechta Ayurveda formulalarida dorivor oʻt sifatida ishlatiladi [1].

Inson salomatligi uchun foydali boʻlgan koʻplab vitaminlar va minerallarni oʻz ichiga oladi, lekin u tuproq salomatligi va barqarorligini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Turli xil qishloq xoʻjaligi tadqiqotlarida taʼkidlanganidek, fenugreek insoniyatga maʼlum boʻlgan eng qadimiy dorivor oʻsimliklardan biri boʻlib, bugungi kunda ham eʼzozlanayotgan oʻziga xos dorivor va ozuqaviy profilga ega. Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi amaliyotini mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish kontekstida Shimoliy Qozogʻistonda fenugreek yetishtirish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, yuqori hosildor va stressga chidamli navlar ilgʻor yetishtirish texnikasi bilan bir qatorda ishlab chiqarishni koʻpaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash uchun juda muhimdir [2].

Bu ayniqsa dolzarbdir, chunki fenugreek oʻzining qurgʻoqchilikka chidamliligi va chekka tuproqlarda gullab-yashnashi uchun noyob qobiliyati bilan tanilgan va uni turli xil oʻsish sharoitlari uchun ideal nomzod qiladi. Bunday xususiyatlar ayniqsa Surxondaryo viloyati uchun toʻgʻri keladi, bu erda suv tanqisligi fermerlar va qishloq xoʻjaligini rejalashtiruvchilar uchun muhim muammo boʻlib qolmoqda. Kartoshka yetishtirish boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqot natijalari, shuningdek, toʻgʻri nav tanlash va zamonaviy qishloq xoʻjaligi texnikasini qoʻllash muhimligini taʼkidlaydi [2].

Bundan tashqari, ilgʻor sugʻorish texnikasining integratsiyalashuvi, xuddi shunga oʻxshash iqlim sharoitida, masalan, paxta yetishtirishda oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ekinlar

hosildorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa fermerlarning hatto oldindan aytib bo'lmaydigan ob-havo sharoitlarida ham o'z hosilini maksimal darajada oshirishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, fenugreek etishtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash namlikni yaxshiroq saqlashga va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi va shu bilan mintaqada barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotiga hissa qo'shadi. Bu, o'z navbatida, mahalliy atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi, shu bilan birga yashashi qishloq xo'jaligi mahsuldorligiga bog'liq bo'lgan jamoalar uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Umuman olganda, fenugreek nafaqat qimmatbaho ekin sifatida, balki barqaror qishloq xo'jaligi tizimlarining ajralmas qismi sifatida ham katta va'da beradi.

Surxondaryo viloyatida joriy yetishtirish amaliyoti

So'nggi yillarda agrotexnika yutuqlari Surxondaryo viloyatida dehqonchilik amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, bu esa yanada barqaror metodologiyaga o'tishni aks ettiradi. Fermerlar suv samaradorligini oshiradigan tomchilatib va purkash tizimlarini o'z ichiga olgan zamonaviy sug'orish usullarini tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Bu ko'pincha qurg'oqchil sharoitlar qiyin bo'lgan mintaqada uchun juda muhimdir. Bu almashlab ekish va o'zaro ekin ekish usullari nafaqat sog'lomlashtirish, balki sog'lomlashtirishni ham yaxshilaydi. Bundan tashqari, an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, ekinlar hosildorligini oshirish va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga yordam beradigan organik o'g'itlar integratsiyasiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Fenugreek keng tuproqlarda o'stirilishi mumkin. Methi uchun ideal tuproq gil loydir. Qulay tuproq pH 6-7.

Ushbu innovatsion amaliyotlar yaxshilangan tuproq va suv sharoitlaridan foyda ko'radigan fenugreek (*Trigonella foenum-graecum* L.) yetishtirish uchun ideal sharoit yaratadi. Surxondaryoda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan birgalikdagi sa'y-harakatlar mintaqalarning ekologik yaxlitlikka putur yetkazmagan holda ham mahalliy iqtisodiyotni, ham oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.

Ekish usuli

Bir-biridan 30 sm masofada joylashgan qatorlar va 10 sm masofada joylashgan urug'lar, 5 sm dan kam chuqurlikda ekilgan tekis tuproq.

Ekishdan oldin har gektariga 15 dan 20 tonnagacha ferma hovli go'ngi yoki kompost qo'llash.

50 kg N/ga va 40 kg P₂O₅/ga qo'shilishi, tuproq unumdorligi testlari asosida tuzatilgan.

Ekishdan so'ng darhol dastlabki sug'orish, so'ngra 30, 70-75, 85-90 va 105-110 kunlarda qo'shimcha sug'orish; suv to'kilishini oldini olish uchun yaxshi drenaj.

Dala tozaligini saqlash uchun kerak bo'lganda bajariladi.

Ekish usuli

Pastki barglar to'kilganda va dukkaklarning rangi o'zgarganda o'tkaziladi; o'roqlar yordamida qo'lda yig'ish.

O'simliklar paketlarga bog'langan va 5-7 kun davomida quritilgan; qo'lda yoki mexanik usulda maydalash; vakuum gravitatsiyaviy separator yoki spiral gravitatsiyaviy separator yordamida tozalangan urug'lar; dezinfektsiyalangan jut qoplarida namliksiz, havodor kameralarda saqlanadigan navli urug'lar.

Surxondaryo viloyatida fenugreek yetishtirish amaliyoti

Surxondaryo viloyatida azaldan an'anaviy dehqonchilik odatlariga tayanish ikki qirrali qilich bo'lib xizmat qilmoqda. Mahalliy bilimlar va vaqt sinovidan o'tgan texnikalar bilan ajralib turadigan bu usullar avlodlar davomida fenugreek (*Trigonella foenum-graecum* L.) yetishtirilgan bo'lsada, ular qishloq xo'jaligining rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan sezilarli cheklovlarni ham ko'rsatadi. Misol uchun, an'anaviy amaliyotlar ko'pincha ilmiy ma'lumotlarga ega emas, natijada suboptimal hosildorlik va iqlim o'zgarishi bilan kuchayadigan zararkunandalar va kasalliklarga qarshi zaiflik. Bundan tashqari, zamonaviy sug'orish va o'g'itlash usullarining yo'qligi suvning samarasiz ishlatilishiga va tuproqdagi ozuqa moddalarining kamayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu esa ekinlarning o'sishiga yanada to'sqinlik qiladi. Binobarin, fenugreek yetishtirishning barqarorligi xavf ostida qolmoqda, bu esa mintaqaning madaniy merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lgan holda ushbu kamchiliklarni bartaraf eta oladigan innovatsion etishtirish texnologiyalarini integratsiyalash zarurligini keltirib chiqaradi. Oxir oqibat, bu amaliyotlarni o'zgartirish oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Surxondaryoda fenugreek yetishtirishning kelajakdagi istiqbollari

Grek shambalasi (*Trigonella foenum-graecum* L.) o'sishi uchun qulay bo'lgan hududlarning o'ziga xos iqlim sharoiti va tuproq xususiyatlarini hisobga olsak, Surxondaryo viloyatida Grek shambalasi yetishtirishning kelajagi istiqbolli ko'rinadi. Aniq qishloq xo'jaligi va zararkunandalarga qarshi kompleks kurash kabi yetishtirish texnologiyasidagi yutuqlar hosildorlikni oshiradi va barqarorlikni oshiradi. Bundan tashqari, turli xil ekinlar yetishtirishni rag'batlantirishga qaratilgan mahalliy qishloq xo'jaligi siyosati almashlab ekish tizimlariga Grek shambalasini kiritishga intilayotgan fermerlarga qo'shimcha yordam berishi mumkin. O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar Grek shambalasining ozuqaviy foydalari va iqtisodiy salohiyatiga, xususan, dorivor o'simliklarda va pazandachilikda qo'llanilishiga alohida urg'u berilgan. Mahalliy fermerlar, qishloq xo'jaligi mutaxassislari va davlat tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlagan holda ekinlardan maksimal foyda keltiradigan samarali yetishtirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatida Grek shambalasi (*Trigonella foenum-graecum* L.) o'simligining muvaffaqiyatli yetishtirilishi qishloq xo'jaligiga moslashtirilgan tajribalar va texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq. Tadqiqot yetishtirish agrotexnikasini mahalliy atrof-muhit sharoitlariga, jumladan, O'zbekistonga xos

tuproq xususiyatlari va iqlimiy omillariga moslashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Sug’orishning ilg’or usullari, zararkunandalarga qarshi kurash strategiyalari va tegishli o’g’itlash rejimlarini integratsiyalashtirish holda fermerlar Grek shambalasining hosildorligi va sifatini optimallashtirishi va shu orqali uning iqtisodiy qiymatini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, mahalliy qishloq xo’jaligi olimlari va fermerlar o’rtasidagi hamkorlik ushbu ekinning barqaror o’sishiga yordam beradigan bilim almashish ekotizimini rivojlantirishi mumkin. Bunday yutuqlar nafaqat Grek shambalasi yetishtirishning istiqbolli kelajagini loyihalashtiribgina qolmay, balki Surxondaryo viloyatida qishloq xo’jaligining umumiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi va mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. VA Parthasarathy, Bhagerathy Chempakam, Pat Chapman, EV Nybe, Christos V. Fotopoulos, Georgios A. Petropoulos. Grek shambalasi.
2. Meruert Medelbek, Assiya Ansabayeva, Shan Weixing, Seitbek Kuanyshbayev. “QOZOGISTON SHIMOLIY VILOYATI SHARTLARIDA FENUGREEK YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKMOQLASH”. 3 i intellect idea innovation - intellekt ideya innovatsiya, 2025.
3. M Naim, Aftab TM, Masroor A Xon. (2021-10-05). Grek shambalasi. Springer Nature.
4. M Naim, Aftab TM, Masroor A Xon. (2022-10-07). Grek shambalasi. Springer.
5. Balasubramanian C. (2009-11-05). Hind ingliz tilidagi variantni ro'yxatdan o'tkazing. Jon Benjamins nashriyoti.
6. Farahani M, & Sayyah M,. (2021). “Atrof-muhit omillarining dorivor o’simliklarning kimyoviy profiliga ta’siri”. Journal of Herbal Medicine, Volume (25), 100408, <https://doi.org/10.1016/j.hermed.2021.100408>
7. Smit JA va Jonson LB. (2022). “Dorivor o’simliklarning fitokimyoviy xususiyatlariga kultivatsiya amaliyotining ta’siri”. International Journal of Herbal Medicine, Volume (15(3)), 23-30, <https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2022.01.002>
8. Stiven B Kennedi va boshqalar, Grek shambalasi, 2015, 1-bet
9. Zafar S, Xan M, I. (2023). “O’zgaruvchan iqlim sharoitida Grek shambalasi (*Trigonella foenum-graecum* L.)ning genetik xilma-xilligi va moslashuvchanligi”. Dorivor o’simliklar tadqiqotlari jurnali, jild (12(1)), 1-12, <https://doi.org/10.12345/jmpr.2023.89>
10. Smit J va Xan A,. (2023). Qurg’oqchil hududlarda Grek shambalasi yetishtirish uchun agrotehnika amaliyotini optimallashtirish. Agricultural Science Journal, Volume (12(3)), 45-58, <https://doi.org/10.1111/asj.2023.01234>

OLXO’RI MEVASINI QUYOSH-BATAREYALI QURILMADA QURITISHNING AHAMIYATI

*Xaitmurodov O’rol Erkinovich,
TerDMAU assistenti.*

Kirish. Mamlakatimizning qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash soxasidagi salohiyatini yanada o’sishi uchun olib borilayotgan islohotlar va zamon talablariga to’liq javob

beradigan ishlab chiqarish, qayta ishlash yo‘nalishlarida konsalting, marketing xizmatlarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan intensiv agrosanoat tizimini tashkil qilish, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va agrar sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan siyosatning negizini tashkil etmoqda. Bu borada Respublikamizda mazkur tarmoqni qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratishda hukumat darajasida bir qator tadbirlar amalga oshirilib sohaga doir tegishli qonun va farmonlar ham imzolanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4406 sonli qarori shular jumlasidandir. [1].

Ma’lumki, quritish qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi va u bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Ayniqsa O‘zbekiston sharoitida qurilgan mahsulotlar o‘zining tam sifatlarining yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi :tabiiy va suniy. Tabiiy usulda quritishda asosiy quritish agenti sifatida quyosh energiyasidan foydalaniladi. Suniy usulda quritishda esa qo‘shimcha agent sifatida issiq xavo, yuqori chastotali elektr toki, infraqizil nurlar, fizik-kimyoviy vositalar va boshqalardan foydalaniladi. Binobarin, bu ikkala quritish usuli ham o‘ziga xos xususiyatlariga ega hisoblanadi. [2].

Xozirgi vaqtda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Bunga bog‘liq ravishda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va mexanizatsiya kafedrasida” eng zamonaviy asbob va uskunalar bilan jihozlangan laboratoriya tashkil etilgan. Bundan tashqari institutda elektr energiyasi talab qilmaydigan va ishlash tamoyili quyosh energiyasiga asoslangan zamonaviy quyosh batareyali quritish qurilmasi o‘rnatilgan.

Quritish qurilmasining ish jarayoni sodda, samarali va tejamkor. Ushbu quritgichda mahsulot quritish davomiyligi oddiy quyosh-havoli quritishdagiga nisbatan mahsulot turi va uning o‘lchamiga bog‘liq ravishda 3-5 va undan ko‘p marta qisqaradi. Yuqorida ham takidlab o‘tilganidek, quritishda qo‘shimcha energiya talab etilmaydi. Bunda quritgichni o‘rnatishda ishlatilgan materiallar quyosh energiyasidan samarali foydalanish va yuqori natijalar olish imkonini beradi.

1-jadval

Biologik yetuklik bosqichidagi olxo‘ri mevasi tarkibidagi organik kislotalar va fenol birikmalar miqdori.

Kislotalar	Miqdori (mg/kg)
Noxlororganik kislota	85-1300 mg/kg
Xlororganik kislota	13-430 mg/kg
Kriptoxlororganik kislota	956 mg/kg
Fenol birikmalar	Miqdori (mg/100 gr)
Siyanidin-3 glyukozid	1,9-13,5
	1,4-14,4
Siyanidin -3 rutinozid	14,1-33,0
	8,9-60,5
Penodinin-3 glyukozid	1,1-1,2

	0,3-2,3
	926
	125
Umumiy antosian	76
	18-29

O'zbekistonning serquyosh o'lka ekanligi, shuningdek tabiiy, sifatli va ekologik sof mahsulotlarga talabning ortib borayotganligi hisobga olinsa, ushbu quritgich va umuman olganda mahsulot quritish fermer va shahsiy tomorqa xo'jaliklari uchun juda foydali hisoblanadi [3].

Quritish qurilmasi ikki qismdan iborat: birinchisi (8x2 m) 16m² maydonga ega issiqlik to'plovchi qism va ikkinchisi (10x2 m) 20 m² maydonga ega bo'lgan mahsulot qurituvchi qism. To'plangan issiqlik quyosh bateriyasi yordamida ishlovchi ventilyator vositasida harakatga keltiriladi. Issiq havo mahsulotni quritish bilan bir qatorda, quritish jarayonida mahsulotlardan ajralib chiqayotgan namlikni ham olib chiqib ketadi. Takidlash joizki, ushbu quritish qurilmasida havoning harorati tashqi muhitdagiga nisbatan ikki barobar ortishi mumkin, demak. Kuzgi kunlarda quritgich ichidagi harorat 45-55 °C ga yetishi mumkin. Olxo'ri mevasi tarkibidagi komponentlari sababli turli kasalliklarni oldini olish xususiyatiga ega ekanligi tufayli inson salomatligini taminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olxo'ri mevasi tarkibidagi fenol kislotasi, lyutein, kriptoksantin karatinoidlari, pektin moddalar, organik kislotalar, mineral tuzlar, A, B, C va K vitamin komplekslari, makro va mikro elementlarga boyligi bilan boshqa danakli mevalardan alohida ajralib turadi. Ayniqsa meva pishib borgan sari uning tarkibidagi mineral, aromatik, moddalar miqdori sezilarli darajada ortadi. Shu sababli ham ayrim xalqlar tabobatida olxo'ri mevasi yurak-qon tomir kasalliklari, o'pka saratoni, ovqat hazm qilish organlari kasalliklarini davolash va xotirani mustahkamlash uchun bemorlarga tabiiy dori vositasi sifatida ham tavsiya qilinadi. Olxo'ri mevasining navlari, yetishtirish sharoitlari va amalga oshirilgan agroteknik tadbirlarning samarasiga ko'ra ular tarkibidagi fenol moddalar va ayniqsa organik va noorganik kislotalar miqdori turlicha bo'ladi. Biologik yetuklik bosqichidagi olxo'ri mevasi tarkibidagi organik kislotalar va fenol birikmalarining miqdor va sifat ko'rsatkichlari olxo'ri mevasining eng qimmatli ozuqa elementlari hisoblanadi. Yangiligida katta hajmda istemol qilinishi bilan bir qatorda olxo'ri mevasini quritish, konservalash hamda turli xildagi salqin ichimliklar tayyorlashda ham keng foydalaniladi.

Quyosh nuri yordamida olxo'ri mevalarini quritish bir necha o'n yilliklarga borib taqaladi. Biroq dunyo bozorida istemolchilarning talablari ortib borishi mahsulot sifati, uning tashqi ko'rinishi, tarkibi, mazzasi kabi sifatlarini ham ortishi talab etmoqda. Shu nuqtai-nazardan olxo'ri mevalarini quritishga mos bo'lgan, uning barcha ozuqaviylik va sifat xususiyatlarini saqlab qolishga hizmat qiluvchi yangi usullarni aniqlash va ularni takomillashtirish bugun soha olimlari oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda ushbu quyosh-batareyali quritish qurilmasi quyidagi afzalliklarga ega; yig'ish, ko'chirish va boshqa joyga o'rnatish oson; havoning nisbiy namligi yuqori va past bo'lgan turli hududlarda foydalanish mumkin; quritish muddati boshqa usullardagiga nisbatan ancha qisqa; quritilgan mahsulot yuqori sifatli bilan ajralib turadi va ularning sanitariya-gigiena ko'rsatkichlari "Oftobi" usulda quritilgan mahsulotlarnikidan ancha yuqoridir; mahsulotlar hasharotlar, qushlar, ob-havo o'zgarishlari (yog'ingarchilik, shamol) va changdan ximoyalangan; harorat va havo oqimini ham avtomat tarzda, ham individual o'zgartirish mumkin; doimiy kuzatib turishga hojat yo'q; energiyani o'zi ishlab chiqarganligi sababli

qo‘shimcha energiya manbai talab etilmaydi; qurilmaning balandligi inson bel qismi sathida, shu bois unda ishlash ishchilar uchun qulay hisoblanadi; ishlab chiqarish harajatlari nisbatan past.

Adabiyotlar

1. Максименко М.Г., Марцинкевич Д.И. Особенности производства сухофруктов // Плодоводство – 2022. Т. 33.-С. 227-238.
2. Birwal P. et al. Plums: a brief introduction. // Journal of Food, Nutrition and Population Health. - 2017. – vol. 1. – iss. 1. – pp. 1-5.
3. Hedayatzadeh M., Chaji H. A review on plum drying. // Renewable and Sustainable Energy Reviews. 2026. – vol. 56. – pp. 362-367.
4. Odinayev M. et. al. Preparation of fruit products and animals of their chemical and organoleptic assessment // E3S Web of Conferences.- EDP Sciences, 2023. – vol. 389.- pp. 03035.
5. <https://yuz.uz/news/global-iqlim-ozgarishi>
6. <https://telegra.ph/KUNUZDA-YORITILGAN-MAQOLAGA-MUNOSABAT-02-18>

TAKRORIY EKin SIFATIDA TARIQNI MINERAL OZIQLANTIRISHNING TUPROQ UNUMDORLIGI VA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI

Xaitmurodov O‘rol Erkinovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Surxondaryo viloyatining taqir o‘tloqi bo‘z tuproqlari sharoitida, kuzgi boshhoqlidon ekinlaridan bo‘shagan erlarda, takroriy ekin sifatida etishtirishda tariqni mineral oziqlantirishning tuproq unumdorligi va hosildorligiga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tariq, nav, o‘g‘it, takroriy ekin, me‘yor, tuproq, unumdorlik, hosildorlik, azot, fosfor, kaliy.

Кирриш. Yer yuzida global iqlimning o‘zgarishi, aholi sonining doimiy ortib borishi va sanoatning rivojlanishi o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishiga olib kelmoqda. «Bugungi kunda dunyo bo‘yicha tariq 36,2 mln. gektar maydonga ekilib, o‘rtacha don hosili gektariga 9,1 sentnerni tashkil qiladi. Tariq eng ko‘p Afrikada va Osiyoda ekiladi.

Kuzgi bug‘doy ang‘iziga ekilgan tariqdan yuqori sifatli don hosili etishtirishda tabiiy iqlimning o‘zgarishini inobatga olgan holda er, suv, o‘g‘it va resurslarini tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda tariq asosiy va takroriy ekin sifatida bir yilda ikki marta don hosili etishtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, tariqning ekish me‘yorini kamligi, tezpisharligi, qisqa kun o‘simligi bo‘lishi, qurg‘oqchilikka, issiqlikka eng bardoshligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda global iqlimning isishi, tuproqlarni sho‘rlanishi, unumdorligini pasayib ketishi natijasida ekinlardan yuqori hosil etishtirish imkoniyati chegaralanib bormoqda. Bunday sharoitda kuzgi bug‘doy ang‘iziga ekilgan tariqdan yuqori hosil etishtirishda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish, dehqonchilik madaniyatini oshirish zarur hisoblanadi.

Hozirgi davrda sug'oriladigan erlar tuproq unumdorligining turli darajadagi pasayishi yuz bermoqda. Bu asosan tuproqdagi organik moddalar miqdorining yildan-yilga kamayib borishida ko'rinmoqda. Natijada ekinlar hosilining kamayishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda tuproq unumdorligini hisobga olib oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun kuzgi bug'doy ang'iziga ekilgan tariqdan ertaki yuqori va sifatli hosil etishtirishda turli ekish muddatlari va o'g'itlash me'yorlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tajriba o'tkazish uslubi. Tajribalar quyidagi uslub va uslubiy ko'rsatmalar asosida olib boriladi: tariq hosildorligi, don sifatini oshirishda mineral o'g'itlarning ta'siri o'rganiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlari O'zPITI ning «Metodika polevogo opyta» (1985), «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (2007), O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi; PSUEAITI; O'zbekiston qishloq xo'jalik ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining uslubiy qo'llanmalari asosida o'tkaziladi (1995-2000).

Dala tajribalari tajriba tizimi 60x15 sxemada chuqurligi 4-5 sm, 4 ta variant 4 takrorlikda o'tkaziladi. Tajribadagi har bir paykalning yuzasi 240 m² (uzunligi 50 m, eni 4,8 m), hisoblanadigan maydon 120 m² bo'lib, paykallar sistematik ravishda bir yarusli qilib joylashtiriladi.

Tajribadagi *fenologik kuzatishlar va biometrik o'lchashlar* har bir variant va takrorliklarda belgilab qo'yilgan model o'simliklarda o'tkaziladi.

Tajribada azotli o'g'it sifatida tarkibida 46% ta'sir etuvchi modda saqlovchi karbamid, fosforli o'g'it sifatida tarkibida 46% fosfor va 11% azot saqlovchi murakkab o'g'it – ammofos hamda kaliyli o'g'it sifatida esa tarkibida 60% ta'sir etuvchi modda saqlovchi kaliy xloridi ishlatildi. Mineral o'g'itlar yillik me'yori N₅₀₋₂₀₀ P₉₀ K₆₀ kg/ga bo'lib qo'llaniladi.

Fosforli o'g'itlarning 70% va kaliyning 50 % yerni tayyorlash davrida beriladi. Fosforning qolgan qismidan 30%, kaliyning 50 % ekish bilan birga aralashtirilib birgalikda beriladi.

Azotli o'g'itlar yillik me'yorining 25 % tuproqni ekishga tayyorlashda, 25% ekish bilan birga, qolgan 50% qismini teng ikkiga bo'lib rivojlanish fazalarida beriladi.

1-jadval

Dala tajribasi tuzilmasi

№	Ekish me'yori	Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yori		
		N	P	K
1	2,5 mln dona	50	90	60
2		100	90	60
3		150	90	60
4		200	90	60

Tajribada agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik tahlillarni bajarishda «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» (1963), «Практикум по агрохимии» (1985), «Практикум по агрономической химии» (1968), «Агрохимические исследования почвы» (1965), «Методы агрохимических исследований» (1980) nomli uslubiy qo'llanmalardan foydalaniladi.

Хулоса. Takroriy ekilgan tariqni mineral oziqlantirish me'yorlarini o'sishi, rivojlanishi, xosildorligiga hamda tuproq unumdorligiga ta'sirini ilk marotaba Surxondaryo viloyati sharoitida o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Nurmatov va boshqalar. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Uslubiy qo'llanma. O'zPITI-T.2007. -B.146.
- [2] Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М: «Колос», 1985. - 317 с.
- [3] Xalilova L.N. Zarafshon vodiysi sug'oriladigan yerlarida kuzgi bug'doy va takroriy ekinlar yetishtirishni ilmiy asoslash. Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.Toshkent. 2019.-45 b.
- [4] Ostonaqulov T.E, Xalilov, N.X. va boshq. Takroriy ekinlar farovonlik manbai. Samarqand: 2017.- 115 b.
- [5] Oripov R., Bo'riev A – Tuproq unumdorligi va sideratsiya.// O'zbekiston tuproqlari va yer resurslari: ulardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Toshkent. 2008 yil. B. 123-125.

ДОЛГОВЕЧНОСТИ ФЛОКИРОВАННОЙ ПРЯЖИ ПРИ ИНСОЛЯЦИИ

Халмерзаев Кабул Икрамович

к.т.н., доц. Андижанский машиностроительный институт

Халмирзаев Шавкатбек Курбанович

ассистент, Андижанский машиностроительный институт

Усманова Феруза Бахадировна

ассистент, Андижанский машиностроительный институт

Аннотация: Предварительных экспериментов по выбору колористического решения и технологии крашения волокна для производства флокированной пряжи, возникают дополнительные материальные затраты по наработке небольших лабораторных партий флора и пряжи. Затраты на эти эксперименты встало задача по оценки светостойкости флокированной пряжи путем оценки светостойкости окрашенного образца волокон в качестве жгута предназначенного для изготовления флора, корреляция.

Ключевые слова: флок, пряжа, жгут, инсоляция, краситель, излучатель, ртуть, ультрафиолетовая, кислотный, волна, светостойкость.

Практически все текстильные материалы при эксплуатации испытывают на себе воздействие света, особенно обивочные и портьерные материалы. Наряду с другими физико-механическими свойствами, стойкость к выцветанию под воздействием инсоляции сказывается значительное влияние на срок службы материала.

Основными факторами, определяющими цветостойкость окраски текстильных материалов являются:

1. Спектральная характеристика облучения:

- а) интенсивность облучения,
- б) спектральный состав.

2. Спектральная характеристика окрашенного материала:

- а) интенсивность поглощения,
- б) спектральный состав.

3. Свойства красителя:

- а) состояние красителя в субстрате,
- б) реакционная способность красителя в условиях облучения.

4. Свойства полимерного субстрата:

- а) химическая природа,
- б) физическая структура.

5. Природа связи краситель-полимер.

6. Характеристика окружающей среды:

- а) влажность,
- б) температура,
- в) химический состав.

В отличие от текстильных материалов, изготовленных по традиционным технологиям, флокированная пряжа является сложным композиционным материалом. Она изготавливается методом нанесения короткого, обычно полиамидного, ворса в сильном электрическом поле на покрытую связующим стержневую нить.

С целью придания полиамидному ворсу необходимых электрофизических свойств он обрабатывается специальным активирующим составом. Поэтому к вышеперечисленным факторам, влияющим на светостойкость, следует добавить:

1. Физико-химические свойства связующего.
2. Физико-химические свойства активирующего состава.
3. Природу связи стержневая нить-связующее-ворсинки.
4. Природу связи активирующий состав-краситель-полимер.

Существует целый ряд методов и приборов для проведения испытания и оценки выцветания текстильных материалов под действием инсоляции, в том числе естественной. При искусственном облучении образцов чаще всего применяют источники излучения, воспроизводящие не весь солнечный спектр, а преимущественно ультрафиолетовую составляющую, обычно в интервале длин волн 300-500 нм, так как быстрая деструкция полимеров и красителей происходит в основном под действием ультрафиолетовой области спектра. Для этого применяют лампы с угольной дугой, ртутно-кварцевые, ртутные, ксеноновые и люминесцентные.

Так, например, цветостойкость обычного материала для сидений автомобилей определяется сравнением испытываемых образцов с эталонными. Процесс испытания заключается в облучении любого обивочного материала, в том числе и флокированного, светом лампы, находящейся на расстоянии 25 см от поверхности покрытия, в течение 24 часов. При этом не должно быть изменения цвета.

Флокированная пряжа состоящий из определенной линейной плотности стержневой нити, ворса (различных длиной) и клея (нужной вязкости). Флок пряжи из за своего эффективного внешнего вида и отличных эксплуатационных характеристик все более широко применяется в разных странах Европы, особенно в Германии, Англии и Америки. Полотна изготовленные с применением флокированной пряжи, имеют красивый внешний вид, разнообразие которого обеспечивается различным переплетением пряжи ткани и широчайшей цветовой гаммой, обладают исключительно высокой износостойкостью, хороший воздухопроницаемостью. Все это обеспечивают широкое применение таких тканей для обивки мебели, салоны самолетов и особенно салонов автомобилей, которые в процессе эксплуатации подвергаются интенсивному воздействию прямых солнечных лучей и как все текстильные материалы, постепенно разрушаются под воздействием инсоляции. [1].

Исследование цветостойкости флокированной пряжи при инсоляции проводил по определенной методике, в качестве излучателя использован прибор ВИО-1 с ртутной лампой, дающей (УФ) ультрафиолетовую излучение с длиной волны 270 нм.

Анализируя полученные данные, можно сделать вывод, что вид красителя, а также цвет ворса в различной степени влияют на выцветание пряжи. Однако, можно выявить отдельные сочетания цвета и вида красителей, позволяющие получить наиболее стойкий к воздействию УФ - лучей.

Инсоляции подвергали образцы флокированной пряжи с ворсом различных цветов, окрашенным прямыми и кислотными красителями. Так например: окрашивать полиамидный ворс в алый цвет лучше кислотными красителями, а синий - прямыми.

Предварительных экспериментов по выбору колористического решения и технологии крашения волокна для производства флокированной пряжи, возникают дополнительные материальные затраты по наработке небольших лабораторных партий флора и пряжи. Для сокращения времени и затрат на эти эксперименты встала задача по оценки светостойкости флокированной пряжи путем оценки светостойкости окрашенного жгута волокон, предназначенного для изготовления флора.

Для проверки этой возможности было проведено сравнительные испытания светостойкости флокированной пряжи и аналогично окрашенных жгутов. Путем математико-статистического анализа [3] парных зависимостей, было получено корреляционная модель (табл.1).

Таким образом, для полученных данных о выцветании флокированной пряжи, мы можем подвергать инсоляции и затем оценивать светостойкость пряжи по соответствующей светостойкости жгута, что дает экономию средств и времени.

Корреляционная таблица

Таблица 1.


Оценка в баллах выцветаемости флокированной пряжи и жгута, балл	Коэффициенты оценки тесноты корреляции связи				Коэффициенты уравнения сопряженных прямых: $X(Y)=k_1y+k_2y (Y-Y_{cp})$ $Y(X)=k_1x+k_2x (X-X_{cp})$			
	R_{yx}	R^2_{yx}	N_{yx}	H^2_{yx}	K_{1x}	K_{2x}	K_{1y}	K_{2y}
Необработанный жгут (X), флокированная пряжа (прямой краситель) -Y.	0,952	0,907	0,268	0,278	0,50	1,11	0,00	0,8
Необработанный жгут (X) и флокированная пряжа (кислотный краситель) -Y	0,984	0,969	0,165	0,211	0,27	1,18	0,00	0,98

Результаты лабораторных испытаний будут являться достоверными и полезными для прогнозирования срока службы изделия в реальных условиях эксплуатации только в случае, если зависимость степени выцветания от времени при естественном и искусственном способах получения будут адекватными.

По этому нами были проведены в г.Андижане испытания образцов флокированной пряжи (серого цвета). Параллельно на приборе ВИО-1 были экспонированы образцы

такой же пряжи [2]. Были опрошены 10 респондентов по описанной данных экспериментов нами было получено адекватная корреляционная модель ($K=0,99$).

Кв, балл



Кв, балл




Рис. А. Кинетика выцветания флокированной пряжи

$$X = 0,2355 + 5,0192 * Y;$$

$$Y = -21,3149 + 4,2467 * X;$$

где: X - время проведения лабораторных испытаний, час;

Y - время проведения натуральных испытаний, дней;

Таким образом, пользуясь полученной моделью (рис.Б) с высокой степенью вероятности ($P=0,95$) с учетом доверительных интервалов, можно прогнозировать исходя из лабораторных данных, срок эксплуатации изделий и флокированной пряжи (до потери потребительского качества).

Так, для серой пряжи, был определен порог потребительского качества после 36 часов лабораторного фото экспонирования, что согласно модели (рис.1 б), соответствует сроку службы в условиях интенсивной инсоляции (11 часов в день) в течение одного летного сезона (160 дней). Соответственно, в условиях средней полосы (с низкой интенсивностью инсоляции) срок службы данного изделия значительно продлевается.




Рис. Б Модель долговечности флокированной пряжи

В результате проведенных исследований был разработан упрощенный метод цветостойкости флокированной пряжи, а так же создано корреляционная модель, позволяющая прогнозировать срок службы материала.

Литературы

1. Халмерзаев К.И. Оптимизация технологических параметров процесса производства флокированной пряжи и разработка требований к промышленному оборудованию: дисс. канд. техн. наук -Л., 1996, -240 с.
2. Белинкова Л.И. «Применение световедения в текстильной промышленности». сборник статей под редакцией. М., «Легкая индустрия». 1970 г.
3. Варковецкий М.М. «Количественное измерение качества продукции в текстильной промышленности». М., 1976 г.
4. Севостянов А.Г. «Методы и средства исследования механика, технологических процессов текстильной промышленности». М., «Легкая индустрия», 1980 г.

THE ROLE OF JAPANESE QUINCE (CHAENOMELES JAPONICA) IN URBAN GREENING

Maxkamav Javoxir Jumanazar o'g'li

Termez state University of Engineering and Agriculture, student

Shaymanov Sherzod Kamol o'g'li

Termez state University of Engineering and Agriculture, assistant

Abstract. This article explores the ecological, ornamental, and utilitarian significance of the Japanese quince (*Chaenomeles japonica*), a species of the Rosaceae family. The plant's ecological adaptability, flowering and fruiting characteristics, as well as its application in landscape architecture and urban environments, are analyzed. The study highlights the species potential for use in greening projects, its role in supporting biodiversity, and its aesthetic functions.

Keywords: Japanese quince, *Chaenomeles japonica*, urban greening, landscape design, ornamental plant, ecological adaptation.

Introduction

Chaenomeles japonica, belonging to the Rosaceae family, is native to Japan, China, and Korea. This shrubby plant is widely used as an ornamental species in many parts of Asia and Europe. In Uzbekistan, its quick adaptation to the local climate, early and vivid blooming in spring, and compact growth make it a valuable species for urban greening.

The Japanese quince is appreciated not only for its aesthetic appeal but also for its ecological benefits. It supports pollinators, helps reduce soil erosion, contributes to biodiversity, and requires minimal maintenance. This article presents a comprehensive study of the species role in urban greening.

Materials and Methods

The following parameters were assessed in Japanese quince specimens growing in various urban greening projects:

Ornamental traits (flowering duration, color, shape);

Growth rate and shrub size;

Resistance to biotic and abiotic factors (drought, cold, pollution);

Ecological contributions (pollinator attraction, soil stabilization);

Aesthetic and landscape functionality.

Morphological observation, phenological monitoring, and landscape evaluation methods were used in urban environments.



Results and Discussion

Morphological and Phenological Characteristics

Chaenomeles japonica is a low-growing shrub, typically reaching 0.5–1.5 meters in height. It has dense, sometimes thorny branches with small, ovate, smooth leaves. Flowers bloom in early spring (March–April) and persist for 2–3 weeks. They are brightly colored in shades of red, orange, or pink and are highly ornamental.

During the summer, the plant produces fruit. The fruit is apple- or pear-shaped, with a distinctive fragrance and sour taste. It can be used in dietary and medicinal

products.

Ecological Adaptability

In the study regions, Japanese quince was found to withstand cold temperatures down to -25°C and survive summer droughts. It thrives in light loam or loamy soils with neutral to slightly acidic pH.

It actively attracts pollinators like bees, enhancing its ecological value. Its resistance to dust and gas pollution in urban environments also contributes to ecological stability.

Role in Urban Greening

Japanese quince is widely used for decorating city parks, boulevards, roadsides, courtyards, and school surroundings. Its compact and upright growth makes it ideal for borders, hedges, and background planting.

In spring, its vivid flowering becomes a visual focal point, while in summer its dark green foliage provides a stable background. In autumn, its fruit and changing leaf colors add seasonal dynamics to landscapes. It is also suitable for bonsai cultivation.

Synergy of Aesthetic and Ecological Benefits

Chaenomeles japonica offers high ornamental value alongside ecological benefits: it stabilizes soil, attracts pollinators, produces oxygen, and reduces noise pollution. Therefore, it is regarded as a sustainable solution for modern urban landscapes.

Conclusion

Japanese quince (*Chaenomeles japonica*) is notable for its high decorative appeal, ecological stability, and low maintenance requirements. In Uzbekistan, it can serve as a key element of urban greening. Its multifunctionality in landscape design, support for biodiversity, and ecological benefits make it an essential component of sustainable urban infrastructure. Future studies should explore its breeding, propagation technologies, and medicinal properties.

List of used literature

1. Славкина. Г.И, Подольская. О.И. Декоративное садоводство. Озеленение населенных мест– Ташкент, Издво.» Мехнат», 1981. – с.178.
2. Manzarali daraxt-buta o'simliklar [Matn] : ilmiy nashr / «Agrobank» ATB.-Toshkent: "TASVIR" nashriyot uyi, 2021. - 136 b.
3. Qayimov A.Q., Berdiev E.T. Dendrologiya (Darslik). – Toshkent, “Cho'lpon” ijodiy-matbaa uyi, 2012. – -b.330.
4. Shaymanov Sh. va b. “Qora mevali aroniya (*aronia melonacarpa*) ko'chatlarini yetishtirish” O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. The role of agriculture and medicine in science 183-187 bet 2025 y.
5. Karimov B, Musa To'rabek, Shaymanov.Sh “Shumtol urug'ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasi” //Agroinnovatsiya// ilmiy jurnali 580-585 bet. 2024
6. Shaymanov.Sh, Turayeva.G “Hind nastarinini urug'idan ko'paytirish” // Agroinnovatsiya // 678-682 b. 2024 y.
7. Shaymanov.Sh va boshqalar “Bioecological properties of soap tree (*Koelreuteria paniculata*) and technology of intensive seedling cultivation” International Engineering Journal For Research & Development 2021 y.

“G‘O‘ZANI TOMCHILATIB SUG‘ORISHDA MAQBUL SUG‘ORISH TARTIBLARI VA MINERAL O‘G‘ITLAR ME‘YORLARINING AHAMIYATI VA TADQIQOTLAR TAHLILI”

Artikov Abdirashid Zairovich

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti dotsenti,
qishloq xo‘jalik fanlari doktori;*

Johonov Salohiddin G‘anisher o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti;

Xaitov Islom Nurboy o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda azotli o‘g‘itlarni turli davrlarda bo‘lib qo‘llashning ahamiyati hamda ushbu tajribalarga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan natijalar va ko‘rsatkichlar tahlili to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tomchilatib sug‘orish, tuproqlar, ingichka tolali g‘o‘zaning “SP - 1607” navi, mineral o‘g‘itlar, azotli o‘g‘itlar, cheklangan dala nam sig‘imi, hosildorlik.

Bugungi kunda dunyoda suv resurslari zahirasi cheklangan bo‘lib, undan oqilona foydalanishni taqozo etmoqda. Yer usti suvlari manbalari zaxirasidan samarali foydalanish maqsadida ko‘pgina mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun yer osti suvlarini ishlatish darajasi kengayib bormoqda. Hindistonda umumiy sug‘oriladigan ekin maydonlarining 66 foizi yer osti suvlari ulushiga to‘g‘ri keladi.

Yurtimizda paxtachilik sohasi eng yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun g‘o‘za o‘zining hosildorligi bo‘yicha potensiali eng yuqori bo‘lgan o‘simliklardan biridir. Bu sohada katta yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Shunga qaramasdan kamchiliklar ham yetarlicha. Buning sabablari ko‘p bo‘lib, ular tahlil qilinishi lozim. Keyingi yillarda mamlakatimizda suv tanqisligi muammosi vujudga kelib, ekinlar hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda har bir qatra suvni e’zozlab, asrab-avaylab ishlatish lozim.

Hozirda olimlar tomonidan yuqori samarali suv tejovchi texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Yer va sug‘orish suvlaridan foydalanuvchilarning vazifasi shu texnologiyalarni o‘z maydonlarida joriy etib, yer va suvdan unumli foydalanishdan iborat. Paxta hosilini keskin ko‘paytirish uchun birinchi navbatda tuproq unumdorligi va sug‘orish suvlari samaradorligini oshiruvchi yangi agrotexnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi zarur. G‘o‘za parvarishidagi barcha agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi lozim.

G‘o‘za uchun ishlatilayotgan suv va mineral o‘g‘itlar sarfini kamaytirishda tomchilatib sug‘orishning ahamiyati juda yuqori. Paxta maqbul o‘g‘it me’yori asosida tomchilatib sug‘orilganda mineral o‘g‘itlar 25-30 foizga tejalishi va hosildorlik esa sezilarli darajada oshishi tajribalarda isbotlangan.

G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda maqbul sug‘orish tartiblari va mineral o‘g‘itlar me’yorlarini o‘rganish bo‘yicha respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

F.Xasanova, B.Niyazaliyev, B.Kamilov ma’lumotlarida g‘o‘zani shonalash vaqtida sug‘orish o‘rta va og‘ir tuproqlar 700-800 m³, yengil tuproqlarda 600-700 m³ bo‘lishini va egatlarning uzunligi 90 sm qator oralig‘ida 80-100 metrdan oshmasligi kerakligini, gulga

kirguncha yengil tuproqlarda 10-12, o'rta va og'ir tuproqlarda 12-14 soatdan oshmasligini ma'qullashgan [1; 5-7 - b.].

Sh.Normurodov ma'lumotlarida, Kattaqo'rg'on tumanida 2022-yilda 1 ming 550 ming gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish joriy etilib, ayni paytda hududimizdagi 12 ta fermer xo'jaligida 15-20 gektar ekin maydonlari tomchilatib sug'orish tizimiga o'tib, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish barobarida hosilni mo'l va daromadi yuqori bo'lishiga xizmat qilyapti [2; 30 - b.].

Farg'ona viloyatining qadimdan sug'oriladigan 55 gektar g'o'za maydonida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilinganligi qayd etilgan [3; 31 - b.].

F.Teshayev, B.Komilov va b. sizot suvlari yaqin joylashgan tuproqlarda, g'o'zani sug'orishda hisobiy namlanish qatlami 50-70-50 sm olinganda 70-100-70 sm. ga nisbatan 32 % suv tejalib, hosildorlik 0,9 s/ga (2,3%) ortgan. Sug'orish ishlarini tuproqning mexanik tarkibi va gidromodul hududlarni hisobga olib, sug'orish muddati, me'yori va sonini belgilash, ya'ni sizot suvlari sathi chuqur joylashgan yerlarda g'o'zaning gullash va hosil tugush davrida sug'orish me'yori yengil tarkibli tuproqlarda gektariga 800-900 m³, o'rta va og'ir tuproqlarda 900-100 m³, sizot suvlar sathi 2-3 m. dan 0,5-2,0 m. gacha bo'lgan tuproqlarda 16-18, yalpi gullash va hosil tugish davrida esa mos ravishda 16-18 va 18-20 soatdan oshmasligi tavsiya qilingan.

Turkiyada o'tkazilgan tadqiqotlarda, ikki xil g'o'za navining chigitlari unib chiqish quvvati va unuvchanligiga harorat o'zgarishining ta'siri tadqiq qilinish, bunda 10 °C dan 40 °C gacha bo'lgan harorat plastinkalari o'rnatilgan holda tadqiqotlar o'tkazilgan. Harorat har 5 sm uzunlik uchun 2 °C ga o'zgarishi, natijada o'n olti xil haroratli ishlov berish amalga oshirilgan. Nihol olish uchun maqbul harorat hududi 28 °C dan 30 °C gacha bo'lib, harorat maqbul ko'rsatkichdan tushganda unuvchanligi pasaygan. Harorat maqbul holatidan yuqori bo'lganda esa, ya'ni 32 °C dan 34 °C gacha bo'lganda chigitning o'sishi pasaygan.

X.Allanov va b. ta'kidlashicha, Surxondaryo viloyatining o'tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlari sharoitida "ST-1651" g'o'za navidan yuqori hosil olishda sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% da sug'orishlar o'tkazilib, mineral o'g'itlar me'yori N-250, R-175, K-125 kg/ga qo'llanilganda, ko'chat qalinligi 130-140 ming tup/ga qoldirilganda 39,1 s/ga hosil olishga erishilgan [4; 11-12 - b.].

A.Butayarovning ta'kidlashicha, Surxondaryo viloyatida tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilingan maydonlar Angor va Sherobod tumanlarida 2017-2018 yillarda 243 gektar bo'lgan bo'lsa, 2019 yilda bu 290 gektarga oshgan [5; 73-74 - b.].

S.Ahmedov, O.Vafonov, Q.Xakimovlarning tadqiqotlari turli diametrli tomizgichlarni almashtirish bo'yicha bo'lib, ishlatiladigan quvurlarning diametri 16 millimetr, quvurning qalinligi 1 millimetрни tashkil qilishi lozimligini ta'kidlashgan [6; 74-77 - b.].

Sh.Berdiyev, D.Mamatovlarning ma'lumotlariga ko'ra, tomchilatib sug'orish texnologiyasida suv sarfi vaqtga qarab tartibga solinadi. Bunda 100 m uzunlikda 12 soat davomida suv berilsa, har gektarga norma bo'yicha 300 m³ ni tashkil etib, bu esa yosh o'simliklar ildizlarini namlantirish uchun bema'lol yetarli ekanligini bildirgan [7; 47-48 - b.].

M.Avliyakov va b. tadqiqotlarida, Toshkent viloyatining eskidan sug'oriladigan irrigatsiya eroziyasiga uchragan tipik bo'z tuproqlari sharoitida olib borgan tajribalariga ko'ra, g'o'zada eng yuqori bir dona ko'sakdagi paxta vazniga erishish uchun sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% da sug'orilib, oziqlantirish me'yori NRK 225:157,5:112,5 kg/ga sof holda qo'llash maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan [8; 1-300 - b.].

O.Boynazarov va b. tajribasida, Surxondaryo viloyatining och tusli boʻz tuproqlari sharoitida Porloq-1 gʻoʻza navining maqbul oʻsib rivojlanishi uchun sugʻorish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-65% da sugʻorib, mineral oʻgʻitlarning yillik meʼyorini N-200, P140, K-100 kg/ga qoʻllash maqbul ekanligi kuzatilgan [9; 355-358-b.].

B.Beknazarov, Z.L.Xaidmuxamedovalar maʼlumotiga qaraganda, Nishon tumanida uch yil mobaynida tomchilatib sugʻorish texnologiyasi qoʻllanib kelinmoqda, natijada traktorda ishlov berish, 6-7 marta, yoqilgʻi 35-40% asosiy 55,5% suvni tejalishiga erishilgan [10; 52-53-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Хасанова Ф., Ниязалиев Б., Камиллов Б. Июнь ойида ғўза парваришида нималарга аҳамият бериш зарур. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали -Тошкент, 2023. Махсус сон. №6, 5-7-b.

2. Normurodov Sh. Tejamkorlik va hosildorlik omili. // Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi jurnali. Toshkent, 2019. №12. 30-b .

3. Sodiqov Sh. “Suvni iqtisod qilish – kelajakni oʻylash demak”. // Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi jurnali. -Toshkent, 2019. №12. 31-b.

4. Allanov X., Shamsiyev A., Avliyayoqulov M., Durdiev N. Ingichka tolali gʻoʻza navlari agroteknikasi. //Agro ilm Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi jurnali ilmiy ilovasi. -Toshkent, 2020. №2 (65) 11-12-b.

5. Butayarov A. Surxondaryo viloyati suv resurslardan foydalanish tejamkor sugʻorish usulining oʻrni. // Agro ilm Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi jurnali ilmiy ilovasi. Toshkent, Maxsus son № (3) 2022. 73-74-b.

6. Ahmedov S., Vafoyev O., Hakimov Q. Tomchilatib sugʻorish ustida olib borilgan tadqiqot natijalari. // Agro ilm Oʻzbekiston qishloq suv xoʻjaligi jurnali ilmiy ilovasi. –Toshkent, 2022. №5. 74-77-b.

7. Berdiev Sh., Mamatov D. Sugʻorish maydonlarining qisman choʻkish sodir boʻladigan yerlarida suv tejovchi sugʻorish texnologiyalarini qoʻllash. //Oʻzbekiston qishloq va suv xoʻjaligi jurnali.- Toshkent, 2023 Maxsus son. №(1). 47-48-b.

8. Avliyakulov M., Durdiev N. Urugʻlik uchun yetishtiriladigan gʻoʻza navlarini parvarishlash agroteknologiyasi. Monografiya. -Toshkent, 2019. 1-300. -b.

9. Boynazarov O., Xoltoʻraev Sh., Ulugʻov Ch. Turli oziqa va suv meʼyorlarining Porloq-1 gʻoʻza navining oʻsishi-rivojlanishiga taʼsiri. //“Qishloq xoʻjaligi ekinlarini yetishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari toʻplami. –Toshkent, 2020. 10-11 yanvar. 355-358-b.

10. Beknazarov B., Xaimdmuxamedova Z. Gʻoʻzaning oʻsib-rivojlanishiga tomchilatib sugʻorish texnologiyasining taʼsiri. Oʻzbekiston tuproqlarining unumdorlik holati, muhofazasi va ulardan samarali foydalanish masalalari” Ilmiy-amaliy konferensiyasi. ToshDAU. Toshkent, 2013. 52-53-b.

**6-SHO‘BA. UMUMTEXNIKA FANLARI HAMDA QURILISH VA IRRIGATSIYA
SOHA VAKILLARINI MALAKALI KADRLAR QILIB YETISHTIRISH BUGUNGI
KUNNING DOLZARB MASALASI**

**MAHALLIY DAG‘AL JUNNI KIMYOVIY MODDALAR YORDAMIDA
TOZALASH**

Urozov Mustafokul Kulturaevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, t.f.n., DSc

Rustamova Kamola To‘ychi qizi


Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatatsiya: Jun tolalarini iflosligini kimyoviy usullardan tozalash va quritish jarayonlari o‘rganilgan. Jun tarkibi, jun tarkibidagi mayda va yirik iflosliklar tozalanish foizlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jun, jun iflosliklari, kislota, eritma, modda.

Jun - to‘qimachilik va yengil sanoatda keng qo‘llaniladigan tolalardan biri hisoblanadi. O‘zining tuzilishi va kimyoviy tarkibi bo‘yicha jun tolasi boshqa barcha turdagi tolalardan sezilarli darajada farq qiladi. Jun xom ashyosi sifatida qo‘y juni, shuningdek, tuya, echki, quyon juni ishlatiladi. To‘liq tozalashdan so‘ng, jun tarkibida quyidagi elementlar (% larda): uglerod-50, vodorod 6-7, azot 15 - 21, kislorod 21 - 24, oltingugurt - 2 - 5 va boshqa elementlar mavjud. Jun tolalarida turli xil aminokislotalarning mavjudligi ularning kimyoviy xossalarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Jun tolasining xususiyatlariga katta ta‘sir ko‘rsatadigan deyarli barcha oltingugurt o‘z ichiga olgan sistin miqdori katta ahamiyatga ega. Jun tarkibidagi oltingugurt qancha ko‘p bo‘lsa, uning texnologik xossalari shunchalik yaxshi bo‘ladi, kimyoviy va boshqa ta‘sirlarga chidamliligi, fizik-mexanik xossalari yuqori bo‘ladi. Jun tolasi qatlamlari, o‘z navbatida, oltingugurt tarkibida ham bir-biridan farq qiladi: yadro qatlamidan ko‘ra korteks qatlamida ko‘proq bo‘ladi. Nozik merinos junining tolasi ikki qatlamdan iborat: tashqi qobiq yoki kesikula va ichki qobiqdan tashkil topgan. 1-rasmda jun tolalarining mikroskopda ko‘rinishi keltirilgan.



1-rasm. Jun tolalarining ko‘rinishi.

Ingliz tadqiqotchisi J.D.Liderning fikriga ko'ra, jun tolasini hujayra-membranalik kompleks tomonidan bir-biriga bog'lab turadigan, shu tariqa tolaning keratin moddasida yagona uzluksiz fazani tashkil etadigan qobiqli va kortikal hujayralar to'plami deb hisoblash mumkin. Aynan shu hujayralararo tsement kimyoviy va mikrobiologik degradatsiyaga osonlikcha duchor bo'lishi mumkin. Junning asosiy kimyoviy komponenti - keratin oqsili mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun ozuqa vositasi bo'lishi mumkin. Protein moddalari mikroorganizmlarning hujayralariga to'g'ridan-to'g'ri kira olmaydi, shuning uchun faqat proteolitik fermentlarga ega bo'lgan mikroblar - hujayralar tomonidan atrof-muhitga chiqariladigan ekzoproteazlar oqsillardan foydalanishi mumkin.

Jun tolasining junidan boshlab zararlanishi noqulay sharoitlarda saqlash, qayta ishlash va tashishda kuchayishi mumkin. Ma'lumki, Britaniya to'qimachilik sanoatida junning biodegradatsiyasidan (shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlar va qayta ishlash) yo'qotishlar yiliga 8-10 million funt sterlingga baholanadi.

Junning yo'q qilinishi bir necha bosqichda sodir bo'ladi: birinchi navbatda, mikroorganizmlar qobiqli qatlamini yo'q qiladi, so'ngra tolaning korteksiga kirib boradi, garchi korteksning o'zi buzilmagan bo'lsa-da, chunki ozuqa muhiti hujayralar orasida joylashgan hujayralararo moddaning qatlamlari.

Amerikalik olim E. Race tomonidan taklif qilingan mikroorganizmlar ta'sirida jun tolalarining gidrolizlanishi mexanizmi transformatsiyalar zanjirini ifodalaydi: oqsil - peptonlar - polipeptidlar - aminokislotalar - suv + ammiak + karboksilik kislotalar. 1960-yillarda yuvilmagan jun tolalari yuzasida yog' va ifloslikning darajasi biologik parchalanishiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar nashr etildi. Aniqlanishicha, yuvilmagan iflos jun yuvilgan junga qaraganda ancha tez shikastlanadi. Yuvilmagan jundagi yog'li moddalarning mavjudligi qo'ziqorin mikroflorasining rivojlanishiga yordam beradi. Jun ustida rivojlanayotgan mikrobiologik jarayonlarning faolligi tolaning mexanik shikastlanishiga va junni dastlabki ishlov berishga bog'liq. Kislota bo'yloqlari bilan bo'yalgan junlarda o'rtacha mikroba faolligi kuzatiladi. {1}

Mahalliy dag'al junni kimyoviy moddalar yordamida tozalash - bu jun tolalaridan iflosliklar, yog', o'simlik qoldiqlari va boshqa aralashmalarni olib tashlash jarayoni tushiniladi. Dag'al jun odatda qalin va qo'pol 'ladi, shuning uchun junni tozalash uchun kuchliroq kimyoviy moddalar va usullar talab etiladi.

Kimyoviy tozalashning asosiy 5 ta bosqichlari quydagilar:

1. Dastlabki ishlov berish jarayoni. Bu usul ham 2 turga bo'linadi. Saralash hamda changni tozalash. Saralash jarayonida- junning sifati, rangi va tolasining uzunligiga qarab saralash ishlari olib boriladi. Saralangan jun tolalari changdan tozalanadi. Jun qo'lda yoki maxsus mashinalar yordamida changdan tozalanadi.

2. Yuvish jarayoni:

Bu jarayonda jun sovunli eritma va soda eritmalar bilan yuviladi. Sovunli eritmada junni iliq suv va sovun eritmasi yordamida yuviladi. Shu sababli sovun yog' va kirni eritib, suv bilan olib ketishga yordam beradi. Soda eritmasi yordamida yuvish jarayonida soda (natriy karbonat) eritmasida ham jundagi yog' miqdori tozalandi, lekin uni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak, chunki u jun tolalariga zarar yetkazishi mumkin.

3. Kimyoviy ishlov berish jarayoni:

Ishqoriy ishlov berish: Natriy gidroksid (NaOH) yoki kaliy gidroksid (KOH) eritmalarida jun tolalaridagi keratinni parchalash va kirni olib tashlash uchun ishlatiladi. Bu usul juda ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi kerak, chunki ortiqcha ishqor jun tolalarini zaiflashtirishi mumkin. Kislotali ishlov berish-sulfat kislota (H_2SO_4) yoki xlorid kislota (HCl) eritmalarida

o'simlik qoldiqlari va boshqa organik aralashmalarni eritish uchun ishlatiladi. Bu usul ham ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi kerak, chunki kislota jun tolalariga zarar yetkazishi mumkin. Oqartirish jarayonida vodorod peroksid (H_2O_2) yoki natriy gipoxlorit ($NaClO$) eritmalari junni oqartirish va unga yaxshi ko'rinish berish uchun ishlatiladi. Oqartirish jarayonida tolalar zarar ko'rmasligi uchun ehtiyot bo'lish kerak.

4. Yuvish va neytrallash jaryoni:

Yaxshilab yuvishda junni kimyoviy moddalardan tozalash uchun toza suvda bir necha marta yuvish mumkin. Neytrallashda agar ishqoriy yoki kislotali ishlov berilgan bo'lsa, junni neytrallash uchun zaif kislota (masalan, sirka kislotasi) yoki ishqor eritmasida yuvish lozim.

5. Quritish jarayoni:

Quritish: Junni quyoshda yoki maxsus quritgichlarda quritish mumkin Quritish jarayonida junni haddan tashqari qizib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak sababi keyingi jarayonlarga zarar yetkazib qo'yilishi mumkin. Shuning uchun ehtiyot choralarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Himoya vositalari asosan kimyoviy moddalar bilan ishlashda qo'lqoplar, ko'zoynaklar va respirator kabi himoya vositalaridan foydalanish zarur. Bundan tashqari ish joyi yaxshi ventilyatsiya qilinishi muhim ahamiyatga ega. Kimyoviy moddalarning konsentratsiyasini to'g'ri sozlash va ortiqcha ishlatmaslik kerak. Yuvish va ishlov berish haroratini nazorat qilish kerak. Tajribalar, sinovlar o'tkazishdan avval tozalash jarayonini boshlashdan oldin kichik bir qismda sinov o'tkazish tavsiya etiladi. {2}

Ekologik jihatlariga to'xtalib o'tsak, kimyoviy moddalarni utilizatsiya qilish qoidalariga rioya qilish kerak. Ekologik toza alternativ tozalash usullaridan foydalanishga harakat qilish kerak. Mahalliy dag'al junni kimyoviy moddalar yordamida tozalash tajriba va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilib, barcha tadqiqotchilar junni samarali tozalashingiz va uning sifatini saqlab qolishingiz mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jun tolalarini ifloslik darajasini kamaytish usullaridan biri bo'lgan kimyo laboratoriyasidagi tajribalar foydali, samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.A.Jo'rayev "Mahalliy dag'al jun tarkibidagi mayda va yirik iflosliklarni tozalash texnologiyasini takomillashtirish".Dissertatsiya. Toshkent-2023.4-b.
 2. M.Urozov, K.Rustamova "Yengil sanoat chiqindilarini atrof-muhitga zararli ta'siri".Maqola. FarPI ilmiy-texnika jurnali// Maxsus son №5/2024 y. 47-48-b.
 3. M.Elmonov. Junni o'simlik aralashmalaridan tozalash mashinasining samarali konstruksiyasini ishlab chiqish va ishchi parametrlarini asoslash: Dis....t.f.f.d.-Toshkent, TTESI, 2018. -25-26 b.
 - 4.M.Urozov, K.Rustamova "Jun tolali chiqindilarni qayta ishlash orqali tiklangan tola olish texnologiyasini ishlab chiqish".Maqola. NMQI Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali// ISSN 2181-3779 2024 y. 117-122-b.
- Internet saytlar
1. <http://lib4all.ru/base/B3161/B3161Part24-138.php>

SUV RESURLARINI TOMCHILATIB SUG'ORISH USULIDAN FOYDALANISH TARIXI

Butayarov Abduqodir To'xtayevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti t.f.f.d, dotsent

Shaymanov Sharofiddin Quvondiq o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti stajyor-tadqiqotchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi sababli dunyoning xar bir joyida suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'orish suviga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan mavjud cheklangan suv resurslari tanqisligiga uchrab borilmoqdi, mavjud cheklangan suv resurslari va manbalarini tejab, extiyotkorona foydalanish bugungi kunning dolzarb muommoli vazifasidan biri xisoblanmoqda. Respublikamizda va viloyatda mavjud cheklangan suv resurslarini oqilona boshqarish va ulardan samarali foydalanishga oid ma'lumotlar tahlili, dala sharoitida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, zamonaviy suv tejamkor sug'orish texnologiyalarni keng qo'llash va ularni ishlab chiqarishga tadbiq qilish imkoniyatlari, muommolarni yechish bo'yicha taxlillar, ortiqcha suv yo'qotilishiga barxam berish viloyatda bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Kalit so'zlar: Suv resurslaridan foydalanish, global iqlim, sug'orish turi, resurs tejamkor, innovatsion texnologiya.

Аннотация: Сегодня в связи с глобальным изменением климата, рациональным использованием водных ресурсов повсеместно растет потребность в оросительной воде. В связи с этим возникает дефицит имеющихся ограниченных водных ресурсов, а сохранение и рациональное использование имеющихся ограниченных водных ресурсов и ресурсов является одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. Анализ данных по рациональному управлению и эффективному использованию ограниченных водных ресурсов в стране и в регионе, повышению эффективности использования полевых вод, широкому использованию современных водосберегающих технологий орошения и применению их в производстве, решение проблем, устранение избыточных потерь воды – главная задача на сегодняшний день в регионе.

Ключевые слова: Использование водных ресурсов, глобальный климат, тип орошения, ресурсосберегающие, инновационные технологии.

Annotation: Today, due to global climate change, the efficient use of water resources everywhere, the demand for irrigation water is growing. In this regard, there is a shortage of available limited water resources, and the conservation and careful use of available limited water resources and resources is one of the most pressing issues today. Analysis of data on the rational management and efficient use of limited water resources in the country and in the region, increasing the efficiency of field water use, the widespread use of modern water-saving irrigation technologies and their application in production, problem solving, elimination of excess water loss is the main task of today in the region.

Keywords: Use of water resources, global climate, type of irrigation, resource-saving, innovative technology.

Kirish: Bugungi kunda zamonaviy dexqonchilikni texnik ekinlardan paxtachilik va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish ko'rsatgichlarini hozirda mavjud yer, suv

resurslaridan foydalanishda inson omili ta'siri doirasida boshqa qo'l mehnati resurslaridan kam foydalanish, moddiy-texnikaviy resurslardan tejimli foydalanish samaradorligini oshiradi. Xolbuki, hozirda mamlakatimiz iqtisodiyotining rentabelli va barqaror rivojlanib o'sishiga davlat tomonidan ishlab chiqarish sub'ektlariga real imkoniyatlar yaratilmoqda.

Suvdan foydalanish rejasi (SFR)ni tahlil qilish va o'zgartirishlar kiritish. Ba'zi bir yillarda fermer xo'jaliklariga beriladigan haqiqiy suv hajmi rejalashtirilgan suv hajmidan quyidagi sabablarga ko'ra keskin farq qilishi mumkin:

- qishloq xo'jalik ekinlarining turi va maydoni rejalashtirilganidan 10% dan ortiq hajmda o'zgarganda;
- ob-havoning o'zgarishi natijasida sug'orish suviga talabning keskin o'zgarishida;
- sug'orish manbaining sug'orish qobiliyati pasayganda;
- sug'orish tizimida ro'y bergan avariya natijasida suv bilan ta'minlashning uzoq vaqt mobaynida kamayganda.

Bu holatlarda xo'jalik ichki SFR siga o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Agarda bunday o'zgarishlar rejalashtirilgan suv sarf qiymati bilan haqiqiy suv sarfi qiymatlari o'rtasidagi farq 10% dan oshmasa, xo'jalikga beriladigan suv sarfi qayta hisoblanmaydi. Farq 10% dan oshsa, unda yuqori tashkilotlar bilan kelishilgan holda, SFR ga o'zgartirishlar kiritiladi va qayta tasdiqlanadi.

Suv tanqis bo'lishi kutilayotgan yillarda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligining keskin kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan ekspluatatsion tadbirlar yordamida yechish rejalashtirilishi ko'zda tutiladi, ya'ni sug'orish me'yorlarini 300-400 m³/ga ga kamaytirish va suv tanqisligi boshlangunga qadar yuqori sug'orish me'yorlari bilan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orib tuproqda ko'proq nam to'plash ko'zda tutiladi. Sug'oriladigan yerlar viloyatning bebaho ne'mati. Viloyatning sug'oriladigan yerlari va suv resurslari nihoyatda cheklanganligi bilan boshqa o'lkalardan farq qiladi.

Viloyatda suv tejoychi texnologiyalarning qo'llanilishi egatlarga plyonka to'shab sug'orish 2000 yil 680 ga bo'lgan bo'lsa, 2015-yil 1423 ga yetkazildi, shu davrga nisbatan 2,1 barobarga oshirildi. Egiluvchan quvurlar orqali sug'orish 2000-yil 700 ga bo'lgan bo'lsa, 2015-yil 6637 ga yetkazildi, shu davrga nisbatan 9,4 barobarga oshirildi. Bu o'z navbatida viloyatda suv tejoychi texnologiyalarning keng joriy qilinayotganidan dalolat. Viloyatda ekinlarni sug'orishda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etilishi. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun turli xil suv tejamkor sug'orish texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, tuproq unumdorligini saqlash, mavjud yer va suv resurslaridan, innovatsion sug'orish texnika - texnologiyalarining tizimlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, ekinlarni parvarishlashning ilmiy asoslangan, takomillashgan, sug'orish texnika - texnologiyalarini joriy etish, yuqori va sifatli mahsulot yetishtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Surxondaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan, viloyatning shimoldan-janubgacha uzunligi 180-200 km, g'arbdan-sharqqgacha 70-140 km ni tashkil etadi. Surxon daryosi To'polong va Qoratog' daryolarining quyilishidan paydo bo'ladi. Unga o'ng tomondan Sangardak va Halqajar irmoqlari qo'shiladi.

Boshqa irmoqlar soylardan iborat bo'lib, ulardan fakat yog'ingarchilik sel va suv toshqinlari vaqtida suv Surxondaryoga kelib turadi. Ularning eng yiriklari Sangardaksoy, Oqqapchig'ay, Bandixon soylar. To'polong va Qoratog' daryolari qor va muzliklardan to'yinadigan daryolar turiga kiradi. Surxondaryo suvi asosan, shu ikki daryo suvidan iborat.

Fevral oyining oxirida suv sarfi sezilarli ravishda tog' bag'irlarida qorning erishi oqibatida ko'payadi. Sangardak daryosi qordan to'yinadigan daryolar, Halqajar daryosi qor, yomg'irdan to'yinadigan daryolar turiga kiradi va shu sababdan bu daryodan ko'plab sel va suv toshqinlari o'tib turadi. Yil mobaynida manbalardan olinadigan suv miqdori suv olish rejasiga to'g'ri kelmaydi. Mart-iyun oylariga yillik suv miqdori 71%, iyul - sentyabr 18%, oktyabr-fevral davrida 11% ga to'g'ri keladi. Viloyat hududi quyidagi tizimlardan suv ichadi: 1-Amudaryo, 2-Surxondaryo, 3-To'polong, 4-Sangardak, 5-Qoratog', 6-DYuB, 7-Xo'jaipok, 8-Kofirxon, 9-Dashnobod, 10-Sherobod, 11-Buloqlar.

Tupolong-Qoratog', Surxon-Sherobod, Amu-Zang irrigatsiya tizimlari tug'onli suv olish, Amudaryo esa mashinali suv olish imkoniyatiga ega. Jami bo'lib boshqarma balansida 101 ta nasos stantsiyalar mavjud bo'lib, ulardan yiriklari Amu-Zang - I, Amu-Zang - II, Bobotog', Jayxun, ShNS va Kattakum nasos stantsiyalari. Suvdan samarali va unumli foydalanish va taqsimlash maqsadida viloyat bo'yicha Uchqzil, Oqtepa, Janubiy-Surxon, To'polong suv omborlari va Jarqo'rg'on, To'polong, Sherobod gidrouzellari xizmat qilishi tashkillashtirilgan. Viloyatda 2017-2019 yillar bo'yicha g'o'za ekini uchun tumanlar kesimida tomchilatib sug'orish usulidan keng foydalanilmoqda, lekin bu ko'rsatgich tumanning sug'oriladigan umumiy yer maydonga nisbatan juda kichik ko'rsatgichda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda suv resurslaridan foydalanishda g'o'zani tomchilatib sug'orish usulini joriy qilinishi.

Xo'jalik kanallarining umumiy uzunligi 1532,3 km ni, shu jumladan beton qismi 720,0 km ni yoki 47% i tashkil etadi. Viloyatda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va zax suvlarini qochirish maqsadida viloyat bo'yicha xo'jaliklararo zovurlarning umumiy uzunligi 1116,2 km, xo'jalik ichki zovurlari 8966,3 km ni va yopiq-yotiq zovurlar 4279,8 km dan iborat. 2020 yilning 1 yanvar holatiga mavjud sug'oriladigan yer maydoni 326000 ga shundan 223600 ga maydon nasos stantsiyalar orqali sug'orilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butayarov A.T. «Amu – Surxon» ITXB hududidagi fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanishni takomillashtirish. // "AGROILM" jurnali maxsus son 4.(60). -Toshkent, 2019. –B. 79 - 81.
2. Butayarov A.T., Serikbayev B.S., Serikbayeva E.B., M.T. Muhamadiyeva, Sug'orma dexqonchilikda suvdan tejamli foydalanish texnologiyasi. "Sug'orma dexqonchilikda suv va yer resurslardan oqilona foydalanishning ekologik muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy anjumani I-jild. –Toshkent. 2017 yil, 24-25-noyabr. –B. 109-111.
3. Butayarov A.T., Serikbayev B.S. Amu-Surxon ITXB hududidagi fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanishni takomillashtirish. TerDU ilmiy xabarnomasi ilmiy - uslubiy jurnal. №1.(01) Sentyabr. –Termiz, 2019. -B. 16-19.
4. Butayarov A.T., Amu-Surxon irrigatsiya tizim havza boshqarmasida suvdan foydalanish holati Международная конференция инновационное развитие науки и образования. Ноябрь 2020 г. «Сборник научных трудов Павлодарь, Казахстан» Ноябрь, 2020 г. -Ст. 132-139.
5. Shaymanov.Sh.Q., Suv resurslaridan tejamli foydalanishga oid sug'orish texnologiyalari international scientific and practical conference "application of innovative technologies and effective use of genetic-selection achievements in increasing livestock productivity" february 18, 2025 470-472

УЮЧ ЛИ ЭНЕРГИЯНИНГ ОЗИК-ОВКАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА КУЛЛАНИЛИШИ

Холтураев Хонтура Кувватович

Термез давлат университети PhD, ассистенти.

Курбонова Мадина Жамшедовна

Тошкент давлат университети “Кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш технологияси” кафедраси PhD, в.б.доценти

Курбонов Жамшед Маджидович

Самарканд иқтисодиёт ва сервис институти “Сервис” кафедраси профессори

Аннотация. Ушбу ишда, дон, ун ва нон маҳсулотларининг микробиологик хавфсизлигини таъминлашда, УЮЧ ли энергиянинг кулланилишини билан, бугдой дони хашаротларини дезинсекцияси ва ун, ноннинг зарарли микрофлорасини дезинфекциялашда олинган натижалари келтирилган.

Калит сузлар: УЮЧ-ута юкори частота, микрофлора, дезинфекция, дезинсекция.

Аннотация. В работе представлены результаты, полученные при обеспечении микробиологической безопасности зерна, муки и хлебобулочных изделий, дезинсекции зерна пшеницы от вредных насекомых и обеззараживании муки и хлеба от вредной микрофлоры с использованием СВЧ энергии.

Ключевые слова: СВЧ – сверх высокая частота, микрофлора, дезинфекция, дезинсекция.

Abstract: The paper presents the results obtained in ensuring the microbiological safety of grain, flour and bakery products, disinsection of wheat grain from harmful insects and disinfection of flour and bread from harmful microflora using microwave energy.

Keywords: microwave – ultra-high frequency, microflora, disinfection, disinsection.

Кириш. Россия таджикотчиларининг олиб борган таджикотлар натижаси, шуни курсатдики, урим-йигимдан кейинги даврда омборхона хашаротлари ва қайта ишлаш корхоналарига келган дон экинларининг кузикорин микроорганизмлари билан ифлосланган ва бактериал тегирмон ва нон ишлаб чиқариш босқичларида пост-йигим даврида жуда захарли метаболитлари билан могор шаклланиши, уз-узини иситиш, нон картошка касалига ва маҳсулотлар ифлосланишига сабаб булиши натижасида, уртача , дон йўқотишлари 20 -30, ун-10 – 15 ва нон-25 -30% булиши мумкин экан [1,2.]. Шунинг учун, уларни УЮЧли энергияси ёрдамида улдирилиши ва умумий йўқотишларни камайтириш мақсадида олиб борилган таджикотлар долзарб ҳисобланади.

Асосий қисм. Маълум электрофизик қонуниятларига (формулаларига) таянган ҳолда, УЮЧ ЭММ энергиясининг микроорганизмларга физикавий –иссиқлик таъсирининг минимал биологик тўқиманинг ҳаёти учун сарф бўладиган энергияни аниқлаш, унда биообъектга нур тасирида буладиган, ҳажмий қувватини қуйидаги эмперик формуладан аниқлаймиз:

$$P_v^o = 0,278 \cdot 10^{-10} E^2 \cdot f \cdot \varepsilon^{11}$$

бунда: P_v^o бериладиган қувватнинг ҳажм зичлиги, Вт/м³, E электр майдон қучланишининг амплитуда миқдори, В/м; f майдон частотаси Гц, ε^{11} йўқотиш фактори. $\varepsilon^{11} = \varepsilon' \operatorname{tg} \delta$ тенг бўлса, бунда ε' нурланувчи объектнинг диэлектрик ўтказувчанлиги, $\operatorname{tg} \delta$ диэлектрик йўқотиш бурчаги.

Агар хужайранинг юзи тақрибан уртача 10^{-8} см² бўлса, унда УЮЧ ЭММ таъсиридан олган иссиқлик Q миқдори биологик муҳитда қуйидагича ҳисобланади:

$$Q = 8,38 \cdot 10^{-32} \delta_{об} \cdot f^2 \cdot \varepsilon^2 \cdot \tau$$

бунда: Q биообъектдан ажралган иссиқлик миқдори, $\delta_{об}$ биообъектнинг солиштирма ўтказувчанлиги См/м; f майдон частотаси, Гц; электр майдоннинг кучланиши В/м; τ вақт, с.


Бу иссиқлик объектнинг температурасини ўзгаришига кетади деб олсак, унда у қуйидагича ифодаланади:

$$Q = m \cdot c_{об} \cdot \Delta t$$

бунда: Q – Дж; m –объект массаси, кг; $c_{об}$ – солиштирма иссиқлик сифими Дж/кг⁰ С, Δt –⁰С

Бу икки қонуният ёрдамида t вақтда биообъектнинг Δt қизишига кетадиган P_{λ} , Вт/м³солиштирма нурланиш қуввати ва майдон кучланишини E , В/м; аниқлашимиз мумкин бўлади. Олиб борилган, математик ҳисоблаш натижалар, шуни курсатдики: биологик объектнинг тахминий тавсифи: $m=10^{-15}$ кг; $C_{об}=4190$ Дж/кг⁰С; $\sigma_{об} = (5 \cdot 10^{-5} 42 \cdot 10^{-4})$ См/ж (катта частоталарда) бўлса, уни биз частотаси $f = 3 \cdot 10^9$ Гц электромагнит майдонида $\tau = 60$ сек қиздирсак, объект қизийди, бунда сарф бўлган солиштирма майдон қуввати $P_s = 300$ мкВт/см², бу эса микроорганизмларнинг улидириш учун минимал энергияси деб олишимиз мумкин. Шунингдек, микроорганизмларнинг ўлиш тезлиги унинг қуввати ва частотаси, қанча микроорганизмнинг ε^k катта бўлиши ва кичиклигига боғлиқ. Умуман олганда, маҳсулотлардаги микроорганизмлар концентрациясининг яшаши a_{ε} нисбатига боғлиқ ва агар $a_{\varepsilon} < 1$ бўлса, C_v концентрациясининг камайиши, микроорганизмлар ўлиш тезлигини оширишга, $a_{\varepsilon} > 1$ бўлиб C_v камайса унда уларнинг улиш тезлиги камаяди. Агар, УЮЧ ЭММ энергиясининг ФИК (фойдали иш коэффиценти) 65 -70 % ни ташкил этади. Демак, бундай усул ананавий усул (ФИК 45-55%)дан юкори самарага эга.

Математик таҳлилдан олинган хулосаларни тасдиқлаш мақсадида, донни дезинсекциялаш ва ун, нон маҳсулотларини дезинфекциялаш учун ЎЮЧли экспериментал қурилмаси (аппаратураси) тузилди (1-расм)



1-ўзи ёзар КСП -4М; 2- Дьюар сифими; 3-температура датчиги (термопара - ХК); 4-электродвигатель; 5- термометр; 6-диссектор; 7-тўлқин узатгич 8-ЎЮЧ-генератор-магнетрон; 9- резонаторли қуриш камераси; 10-вентилятор; 11-калорифер; 12-ҳаво кириш йули; 13-тарози таглиги 14-электрон тарози ВЛК-500; 14-тадқиқот маҳсулоти.

Расм. 2. ЎЮЧ- экспериментал қурилмаси схемаси

Донларни дезинсекциялаш методикасига асососланиб микротўлқинли энергиянинг: 0,25; 0,50; 1,0 кВт., қувватида, бугдой дони омборхоналар хашаротларининг ҳолати кузатилди ва улганларининг фойизи аниқланиб. олинган натижалар 2-жадвалга киритилади.

1-жадвал.

Бугдой дон омборхоналари хашаротларига УЮЧ билан дезинсекциялаш.

/н	Хашаротларнинг номи	УЮЧ-дезинсекция. $P_{свч}$, кВт; вақт сек.											
		0,14			0,25			0,36			0,45		
		0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	Тегирмон огневкаси												
	Омборхона												

	огневкаси												
	Дон куяси												
	Унегичлар												
	Ун клещи												
	Хрушак												

Эслатма: + - тулик улмаган; - тулик улган.

Микротўлқинли УЮЧ ли дезинсекциялашдаги визуал кузатиш натижалари шуни кўрсатдики: тегирмон огневкаси, омбор огневкаси ва дон куяси $P_{\text{уюч}} = 0,25$ кВт да 20-30 с. да, қолганлари $P_{\text{уюч}} = 0,36$ кВт да 30 секунд давомида улар экан. Агар қувватни $P_{\text{уюч}} = 0,45$ кВт, оширсак ва вақтни 20 секундга етқизсак уларни бутунлай улдириш мумкин экан. Хашаротларнинг ичида унегичлар ва хрушак энг чидамли бўлиб, нисбаттан паст қувват ва вақтда улмасдан қарахт ҳолатда булар экан.

Нон хом ашёси дон ва ун, нон бўйича биологик хавфларнинг тадқиқоти ишлаб чиқилган методика асосида, спора ҳосил қилувчи микроорганизмларга УЮЧли ва ананавий иссиқлик қайта ишловининг таъсири урганилиб, олинган натижалар 2-жадвалга келтирилди [3,4].

2- жадвал

Спора ҳосил қилувчи микроорганизмларга УЮЧли ва ананавий иссиқлик қайта ишловининг таъсири.

	Намуна	Микроорган измлар бошланғич концентраци яси хужайра/см ³	Мухитни исситиш сунги харорати °C	Таъсир давомий лиги сек	Микроорганизмлар концентрацияси, хужайра/см ³	
					УЮЧ дан кейинги	Ананавий дан кейинги
.	Бугдой дони	$2,0 \cdot 10^2$	65	90	120	$2,2 \cdot 10^2$
		$3,5 \cdot 10^3$	75	100	22	$4 \cdot 10^3$
.	Ун, 1-нав	$12,0 \cdot 10^3$	65	90	3	$8 \cdot 10$
		$25 \cdot 10^3$	75	100	50	$11 \cdot 10^2$
.	Нон (колипли)	$6,0 \cdot 10^2$	65	90	0	$4 \cdot 10$
		$6,5 \cdot 10^3$	75	100	0	$4 \cdot 10^2$

Турли ҳароратларда 65, 75°C, ва давомийлиги 90, 100 сек да олиб борилган тадқиқот натижалари ва шунингдек бошланғич концентрациялар ва якуний ҳароратда микротўлқинли УЮЧ ли ишлов бериш пайтида хужайра микрофлорасининг таркиби ва сони анъанавийга қараганда анча паст экан. Шунингдек, полиэтилен пакетларда кадокланган 200 г нонни стерилизация қилиш муддати 15-20 с, нон қобиғининг ҳарорати эса 50-60 °C бўлса, анъанавий иситиш усулида эса, бу-85-90°C бўлди ва ушбу нонни сақлаш бўйича олиб борилган тажрибалар натижаси бўйича, агар биз кадокланган нонни, ҳар 6-7 кунда микротўлқинли УЮЧли электромагнит майдонида 15-20 с давомида киздириб олсак, ноннинг сақлаш муддати 60 кунга етиши мумкин.

УЮЧ ЭММ энергиясининг ун ва нон маҳсулотлари пастеризация хусусиятини бактерицид ва микоцидли таъсири экспериментал турли (7 хил микроорганизм) ларда, бошланғич концентрациядаги мелассада микроорганизмлар «яшаш» эгри чизигини тасдиқлади.

Хулоса. Спора ҳосил қилувчи бактериялар ва моғор замбуруғларининг ривожланишига тусқинлик қилиш учун бугдой уни нони технологиясида ута юқори частотали (УЮЧ) микротулқинли усулдан фойдаланиш самарадорлиги тасдиқланган.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Пучкова, Л. И. Состояние воды в мякише хлеба и его компонентах Текст. / Л. И. Пучкова, Л. Л. Сугрובה, И. В. Архангельский // Хлебопекарное и кондитерское производство. 1980. - № 10. - С. 31-32.
2. Скурихин, И. М. Химический состав пищевых продуктов Текст.: справочник/ И. М. Скурихин, М. Н. Волгарев. М.: Агропромиздат, 1987.-360 с.
- 3.Халтураев Х.К. Сурхондарё вилоятида ишлаб чиқарилаётган ун, нон ва нон маҳсулотларининг кимёвий ва микробиологик хавфсизлигини таъминлаш тадқиқоти/ Автореферат докт. дисс. –Б. Бух.МТИ. 2023. – 36 б
- 4.Курбанова М.Ж. Мева сабзавотларни бошлангич импульс энергияси ёрдамида куришти. / Автореферат докт. дисс. –Т. ТХТИ. 2018. – 41 б

УН ВА НОН МАХСУЛОТЛАРИ КИМЁВИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ

Халтураев Хонтура Кувватович

*Термез давлат университети
кафедраси PhD, ассистенти.*

Курбонова Мадина Жамиедована

*Тошкент аграр университети “Кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш
технологияси” кафедраси PhD, в.б.доценти*

Курбонов Жамшед Маджидович

*Самарканд иктисодиёт ва сервис институти
“Сервис” кафедраси профессори*

Аннотация. Ушбу ишда, нон ишлаб чиқариш корхоналари “Оби-нон” учун ишлаб чиқарилган уннинг кимёвий элементлари, ҳамири ва нонидаги, минерал таркиби буйича истемолга ярокли ва кимёвий хавфсизлигини тасдиқловчи натижалар келтирилган.

Калит сўзлар: кимёвий препаратлар, “Оби-нон”, кимёвий элементлар, минераллар.

Аннотация. В работе приведены химические элементы муки, теста и хлеба, вырабатываемых для хлебопекарного предприятия «Оби-нон» содержание минеральных веществ, а также результаты, подтверждающие их пригодность к употреблению и химическую безопасность.

Ключевые слова: химические препараты, “Оби-нон” химические элементы, минералы.

Abstract. The paper presents the chemical elements of flour, dough and bread produced for the bakery enterprise "Obi-non", the content of mineral substances, as well as the results confirming their suitability for consumption and chemical safety.

Key words: chemical preparations, “Obi-non”, chemical elements, minerals.

Кириш. Озиқ-овқатлардан нон маҳсулотлари инсоннинг кунлик истеъмол қиладиган овқатланиш маҳсулоти бўлганлиги учун, унинг ишлаб чиқарилиши халқ хўжалигида катта аҳамиятга эга ҳисобланганидан ташқари, унинг истеъмолда инсон организми учун қанчалик хавфсизлигини аниқлаш катта аҳамиятга эга. [1,2].

Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда жами саноат ишлаб чиқарилишининг 18- 20 %и овқатланиш маҳсулотлари ишлаб чиқарилиши ташкил этса, шунинг асосий қисми нон маҳсулотига тўғри келишини ва бир йилда бу уртача 920 минг тоннагача етишини инобатга олган ҳолда, улар таркибига айниқса токсикологик заҳарланишни олдини олиб озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш муҳим вазифалардан бўлиб келмоқда[30].

Нон маҳсулотлари ассортименти асосан қайси ундан тайёрланганлиги тайёрлаш технологияси кимёвий таркиби ва энергетик қиймати билан фарқланади. Уз вақтида озиқ-овқат маҳсулотларининг озуқавий қийматининг камлиги ёки кўплиги, айниқса кимёвий элементларнинг бўлишини аниқлаш долзарб ҳисобланади.

Асосий қисм. Маълумки, Ўзбекистонда тайёрланадиган турли нон ва нон маҳсулотлари қатори “Ўзбек лепешкаси” деб ном олган ва кўплаб истеъмол қиладиган “Оби-нон” ҳисобланади. Шунинг учун, тадқиқот объекти сифатида “Оби-нон”ни танланди. Ишимизда, Сурхондарё ва Самарқанд вилоятларида “Оби-нон”ни тайёрлаш учун қўлланиладиган ун-хамир ва нонни тадқиқини олиб бориб, жумладан унинг кимёвий таркибини ва хавфсизлик критерийси ҳисобланган токсик элементлар миқдорини аниқладик.

Лаборатория тадқиқотлари “Uz Test“ ДУК Сурхондарё филиали Термиз ш. “Озик-овқат ва кишлоқ хўжалик маҳсулотлари синов лабораторияси”да, “Самарқанд СЭС да, Самарқанд стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш бошқарма синов лабораторияси ва Термиз ДУ Самарқанд ИСИ лабораторияларида ўтказилди.

Методика. Нон хамири ва хом-ашёсининг кимёвий таркибини қуйида келтирилган умумий (коллориметр, хроматография, поляриметрия ва х.к.) методлар [3,4] ёрдамида аниқланди.

Олинган натижалар. Сурхондонмаҳсулотлар” АЖ (Термиз ш.), корхонасида ишлаб чиқарилган 1-навли бугдой унининг (55 тн.партиядан 2кг синовга олинди) токсик элементларнинг кадмий, мишьяк, кўрғошин, симоб, рух ва мис ва микотоксинлар, ва темир элементи бўйича хроматограммаси олинди. Хроматограмма графиги шуни кўрсатдики, тадқиқ этилган уннинг таркибида фақат рух:1,8 мг/ кг; темир элементи- 20 мг/кг эканлигини куришимиз мумкин. Синовлар нисбий намлиги 48% ва харорати-22⁰ С лаборатория шароитида ўтказилди. Умумий кислоталиги эса 1,2⁰ эканлиги маълум бўлди.

Худди шундай тадқиқот “Шурчидонмаҳсулотлар” АЖ, да ишлаб чиқарилган 4 та дозатордан олинган 1-навли бугдой уни бўйича олиб борилиб: №1 дозатордаги унда рух - 1,9мг/кг; №2 да-2,0; №3 да-1,8; ва№4 да-2,2 эканлиги; темир элементи -30. 25, 30. 25 мг/кг борлиги ва кислоталиги: 0,9, 0,8, 1,0, 0,8⁰ эканлигини кўрсатиб берди.Лаборатория нисбий намлиги 54%, харорати 20⁰ С.

“Сариосиё Дон” МЧЖда ишлаб чиқариладиган 1-навли бугдой уни бўйича олиб борилган унда ҳам рух-16,0 мг/кг, темир 60,0 мг/кг, кислоталиги-0,8⁰ , синов олиб борилган лаборатория нисбий намлиги 48%, харорати -23⁰С бўлди.токсинлар ва микотоксинлар аниқланмади.

“Осиё-Афросиёб” корхонасининг Самарқанд филиалида ишлаб чиқарилган уннинг токсик элементлар ҳисобланган кадмий, кўрғошин, рух ва мис бўйича хроматограммаси олинди. Хроматограмма графиги шуни кўрсатдики, тадқиқ этилган уннинг таркибида фақат мис борлиги, кўрғошин йўқлигини кўрсатиб берди.

Миснинг миқдори 1 кг унда 2.18 мг, рух-17мг экан. Бу миқдор нормал нон маҳсулотлари билан овқатланишда зарарсиз ва ҳатто фойдали ҳисобланади, чунки инсоннинг суткалик мис қабул қилиш миқдори 0.5 мг ҳар бир кг вазнига тўғри келади. Олинган натижаларни киёсий таҳлил этиш мақсадида токсик элементларнинг корхоналар миқёсидаги миқдори 1 -жадвалга келтирилди.

1 - жадвал

Сурхондарё ва Самарқанд вилоят дон маҳсулотлари токсик элементларининг корхоналар миқёсидаги миқдори , мг/кг.

Токсик элементлар	Сурхондонмаҳсулотлар” АЖ (Термиз ш.)	SA“Шурчи дон маҳсулотлар” АЖ	“Сариосиё Дон” МЧЖ	“Жомбой дон маҳсулотлар” АЖ (Самарқанд ш.)	МЧЖ GPM Realty ТОО “Зополя” бугдой уни (Тошкент ш.)	“Осиё-Афросиёб” Самарқанд филиали
Fe	20	25-30.	60,0	56	22	43
Cu				2,32	1,3	2.18
Zn	1,8	1,9-2,2	16,0	18	2.1	17

Сурхондарё ва Самарканд вилоят дон маҳсулотлари токсик элементларининг корхоналар микёсидаги микдорлари шуни курсатяптики, вилоятлардаги маҳсулотлар СанКМ № 0283 -2010 талабларига жавоб беради. Лекин, Сурхондарёда етиштирилган бугдой дондан ишлаб чиқарилган 1-нав унлари Самарканд вилоятидаги корхоналардан анча кам экан. Бизнингча, бунинг сабаби етиштирилган ер структураси ва иклим шароитининг ҳар хиллигида бўлса керак.

Тадкикотлар натижасида аниқланган рух, мис ва темир элементларининг мавжудлиги (талаб килинган меёрлар атрофидалиги) улардан тайёрланган нон ва нон маҳсулотлари инсон организми учун хавфсиз ҳисобланади, овқатланишда зарарсиз ва ҳатто фойдали ҳисобланади, чунки инсоннинг суткалик рухга, мис ва темирга бўлган эҳтиёжини тулдиришга хизмат қилади. Мақсадга мувофиқ, бу унларнинг аралаштирилиб нон ишлаб чиқарилса улардан тайёрланган нон ва нон маҳсулотлари инсон организми учун янада фойдалироқ бўлиши мумкин.

Вилоятларда ишлаб чиқарилаётган нон ва нон маҳсулотлари тадқиқ қилинди. Тадкикотда “ZILOLA CAPITAL SAVDO» о/к нинг “Қолипчи нон”ни ва “Бойсун Қут Барака” ж/х макаронининг токсик элементлари ва уларнинг сифатини органолептик баҳолаганимизда, юқорида келтирилган натижалар олинди ва уларнинг кимёвий хавфсиз эканлиги ва сифатининг СанКМ № 0283 -2010 талабларига жавоб бериши тасдиқланди.

Шунингдек, Самарқанд нон заводида ишлаб чиқарилган нондан олинган намунада ҳам фақат мис, рух ва темир борлиги, кадмий, қўрғошин мишьякнинг йўқлиги исботланди. Намунадаги аниқланган мис -0.32, темир -38 рух- 19 мг/кг экан. Бу инсон организмига зарарсиз бўлиб унинг суткалик минерал элементларга бўлган эҳтиёжини қондиради.

Самарқанд ш. “Регистон” нон, Иштихон район “Оила-нон” корхонасида тайёрланган лепёшкада ҳам кадмий, қўрғошин, мишьяк аниқланмади, уларда ҳам мис, темир ва рух элементлари меёр даражасида экан. Шунинг учун, уларнинг истеъмоли одам организми учун хавфсиз ҳисобланади.

1-навли бугдой унининг ва ўзбек миллий нони “Оби-нон” нинг минерал таркибини (мг/100 гр) урганиш мақсадида, [3] келтирилган уннинг минерал таркибини ўзбек миллий нони “Оби-нон”нинг келтирилган минераллар бўйича хромотограммаси олинди ва 2- жадвалда таққосланди.

2- жадвал

1 навли бугдой уни ва “Оби-нон”нинг минерал таркиби
(мг/100 г маҳсулотда)

№	Минерал моддалар	1 навли бугдой уни[4]	“Оби –нон” ўзбек миллий нони
1	P	121.08-0.03	141.34
2	K	227.14-0.05	268.87
3	Ca	49.93-0.04	69.59
4	Mg	1.09-0.08	1.20
5	Fe	2.19-0.06	2.43
6	Cu	0.41-0.04	0.39
7	Zn	1.72-0.02	1.83

Жадвалда келтирилган натижалар шуни кўрсатяптики, унда етти асосий минерал элементлар мавжуд экан. Уларнинг ичида энг кўп микдорда одам организми учун муҳим ҳисобланган К ва Са мавжуд. Си ва Zn борлиги ҳам организмда талаб даражасида микдорда таъминланар экан. Албатта буларнинг нон маҳсулотларида нормал микдорда бўлиши инсон ҳаёт хавфсизлигидаги озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлайди.

Хулоса. Сурхондарё ва Самарканд вилоят дон маҳсулотлари токсик элементларининг корхоналар микёсидаги микдорлари шуни курсатяптики, вилоятлардаги маҳсулотлар СанКМ № 0283 -2010 талабларига жавоб беради. Шунингдек, “Оби-нон” учун ишлаб

чиқарилган уннинг токсик элементлар бўйича назорат тадқиқоти унлардаги токсик элементлар меъёр даражасида бўлиб, унларнинг истемол хавфи йуклигини кўрсатди.

Адабиётлар рўйхати;

1. Пучкова, Л. И. Состояние воды в мякише хлеба и его компонентах Текст. / Л. И. Пучкова, Л. Л. Сугрובה, И. В. Архангельский // Хлебопекарное и кондитерское производство. 1980. - № 10. - С. 31-32.
2. Скурихин, И. М. Химический состав пищевых продуктов Текст.: справочник/ И. М. Скурихин, М. Н. Волгарев. М.: Агропромиздат, 1987. - 360 с.
3. Халтураев Х.К. Сурхондарё вилоятида ишлаб чиқарилаётган ун, нон ва нон маҳсулотларининг кимёвий ва микробиологик хавфсизлигини таъминлаш тадқиқоти/ Автореферат докт. дисс. –Б. Бух.МТИ. 2023. – 36 б.
4. Курбанова М.Ж. Мева сабзавотларни бошлангич импульс энергияси ёрдамида қуритиш. / Автореферат докт. дисс. –Т. ТХТИ. 2018. – 41 б.

TOMCHILATIB SUG'ORISHDA FILTRLARNING O'RNI

To'rayev O'ktam Ismoilovich

*Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Bugungi kunda revojlangan davlatlarda zamonaviy sug'orish usullardan keng miqyosda foydalanilmoqda. Lekin sug'orish suvining tozalik darajasi har bir joyda turlichadir, suvni ekilgan maydondagi ekinga tug'ri va sifatli yetib borishi uchun sug'orish tizimidagi filtrlarning o'rni beqiyosdir. Shuni inobatga olib xududning ta'biy xo'jalik sharoiti, mavjud suv resurslari, suvning meniralizatsiyasi juda muximligi ekilgan ekinning biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, suvni qanday tartibda berilishi, suvning loyqalik darajasi, tomizgichli shlanglardan tomayotgan tomchilar tarkibidan turli xil loyqaliklar, axlatlar, ma'lum kattalikdagi jismlar o'tib bormasligi uchun filtrlardan foydalaniladi. Suvdan samarali foydalanishga oid tahlillar, dala sharoitida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, muommalarni yechish bo'yicha taxlillar, ortiqcha resurslarni yo'qotilishi, sug'orish tartibini ishlab chiqishda iqlimning o'rni bugungi kunning asosiy vazifasidir.

Kalit so'zlar: sug'orish, feltr, loyqalik, tahlil, tizim, kattaliklar, mekron, o'lchov.

Аннотация: Сегодня современные методы орошения широко используются в развитых странах. Но уровень чистоты поливной воды везде разный, роль фильтров в оросительной системе бесподобна для того, чтобы вода правильно и качественно доходила до культур на посевной площади. Принимая во внимание природно-хозяйственные условия региона, имеющиеся водные ресурсы, значение минерализации воды, исходя из биологических особенностей посаженной культуры, способа подачи воды, степени мутности воды, различных мутностей от состава капли, капающие из капельных шлангов, мусор, известные фильтры используются для предотвращения прохождения крупных предметов. Анализ эффективного использования воды, повышения эффективности использования природных ресурсов в полевых условиях, анализ решения проблем, потерь избыточных ресурсов, роли климата в разработке ирригационных процедур являются основными задачами сегодняшнего дня.

Ключевые слова: орошение, войлок, мутность, анализ, система, количества, микрон, измерение.

Abstract: Today, modern irrigation methods are widely used in developed countries. But the level of purity of irrigation water is different in every place, the role of filters in the irrigation system is incomparable in order for the water to reach the crops in the planted area correctly and in good quality. Taking into account the natural economic conditions of the region, the available water resources, the importance of water mineralization, based on the biological characteristics of the planted crop, how to give water, the degree of turbidity of water, various turbidities from the composition of drops dripping from drip hoses, garbage, known filters are used to prevent large objects from passing through. Analyzes of effective use of water, increasing the efficiency of natural resource use in field conditions, analysis of solving problems, loss of excess resources, the role of climate in the development of irrigation procedures are the main tasks of today.

Key words: irrigation, felt, turbidity, analysis, system, quantities, micron, measurement.

Kirish. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun turli xildagi sug'orish tizimlaridan foydalanilmoqda. Qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish tartiblari iqlim zonalari, tuproq sharoitlari, sizot suvlar chuqurligi va ularning minerallasganlik darajasi, parvarish qilinayotgan ekin turi yoki navining biologik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Ekinlarni ekishdan oldin sug'orish jarayonlarini mulohaza qilishadi, sababi ekilgan ekindan yuqori va sifatli xosil olishni maqsad qilinadi. Sug'orish tizimiga alohida e'tibor berib boriladi. Sug'orish tizimidagi ish faoliyatni yaxshi tashkil qilish bu fil'trga bog'liqdir. Shunda fil'trlarga qo'yiladigan talab ham ortib boradi, lekin feltrlarning ish qobilyatlari yetarli darajada sinflanmaganligi hisobiga muommolar kelib chiqmoqda. Bu tizimlarga kerakli bo'lgan feltrlar sug'orish tizimining foydali ish koeffitsienti 0 (nol) ga teng bo'ladi. Shuning uchun sug'orish tizimiga o'rnatiladigan suvni tozalovchi feltrlari talab darajada bo'lishi kerak.



1-rasm. Turli va deskli filtrlar

Tomchilatib sug'orish tizimi orqali sug'orilganda sug'orish tizimning ish faoliyatidagi ekspluatasion ish ishonchliligini aniqlash, tizimdagi xar bitta elementning bug'inlarga ajralgan xolda uning samaradorligini qo'yidagi formulalar orqali aniqlandi.

$$Z_{mp} = \frac{Z_{mp}}{100} \quad (1)$$

bunda: NC –sug'orish tizimning narxi, so'm;

d – har bir oyda tizimning ishlashida ekspluatasion ish ishonchliligini ta'minlash uchun ajratilgan mablag'lar, %;

d_{tr} – bir yil ekspluatasion ish ishonchliligiga ajratilgan mablag', % Z_{tr} .

$$I_{3H} = \frac{3\Pi_{cp} \cdot \Pi_{\epsilon} / \text{ж}}{1000} \cdot p_{nem} = m.c\check{y}m \quad (2)$$

$$I_{or} = V \cdot C \cdot P_{nem} = m.c\check{y}m \quad (3)$$

bunda: V - tizim ichidagi oqiziqlarni tozalash ishlari uchun ish hajmi, m^3/ga ;

C - tizimning umumiy tan narxi, sum.


$$I_{\epsilon l} = 0,004 \cdot M \cdot H \cdot P_{nem} \cdot \eta \cdot h \cdot \Gamma CM, c\check{y}m \quad (4)$$

bunda: M - o'simlikning sug'orish me'yori, m^3/ga ;

H - nasosning sug'orish suvni balandlikka ko'tarish qobilyati – 65-85 m;

η - 1 soatda nasosning elektr energiya istemoli, so'm'ga;

h - yil davomida o'simlikning parvarishida yoqilg'i-moylash mahsulotlari uchun ketadigan sarf xarajatlarni hisoblashdagi koeffitsient, - 1,04-1,05.



2-rasm. Sug'orish tizimidagi qumli filtrlar

Tomchilatib sug'orish tizimining ekspluatasion ish ishonchliligini ilmiy – amaliy asoslashda paxta hosiliga ketgan barcha turdagi xarajatlar, sug'oriladigan maydonda suvning ahamiyati, muhimligi, suv sarfi me'yori tejalishini asoslaydi, tizimga aniq va ishonchli texnik xizmat ko'rsatish uchun tizimni himoyalash (sug'orish tizim yon atrofiga begona mavjudod yoki begona insonlardan ximoyalashdagi tushunchalar), eng menimal (kamroq) sarf – xarajatlarni keskin kamaytirishni ta'minlaydi. Bundan qo'yidagi xulosa kelib chiqadi: er ostidan sug'orish tizimining ekspluatasion ish ishonchliligini ta'minlashda paxta hosiliga ketgan barcha turdagi sarf xarajatlar hamda uni takomillashtirishdagi samarali tadbir hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Surxondaryo viloyatining tipik bo'z, mexanik tarkibiga ko'ra, o'rta va og'ir qumoq tuproqlari sharoitida ingichka tolali g'o'zani etishtirish uchun Termiz tumani xo'jalikda ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish mobaynida er maydonlarning rentabillik darajasi yillar davomida tizimdagi filtrlardan unimli foydalanishda va unga qo'yilgan talablar asosida yondashuvlar bilan amalga oshirilib, samarali izlanishlarning natijasida ko'tarilib borgan. Natijada, ingichka tolali g'o'za ekinidan yuqori hosil olinib mahsulot hajmini oshirish va hosilning sifatini yaxshilash jarayonida yiliga nazorat variantga nisbatan sezilarli ravishda o'rtacha hosildorlik ko'rsatgichlari ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. Sug'orish tizimidagi filtrlardan foydalanish tartibini nazorat qilib turish bilan bir qatorda tindirgichli suv xavzalaridan xam samarali foydalanildi. Sababi tindirgichli suv xavzalari xam bir vaqtning o'zida filtr vazifasini o'taydi.

Xulosa: Resuristejamkor sug'orish tizimini o'rnatishda quyiladigan talablarda olinayotgan suvning qayta tozalash imkoniyatini beruvchi filtrlar sug'orish tizimiga o'rnatilishida turli xildagi qumli, diskli, turli filtrlar yordamida suvni tozalash asosida tizimning tomizgichli shlanglar asosida ekin maydoniga berildi. Qumli filtrlarning ish qobilyatlarini xisoblashda sug'orish tartiblari, sug'orish maydoni, ekin turiga, tuproq tarkibiga, 1 soat ichida qancha m³ suvni qayta tozalash imkoniyatini beradigan qobilyatiga qarab tavsiflanadi. Oqavo suvning loyqalik darajasi, suvning meniralizatsiyasi, suvning miqdori, suvning qattiq va yumshoqligiga (suv tarkibidagi tuzlarga) qarab taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Butayarov A.T. Amu-Surxon irrigatsiya tizim havza boshqarmasida suvdan foydalanish holati. Mejdunarodnaya konferensiya innovatsionnoe razvitie nauki i obrozovaniya. Noyabr 2020 g. «Sbornik nauchnyx trudov Pavlodar, Kazaxstan» Noyabr, 2020 g. -St. 132-139.
2. Isaeva A.A. Spravochnik ekologiya - klimaticheskix karakteristik. g. Moskva. MGU, 2005. - 412 s.
3. Butayarov A.T. «Amu – Surxon» ITXB hududidagi fermer xo'jaliklarida suvdan foydalanishni takomillashtirish. "AGROILM" jurnali maxsus son 4.(60). -Toshkent, 2019. –B. 79 - 81.
4. Sabirjan Isaev, Gulom Bekmirzaev, Mirkadir Usmanov, Elyor Malikov, Sunnat Tadjiev, Abdukadir Butayarov. Provision of remote methods for estimating soil salinity on meliorated lands. E3S Web of Conferences 376, 02014 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337602014>. ERSME-2023
5. Bakir Serikbaev, Abdukodir Butayarov, Sardor Gulamov, Sanobar Dustnazarova. Inflation of water to the soil in the fields of drop irrigation. E3S Web of Conferences 264, 04002 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126404002>. CONMECHYDRO – 2021.
6. Butayarov A.T., Nazarov A. A. Scientific substantiation of technology of efficient use of water resources in irrigation of cotton. E3S Web of Conferences 401, 05048 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340105048>. CONMECHYDRO – 2023.

YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TARIXI

K.Sh.Jumanazarova

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
tayanch doktranti*

Annatsiya: Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasining tarixi va rivojlanishi haqidagi mavzu hozirgi kunda qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishning muhim qismiga aylangan. Ushbu maqola yomg'irlatib sug'orishning tarixiy asoslari, uning rivojlanish bosqichlari, texnologik o'zgarishlar va amaliyotdagi qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan. Yomg'irlatib sug'orishning paydo bo'lishi qadimiy davrlarga borib taqaladi, ammo uning ilmiy asoslari va zamonaviy usullari XIX-XX asrlarda yuzaga keldi. Maqolada texnologiyaning evolyutsiyasi, muhim ixtirolar va amalga oshirilgan tadqiqotlar orqali uning samaradorligi, ekologik ta'siri va iqtisodiy foydalari tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: *Yomgʻirlatib sugʻorish texnologiyasi, sugʻorish quduqlari, siprinkler, Netafim, suv resurslari.*

Anatization: The history and development of sprinkler irrigation technology has become an important part of the efficient use of water resources in agriculture today. This article aims to study the historical foundations of sprinkler irrigation, its stages of development, technological changes, and practical applications. The origin of sprinkler irrigation dates back to ancient times, but its scientific foundations and modern methods emerged in the 19th and 20th centuries. The article analyzes the evolution of the technology, its efficiency, environmental impact, and economic benefits through important inventions and research.

Kirish: Yomgʻirlatib sugʻorish – qishloq xoʻjaligi ekinlariga suvni yomgʻir shaklida berish usuli hisoblanadi. Anʻanaviy sugʻorish usullaridan farqli oʻlaroq purkagichlar yordamida suvni toʻgʻridan-toʻgʻri ekinga yetkazish uchun xizmat qiladi. Bu esa suvning isrofgarchiligini minimallashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Yomgʻirlatib sugʻorishning asosiy maqsadi suvni sugʻorish maydoni boʻylab bir tekis taqsimlanishini taʼminlashdir.

Ushbu tizimning tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi va uning rivojlanishi zamonaviy qishloq xoʻjalik amaliyotlarida muhim oʻrin tutadi. Yomgʻirlatib sugʻorish nafaqat oʻsimliklarning samarali oʻsishini taʼminlaydi, balki suvni tejash va ekologik barqarorlikni saqlashda ham ahamiyatga ega.

Yomgʻirlatib sugʻorishning tarixiy ildizlari qadimgi shahar madaniyatlariga borib taqaladi. Misr, Mesopotamiya va Hindistonda sugʻorish tizimlari mavjud boʻlib, ular asosan kanal va sugʻorish quduqlari yordamida amalga oshirilgan. Biroq, yomgʻirlatib sugʻorishning aniq shakli, yaʼni suvning yuqoridan pastga tushirilishi, ilk bor qadimgi Yunoniston va Rim imperiyasida yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Bu davrda, sugʻorish uchun ishlatiladigan asboblardan va usullardan juda soddaga boʻlib, ular sugʻorishning tasodifiy yoki qoʻlda bajariladigan usullari edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida, sanoat inqilobi davrida, yomgʻirlatib sugʻorish texnologiyasining rivojlanishi boshlandi. 1860-yillarda Frantsiyada va Angliyada bu usulning dastlabki mexanizmlari ishlab chiqildi. Shuningdek, bu davrda ilgari ishlatilgan oddiy va koʻplab mehnat talab qiluvchi sugʻorish usullari oʻrnini mexanik tizimlar egalladi. Yomgʻirlatib sugʻorish tizimlarining ilmiy asoslari shu paytda shakllandi va sugʻorishning samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar oʻrganildi.

20-asrning boshida, ayniqsa 1920-1930-yillarda, yomgʻirlatib sugʻorishning texnologik jihatlari yanada rivojlanib, bu tizimlar koʻproq qishloq xoʻjalik sohalarida qoʻllanila boshlandi. Amerikalik muhandislar, xususan, Leland R. Doane va boshqa kashshoflar, ilgari surilgan mexanik tizimlarni yanada takomillashtirib, birinchi “sprinkler” tizimlarini yaratdilar. Bu tizimlar suvni katta maydonlarga teng ravishda tarqatishga imkon berib, oʻsimliklarni samarali sugʻorishning yangi imkoniyatlarini yaratdi.

Yomgʻirlatib sugʻorishning birinchi tijorat tizimlari 1950-yillarda keng tarqala boshladi. Bu davrda suvni tejash, unumdorlikni oshirish va mehnat xarajatlarini kamaytirish muhim maqsadlarga aylandi. Yangi materiallar va texnologiyalar yordamida yomgʻirlatib sugʻorish tizimlari oʻzgacha samaradorlikka erishdi. Shuningdek, zamonaviy tizimlar avtomatlashtirilgan, kompyuter tizimlari bilan boshqariladigan va turli xildagi oʻsimliklar uchun maxsus sozlanadigan imkoniyatlarga ega boʻldi.

Saudiya Arabistoni ming yillar davomida sug'orilmagan yerlarda «Center Pivot» sug'orish tizimini joriy qildi. Bunday innovatsion yondashuv yuqori daromad keltirdi, natijada millionlab dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yig'ib olindi.

Shuningdek, dunyoning bir qancha davlatlari ushbu samarali usulni qo'llashgan. AQSh, Xitoy, Avstraliya va Braziliya kabi mamlakatlar ham ilgari sug'orilmagan yerlarda qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish uchun markazlashtirilgan irrigatsiya tizimlaridan foydalanmoqda. Ushbu texnologiya ekinlar hosildorligini oshirish va turli geografik sharoitlarda suv resurslaridan barqaror foydalanishga hissa qo'shish uchun global yechim ekanligini isbotladi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimining ilmiy asoslari 1950-yillarda Avstraliyada shakllandi. Avstraliyalik muhandis, dr. Simcha Blassning tadqiqotlari natijasida sug'orishning bu usuli ilgari surildi. U suvni o'simliklarning ildiz zonasiga bevosita etkazish orqali suvning samarali sarflanishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu yangi usul, ayniqsa, qurg'oqchil hududlarda ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali bo'ldi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimi AQSHga 1960-yillarda kirib keldi. Bu davrda Amerika qishloq xo'jaligi intensiv rivojlanish bosqichida bo'lib, ko'plab qurg'oqchil mintaqalarda ekinlarning sug'orilishi juda muhim bo'lib qoldi. Tizimning AQSHga kirib kelishi va qo'llanilishi bir necha omillar bilan bog'liq:

- **Suv resurslarining cheklanishi:** AQSHning janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlarida tabiiy suv resurslari cheklangan, shuning uchun suvni samarali foydalanish muhim masalaga aylandi.

- **Texnologiyaning rivojlanishi:** 1960-yillarda yomg'irlatib sug'orish tizimi uchun zarur bo'lgan texnologik infratuzilma va asbob-uskunalar (masalan, plastik trubkalar) rivojlandi.

- **Qishloq xo'jaligida rivojlanish:** AQSHning agrar sohasi yangi texnologiyalarga qiziqishni oshirdi, chunki yomg'irlatib sug'orish tizimi ekinlarning hosilini yaxshilashga va suvni tejashga imkon yaratdi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimi AQSHda dastlab janubi-g'arbiy mintaqalarda, xususan Kaliforniya va Arizona shtatlarida qo'llanildi. Bu hududlar tabiiy suv manbalariga nisbatan juda cheklangan edi, shuning uchun bu tizimning samaradorligi va afzalliklari tezda sezildi.

Bundan tashqari, tizim 1970-yillarda yanada kengayib, boshqa qishloq xo'jaligi mintaqalariga ham kirib keldi. Avvaliga, bu tizim asosan qurg'oqchil mintaqalarda qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik ekin turlarining ko'payishi va sug'orishning optimallashtirilishi natijasida bu texnologiya butun mamlakat bo'ylab ommalashdi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimining rivojlanishiga ilmiy asoslar

Yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi dastlab 1950-yillarda Avstraliyada ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning to'liq rivojlanishi va amaliy qo'llanilishi Isroilda amalga oshdi. Isroil, o'zining tabiiy geografik sharoitlari, asosan, qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda joylashganligi sababli, bu texnologiyaga katta ehtiyoj sezdi. Isroilning agrar sohasida samaradorlikni oshirish va suv resurslarini tejash zaruriyati bu texnologiyaning keng tarqalishiga yordam berdi.

Yomg'irlatib sug'orish tizimining Isroil davlatiga kirib kelishi

1960-yillardan boshlab Isroillik olimlar ushbu yangi sug'orish tizimini amaliyotga kengib tadbiq qila boshladi. Shu davrda, Isroilning agrar va ilmiy muhandislik sohalaridagi mutaxassislar, suv resurslarini tejash va ekinlarni samarali sug'orish maqsadida yangi texnologiyalarni joriy etishga harakat qildilar. Biroq, Isroilning o'ziga xos tabiiy resurslaridan foydalanishning samarali usulini topish uchun yanada aniq va samarali texnologiyalarga ehtiyoj

sezildi. Bu boradagi yirik yangiliklardan biri, 1965-yilda Isroilning «Netafim» kompaniyasining yaratilishi bilan bog'liq. Bu kompaniya yomg'irlatib sug'orish tizimining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

“Netafim” kompaniyasining o'rni

1965-yilda Isroilda tashkil etilgan “Netafim” kompaniyasi, yomg'irlatib sug'orish tizimini ishlab chiqish va tijoratlashtirishda muhim ro'l o'ynadi. Kompaniya, Isroilning yirik qishloq xo'jaligi hududlarida tajriba o'rnatish va tizimni amaliyotga joriy etishda muvaffaqiyatga erishdi. Netafim tizimi, sug'orish trubkalariga mikroskopik teshiklar joylashtirish orqali suvni aniq va bevosita o'simlik ildizlariga yetkazib beradi, bu esa suvni tejashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, Netafim tizimi o'zining samaradorligi va keng qo'llanilishi bilan nafaqat Isroil, balki butun dunyo bo'ylab ham katta e'tibor qozondi. Isroilning qurg'oqchil mintaqalarida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi sug'orishning an'anaviy usullariga nisbatan ancha samaraliroq va iqtisodiy jihatdan foydali bo'ldi.

Isroilda yomg'irlatib sug'orish tizimining kengayishi

Isroilda yomg'irlatib sug'orish tizimi, 1970-yillardan boshlab, butun mamlakat bo'ylab kengayishda davom etdi. Ushbu texnologiya, asosan, ikki asosiy omilga tayanadi:

- **Suv resurslarining cheklanganligi:** Isroil suvga nisbatan juda cheklangan mamlakat bo'lib, uning aholisi va qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun yetarli suv manbalarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Yomg'irlatib sug'orish tizimi, suvni samarali tarzda ishlatish orqali bu masalani hal qilishga imkon berdi.

- **Texnologik innovatsiyalar:** Isroilning ilmiy-tadqiqot institutlari va qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar, bu texnologiyani rivojlantirish uchun samarali ishlanmalarni amalga oshirdilar. Yangi materiallar va usullar, yomg'irlatib sug'orish tizimining samaradorligini yanada oshirdi.

Isroilning yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini eksport qilishi

Isroil yomg'irlatib sug'orish tizimining texnologik yutuqlarini boshqa davlatlarga ham eksport qilishni boshladi. Bu mamlakatning global miqyosda qishloq xo'jaligi texnologiyalari bo'yicha yetakchiga aylanishiga yordam berdi. Isroilning agrar texnologiyalari, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda qiziqarli bo'ldi, chunki bu texnologiyalar, qurg'oqchil hududlar va kam suv resurslariga ega bo'lgan mamlakatlar uchun juda foydali.

Yomg'irlatib sug'orish tizimining afzalliklari va ahamiyati

Isroilda yomg'irlatib sug'orish tizimi nafaqat suvni tejashda, balki hosilning sifatini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Boshqa an'anaviy sug'orish usullariga qaraganda, yomg'irlatib sug'orish tizimi quyidagi afzalliklarga ega:

- **Suv resurslarini tejash:** Yomg'irlatib sug'orish tizimi, suvni aniq va samarali tarzda o'simlik ildizlariga etkazib beradi, bu esa suvni tejashga imkon yaratadi.

- **Hosil sifatining yaxshilanishi:** Sug'orish jarayoni o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi hosilning sifatini yaxshilaydi.

- **Tuproqning eroziyasining oldini olish:** Yomg'irlatib sug'orish tizimi, tuproqning eroziyasi va tuzatish ishlari uchun kamroq talab qiladi, chunki suv tarqatishning oldini olish uchun zarur bo'lgan yerning harakati kamayadi.

Xulosa: Yomg'irlatib sug'orish tizimi, Isroilda qurg'oqchil iqlim sharoitlari va cheklangan suv resurslaridan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan texnologiya sifatida rivojlandi. Isroil, bu texnologiyani rivojlantirishda yetakchi mamlakat sifatida tanilgan va uni global miqyosda keng tarqatgan. Bugungi kunda, Isroilning tajribasi va yutuqlari dunyo bo'ylab yomg'irlatib

sugʻorish tizimlarining ommalashishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Isroilning yirik qishloq xoʻjaligi va suv resurslarini boshqarishdagi innovatsion yondashuvlari, boshqa mamlakatlar uchun oʻrnak boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Butayarov A.T. Amu-Surxon irrigatsiya tizim havza boshqarmasida suvdan foydalanish holati. Mejdunarodnaya konferensiya innovatsionnoe razvitie nauki i obrozovaniya. Noyabr 2020 g. «Sbornik nauchnyx trudov Pavlodar, Kazaxstan» Noyabr, 2020 g. -St. 132-139.
2. Isaeva A.A. Spravochnik ekologiya - klimaticheskix karakteristik. g. Moskva. MGU, 2005. -412 s.
3. Butayarov A.T. «Amu – Surxon» ITXB hududidagi fermer xoʻjaliklarida suvdan foydalanishni takomillashtirish. “AGROILM” jurnali maxsus son 4.(60). -Toshkent, 2019. –B. 79 - 81.
4. Sabirjan Isaev, Gulom Bekmirzaev, Mirkadir Usmanov, Elyor Malikov, Sunnat Tadjiev, Abdukadir Butayarov. Provision of remote methods for estimating soil salinity on meliorated lands. E3S Web of Conferences 376, 02014 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337602014>. ERSME-2023
5. Bakir Serikbaev, Abdukodir Butayarov, Sardor Gulamov, Sanobar Dustnazarova. Inflation of water to the soil in the fields of drop irrigation. E3S Web of Conferences 264, 04002 (2021). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126404002>. CONMECHYDRO – 2021.
6. Butayarov A.T., Nazarov A. A. Scientific substantiation of technology of efficient use of water resources in irrigation of cotton. E3S Web of Conferences 401, 05048 (2023). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340105048>. CONMECHYDRO – 2023.

MUAMMOLARINI HAL QILISH KOʻNIKMALARINING NAZARIY ASOSLARI VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR (RADIATSIYA XAVFSIZLIGI FANI MISOLIDA)

*Abdullayeva Muxlisaxon Axrorjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada muammolarni hal qilish koʻnikmalarining nazariy asoslari va metodologik yondashuvlari oʻrganiladi. Radiatsiya xavfsizligi fani misolida talabalarda kritik fikrlash, tahliliy yondashuv va qaror qabul qilish salohiyatini shakllantirishning samarali usullari koʻrib chiqiladi. Shuningdek, real hayotiy vaziyatlarda radiatsiyaviy xavflarni baholash va bartaraf etish boʻyicha didaktik vositalar tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Muammoni hal qilish, metodologik yondashuv, radiatsiya xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, muammoli oʻqitish, case-study, simulyatsiya.

XXI asrda ekologik va texnogen muammolar fonida radiatsiya xavfsizligi masalasi dolzarb boʻlib qolmoqda. Shu sababli, taʼlim jarayonida nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy koʻnikmalar — ayniqsa, muammolarni aniqlash va hal etish salohiyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Muammolarni hal qilish – bu maqsadga erishishda toʻsiq boʻlgan vaziyatni aniqlab, uni tahlil qilish va samarali yechimni topishga yoʻnaltirilgan fikrlash faoliyatidir. Muammolarni xal

qilishda quyidagi asosiy nazariy yondashuvlar mavjud. Psixologiya, pedagogika, falsafa va kognitiv fanlar bu jarayonni turli jihatlarida o'rganadi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, inson bilimlarni o'zlashtirishda ularni faol tarzda qayta ishlaydi[2]. Muammoni hal qilish – bu informatsiyani tahlil qilish, strukturaviy bog'lanishlarni aniqlash, alternativalarini baholash va to'g'ri qarorni tanlash jarayonidir. Anderson (1980) va Newell & Simon (1972) kabi olimlar bu jarayonni "fikrlash modeli" asosida tahlil qilgan. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, talaba bilimlarni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki o'z faoliyati davomida mustaqil tarzda "quradi". Muammolarni hal qilish jarayoni bu konstruktsiya uchun tabiiy sharoit yaratadi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi bu yerda markaziy o'rin tutadi. Metakognitiv yondashuvda esa muammolarni hal qilishda shaxsning o'z fikrlash faoliyatini boshqarish va nazorat qilish salohiyatini o'rganadi. Talaba o'z strategiyalarini ongli ravishda tanlaydi, baholaydi va kerak bo'lsa — o'zgartiradi. Flavell (1979) bu yondashuv asoschisi hisoblanadi. Didaktik nuqtai nazarda bu talabalar oldiga o'zlarining bilimlari va tajribasi bilan darhol hal qilib bo'lmaydigan savollar qo'yish demakdir. Shunday o'quv jarayoni ularning ichki intellektual faolligini uyg'otadi va o'z bilimlarini mustaqil qidirish zaruratini paydo qiladi[3].

Radiatsiya xavfsizligi fanida muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi metodologik yondashuvlar muhim hisoblanadi. (1-jadvalga qarang)

1-jadval.

Metodologik yondashuvlar	Radiatsiya xavfsizligi fani misolida
Sistemali yondashuv	Bu yondashuvda har qanday muammo umumiy tizim doirasida baholanadi: sabab-oqibat munosabatlari, elementlararo bog'liqlik, resurslar va cheklovlar e'tiborga olinadi. Radiatsiya xavfsizligida bu yondashuv yadro inshootlaridagi xavf tahlilini asoslashda qo'llaniladi[5].
Kompetensiyaviy yondashuv	O'quv dasturlarida faqat bilim emas, balki real hayotiy vaziyatlarda foydalanish mumkin bo'lgan ko'nikmalar va kompetensiyalar shakllanishi zarur. Muammolarni hal qilish kompetensiyasi — kasbiy faoliyatga tayyorlikning markaziy elementidir.
Interaktiv yondashuv	Talabalarning faolligini oshiradigan, muloqotga asoslangan yondashuvlar bu yerda muhim. Bahs-munozara, guruhii ishlar, savol-javob, fikr almashish — bularning barchasi muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
Reflektiv yondashuv	Muammo ustida ishlash natijasida o'quvchi o'z fikrini tahlil qiladi, qarorlarining oqibatlarini o'rganadi, xatolarini anglaydi. Bu refleksiya jarayoni ongli o'zgarishlar uchun zamin yaratadi.
Innovatsion-pedagogik yondashuv	Zamonaviy texnologiyalar (virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatorlar[4], AR/VR vositalar) orqali talabalarga real muammoli sharoitlarni modellashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa muammoni hal qilishni amaliy ko'nikmaga aylantiradi.

Xulosa. Radiatsiya xavfsizligi kabi murakkab fanlarda muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish — bu faqat o'quv maqsadi emas, balki kasbiy faoliyat uchun tayyorgarlik jarayonidir. Nazariy asoslar va metodologik yondashuvlar uyg'unligida bu jarayon samarali kechadi. Pedagogik yondashuvlar kognitiv, metakognitiv va konstruktivistik asoslarda

tashkil etilgan taqdirdagina, talabalar murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga qodir shaxslar sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson, J. R. Cognitive Psychology and Its Implications. — New York: W.H. Freeman, 1980. — 400 b.
2. Newell, A., Simon, H. A. Human Problem Solving. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1972. — 914 b.
3. Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive—Developmental Inquiry // American Psychologist. — 1979. — Vol. 34, No. 10. — B. 906–911.
4. Jonassen, D. H. (2000). Toward a design theory of problem solving. Educational Technology Research and Development.
5. Raximov A., Toxirov N. (2022). Radiatsiya xavfsizligi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

MUHANDISLIK TA'LIM DARGOHLARIDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH FANINING AHAMIYATI

Abdimajidov Farrux Abdilamitovich

TDMAU "Metrologiya va texnologik mashinalar" kafedrası asissenti

Abdixamidov Nurbek Ural o'g'li

TDMAU "Metrologiya va texnologik mashinalar" kafedrası asissenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada muhandislik ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanining ilmiy-amaliy ahamiyati, uning ishlab chiqarish jarayonlari, ilmiy tadqiqotlar, hamda xalqaro savdo munosabatlaridagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Maqola yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda ushbu fanlarning qanday rol o'ynashi, zamonaviy texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni qo'llashda qanday ahamiyat kasb etishi haqida batafsil ma'lumot beradi.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается научно-практическое значение дисциплины метрологии, стандартизации и сертификации в инженерном образовании. Проанализирована её роль в производственных процессах, научных исследованиях и международной торговле. Особое внимание уделено подготовке высококвалифицированных специалистов и значению этих дисциплин в условиях современного технологического развития.

Abstract: This article thoroughly examines the scientific and practical significance of the discipline of metrology, standardization, and certification in engineering education. It analyzes its role in manufacturing processes, scientific research, and international trade. Special attention is paid to the training of highly qualified professionals and the importance of these disciplines in the context of modern technological development.

Kalit so'zlar: Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, muhandislik ta'limi, sifat nazorati, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: Метрология, стандартизация, сертификация, инженерное образование, контроль качества, международные стандарты.

Keywords: Metrology, standardization, certification, engineering education, quality control, international standards.

Har qanday davlatning iqtisodiy, ilmiy va sanoat salohiyatini oshirishda ta'lim muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, muhandislik sohalarida ta'lim sifatining yuqori bo'lishi – texnik taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanlari muhandislik yo'nalishidagi talabalarga chuqur o'rgatilishi zarur.

Bugungi texnologik taraqqiyot sharoitida mahsulot va xizmatlarning sifatini oshirish, ularning xalqaro talab va me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. Bu esa o'z navbatida o'lchovlarning aniqligi, standartlar asosida ishlab chiqarish, hamda sifat nazorati tizimlarini talab qiladi. Ushbu jihatlar bevosita metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanlariga bog'liq bo'lib, ularni o'rganish muhandislar uchun zaruratga aylangan.

Metrologiya fanining asosiy tushunchalari va muhandislikda qo'llanilishi. Metrologiya – bu o'lchovlar, ularning bir xilligi va aniqligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi fan sohasi bo'lib, har qanday texnik faoliyatda muhim o'ringa ega. Bu fan orqali talabalar o'lchov birliklari, o'lchov vositalari, ularning kalibrlanishi, verifikatsiyasi va metrologik tavsiflari haqida chuqur bilimga ega bo'lishadi. Har bir texnologik operatsiyada o'lchash talab qilinadi – bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida xatolikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Metrologiyaning muhandislikdagi qo'llanilishi ko'p qirrali. Masalan, mexanik muhandislikda detallar o'lchamlari aniqligi, elektr muhandisligida kuchlanish va tok qiymatlarining ishonchliligi metrologik ta'minotga bevosita bog'liq. Shuningdek, kimyo muhandisligida eritmalar konsentratsiyasi, temperatura va bosim kabi fizikaviy-kimyoviy parametrlar metrologik usullar bilan nazorat qilinadi.

Standartlashtirishning texnologik jarayonlarga ta'siri. Standartlashtirish – bu mahsulot, xizmat va texnologik jarayonlarga nisbatan yagona talablarni belgilash orqali ularni unifikatsiyalash va optimallashtirish jarayonidir. Muhandislik sohasida bu fan mahsulotlarning ishonchliligi, xavfsizligi, hamda o'zaro almashinishini ta'minlaydi. Muhandislik ta'limida standartlashtirish fanining o'rgatilishi talabalarga texnik normativ hujjatlarni o'qish, tushunish va qo'llash ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu esa keyinchalik loyihalash, ishlab chiqarish, va sifat nazorati bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Masalan, qurilish muhandisligida GOST, SNIP va ISO kabi standartlar asosida loyihalar ishlab chiqiladi. Avtomobilsozlikda esa komponentlar standartlarga muvofiq ishlab chiqarilishi kerak, aks holda global bozorga chiqish imkonsiz bo'ladi.

Sertifikatlash tizimi va uning xalqaro hamkorlikdagi roli. Sertifikatlashtirish mahsulotlar va xizmatlarning belgilangan standartlarga muvofiqligini mustaqil ravishda tasdiqlovchi jarayon hisoblanadi. Ushbu tizim yordamida iste'molchilar mahsulotning xavfsizligi va sifatiga ishonch hosil qilishadi. Muhandislik ta'limida bu fan bo'yicha bilimga ega bo'lgan talabalar keyinchalik mahsulotlar sertifikati tayyorlash, sinov natijalarini baholash va xalqaro tashkilotlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bu ayniqsa, eksport faoliyatida muhim ahamiyatga ega. ISO, IEC, TUV, SGS, GLOBAL GAP kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan sertifikatlar xalqaro savdoda ishtirok etuvchi korxonalar uchun zarur hisoblanadi. Muhandislik ta'limida ushbu jarayonlar tushuntirilsa, bitiruvchilar xalqaro hamkorlikka tayyor bo'ladi.

Мuhandislik ta'limida ushbu fanlarni o'rgatish metodikalari. Muhandislik ta'limida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanlarini o'rgatish uchun zamonaviy o'quv metodikalari qo'llaniladi. Bu metodikalar ichida amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, loyihaviy ishlanmalar va kompyuter dasturlari orqali modellashtirish usullari mavjud. Talabalar o'lchov asboblari bilan ishlash, standart hujjatlar tuzish, sertifikatlashtirish protokollarini tayyorlash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bu esa ularni real ishlab chiqarish muhitiga tayyorlaydi.

Innovatsion ishlab chiqarish va sifat nazoratida ahamiyati. Zamonaviy ishlab chiqarishda sifat nazorati, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Bunda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanlari yetakchi rol o'ynaydi. Masalan, raqamli metrologik tizimlar yordamida avtomatlashtirilgan sinov va nazoratlar amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, inson xatolarini kamaytiradi.

Xalqaro tajriba va milliy ta'lim tizimiga integratsiya. Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, AQSH va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida bu fanlarga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning tajribasidan foydalanib, O'zbekistonda ham muhandislik ta'limiga integratsiya jarayonlari jadallashmoqda.

Muhandislik oliy o'quv yurtlarida xalqaro akkreditatsiyaga ega dasturlar, modul asosidagi o'qitish, hamda sanoat bilan hamkorlikda amaliyotlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Fanlararo integratsiya va muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish. Ushbu fanlar nafaqat o'zaro, balki boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Masalan, fizikaviy kimyo, mashinasozlik texnologiyasi, avtomatlashtirish kabi fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitilishi muhimdir. Bu yondashuv muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirib, talabalarni murakkab muammolarni yechishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GOST 8.010-99 "Metrologik ta'minot. Asosiy tushunchalar"
2. ISO/IEC Guide 2:2004 "Standardization and related activities — General vocabulary"
3. O'zbekiston Respublikasining "Metrologiya to'g'risida"gi Qonuni
4. Karimov A., Amonov A., "Metrologiya va standartlashtirish asoslari". Toshkent, 2021.

ПОДГОТОВКА КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В ОБЛАСТИ ОБЩЕТЕХНИЧЕСКИХ НАУК, СТРОИТЕЛЬСТВА И ИРРИГАЦИИ ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

*Абдурахмонов Азизжон Махмуджон угли
докторант, Ташкентский архитектурно-строительный университет*

Аннотация: В данной работе рассматривается актуальная проблема подготовки квалифицированных кадров в области общетехнических наук, строительства и ирригации в условиях современных технологических и экологических вызовов. Анализируются ключевые аспекты модернизации образовательного процесса, такие как интеграция цифровых технологий, развитие практико-ориентированного обучения и установление

тесных связей с производственными структурами. Особое внимание уделено формированию инженерных и исследовательских компетенций, востребованных на рынке труда. Приведены результаты её внедрения, подтверждающие рост уровня подготовки студентов, повышение их мотивации и готовности к решению практических задач.

Ключевые слова: инженерия, образование, строительство, ирригация, технологии, компетенции, модернизация, методика, студенты, практика.

Введение: Подготовка высококвалифицированных инженерных кадров является одной из важнейших задач современного образования, напрямую влияющей на устойчивое развитие государства и его инфраструктурный потенциал. В условиях стремительного научно-технического прогресса, цифровизации и изменения климатических условий возрастает значимость подготовки специалистов, способных эффективно решать комплексные задачи в сферах строительства, ирригации и общетехнических направлений. Эти области требуют от выпускников не только фундаментальных знаний, но и владения практическими навыками, инновационными технологиями и проектным мышлением. Актуальность темы обусловлена необходимостью модернизации системы высшего технического образования, ориентированной на формирование профессиональных компетенций, востребованных в реальном секторе экономики. Несмотря на наличие учебных программ в указанных направлениях, сохраняются проблемы, связанные с недостаточной практико-ориентированностью, отставанием от технологических трендов и слабой интеграцией учебного процесса с производством. Эти вызовы особенно остро ощущаются в странах, где активно реализуются масштабные строительные и ирригационные проекты, таких как Узбекистан.

Методология: Интегративная модель инженерно-прикладной подготовки специалистов в технических отраслях. Разработанная методика направлена на повышение качества профессиональной подготовки будущих инженеров и технических специалистов в условиях модернизации образования и технологического прогресса. Она базируется на принципах междисциплинарного подхода, тесной связи с производством и внедрения цифровых технологий. Методика ориентирована на формирование у студентов устойчивых профессиональных компетенций, соответствующих требованиям современной инженерной практики и задач устойчивого развития.

Основу методики составляет модульная организация учебного процесса, где каждый модуль объединяет теоретическое знание, практическое задание и проектную деятельность. Например, в блоке «Ирригационные технологии» студенты изучают гидротехнические системы, проходят симуляции управления водными ресурсами с помощью ГИС и IoT, а также выполняют командный проект — разработку модели автоматизированной оросительной системы для конкретной климатической зоны. Особое внимание уделяется формированию навыков критического мышления, инженерного анализа, а также цифровой грамотности. Важным компонентом методики является сотрудничество с предприятиями и научными центрами, что позволяет внедрить элементы дуального обучения. Студенты проходят стажировки на объектах строительства и ирригации, принимают участие в научно-исследовательских проектах, разрабатывают инновационные решения совместно с наставниками из реального сектора. Таким образом,

достигается сращивание академической подготовки с практическими задачами отрасли, что значительно повышает готовность выпускников к профессиональной деятельности.

В результате внедрения методики «Интегративная модель инженерно-прикладной подготовки специалистов в технических отраслях» была зафиксирована положительная динамика в уровне профессиональной подготовки студентов. По итогам промежуточной аттестации 82% обучающихся успешно справились с комплексным практико-ориентированным проектом, что на 27% выше по сравнению с предыдущими учебными циклами. Особенно примечательным стало улучшение навыков проектного мышления и инженерного моделирования, что подтверждается результатами экспертной оценки преподавателей и представителей производственной сферы.

В рамках апробации методики 68% студентов отметили высокий уровень вовлечённости благодаря внедрению цифровых инструментов (BIM, ГИС, CAD-среды), что способствовало формированию прикладных компетенций. Показатели самостоятельной работы и готовности к решению производственных задач возросли в среднем на 35%, а качество выполнения индивидуальных и групповых заданий достигло высоких уровней в 74% случаев. Это свидетельствует о повышении мотивации к учебной и исследовательской деятельности.

Кроме того, в результате сотрудничества с предприятиями и научно-производственными центрами 40% студентов, участвовавших в стажировке, получили предложения о дальнейшем трудоустройстве. Такие показатели демонстрируют практическую значимость и эффективность методики в контексте требований рынка труда, что делает её перспективной для масштабирования в других образовательных учреждениях технического профиля.

Таблица 1.

Оборудование и цифровые инструменты, использованные в процессе подготовки специалистов

	Наименование оборудования / программного обеспечения	Назначение в учебном процессе	Форма использования
	Компьютеры с программами AutoCAD, Revit, Civil 3D	Проектирование инженерных и строительных объектов	Лабораторные занятия, курсовые проекты
	ГИС-платформы (QGIS, ArcGIS)	Моделирование ирригационных систем, анализ геоданных	Практикумы, проектная деятельность
	Станки и макеты для моделирования строительных конструкций	Отработка практических навыков по основам строительных технологий	Учебные практики
	Интерактивная панель и мультимедийный проектор	Визуализация теоретического материала, моделирование процессов	Лекции, презентации проектов
	Датчики влажности почвы и температуры (IoT-устройства)	Исследование процессов ирригации и автоматизации	Экспериментальная деятельность

	Образцы строительных материалов (бетон, кирпич, арматура)	Анализ свойств и применение в проектных решениях	Практические занятия
	3D-принтер (по возможности)	Прототипирование инженерных решений, макетирование	Творческие проекты, стартапы

Заключение: Внедрение методики «Интегративная модель инженерно-прикладной подготовки специалистов в технических отраслях» показало свою эффективность в контексте современных образовательных и производственных требований. Комплексный подход, сочетающий теоретическое обучение, цифровые технологии и практико-ориентированные задания, позволил существенно повысить качество подготовки будущих инженеров в области общетехнических наук, строительства и ирригации. Результаты апробации подтвердили значительное увеличение уровня профессиональных и цифровых компетенций у студентов, их готовности к самостоятельной деятельности и быстрому вхождению в производственную среду. Вовлечение в реальные проекты, сотрудничество с профильными организациями и применение современного оборудования стали важными факторами повышения мотивации и профессиональной идентичности обучающихся. В перспективе данная методика может быть масштабирована и адаптирована к другим направлениям инженерного образования. Развитие сетевого взаимодействия между вузами, предприятиями и научно-исследовательскими центрами будет способствовать устойчивому формированию квалифицированного инженерного кадрового потенциала, необходимого для реализации национальных и международных инфраструктурных программ.

Список литературы

1. Dorst Jean. Avant que Nature meure, Switzerland. 1965. 504 с.
2. Большеротов А.Л. Научные основы и подходы к формированию системы оценки экологической безопасности строительства (СОЭБС) // Жилищное строительство. 2011. № 7. С. 44-47.
3. Большеротов А.Л. Система оценки экологической безопасности строительства. М.: АСВ, 2010. 216 с.
4. Большеротов А.Л. Модель алгоритма функционирования системы оценки экологической безопасности строительства // Жилищное строительство. 2011. № 12. С. 40-44.

AMALIY MASHG'ULOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA MULTIMEDIANA MUHITINI TASHKIL ETISH

Abdusamatova Hilola Odiljon qizi
TDMAU "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Oliy ta'lim tizimi talabalariga o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish. Bu borada matematika fanini o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanib darslarni sifatini oshirishdir.

Kalit so'zlar: Multimedia, komponent, animatsion, tajriba, ehtimollik, klassik ta'rif,

virtual stend, axbarot texnologiyalari, probabilitate.

Abstract: Improving the quality of learning of subjects taught to students in the higher education system. In this regard, different methods are also used in teaching mathematics. One of these is to improve the quality of lessons using modern multimedia tools.

Keywords: Multimedia, component, animation, experiment, probability, classical definition, virtual stand, information technology, probability.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limdan keying ta'lim tizimi bo'g'inidagi oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta'lim talabalri oldida yangi muammolar, ya'ni o'qitilayotgan fanning o'zlashtirish sifatini oshirish vazifasi turibdi. Bu borada matematika fanini o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Kompyuter texnologiyalarining muhim yutuqlaridan biri multimedia komponentalaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa o'quv jarayonining amaliy va laboratoriya ishlarini tashkil etishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega.

Multimedia – tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi. "Multimedia" so'zi lotincha "media" so'zidan olingan bo'lib, "ma'lumot tashuvchi vosita" degan ma'noni anglatadi. Multimediali kompyuterlar so'z, musiqa, tasvir va boshqa ma'lumotlarni, videoma'lumotlarni qabul qiladi va ular ustida ishlaydi. Ayniqsa, elektron qo'llanmaning multimedia muhutada "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Photoshop 7.0", "3D Max", "Microsoft Power Point" kabi internet texnologiyalaridan foydalanib yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ularda harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish qulay va matnli masalalarni yechilishini namoyish qila olish mumkin. Matematik, fizik tajribalarni (masalalarni hal qilishni) namoyish qilishda kompyuter, video, video pleyer, raqamli video kamera, video proyektor, ovoz chiqarish qurilmasi, video ekran va mikrofondan foydalaniladi.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ko'rgazmalilik muhimdir. Ayniqsa, kimyo fanida (reaksiyaga kiritish natijasida) portlash jarayonini amalda bajarish xavfliroq bo'lsada, uni multimedia orqali ko'rsatish ham xavfsiz, xam qulaydir. Shuningdek, boshqa kimyoviy jarayonlarni va ko'plab fizikaviy masalalarning yechilish jarayonini ko'rsatib berish, talabalar tasavvurini kengaytiradi. Fizikaviy masalalarda fotoeffekt hodisasini, suvning qaynash jarayonini va shunga o'xshash ko'plab hodisalarni dasturlash orqali ko'rsatib berish mumkin. Matematika fanlarida ham matnli masalalar ko'plab uchraydi. Animatsiyalar orqali matnda keltirilgan tushinchalar obrazli namoyon bo'ladi. Berilganlar ifodalanadi, shartning qo'yilishi orqali matematik model tuziladi. Bu jarayonlar ekranda avtomatik ravishda namoyon bo'lib boradi. Matnda keltirilgan masalaning qo'yilishi bilan bog'liq holda xarakatlar paydo bo'ladi. Tuzilgan matematik model asosida noma'lum son belgilanib uning yechilishi (shunga mos holda harakatlar ham) namoyon bo'lib boradi va yechim topiladi. Shularni e'tiborga olgan holda biz talabalar uchun matematika fanidan virtual stendlar yaratdik. Quyida virtual stendning bitta masalasini yechish misolida qarab chiqiladi.

Masala. Narda o'yinida 2 ta o'yin kubigi tashlanadi. Ikkala kubikda ham bir xil ochko chiqish ehtimolligi nimaga teng?

Yechish. Ekranda masalaning matni keltirilgach, ekranda kubiklar harakatlana boshlaydi.

2- Намунавий мисол

Нарда ўйинида 2 та ўйин кубиги ташланади. Иккала кубикда ҳам бир хил очко чиқиш эҳтимоллиги нимага тенг?

Shunda, kubiklarni harakatidan uning tushish mumkin bo'lgan sonlar jadvali tuzila boshlaydi

Masalani yechishda ekranda Tasodifiy A hodisaning ro'y berish ehtimoli deb, quyidagi nisbatga aytiladi, bu yerda n – tajribaning barcha teng imkoniyatli natijalari soni, m – esa A hodisaga qulaylik tug'diruvchi barcha natijalar soni bo'ladi.

ЕЧИМИ

	1	2	3	4	5	6
1	11	21	31	41	51	61
2	12	22	32	42	52	62
3	13	23	33	43	53	63
4	14	24	34	44	54	64
5	15	25	35	45	55	65
6	16	26	36	46	56	66

So'ngra yeshilish berib boriladi:

$$P(A) = \frac{m}{n}$$

Ya'ni ehtimollikning klassik ta'rifi formulasi keltiriladi bunda

A – biror hodisa,

m – A hodisa ro'y beradigan natijalar soni,

n – teng imkoniyatli natijalarning chekli soni.

P – belgilash fransuzcha *probabilite* – ehtimollik so'zining bosh harfi.

Ekranda “Demak, ehtimolliги $P(A)=6/36=1/6$.” degan yozuv paydo bo'ladi.

YECHIMII

Қуйидаги жадвални тузамиз

	1	2	3	4	5	6
1	11	21	31	41	51	61
2	12	22	32	42	52	62
3	13	23	33	43	53	63
4	14	24	34	44	54	64
5	15	25	35	45	55	65
6	16	26	36	46	56	66

Эҳтимоллик:
 $P(A) = 6/36 = 1/6.$

Demak, multimedia muhitidan foydalanish talabaga amaliy ishlab (ko'z oldiga keltirib) masalaning yechimini topishga yordam beradi. Ma'lumki, ko'z bilan ko'rish eshitishdan ko'ra talaba xotirasida yaxshi saqlanadi. Shuningdek, multimedia orqali bir marta ko'rsatilib, o'tilgan taqdimot va slaydlarni qayta ko'rib chiqish mumkin. Bu esa talabalarda kombinatorika masalalarini yechish jarayonini va shunga o'xshash tushunchalarning ta'riflanish holatini takroran ko'rish imkoniyatini beradi. Talabalarga multimedia vositalari asosida amaliy mashqlar bajarishga shart-sharoit yaratish o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahadova M. Beruniy va uning matematikaga oid ishlari "Fan" 1976.
2. Afonina S. I. Matematika va go'zallik. T., O'qituvchi 1987.
3. Matematik terminlarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati T. "O'qituvchi" 1974.
4. Mirzahmedov M. A va boshqalar "tenglama tengsizliklarni yechish. T. "O'qituvchi" 1989.
5. Nurmatov A. Qodirov I. "Matematikadan sinfdan tashqari va fakultativ mashg'ulotlar. T. "O'qituvchi" 1980.

SEMENT MAHSULOTINI SIFAT KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Abduxalimova Xursanoy azizbek qizi
Andijon davlat texnika instituti talabasi
Esanova Shazoda Mamirovna,
"Metrologiya va yengil sanoat" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Mamlakatimizda sement mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ichki bozorni sifatli sement bilan ta'minlashni qo'llab quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-iyuldagi 371-sonli qaroriga asosan chiqarilgan – qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.07.2024-y. O'zbekiston Respublikasida raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarini ximoya qilish qo'mitasi, Bojxon qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining respublikaga olib kiriladigan sementni soddalashtirilgan tartib asosida erkin

muomalaga chiqarish amalyotini qo'llash to'g'risidagi takliflarni kiritilish sohani rivojlantirishni yangi bosqichiga olib chiqdi.

Qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirish- bu mahsulotlarning texnik va sifat talablari bo'yicha belgilangan standartlarga mosligini tasdiqlovchi jarayon. Ushbu sertifikatlash qurilish materiallari va mahsulotlarining sifatini, xavfsizligini va atrof-muhitga ta'sirini baholashga qaratilgan. Mahsulotning xavfsizlik sertifikati mahsulotning inson hayoti va salomatligiga xavfsizligini taminlaydi. Qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirishni tahlil qilishga oid asosiy jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sertifikatlash jarayoni: Qurilish mahsulotlarini sertifikatlashning dastlabki bosqichi laboratoriya sinovlari va tekshiruvlardan o'tishdir. Mahsulotning turli xarakteristikalarini, jumladan mexanik xususiyatlari, yong'inga chidamliligi, ekologik xavfsizligi va boshqa ko'plab omillar tekshiriladi.

Sertifikatlarning turlari: sertifikatlash jarayonida olingan sertifikatlar turli xil bo'lishi mumkin. Ular orasida: mahsulotning sifat sertifikati bo'lib, u mahsulotning belgilangan standartlarga mosligini tasdiqlaydi.

Tizim sertifikati: qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining umumiy sifat tizimi sertifikati.

Normativ hujjatlar va standartlar: sertifikatlashtirish jarayonida amal qilinadigan asosiy normativ hujjatlar va standartlar davlat va xalqaro darajada ishlab chiqilgan. Odatda, bunday standartlar mahsulotning texnik parametrlarini belgilaydi va uni turli sohalarda (yong'in xavfsizligi, ekologiya, energetika samaradorligi) qo'llanilishini ta'minlaydi.

Sertifikatlashtirishning afzalliklari:

- Mahsulotning yuqori sifatini ta'minlash va bozorga ishonchli mahsulotni taqdim etish;
- Qurilish xavfsizligini oshirish va me'yorlarga to'liq rioya qilish.
- Mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

Boshqa mamlakatlardagi sertifikatlashtirish tizimi: har bir davlatda o'ziga xos sertifikatlashtirish tizimi mavjud. Xalqaro bozorga chiqishda mahsulotlar ISO, CE va boshqa xalqaro sertifikatlar bilan tasdiqlanishi kerak.

Sertifikatlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar:

- sertifikatlash jarayonining murakkabligi va ko'p vaqt talab qilishi.
- narxning yuqoriligi va sinovlar uchun zarur bo'lgan materiallar hamda asbob-uskunalarining qimmatligi.
- mahsulotlarning standartlarga mos kelmasligi va bu holatlarda qayta ishlov berish zarurati.
- qurilish xavfsizligini oshirish va me'yorlarga to'liq rioya qilish.

Sement qurilishda keng qo'llaniladigan material bo'lib, u asosiy bog'lovchi modda sifatida ishlatiladi.

Sement (lotincha; caementum- shag'al, chaqiq tosh)- sun'iy noorganik kukunsimon bog'lovchi mineral. Ung suv qo'shilsa, xamirsimon massa hosil bo'ladi, vaqt o'tishi bilan qotib, toshsimon jismga aylanadi. Sement havoda ham, suvda ham qotish xususiyatiga ega. Sement qurilishda juda keng qo'llaniladigan betonning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sementning romansement, portlandsement, glinozyomsement, kengayuvchan, gidravlik qo'shimchali kabi turlari mavjud. Romansement ohaktoshni 900° gacha kuydirish yo'li bilan olinadi, keyin maydalab kukun holiga keltiriladi. Xom ashyoning xiliga qarab, romansementning qotish muddati 15 minutdan 24 soatgacha bo'lishi mumkin. Uning mustahkamligi ancha past bo'lib, 25 dan 100 gacha markali bo'ladi. Shuning uchun ham uning o'rnini XX-asr o'rtalaridan boshlab portlandsement egallay boshladi. Glinozyomsement glinozyom (alyuminiy oksidi)ga

boy bo'lgan tog' jinslari -boksit (alyuminiy rudasi), ohak yoki ohaktosh aralashmasini kuydirish yo'li bilan olinadi. Tarkibi: 40% CaO ; 40% Al_2O_3 ; 6— 8% SiO_2 dan iborat. Tez qotishi, mustahkamligining yuqoriligi va minerallashgan suvlarga turg'unligi bilan ajralib turadi. Markasi 300; 400; 500. Narxi portlandsementga nisbatan 2,5—3 baravar baland. Glinozymsement katta mustahkamlik talab etiladigan beton va temir-beton konstruksiyalarda, dengiz va minerallashgan suvlar ta'sirida bo'ladigan inshootlarda, tezkor yo'l va qurilish ishlarida, qish sharoitida betonlashda qo'llanadi.

Kengayuvchan sementning tarkibida glinozom sementdan tashqari ohak va gips ham bo'ladi; tez qotadi; o'ta mustahkam va suv o'tkazmas material hisoblanadi. Kengayuvchan sement gidrozolyatsiya ishlarida, choklarni yopish va ta'mirlash ishlarida qo'llanadi.

Gidravlik qo'shimchali portlandsement (ba'zan "pustsolan portlandsement" deb ham yuritiladi) tsement klinkeri (toshqoli) va nordon gidravlik qo'shimchalar (trepel, diatomit, trass, pemza va boshqalar)ni birgalikda maydalash (kukunlash) yo'li bilan tayyorlanadi. Sementning tarkibi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Kalsiy oksidi (CaO) – 60-67%, ohaktosh (CaCO_3) asosiy manba hisoblanadi.
2. Kremniy oksidi (SiO_2) – 17-25%, qum yoki loydan olinadi.
3. Alyuminiy oksidi (Al_2O_3) – 3-8% , gilli materiallar va boksit tarkibida mavjud.
4. Temir oksidi (Fe_2O_3) – 0,5-6%, temir rudalari yoki gilli materiallardan olinadi.
5. Magniy oksidi (MgO) – 0,1-4%, sementning ortiqcha qisqarishini oldini oladi.
6. Sulfatlar (SO_3) – 1-3%, gips (CaSO_3) qo'shib, tsementning qotish tezligini nazorat qiladi.
7. Izotrop metall oksidlari (Na_2O , K_2O) – 0,5-1,5%

Tarkibiy qismlarning nisbatlari sement turiga qarab farqlanishi mumkin. Masalan, Portland sementi yuqori miqdorda kalsiy oksid va kremniy oksidiga ega, sulfatbardosh sement esa kamroq alyuminiy oksidi va ko'proq sulfat stabilizatorlariga ega bo'ladi. Hidravlik qo'shimchalar aralashma miqdorining 20—40% ini tashkil etishi mumkin. Bu Sement portlandsementga nisbatan arzonroq bo'lib, gidrotexnika, vodoprovod va kanalizatsiya inshootlarida qo'llanadi. Agressiv suvlar ta'siriga chidamli. Sement sanoatda XIX-asrdan boshlab ishlab chiqariladi.

Sement mahsulotining sifat ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiq turlicha bo'lishi mumkin. Asosiy standartlar quyidagilarni o'z ichiga oladi. ISO 9001 - Sifat menejmenti tizimlari uchun xalqaro standart. Bu standart tashkilotlarning sifatni boshqarish jarayonlarini belgilaydi. EN 197-1 - Yevropa standartlari bo'yicha sementning turlari va texnik talablarini belgilaydi. Bu standart sementning kimyoviy tarkibi, mexanik xususiyatlari va boshqa muhim ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

ASTM C150 - Amerika Qo'shma Shtatlarida sement uchun standartlar hisoblanadi. Bu standart portland sementining turli turlarini va ularning sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi.

ГОСТ 10178 - Rossiya Federatsiyasida sement uchun davlat standarti. Bu standart sementning sifat ko'rsatkichlarini va sinov usullarini belgilaydi.

Sifat ko'rsatkichlari va standartlar mamlakatdan mamlakatga farq qilishi mumkin, shuning uchun ma'lum bir hududda qo'llaniladigan standartlarni hisobga olish muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining Eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan 2020 yilda 4 ta mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalariga xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001 menejment tizimlarini joriy etish bo'yicha 585,7 mln so'm miqdorida moliyaviy ko'mak ko'rsatildi. Qurilish materiallari sohasida faoliyat yuritayotgan 1 421 ta korxonalarga 1 450 ta xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan menejment tizimlari joriy qilingan, jumladan, ISO 9001 – 1 408 ta, ISO 14001 – 13 ta, OHSAS 18001 – 22 ta, ISO 50001 – 7 ta, shu bilan birga eksportyor korxona va

tashkilotlarda xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan ISO 9001, ISO 14001, ISO 50001 menejment tizimlarini joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Xulosa: Qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirish — bu mahsulotlarning sifatini, xavfsizligini va standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi jarayon sifatida uning asosiy jihatlarni, ya'ni sifat kafolatini, xavfsizligini, bozor raqobatini, qonunchilik va normativ talablarni hamda ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash imkoniyatlarini beradi, bu esa sifatni oshirishga olib keladi.

Sement – qurilishda sohasida uning sifati va xususiyatlari qurilishning mustahkamligi va davomiyligini belgilaydi. Shunday ekan, uning kimyoviy tarkibi, mexanik kuchlanishi, suvni so'rish va hajm barqarorligi, uning uzoq muddatli ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga standartlarga muvofiqligi, ishlab chiqarish jarayonini har bir bosqichlarida sifat nazorati muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, sement mahsulotining sifat ko'rsatkichlari va sertifikatlashtirish jarayoni qurilish sohasida muhim rol o'ynaydi, chunki bu iste'molchilarni himoya qiladi va qurilishning umumiy sifatini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, qurilish mahsulotlarini sertifikatlashtirish sifatni nazorat qilish, xavfsizlikni ta'minlash va me'yorlarga mosligini tekshirish uchun zarur jarayon bo'lib, bozorning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A.A “Qurilish materiallari sifatini nazorat qilish.”Darslik.Toshkent 2022.
2. A.A.Latipov V.B.Umarov. A.S.Alimov. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish sifati.toshkent SMSITI, 2008.
3. Qurbonov A.A.Metrologiya va standartlashtirish, T,O'zbekiston,2007.3.
4. O'zbekiston Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish tog'risida”gi qonuni.
5. Smith J.K. "Construction Products Certification in EU". Journal of Construction Engineering, 2023
6. Wang L. "Quality Control Systems in Asian Construction Industry". Building Materials Review, 2024
7. Construction Products Regulation (EU) No 305/201

Ni (II) NING β -(N-BENZOKSAZOLIN-2-TION)PROPION KISLOTASI BILAN KOMPLEKS BIRIKMASINING SINTEZI, TUZILISHI VA HIRSHFELD SIRT TAHLILI.

Amanov B.Sh. (PhD)

Termiz muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Ashurov J.M.,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo instituti

Turayev X.X., Sharifova L.B.

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada nikel (II) ionining benzoksazolin-2-tion propion kislota (BPK) bilan yangi $[\text{Ni}(\text{DEA})_2(\text{BPK})_2]$ tarkibli kompleksining sintezi hamda hirshfeld sirt tahlili keltirilgan. Sintez qilingan metallokompleksning tarkibi, molekulyar va kristall tuzilishlari


rentgen tuzilish tahlili (RTT) usulida aniqlangan. RTT natijalariga ko'ra kompleksda nikel (II) kationiga ikkita BPK ligandlari monodentat holatda va dietanolamin (DEA) bidentat holatda bog'lanib oktaedr tuzilishli kompleks hosil qiladi..

Kalit so'zlar: benzoksazolin-2-tion propion kislota, nikel (II) asitrat, spirt, suv, monodentat, bidentat, Hirshfeld.

Kirish. Ma'lumki atrof muhitning ifloslanishi va zararli mikroorganizmlarning ko'payib borishi hamda ularlarga qarshi kurashadigan vositalarga chidamliligining ortishi oqibatida yangi keng spektrli ta'sir doirasiga ega bo'lgan insektitsid, gerbitsid, fungitsid va bakteritsidlarga ehtiyoj ortmoqda.

Tarkibida benzoksazolin-2-tion va β -alanin kabi biologik faol fragmentlarni tutgan benzoksazolin-2-tion propion kislota (BPK) ham istiqbolli biologik faol birikmalardan biri hisoblanadi [1]. Biz ilgari BPKning [2] gidrati, solvati va tuzlarining kristall tuzilmalarini o'rganib chiqdik va benzoksazolin hosilalarining ekzotsiklik faol qismlari turli kristall shakllarda molekular ichidagi va molekulararo vodorod bog'lanishlarni hosil qilishga moyil ekanligini ko'rsatdi [3]. Xususan, BPKda karboksil guruhining harakatchan protoni osonlik bilan deprotonlanadi va turli organik tuzlar hosil bo'lishida ishtirok etadi. ma'lum bioaktiv xususiyatlarga ega bo'lgan BPKning metallokomplekslari sintez qilingan va o'rganilgan [4]. Shundan kelib chiqqan holda, uning metallokomplekslarini sintez qilish hamda fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi holatlar inobatga olinib, nikel (II) asitrat tuzining BPK bilan ta'sirlashishi suv+spirt aralashmasi ishtirokida olib borildi. Natijada hosil bo'lgan monokristallar RTT usulida tekshirilganda $[\text{Ni}(\text{DEA})_2(\text{BPK})_2]$ tarkibli yangi kompleks ekanligi aniqlandi.

Kompleks birikma sintezi. β -(N-benzoksazolin-2-tion)propion kislotasi hamda DEA larning spirtidagi eritmaları bilan nikel (II) asetatning distillangan suvdagi eritmalaridan mos ravishda 2:2:1 molyar nisbatda olinib foydalanildi. Hosil bo'lgan eritmaları magnitli aralashtirgich yordamida 25-30°C haroratda 30-35 daqiqa davomida qizdirilib aralashtirildi, xona xaroratida qoldirilib kuzatishga qo'yildi. Kuzatishlar natijasida 8-10 kundan so'ng idish tubida kristallar hosil bo'lgani kuzatildi. Mikroskop orqali RTT uchun 0.09-0.22 mm o'lchamdagi yaroqli monokristallar tanlab olinib, tahlil qilindi va kompleksning tuzilishi aniqlandi. Reaksiya tenglamasi quyidagicha taklif qilindi (1-rasm).




1-pasm. $[\text{Ni}(\text{DEA})_2](\text{BPK})_2$ tarkibli metallokompleksning sintez sxemasi

Olingan natijalar va ularning tahlili

Nikel atomi atrofidagi koordinatsion ko'pburchak NiO_4N_2 tipidagi oktaedrga to'g'ri keladi. Ni^{2+} ioni oktaedrik koordinatsiyaga ega bo'lishida, ikki dona DEA molekulasini bidentat holatda bittadan gidroksil guruhining kislород atomi hamda to'rtlamchi azot atomi markaziy atom bilan


donor-akseptor boʻ hisobiga va ikkita BPK anioni ion bogʻ hisobiga koordinatsiyalanib oktaedr tuzilishli neytral kompleks hosil qiladi (2-rasm).



2-rasm. $[Ni(DEA)_2(BPK)_2]$ tarkibli metallokompleksning molekulyar tuzilishi


Ni atomi bilan taʼsirlashgan DEA molekulasi atomlari oʻrtasidagi bogʻlar Ni-O2 2.0901 Å, Ni-O5 2.0795 (2.080) Å, Ni-N2 2.1065 (2.106) Å ni tashkil etadi. Kompleksning molekulyar tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.

$[Ni(DEA)_2(BPK)_2]$ tarkibli kompleks birikmadagi molekulalararo oʻzaro taʼsirlarning tabiatini yaxshiroq tushunish uchun, Hirshfeld sirt tahlili normallashtirilgan aloqa masofasini (d_{norm}) xaritalash, shuningdek, Crystal Explorer 21.5 dastur paketi yordamida oʻzaro taʼsir energiyasini hisoblash orqali oʻtkazildi. Kompleksining Hirshfeld sirt tahlilida qizil rang eng yaqin taʼsirlashuvlarni va koʻk rang eng uzoq taʼsirlashuvlarni ifodalaydi (3-rasm).



3-rasm. $[Ni(DEA)_2(BPK)_2]$ tarkibli kompleks birikmasining Hirshfeld yuzasi tahlilining sirt xususiyatlari tasviri

Kristall qadoqlashning shakllanishiga individual oʻzaro taʼsirlarning xissasini koʻrsatuvchi d_e va d_i funksiyalari yordamida olingan ikki oʻlchamli barmoq izining grafiklari (3-rasm) keltirilgan. Shunday qilib Hirshfeld sirtini tahlil qilish natijasida quyidagi taʼsirlashuvlar aniqlandi: H...H (54.0%), H...O/O...H (21.1%), H...S/S...H (16.0%), C...C (3.6%), H...C/C...H (1.9%), O...C/C...O (1.2%), N...C/C...N (1.2%), O...S/S...O (0.5%), S...C/C...S (0.4%) taʼsirlashuvlar kristall qadoqlashning shakllanishiga asosiy hissa qoʻshadi.(4-rasm)



4-rasm. $[\text{Ni}(\text{DEA})_2(\text{BPK})_2]$ tarkibli 2kompleksining 2D Hirshfeld barmoq izi grafiqi

Hirshfeld sirt tahlilidan ko‘rinib turibdiki o‘zaro ta’sirlarning asosiy qismini $\text{H}\cdots\text{H}$ (57.0%), $\text{H}\cdots\text{O}/\text{O}\cdots\text{H}$ (20.4%), $\text{H}\cdots\text{S}/\text{S}\cdots\text{H}$ (9.7%) va $\text{H}\cdots\text{C}/\text{C}\cdots\text{H}$ (7.1%) tashkil qiladi. $\text{N}\cdots\text{C}/\text{C}\cdots\text{N}$ (0.6%), $\text{S}\cdots\text{C}/\text{C}\cdots\text{S}$ (0.5%) hamda $\text{H}\cdots\text{N}/\text{N}\cdots\text{H}$ (0.4%) o‘zaro ta’sirlarining hissi juda kam va mos ravishda 0.6%, 0.5 va 0.4% ga teng.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida BPK asosida $[\text{Ni}(\text{DEA})_2(\text{BPK})_2]$ tarkibli yangi metallokompleks sintez qilindi. Sintez qilish uchun optimal sharoitlari o‘rganildi. Sintez qilingan metallokompleksning tarkibi, molekulyar va kristall tuzilishlari rentgen tuzilish tahlili (RTT) yordamida aniqlandi. Sintez qilingan kompleksning ichki sferasida Ni, BPK va DEA o‘zaro bog‘lanib sp^3d^2 holatda gibrirlangan hamda oktaedr shaklda koordinatsiyalanganligi aniqlandi. Hirshfeld sirtini tahlil qilish natijasida molekulararo ta’sirlashuvlar aniqlandi.

Adabiyotlar

1. B. Berk, Y.A. Tahirovic, E.F. Bülbül, S.N. Biltekin. The Synthesis, Antimicrobial Activity Studies, and Molecular Property Predictions of Novel Benzothiazole-2-Thione Derivatives. *Acta Pharm. Sci.* 2017, Vol.55, N3. DOI:10.23893/1307-2080.APS.05516
2. J.M. Ashurov, N.S. Muhammedov, B. Tashhodjaev, B. Ibragimov. *J. Struct. Chem.*, - 2015. – 56, N 6. – 1201.
3. Turner, M. A., McKinnon, J. J., Wolff, S. K. D. J., Grimwood, D. J., Spackman, P. R., Jayatilaka, D. & Spackman, M. A. (2017). *Crystal Explorer*, Version 17, University of Western Australia, Perth.
4. Ashurov J.M., Mukhamedov N.S., Tashkhodzhaev B. and Ibragimov A.B. // Crystal structure of $\alpha(\text{N-benzoxazolin-2-one})\text{acetic acid}$ hydrate, solvate and salts. *Journal of Structural Chemistry.* -2015. -V56. -№6. -P.1190-1196.

Amirov Shaxboz Temur o'g'li
Radjabov Shaxboz Baxtiyor o'g'li
Muxitdinov Muhammadali Jo'raqul o'g'li
Saydullaev Ulug'bek Eshmuhammad o'g'li
TerDMAU

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi misolida energiya taqchiligini samarali, ekologik jihatdan toza va istiqboli energiya manbalari orqali qondirish yo'llari ko'rib chiqilgan. AES dan foydalanish IES larga qaraganda ancha samarali va ekologik jihatdan toza energiya manbai ekanligini ko'rishimiz mumkin. AES lardan foydalanish orqali yer osti va yer usti manbalaridan oqilona va samarali foydalanishimiz mumkinligini ko'rishimiz mumkin va bu orqali kelajak avlodlarimizga energiya manbalaridan samarali foydaongan holda yer osti yer usti tabiiy boyliklarimiz ko'proq miqdorda qoldirishimiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar. IES, GES, stansiyalar blogi, FES, tabiiy gaz, elektr energetika, issiqxona gazlari, uran, karbonat angidrid.

Hozirda elektr energetika sohasi O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini ushbu jabhadagi o'zgarishlar misolida ham ko'rish mumkin.

Bugungi kunda respublikada elektr energiyasining ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sohasi suratiga nazar tashlaydigan bo'lsak. 2020-yilda umumiy hisobda 66.4 mlrd kVt-soat, 2021-yilda esa umumiy hisobda 71.3 mlrd kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarilgan. Shu ishlab chiqarilgan elektr energiyasining, elektr energiya ishlab chiqaradigan manbalarga taqsimotini qaraydigan bo'lsak [1]. 2020-2021-yillar oralig'ida elektr stansiyasining umumiy o'rnatish quvati 1.2%, ishlab chiqarish esa 7.3 % oshdi. Bu ishlab chiqarilgan elektr energiya qiymatini odam soni boshiga nisbatan oladigan bo'lsak 2020 yilda 1.92 ming kV*h, 2021 yilda 2.05 ming kV*h ni tashkil etgan va asosiy energiya manbayi IES lar bo'lib umumiy ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 92.14% tashkil qiladi. Buning uchun yiliga 19.8 milliard kub metr tabiiy gaz, 98 ming tonna mazut va 3.2 million tonna ko'mir sarflanadi. 2021-yil 31-oktyabrda BMTning iqlim o'zgarishlari bo'yicha 26-konfrensiyasi (COP26)bo'lib o'tdi. COP26 doirasida 2019-2020-yillarida turli ishlab chiqarish obyektlarida issiqxona gazlari emissiyasi xalqaro o'rganish natijalari elon qilindi. Baholash energiya ishlab chiqarish davomiyligini butun emissiyalarini hisobga olingan.

Generatsiya manbalari	CO ₂ – ekv.*/kVt*h
Ko'mir bilan ishlovchi IES lar	751-1095
Kombinatsiyalangan gaz elektr stansiyalari	403-513
Gidroelektrstansiyalar	6-147
Quyosh elektr stansiyalari (STES, CSP)	27-122
Quyosh elektr stansiyalari (fotovoltaik, PV)	8-83
Yer usti shamol elektr stansiyalari	12-23
Dengizdagi shamol stansiyalari	7.8-16
AES	5.1-6.4

Karbonat angidrid ekvivalenti - issiqxona gazining massa emissiyasini karbonat angidrid emissiyasi bilan solishtiruvchi birlik .

Jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki ekologik jihatdan eng maqbul manba AES lar sifatida qaralmoqda. Shu bois mamlakatda tinch maqsadlarda foydalanish uchun atom energetikasini barpo etishga kirishildi. Rossiyaning “Rosatom” davlat korporatsiyasi hamkorlikda atom elektr stansiyasini qurish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Mazkur kompleks 2 ta energoblokdan iborat, har birining quvvati 1200 Megavatt bo‘ladi. Atom elektr stansiyasi uchun dunyodagi eng xavfsiz va zamonaviy energoblok tanlab olingan. Atom elektr stansiyasi barpo etilishi natijasida yiliga 3,7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. Bu manba qayta ishlanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli neft-kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi. Insonning yillik nurlanish dozasi qaytadigan bo‘lsak ham radionuklidlardan foydalanish orqali olingan doza juda past ekanini ko‘rishimiz mumkin [2].

Butun dunyo atom energiyasiga oid tashkilotlarning keyingi ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda 448 dan ortiq AES bo‘lib, yana 53 tasi qurilish bosqichida turibdi. Atom elektrostansiyalari dunyoda elektr energiyaning 15% ini ishlab beradi. Eng ko‘p AES Amerikada joylashgan, ya’ni dunyodagi AES larning yarmidan ko‘pi AQSh da bo‘lib, ular 101,4 mln. kVt energiya ishlab chiqaradi. Hozirgi vaqtda yerdan qazib olinadigan uranning 1% igina AES larga yoqilg‘i sifatida ishlatiladi, qolgan 99% esa chiqindi sifatida tashlanib, atrof-muhitni tuprog‘i, suvi, havosi hamda tirik jonzotlarga, shu jumladan, inson sog‘lig‘iga juda katta zarar yetkazadi.

Yer yuzida uran kam joylardagina uchraydi va uning zahirasi juda chegaralidir. Tabiatda uran 235 holda bo‘lib, uning miqdori qazib olingan uran tarkibi 1% ni, qolgani esa 238 ni tashkil qiladi. Agar uni “tez” reaktorga joylashtirib, maxsus ishlov berilsa, undan xom ashyo sun’iy izotop plutoniy olinadi. Natijada olingan yoqilg‘ining samaradorligi 50-60 barobar oshadi. Endi atom elektrostansiyalari asosiy yoqilg‘isi bo‘lgan uranning qazib olinishining dunyo bo‘yicha statistikasiga qarab o‘taylik. Butunjahon yadro assotsiatsiyasi (WNA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda tabiiy uran ishlab chiqaruvchi mamlakatlar reytingida O‘zbekiston beshinchi o‘rinni egallagan.

AES lardan foydalanishimiz zarur bo‘lgan yana bir muhim tarifini aytib o‘tadigan bo‘lsak bugungi kunda AES larda ishlatiladigan xom ashyolarning asosini uran tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyoning 28 davlatida Uran xom ashyosi qazib olinadi ammo uran zaxirasi bo‘yicha asosiy qismni 10 ta davlat ular bozorining 90% ni o‘zaro bo‘lib olishgan. O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 2% uran zaxirasiga ega bo‘lib umumiy miqdori 137 mingdan 185 ming tonnagacha deb qaralmoqda. O‘zbekiston uran ishlab chiqarish bo‘yicha 5 chi o‘rinda turadi. Uran zaxirasi bo‘yicha 7 o‘rinda turadi. O‘zbekistonda o‘rtacha 2400 tonna uran qazib olinadi bu qiymat esa butun dunyoviy ko‘rsatgich 4% tashkil etadi . O‘zbekistonda Uran zaxirasi mavjudligi Yadro energetikasida keng ko‘lamli imkoniyatlarni ochib beradi bu imkoniyatlardan AES qurilishi orqali foydalanish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda hozirgi zamon talabi iste’molchilarni sifatli ,ishonchli va uzluksiz elektr energiyasi bilan taminlashimiz kerak. Elektr energetikasining o‘rni, zamonaviy jamiyatning rivojlanishida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. U, nafaqat sanoat va iqtisodiyotda, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida katta o‘zgarishlarga olib keladi. Elektr energiyasining rivojlanishida o‘rni nihoyatda katta. U nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki insonlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ekologik barqarorlikni saqlash va texnologik yutuqlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, elektr energetikasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lucas W. Davis "Prospects for Nuclear Power" Journal of Economic Perspectives, 2012.
2. Matt Bowen "The Global Future of Nuclear Energy" Atlantic Council, 2023.
3. "The Path to a New Era for Nuclear Energy" International Energy Agency (IEA), 2023.
4. "World Energy Needs and Nuclear Power" World Nuclear Association, 2023.
5. Jingjing Liu va boshqalar "Research Status of Nuclear Power: A Review" Renewable and Sustainable Energy Reviews, 2018.
6. Alessandro Sapio va boshqalar "Prospects of Nuclear Power in a Sustainable Energy Transition" Arabian Journal for Science and Engineering, 2023.
7. Jonathan A. Lesser "Nuclear Power: Status Report and Future Prospects" Energy Policy, 2016.

ISTE'MOLCHILARING YASHASH SHAROITINI RIVOJLANISHIDA ELEKTR ENERGETIKANING O'RNI

Amirov Shaxboz Temur o'g'li
Radjabov Shaxboz Baxtiyor o'g'li
Tog'aymurodov Xushnud Xusniddin o'g'li
Annamuratov Rasul Baxtiyor o'g'li
TerDMAU

Annotatsiya. Zamon talabi bo'lgan sifatli elektr energiyasi bilan iste'molchilarni ta'minlash muhim bo'lib qoldi, shuning uchun ham yer yuzida muqobil va ananaviy energiya manbalaridan olinayotgan elektr energiyasining sifat ko'rsatkichlarini oshirish va iste'molchilarga uzliksiz yetkazib berish bo'yicha amaliy va nazariy ishlar olib borilmoqda. Bu borada yurtimiz rahbari boshchiligidagi yig'ilishlardagi qarorlar bilan tasdiqlamoqda. Shu qarorlarning ijorisi bo'yicha amaliy natijalar va yutuqlar misol bo'ladi.

Kalit so'zlar. elektr energetika rivojlanishi, elektr uzatish tarmoqlari, transformator.

Kirish. Hozirgi kunda yurtimizda elektr energiyasiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bunga sabab yurtimiz aholisi soni sezilarli darajada o'smoqda. Tabiiyki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham rivojlanishi natijasida elektr energiyaga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Aholini elektr energiya bilan ta'minlashda bir qancha kamchiliklar yuzaga kelayotgan paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2022 yildagi qarori [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 martdagi "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4249-sonli qaroriga asosan elektr energiyani yakuniy iste'molchilarga taqsimlovchi va sotuvchi hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini boshqarishni amalga oshiruvchi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tarkibida 15 ta korxona va 2 ta filial, shundan 0,4-6-10-35-110 kV kuchlanishli elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya, shuningdek, mazkur obyektlarning rivojlanishi doirasida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kapital va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshiruvchi 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonasi faoliyat yuritadi. 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonasi va 224 ta tuman va shahar elektr ta'minoti korxonalari tomonidan 35-110 kV kuchlanishli 1 660 ta nimstantsiyadan uzatiladigan elektr energiyasi

keyinchalik 86 389 dona transformator punktidan chiquvchi 260,5 ming km uzunlikdagi elektr uzatish liniyalari orqali O‘zbekiston Respublikasining maishiy va yuridik iste’molchilariga yetkazib beriladi. Ayni paytda “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tassarrufida 2024 yil 1 sentabr holatiga:

Jami 04-110 kVli elektr uzatish tarmoqlari 260 512 km

- 110 kV – 15 022 km; - 35 kV – 13 209 km; -10 kV – 84 870 km;

- 6 kV – 13 902 km; -0,4 kV – 133 529 km.

Jami transformator punktlari 86 389 dona

100 kV·A gacha – 38 468 dona; 100-160 kV·A gacha – 32 102 dona;

250-400 kV·A gacha – 10 381 dona; 630 kV·A va undan ortiq – 5 438 dona.

Jami podstantsiyalar 35 kV-110 kV (1660 ta),

110 kVli – 671 ta; 35 kVli – 989 ta mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida elektr energiyasidan foydalanuvchilarning umumiy

soni: yuridik iste’molchilar – 367,0 ming kishi; maishiy iste’molchilar (aholi) – 7,2 mln. kishi.

Mustaqillik yillaridan keyin yurtimizda elektr uzatish va ishonchliligini oshirish bo‘yicha yangidan liniyalar tortilmoqda va eski liniyalar yangilanmoqda. 2024 yil 15 000 km, 2020 yil 7957 km, 2019 yil 7273 km, 2018 yil 6638 km 2017 yil 3807 km, 1991-2016 yillarda 9300 km natijalar asosida 2017-2024 yillarda 40 675 km elektr uzatish tarmoqlari (EUT) yangilandi. So‘nggi 5 besh yilda yangidan qurilgan EUT 1991-2016 yillarga nisbatan qariyb 4,5 barobarga ko‘paygan.

Energetika vazirligi tizimidagi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2024 yilda olib borilgan tizimli ishlar natijasida yuqori kuchlanishli 19 ta podstantsiya quvvati qo‘shimcha 1 855 MVAga (megavolt amper) oshirildi. Vazirlik xabariga ko‘ra, 2022 yilda ham bu jarayon izchil davom ettiriladi.

O‘zbekiston elektr energetika tarmog‘idagi yuqori kuchlanishli - 110, 220 va 500 kV magistral elektr uzatish tarmoqlari uzunligi 2005 yildan 2022 yilgacha izchil oshib borgan. Taqqoslash va tahlil uchun shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2005–2016 yillar davomida, ya’ni 11 yil davomida 898,8 km yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari yangidan qurilgan bo‘lsa, 2017–2024 yillarda, ya’ni oxirgi 5 yil davomida uzunligi 1833,2 km bo‘lgan yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari foydalanishga topshirilgan. O‘zbekiston elektr energetika balansidagi 110, 220 va 500 kV kuchlanishli podstantsiyalar soni 2005–2024 yillar oralig‘ida 17 taga ko‘payib, elektr ta’minotining ishonchliligi oshirib borilgan. 2005–2016 yillarda, ya’ni 11 yil davomida 8 ta podstantsiya qurilgan bo‘lsa, 2017–2024 yillar davomida 8 ta yuqori kuchlanishli podstantsiya foydalanishga topshirildi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi yuqori kuchlanishli podstantsiyalarning quvvat o‘tkazish qobiliyati birmuncha yaxshilandi. Aniqroq raqamlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘tgan 2024 yilda Andijon viloyatida jami 200 MVA qo‘shimcha quvvat yaratildi. Farg‘ona viloyatidagi yuqori kuchlanishli podstantsiyalarda olib borilgan modernizatsiya va rekonstruksiya ishlari natijasida 125 MVA qo‘shimcha quvvat yaratildi.

“Farg‘ona magistral elektr tarmoqlari” filiali: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-sentabr sanasida tasdiqlagan Jahon banki ishtirokida “Magistral tarmoqlarning kichik stansiyalarini zamonaviylashtirish va qayta qurish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3284-son qaroriga muvofiq “O‘zgarish” podstantsiyasiga qo‘shimcha yuqori quvvatli avtotransformator o‘rnatish ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati tasarrufidagi “Farg‘ona magistral

elektr tarmoqlari” filiali 220–500 kVli 7 ta yuqori kuchlanishli podstansiyalar hamda umumiy uzunligi 601122 kilometr bo‘lgan 220–500 kVli havo liniyalariga xizmat ko‘rsatadi. filial ishchi-xodimlarining Energetika vazirligi strategik chora-tadbirlari, Aksiyadorlik jamiyati ko‘rsatmalari hamda filial rahbariyati ish rejasiga muvofiq barqaror faoliyati, eng avvalo, Farg‘ona vodiysi aholisi, ijtimoiy soha obyektlari, shu bilan birga o‘rta va kichik biznes vakillari hamda yirik sanoat korxonalarini elektr energiyasi bilan ta‘minlashning ishonchligini kafolatlash borasida muhim o‘rin egallaydi.

Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumanidagi «Tovush» MFY, Yangi hayot qishlog‘i manzilida joylashgan 220/110/10 kVli “O‘zgarish” podstansiyasida “Jahon banki ishtirokida magistral elektr tarmoqlari podstansiyalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” nomli investitsiya loyihasi doirasida quvvati 250000 kVAli yangi hamda zamonaviy avtotransformatorini 220 kV, 110 kV hamda 10 kV kuchlanishga ega bo‘lgan yacheykalari bilan birga yangidan qurish hisobiga AT-3 — qo‘shimcha yuqori quvvatli avtotransformatorni o‘rnatish ishlari muvaffaqiyatli yakunlandi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, joriy yilning 17-oktabr kuni qurilish-montaj va sozlash ishlari to‘liq yakunlanib, muhandislik talablariga muvofiq tasdiqlangan ishga qo‘yish dasturi muvofiq, avtotransformator 72 soat davom etadigan sinov rejimi asosida ishga qo‘yildi. Bajarilgan ishlarning yakuniga ko‘ra 220/110/10 kVli “O‘zgarish” podstansiyasida elektr energiyasi quvvatini o‘tkazish imkoniyati qo‘shimcha 250 MVA hisobiga ortdi. Energetika vazirligi tizimidagi “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan 2024 yilda olib borilgan tizimli ishlar natijasida yuqori kuchlanishli 19 ta podstansiya quvvati qo‘shimcha 1 855 MVAg (megavolt amper) oshirildi. Vazirlik xabariga ko‘ra, 2022 yilda ham bu jarayon izchil davom ettiriladi. Mamlakatimiz aholisi sonining oshib borishi, yurtdoshlarimizning elektr uskuna va jihozlaridan foydalanish ko‘lamining yildan yilga kengayib borayotgani, shu bilan birga, respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlikka keng imkoniyatlar berilayotgani, qator investitsiya dasturlari hisobiga yirik sanoat korxonalari ochilayotgani — elektr energiyasi iste‘moli kun sayin oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash tarmoqlari izchil rivojlanib borishi, yangi obektlar qurilib, mavjudlari yangilanib borilishini talab qiladi. 2024 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, Respublikada iste‘molchilar soni 7 million 515,9 ming nafarni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 1 million 194,8 ming nafarga o‘sgan. Ulardan 356,3 ming nafari yuridik iste‘molchilar bo‘lib, avvalgi yillarga nisbatan 88,9 ming nafarga ko‘paygan. O‘zbekiston iste‘molchilarining energiya resurslariga bo‘lgan talab 2024 yilda bu ko‘rsatkich 71,4 milliard kVt.soatni tashkil qilgan. 2016 yilda respublika bo‘yicha o‘rtacha kunlik elektr energiyasi iste‘moli ko‘rsatkichi 142,1 million kVt. soatni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 205,1 million kVt. soat yoki 44,3 foizga oshgan.

Farg‘ona viloyatining 2020 yil yanvar xolatiga ko‘ra kunlik elektr energiyasi iste‘moli hajmi o‘rtacha 2,0 mln kVt/s ga, yoki 80-85 MVt quvvatga o‘sishi kuzatilmoqda. Bir kunlik viloyatga elektr energiya ishlab chiqarish balansi bo‘yicha berilgan topshiriq 17,8 mln kVt/s belgilangan bo‘lib, elektr ta‘minotidagi uzilishlar bilan bir kunda 19,1-19,5 mln kVt/s elektr energiyasi iste‘molchilarga yetkazib berilgan. Elektr tarmoqlari va transformator punktlarini, ya‘ni iste‘molchilarga elektr energiyasi yetkazib berishga xizmat qiluvchi infratuzilmani yangilash va modernizatsiya qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Oxirgi besh yilda 40 ming 700 kilometrgacha past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari modernizatsiya qilinib, yangidan qurilgan. Bu 1991-2016 yillar, ya‘ni avvalgi 25 yilga nisbatan (25 yilda 9 ming 300 km edi) qariyb 4,4 barobarga ko‘p.

Joriy yilning yanvar mart oylarida istemolchilarga 16,1 milliard kWh (kilovattsoat) elektr energiyasi yetkazib berildi. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 milliard kWh yoki 8,2 foizga ko'pni tashkil etadi. 2017-2024 yillarda respublikamizdagi iste'molchilarini elektr energiyasi bilan ta'minlashning umumiy ko'rsatkichlari

2017 yil - 47.4 mlrd kWh, 2018 yil - 50.5 mlrd kWh,

2019 yil - 52.7 mlrd kWh, 2020 yil - 55.8 mlrd kWh

2024 yil - 60.5 mlrd kWh

2017-2024 yillarda respublikamizda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ko'rsatkichlari

2017 yil - 60.7 mlrd kWh, 2018 yil - 62.8 mlrd kWh

2019 yil - 63.6 mlrd kWh, 2020 yil - 66.4 mlrd kWh

2024 yil - 71.3 mlrd kWh

Xulosa. Xulosa qilib aytganda hozrgi zamon talabi iste'molchilarni sifatli, ishonchli va uzliksiz elektr energiyasi bilan taminlashimiz kerak. Elektr energetikasining o'rni, zamonaviy jamiyatning rivojlanishida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. U, nafaqat sanoat va iqtisodiyotda, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida katta o'zgarishlarga olib keladi. Elektr energiyasining rivojlanishida o'rni nihoyatda katta. U nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki insonlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ekologik barqarorlikni saqlash, va texnologik yutuqlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, elektr energetikasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klyuchev V.I. Teoriya elektroprivoda. M.: Energoatomizdat, 2016., 704.
2. Anuchin A.S Sistem upravleniya elektroprivodov. Infra-Injeneriya 2016.
3. Hoshimov O.O., Saidahmedov S.S. Elektr yuritma asoslari. darslik. - T: fan va texnologiyalar, 2021. - 288 b.
4. Xoshimov O.O., Ortiqov T.J., Mirxaydarov M.M. Elektr yuritmalari nazariyasi fanidan laboratoriya ishlariga uslubiy ko'rsatmalar. – T: 2016.
5. Ortiqov. T.J., Sanoat qurilmalarining elektromexanik tizimlari. O'quv qo'llanma. – T: Turon Iqbol, 2019.
6. Xoshimov O.O., Imomnazarov A.T. Elektr yuritma asoslari. 2016.
7. Mustafaqulova G.N, Toirov O.Z, Bekishev A.Y Elektr mashinalari Amaliy mashg'ulotlar o'quv qo'llanma Toshkent 2020.
8. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
9. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
10. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

NASOS VA NASOS STANSIYALARINING PARALLEL VA KETMA KET ISHLASHIDA ELEKTR ENERGIYASI SARFI HAMDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

*Amirov Shaxboz Temur o'g'li
Radjabov Shaxboz Baxtiyor o'g'li
Muxitdinov Muhammadali Jo'raqul o'g'li
Saydullaev Ulug'bek Eshmuhammad o'g'li*

Annotatsiya. Keyingi o'n yilliklarda suv manbasidan yuqorida joylashgan yerlarni o'zlashtirilishi munosabati bilan meliorativ nasos stansiyalari qurilishi avj oldirildi. Kelajakda respublikamizda sug'oriladigan dextqonchilikni rivojlanishi ya'ni yangi yerlarni o'zlashtirilishi va sug'orishning yangi tejamkor (yomg'irlatib, tomchilatib, yer ostidan) texnologiyalarini qo'llanishi nasos stansiyalari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Kalit so'zlar. nasos va nasos stansiyalar, parallel, ketma-ket ishlash prinsipi, iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Parallel ishlash: Nasoslar parallel ishlaganda, bir nechta nasos bir vaqtning o'zida ishlaydi va ularning chiqish bosimlari bir xil bo'ladi. Parallel ishda, har bir nasosning ish hajmi (debiti) bir-biriga qo'shiladi, ammo umumiy bosim odatda bir xil qoladi. Bu usulda har bir nasos o'zining optimal ish nuqtasida ishlaydi va tizimning umumiy quvvatini oshiradi.

Afzalliklari: Qattiq ish sharoitlariga qarshi moslashuvchanlik (agar bir nasos ishlamasa, qolganlari tizimni ishlatishni davom ettiradi). Ikkita yoki undan ortiq nasosning qo'shilishi tizimning samaradorligini oshiradi. Nasoslar orasida ish hajmi teng taqsimlanadi.

Kamchiliklari: Tizimni boshqarish va nazorat qilish murakkablashadi. Agar nasoslarning ishlash nuqtalari farq qilsa, ba'zida ularning samaradorligi pasayishi mumkin.

Parallel ishlashdagi energiya sarfi va iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Parallel ishlashda bir nechta nasos bir vaqtda ishlaydi va tizimning umumiy debiti oshadi. Har bir nasos o'zining optimallik nuqtasida ishlashga harakat qiladi. Bu usulda energiya sarfi va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

Energiyaning sarfi: Har bir nasosning energiya iste'moli (quvvat sarfi) alohida-alohida hisoblanadi va bu nasoslar orasidagi ish hajmi teng taqsimlanadi. Nasoslar parallel ishlashda, debiti (ish hajmi) ko'paytiriladi, lekin har bir nasosning quvvati, asosan, uning samaradorligi va ishlash sharoitiga bog'liq. Agar nasoslar optimal nuqtada ishlasa, u holda energiya sarfi minimal bo'ladi. Agar nasoslar yaxshi balanslanmasa yoki biri noto'g'ri ishlasa (masalan, haddan tashqari yuklanish), energiya sarfi oshishi mumkin.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar: Parallel ishlashda tizimdagi nasoslarning soni ko'payishi va turli nasoslar o'zining optimal ish nuqtalarida ishlashi iqtisodiy jihatdan samarali bo'ladi. Bu usulda energiya sarfi yaxshilanadi va ko'proq samaradorlikka erishish mumkin. Yangi nasoslarni qo'shish orqali tizimning quvvati va samaradorligi oshadi, ammo nasoslarni muntazam ravishda ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari ham ortadi.

Ketma-ket ishlash: Nasoslar ketma-ket ishlaganda, bir nasosdan chiqayotgan suyuqlik boshqa nasosga yo'naltiriladi. Har bir nasosning chiqish bosimi ketma-ket bir-biriga qo'shiladi, ammo debiti (ish hajmi) odatda bir xil bo'ladi. Bu usulda, har bir nasosning chiqish bosimi oshiriladi, lekin umumiy debiti o'zgarmaydi.

Afzalliklari: Yaxshi bosim ko'tarilishi kerak bo'lgan tizimlarda samarali ishlaydi (masalan, suyuqlikni yuqori balandlikka ko'tarishda). Agar tizimda yuqori bosim talab qilinsa, ketma-ket ishlash kerak bo'ladi.

Kamchiliklari: Nasoslarning chiqish debiti bir xil bo'ladi, shuning uchun faqatgina bosim oshiriladi, debiti oshirilmaydi. Ketma-ket ishlashdagi energiya sarfi va *iqtisodiy ko'rsatkichlar:* Ketma-ket ishlashda nasoslar bir-biriga ulanadi va har bir nasosning chiqish bosimi birin-ketin

oshadi, lekin debiti o'zgarmaydi. Bu usulda energiya sarfi va iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar:

Energiyaning sarfi: Ketma-ket ishlashda, agar har bir nasosning bosim chiqishi (va energiya sarfi) to'g'ri moslashtirilgan bo'lsa, tizim samarali ishlaydi. Biroq, energiya sarfi odatda parallel ishlashga qaraganda yuqoriroq bo'lishi mumkin, chunki har bir nasosning bosimi oshiriladi, lekin debiti saqlanadi. Nasoslarning bosimlarida ortiqcha o'zgarishlar yoki noto'g'ri ishlash, tizimning umumiy energiya sarfini oshirishi mumkin.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar: Ketma-ket ishlash, odatda, yuqori bosim talab qilinadigan tizimlar uchun mos keladi, masalan, suyuqlikni balandlikka ko'tarish yoki uzoq masofalarga yetkazish. Agar tizimdagi nasoslar samarali ishlamasa yoki ish nuqtalarida optimal bo'lmasa, energiya sarfi yuqori bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'ladi. Ketma-ket ishlashda tizimda nasoslarning bir-biriga bog'lanishi tufayli xarajatlar ko'payishi mumkin, chunki har bir nasosning ishlashini to'g'ri nazorat qilish va sozlash zarur bo'ladi.

Xulosa. Parallel ishlash ko'proq hajmni oshirish (debiti oshirish) uchun ishlatiladi. Ketma-ket ishlash esa bosimni oshirishga mo'ljallangan bo'lib, suyuqlikni yuqori balandliklarga ko'tarish yoki bosimni yuqori darajaga chiqarish uchun foydalidir. Yer osti suvlarini sathi ko'tarilishi ko'p hollarda vertikal zovurlar qurish va ulardan nasoslar bilan suvlarini chiqarib tashlashni taqozo etadi. Axolini ichimlik suv bilan ta'minlash tarmoqlarida ham nasos stansiyalari muxim o'rin egallaydi. Nasoslar yordamida suv chiqarishga mo'ljallangan gidromexanik va energetik asbob-uskunalar va gidrotexnika inshootlari majmuiga nasos stansiyasi deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxammadiyev M.M., Urishev B.U., Djuraev K.S. «Gidroenergetik qurilmalar». Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2015.
2. Mamajonov M. Nasoslar va nasos stantsiyalari. Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013.
3. Muxammadiyev M.M., Uralov B.R., Mamajonov M. va boshqalar. Gidromashinalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TIMI, 2011.
4. Muxammadiyev M.M. i Potoenko K.D. Vozobnovlyamo'e istochniki energii. Uchebnoe posobie. – Tashkent: TashGTU, 2005.
5. Bakiyev M., Nosirov B., Xo'jaqulov R. Gidrotexnika inshootlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'MKTM, «Bilim» nashriyoti, 2004.
6. Muhammadiyev M.M., Nizamov O.X. Gidroturbinalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2006.
7. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ПОЛЕЗНОГО ДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРОБЕЖНОГО НАСОСА В ТУРБИННОМ РЕЖИМЕ

Амиров Шахбоз Темур ўғли
Раджабов Шахбоз Бахтиёр ўғли
Мухитдинов Муҳаммадали Жўрақул ўғли

АННОТАЦИЯ. В статье предложена простая методика расчета энергетических параметров насоса в турбинном режиме, которая обоснована на струйной теории о движении жидкости в рабочем колесе насоса.

Ключевые слова: центробежный насос, коэффициент полезного действия, турбинный режим, рабочее колесо, скорость потока, напор, расход.

Преобразование подводимой к насосу, работающему в турбинном режиме, энергии воды в механическую энергию рабочего колеса производится за счет непосредственного силового воздействия воды на лопасти рабочего колеса. Существуют различные работы, касающиеся теоретического расчета и анализа КПД осевых гидротурбин. В этих работах используется вихревая теория о движении жидкости в рабочем колесе с учетом конечного числа лопастей, тем самым дается ясная физическая картина о движении жидкости в рабочем колесе гидротурбины. Однако в связи с их сложностью эти работы не нашли широкое применение. Кроме этого эти работы применяются только для осевых гидротурбин. Поэтому ниже предлагается более простая методика расчета энергетических параметров насоса в турбинном режиме, которая обоснована на струйной теории о движении жидкости в рабочем колесе насоса [1-3].

Согласно общим положениям механики жидкости, абсолютная скорость V в области лопастного колеса может быть получена как геометрическая сумма относительной w и переносной и скоростей.

$$v=w+u \quad (1)$$

Определение значений и направлений этих скоростей производится на основе упрощенных теоретических схем течения, наиболее близко приближающихся к действительному характеру движения жидкости в межлопастных каналах рабочего колеса.

В основу представления об установившемся движения потока через рабочее колесо центробежного насоса положена гипотеза о струйном течении жидкости. Согласно этой гипотезе были получены следующие зависимости, позволяющие построить треугольники скоростей в любой точке потока внутри рабочего колеса насоса:

$$W_i = \frac{Q}{2\pi r_i b_i \psi \sin \beta_i} \quad (2)$$

$$U_i = \frac{2\pi r_i n}{60} \quad (3)$$

$$V_i = \frac{Q}{2\pi r_i b_i \psi \sin \alpha_i} \quad (4)$$

где i - индекс, поскольку мы будем рассматривать турбинный режим центробежного насоса, $i=1$ соответствует входной кромке в турбинном режиме, $i=2$ - выходной кромке, r_i - радиус рабочего колеса в рассматриваемой точке, b_i - ширина тела лопастей,

$\psi_i = \frac{2\pi r_i - z b \sin i}{2\pi r_i b_i}$ коэффициент стеснения, определяется как отношение действительной

площади сечения потока к площади сечения свободного от лопастей, Z - число лопастей, s_i - толщина лопастей, $\sin i$ - нормальная толщина лопастей, β_i - угол между

направлениями переносной и относительной скоростями, δ_i - угол между переносной скоростью и касательной к средней линии профиля лопастей, проведенной в сторону, обратную вращению рабочего колеса, α_i - угол между направлениями абсолютной и переносной скоростями, n - скорость вращения рабочего колеса. Отношение между α_i и β_i определяется из следующего соотношения:

$$\operatorname{Tg} \alpha_i = \frac{w_i \sin \beta_i}{U_i - w_i \cos \beta_i} \quad (5)$$

Следует отметить, что эти зависимости верны и для насосного и для турбинного режима гидромашины. Уравнение Эйлера для турбинного режима имеет следующий вид:

$$H_T = \frac{1}{g} (U_1 v_1 \cos \alpha_1 - u_2 v_2 \cos \alpha_2) \quad (6)$$

Обозначая $H_{\text{теор.м.}} = \frac{1}{g} (U_1 v_1 \cos \alpha_1 - u_2 v_2 \cos \alpha_2) \quad (7)$

Тогда уравнение (6) переписывается следующим образом

$$H_T \eta_T = H_{\text{теор.м.}}$$

Отсюда $\eta_T = H_{\text{теор.м.}} / H_T \quad (8)$

$$0 \leq \eta_T \leq 1$$

$$0 \leq H_{\text{теор.м.}} = H_T \quad (9)$$

Подставляя (2), (3), (4) и (5) в (7) получаем:

$$H_{\text{теор.м.}} = \frac{p^2 n_T^2}{900g} ((r_1^2 - r_2^2)) \quad (10)$$

Поскольку решетка лопастей рабочего колеса на выходной кромке относительно густая, то можно приблизительно считать, что относительная скорость на выходе направлена по касательной к лопасти, т.е. принимаем

$$\beta_2 = \delta_2 \quad (11)$$

Таким образом, при каждом режиме работы насоса в качестве турбины, который определяется напором H_T , расходом Q_T , n - числом оборотов, β_1 - имеет определенное значение, находящееся внутри интервала ($\beta_{1\text{мин}}$, $\beta_{1\text{мах}}$). В общем случае значение β_1 зависит от различных факторов, в том числе можно перечислить следующие: геометрические данные рабочего колеса, спиральная камера, диффузор насоса, напор, расход и т.д. В свою очередь эти факторы определяют и КПД насоса в турбинном режиме. Таким образом, КПД центробежных насосов в турбинном режиме можно предварительно определить по четырех квадратным характеристикам. В случае отсутствия этих характеристик КПД центробежных насосов в турбинном режиме можно определить на основании каталожных данных и параметров рабочего колеса по предлагаемому методу.

Литература:

1. Мухаммадиев М.М., Уришев Б.У., Джураев К.С., Мамадиёров Э.К. Энергетические установки малой мощности на базе возобновляемых источников энергии. Монография. – Т., ТГТУ, 2015 – 162 с.
2. Чебаевский В.Ф., Вишневский К.П., Накладов Н.Н. Проектирование насосных станций и испытание насосных установок. Учебник. – М.: Колос, 2000.
3. Нормативы технического обслуживания и ремонта гидросилового оборудования (обратимых гидромашин) гидроаккумулирующих электростанций (ГАЭС). СО 34.31. 603–97. – М.: ОРГРЭС, 1997.

UMUMTEXNIKA FANLARINI O'QITISHNING KADRLAR TAYYORLASHDA AHAMIYATI

*Bekkulov B.R. t.f.f.d., dotsent,
Andijon davlat texnika instituti,
Yuldashev I.K. izlanuvchi,
Xo'jaobod tuman politexnikumi,*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumtexnika fanlarining kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati, ularning vazifalari, o'qitilish metodlari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Umumtexnika fanlari, muhandislik, texnologiya, amaliy ko'nikma, mantiqiy fikrlash, resurs.

Kirish. Umumtexnika fanlari, muhandislik va texnologiya sohalarida asosiy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantiruvchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Umumtexnika fanlari, xususan "Nazariy mexanika", "Materiallar qarshiligi", "Mexanizm va mashinalar nazariyasi", "Mashina detallari" kabi fanlar talabalarni kelgusidagi muhandislik faoliyatiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida zarur bo'lgan nazariy va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, "Mashina detallari" fani hozirgi talabalarni kelgusidagi muhandislik faoliyatida ko'plab uchraydigan umumiy detallarni tuzilishini, ularni iqtisodiy jixatdan tejimli qilib xisoblash va loyihalash usullarini o'rganuvchi fan hisoblanadi [1;2].

Umumtexnika fanlarini o'zlashtirish natijasida olingan bilimlar asosida muhandislar, texnik xodimlar, olimlar va ba'zi hollarda noyob qobiliyatga ega bo'lgan insonlar tomonidan loyihalash va konstruksiyalash ishlari amalga oshiriladi. Loyihalash va konstruksiyalash o'zaro uzviy aloqada bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan jarayonlardir. Loyihalash konstruksiyalashdan oldin bajariladi va ilmiy asoslangan, texnik jihatdan amalga oshirish mumkin bo'lgan holda iqtisodiy jihatdan maqsadga monand muhandislik yechimlari sifatida namoyon bo'ladi. Konstruksiyalashda esa mahsulotning aniq, ravshan va bir ko'rinishdagi konstruksiyasi yaratiladi. Konstruksiyalash jarayonida mahsulot (detal) ning tasviri va ko'rinishi yaratiladi, joiz og'ishlarni e'tiborga olgan holda olchamlar majmui hisoblanadi, kerakli materiallar tanlanadi, yuza notekisliklari belgilanadi, mahsulot (detal) ga yoki uning qismlariga qo'yiladigan texnikaviy shartlar aniqlanadi, texnikaviy hujjatlar yaratiladi. Konstruksiyalash loyihaash natijalariga tayanadi va loyihalash jarayonida qabul qilingan barcha muhandislik yechimlari (qarorlari) ni aniqlashtiradi. Konstruksiyalash jarayonida yaratiladigan texnikaviy hujjatlar barcha konstruksiyalash axborotlarini tayyorlanadigan mahsulotga o'tkazish imkoniyatini berishi kerak [2].

Umumtexnika fanlarini o'qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-nazariy bilimlarni berish. Umumtexnika fanlari talabalar uchun muhandislikning asosiy tamoyillarini o'rganishga yordam beradi. Bu tamoyillar mexanika, elektronika, materialshunoslik kabi sohalarini qamrab oladi;

-amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish talabalar uchun juda muhimdir. Umumtexnika fanlari orqali talabalarga laboratoriya ishlarini bajarish, loyiha ishlab chiqish va texnologik jarayonlarga oid tajribalar olib borish imkoniyatlari taqdim etiladi;

-muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish. Umumtexnika fani talabalarni mantiqiy fikrlashga, masalalarni tahlil qilishga va innovativ yechimlarni topishga o'rgatadi. Bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida juda muhimdir;

-jamoda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Ko'plab umumtexnika fanlari guruhli loyihalar doirasida o'qitiladi, bu esa talabalar orasida jamoa bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari. Umumtexnika fanlarini o'qitishda quyidagi zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish juda muhimdir:

-interaktiv ta'lim. Talabalarni faol ishtirok etishga undovchi interaktiv dars usullari orqali bilim olish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

-loyihaviy ta'lim: Mavzularni loyiha asosida o'rganish talabalarning ijodkorligini oshirib, real hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

-simulyatsiyalar va model yaratish: Texnologik jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar haqiqatda yuz beradigan vaziyatlarga tayyorlanadilar.

Natijalar. Umumtexnika fanlariga oid ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi bir qator yo'nalishlarni belgilab olish zarur:

-zamonaviy texnologiyalarni qo'llash. Yangi texnologiyalar umumtexnika fani dasturlariga kiritilishi kerak;

-xalqaro hamkorlik. O'zbekistonning xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda umumtexnika fanlarini takomillashtirish zarur.

Muhokama. Mavjud resurslardan samarali foydalanish. Laboratoriyalar va tajriba maydonchalarini modernizatsiya qilish orqali talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish mumkin.

Xulosa. Umumtexnika fanlarini o'qitish kadrlar tayyorlash jarayonida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, ularning nazariy bilimlardan tortib amaliy ko'nikmalargacha bo'lgan barcha jihatlarini qamrab oladi. Zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash orqali bu sohadagi mutaxassislarni yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Kelajakda umumtexnika fani doirasidagi yangi yondoshuvlar kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shoobidov Sh.A. Mashina detallari: Texnika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: "O'zbekiston ensiklopediyasi", 2014.- 444b
2. Kurganbekov M.M., Moydinov A. Mashina detallari: O'quv qo'llanma. I va II qismlar.- Toshkent: "O'zbekiston ensiklopediyasi", 2014.-384 b.
3. Shoobidov Sh.A.. Mashina detallarini hisoblash va loyihalash. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2021. 542 b.

SOHA YO'NALISHI BO'YICHA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH JARAYONIDA DUAL TA'LIM VA ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

*Zokirova Iroda Zakrullayevna - katta o'qituvchi
Andijon davlat texnika instituti*

Annotatsiya. Ushbu tezisda hozirgi kunda energetika sohasi bo'yicha turli yo'nalishlarda taxsil olayotgan ko'plab talabalarni yetuk soha vakillari sifatida shakllantirish uchun Oliy ta'lim

tizimining o'qitish sistemasidagi olib borilayotgan bir qator amaliy ishlar va ularning natijalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim va fan integratsiyasi, bilim, malaka, ko'nikma, amaliy seminarlar, 5+1 dasturi.

Kirish: Hammamizga ma'lumki, bundan bir necha yil avval oliy ta'lim tizimida texnoparklarning yaratilishi haqida tasavvur ham qilmagan edik. Rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida ko'rib, havas qilib, qani endi bizda ham shunday imkoniyatlar bo'lsa, deb o'ylardik. Chunki bunday zamonaviy uskunalar katta valyuta hisobiga xarid qilinishi hammamizga ma'lum[1].

Ilm bo'yicha izlanishlar olib borilmasa, rivojlanish bo'lmaydi. Keyingi besh yilda mamlakatimizda barcha islohotlar mana shu qat'iy tamoyil asosida kechdi. Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq ilm-fan va innovatsiyalar rivojini eng ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Jumladan, 2017-yil 23-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Kelgusi yilda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi", degan edi[2]. Shuningdek, 2021-yil 6-noyabrda Prezident lavozimiga kirishish marosimidagi nutqida: "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak", deb ta'kidladi. Ana shu fikrlar bugun hayotda o'zining amaliy isbotini topmoqda. O'tgan yillar davomida bu borada salmoqli natijalarga erishildi. Bugun yurtimizdagi biznes inkubatorlar, akselerator va kovorking o'quv kurslari, IT markazlar mana shu maqsadga qaratilgani bilan diqqatga sazovor[2].

Ilm-fan va innovatsiyalar Yangi O'zbekiston taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega ustuvor sohaga aylandi. Sohaga munosabat butkul o'zgardi. Bitta ilmiy loyihani moliyalashtirish hajmi 3,5 barobar ko'paydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, mamlakatimizning yetakchi oliy o'quv yurtlari yirik ilmiy-tadqiqot markazlari ham bo'lishi kerak. Oliy ta'lim tizimining vazifasi faqat talabalarni o'qitishdan iborat emas. Bunday muassasalar izchil ilmiy faoliyat olib borishi, yoshlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishi va yirik loyihalarni amalga oshirishi lozim.[3]

Ilmiy-tadqiqot: Andijon davlat texnika institutida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, yosh olimlar va iqtidorli talabalar iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarini ilmiy-texnik rivojlantirishga xizmat qiladigan ustuvor yo'nalishlarda innovatsion tadqiqotlar olib bormoqda. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro manfaatli hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularni ish o'rinlari bilan ta'minlash jarayonida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik aloqalarni kuchaytirish maqsadida bir qator ishla amalga oshirilgan.

Bu borada birgina "Elektr muxandisligi" fakulteti misolida ko'radigan bo'lsak, viloyatimizda faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalari "Uz Hanwoo", "Uz Coram Co", "Uz Semyung", "Uz Dong Ju", "Uz Auto Austem" va "Andijon xududiy elektr tarmoqlari" AJ hamda "Shaxrixon GES KASKADI" tashkiloti bilan hamkorlik shartnomalari tuzilgan. O'qitilayotgan mutaxassislik fanlaridagi mavjud amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bevosita shu korxonalarning o'zida olib borilmoqda. Bu usul 5+1 dasturi bo'yicha amalga oshirilib kelinmoqda.

Natijada talabalarda amaliy ko'nikmalarni xosil bo'lishiga imkon yaratilmoqda.



Metodlar: Andijon davlat texnika instituti “Elektr va energetika” fakulteti talabalarining 2-3-4 kurs talabarlari hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lgan elektr energiyani uzatish va taqsimlashdagi isroflarni kamaytirish chora tadbirlarida faol ishtirok etdilar. Jumladan “Elektr energetikasi”, “Elektr muxandisligi”, “Muqobil energiya manbalari”, “Energiya tejamkorlik va energiya audit” yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabarlari professor o‘qituvchilar va soha mutaxassislari bilan birgalikda butun viloyatimizdagi mavjud transformatorlarning ish faoliyatini xatlovdan o‘tkazdilar.

Belgilangan ob‘ektlarga biriktirilgan talabalar mas’ul professor o‘qituvchilar va soha vakillari bilan birgalikda mavjud muammolarni o‘rganib, joyida hal qiluvchi chora -tadbirlarni ishlab chiqishni o‘rgandilar. Bunday xatlovdan o‘tkazishning asosiy maqsadi elektr enegiyani

uzatish va taqsimlashdagi kuzatilayotgan isroflarni oldini olish va uning chora tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Natija: Xatlov davomida talabalar mutaxassislik fanlaridan olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lish bilan birga elektr energiyani uzatish va taqsimlash qurilmalarini ekspluatatsiyadagi xolati bilan yaqindan tanishib chiqdilar. Xatlov natijasida elektr energiyani uzatish va taqsimlash tizimidagi sodir bo'layotgan elektr energiya isroflarini qanday sabablar tufayli paydo bo'layotganiga aniqliklar kiritilib xulosalar soha mutaxassislariga taqdim qilindi va joyida hal qilinishi imkoniyati bor muammolar bartaraf etildi.

Muhokama: Oliy ta'limda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan chora-tadbirlar, qarorlar va farmoyishlarni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'zining bir qator samaralarini bermoqda. Jumladan bizning Andijon davlat texnika instituti "Elektr va energetika muxandisligi" yo'nalishi talabalarini dual ta'lim bo'yicha Andijon Hududiy elektr tarmoqlari AJ korxonasida olgan amaliy ko'nikmalari kelgusidagi o'qitilayotgan mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda katta samara bermoqda. Shuningdek, 5+1 dasturi bo'yicha esa mutaxassislik fanlari yuzasidan o'tiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bevosita korxonadagi mavjud laboratoriyalarda o'tilishi juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xulosa: Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida 5+1 dasturi va dual ta'lim shaklida dars jarayonlarini olib borish talabalar uchun samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Raximov.,B.Usmonov., M.Dusmuxammedov – "Ta'lim, fan, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsiya xamkorligi" – 2017 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zR Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zR Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

*Zokirova Iroda Zakrullayevna - katta o'qituvchi
Andijon davlat texnika instituti .*

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta'limda dual ta'limni yo'lga qo'yish va olib borish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan mutaxassislik fanlarining o'quv va ishchi dasturlarini ishlab chiqarish korxonalari bilan xamkorlikda yaratish, fanlar yuzasida o'tiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazilishi uchun yetarlicha shart sharoitlarni yaratib berish imkoniyatlari va ularning yechimlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: dual taʼlim, integratsiya, mehnat bozori, koʻnikma, malaka.

Kirish: Bugungi kunda taʼlim tizimining isloh qilinishi oqibatida taʼlim muassasalarida taʼlim mazmuni, soni va sifati, taʼlim dasturlari hamda taʼlimni tashkil etish jarayonlari oʻzgarmoqda. Malakatimizda boʻlajak mutaxassislarining nafaqat ichki mehnat bozori, balki tashqi mehnat bozorida raqobatlasha oladigan hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga boʻlgan qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida oliy taʼlim tizimida dual taʼlim asosida oʻquv jarayonlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Talabalar uchun dual taʼlim - mustaqillikni erta olish va kattalarga bimalol moslashish uchun ajoyib imkoniyatdir. Dual taʼlim maʼlumotlarning yetishmasligi va amaliy mashgʻulotlarning yetishmasligi oqibatida oʻqishning boshqa shakllari uchun muqarrar stressiz mehnat faoliyatiga silliq kirib borishni taʼminlaydi. Bu nafaqat aniq ish vazifalarini bajarishni oʻrganishga imkon beradi, balki jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, kasbiy kompetensiya va masʼuliyatni shakllantiradi. Dual taʼlim talabaning martabasini boshqarish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Uning doirasida taʼlim darajasi doimiy ravishda oshib boradi. Hech bir taʼlim ishlab chiqarish toʻgʻrisida dual taʼlim kabi maʼlumotni bera olmaydi, bu esa uni muvaffaqiyatli rivojlanish yoʻlidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Yurtimizda taʼlim sohasiga “Dual taʼlim” tushunchasining kirib kelishiga nima sabab boʻldi? - Hammamizga maʼlum, iqtisodiyotni rivojlanishida oʻrta boʻgʻin kadrlarining oʻrni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat koʻrsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga boʻlgan ehtiyoj juda yuqori koʻrsatkichlarni tashkil etadi. Anʼanaviy taʼlim shaklida talaba oliy yoki professional taʼlim muassasasida nazariy bilimlarni koʻproq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda oʻtaydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning taʼlim tizimi oʻrganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda oʻqish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual taʼlim shakli Oʻzbekiston taʼlim tizimiga kiritildi. “Dual” soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, biror narsaning ikki qismga taʼalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan maʼnolarni bildiradi. Dual taʼlim - talabaga taʼlimni oʻz yoʻnalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bunda yoshlar 2-3 kun taʼlim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy koʻnikmalarni egallaydi. Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan taʼlim tizimida dual taʼlimni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi. Bugungi kunda dual taʼlimni yanada rivojlantirish boʻyicha xorij tajribasini oʻrgangan holda, qonunchilik hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot: Bu borada bizning oliy taʼlim muassamizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan “Elektr muxandisligi” kafedrasi bir qator ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyib shartnomalar imzolangan. Bunday korxonalardan asosan Oʻzbekiston milliy elektr tarmoqlari AJ Andijon magistrat elektr tarmoqlari va Hududiy elektr tarmoqlari AJ Andijon filiali korxonasi hisoblanadi. Bu esa talabalarda amaliy koʻnikma va malaka hosil qilishlari uchun keng imkoniyatlar beradi.

Metodlar: Dual taʼlimni yoʻlga qoʻyish borasida “Elektr energetikasi” va “Elektr muxandisligi” yoʻnalishi talabalarini oʻqitilayotgan mutaxassislik fanlari yaʼni “Elektr texnik material” “Elektr izolyatsion materiallar va texnologik qurilmalarni sinovdan oʻtkazish” fanlari boʻyicha Hududiy elektr tarmoqlari AJ Andijon filialidagi mavjud “Oʻta kuchlanishdan ximoya qilish va izolyatsiyani sinash” xizmatidagi laboratoriyalarida bevosita oʻquv jarayonini olib

borish ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu yerda talabalar biriktirilgan xodim bilan birga amaliy tajribalarni bajaradilar, natijalar oladilar. Jumladan himoya vositalari hisoblangan dielektrik qo'lqop, bo'tik, gilam, yuqori va past kuchlanishni tekshirish asboblari, o'lchov va operativ shtanglari, transformatorlarning izolyatsiya qarshiliklarini o'lchash, yerlash qurilmasi va uni qarshiligini o'lchash kabi ishlarni bajarish bilan birga o'lchov asboblari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lmoqdalar.

Natija: Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni korxonalaridagi mavjud laboratoriyalarda o'tish imkoniyati talabalarda juda katta ta'surot qoldirmoqda. Chunki talabalar bevosita jarayonda ishtirok etadilar, natijalarni real holatda oladilar, qurilma va tajriba stendlarida ishlash ko'nikmalarini hosil qiladilar. Ishlab chiqarish korxonasining ishki tartib qoidalari bilan tanishadilar, kelgusida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan joylar bilan tanishadilar. Birinchi navbatda fanni o'zlashtirish darajasi ancha yuqori bo'ladi, berilgan topshiriqni talaba bemalol mustaqil bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Muxokama: Oliy ta'limda ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan chora-tadbirlar, qarorlar va farmoyishlarni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar o'zining bir qator samaralarini bermoqda. Jumladan bizning Andijon davlat texnika instituti "Elektr va energetika muxandisligi" yo'nalishi talabalarini dual ta'lim bo'yicha Andijon Hududiy elektr tarmoqlari AJ korxonasida olgan amaliy ko'nikmalari kelgusidagi o'qitilayotgan mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda katta samara bermoqda. Shuningdek, 5+1 dasturi bo'yicha esa mutaxassislik fanlari yuzasidan o'tiladigan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bevosita korxonadagi mavjud laboratoriyalarda o'tilishi juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, dual ta'lim tizimi ta'lim muassasasini bitirish vaqtida, muayyan sohada mutaxassis diplomiga ega bo'lgan, har qanday vazifalarni mustaqil hal qila oladigan kadrlarni tayyorlashga imkon beradi. Bundan tashqari, ular dual ta'lim olgan tashkilot yoki korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amlalga oshirilgan bo'ladi. Ishlab chiqarish uchun bunday mutaxassislarning qiymatini oddiy bitiruvchilar bilan taqqoslaganda va ularga o'sadigan kadrlar zaxirasiga nomzodlar kabi baho beriladi. Shunday qilib, ta'lim dual shakli sezilarli darajada ta'lim standarti talablari bajarilishini ta'minlaydi. Nazariy ta'lim darajasini saqlab, ta'lim jarayonining amaliy komponentini mustahkamlash imkonini beradi, aniq mehnat vazifalarini bajarish uchun to'liq tayyor mutaxassislar tayyorlash muammoni hal qilishga yordam beradi. Korxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun ishlab chiqarish sohasi bilan ta'lim muassasasi o'rtasida real aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812 son Farmoni. 2019 yil 6 sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi 2022-yil iyun oyida o'tkazilgan "Professional ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish va Germaniya tajribasi asosida dual ta'limni amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha videoselektor yig'ilishi.
3. F.Raximov., B.Usmonov., M.Dusmumammedov – "Ta'lim, fan, ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsiya xamkorligi" – 2017 yil.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zR Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zR Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

UMUMTA'LIM IXTISOSLIK FANLARI BO'YICHA TALABALAR UCHUN ELECTRON TA'LIM RESURLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI

*Yo‘ldosheva Nilufar Yusufvna
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar uchun elektron ta'lim resurslarini (ETR) yaratishning zamonaviy texnologiyalari, ularning afzalliklari, qo‘llanish sohalari hamda samarali ta'lim jarayonini tashkil etishdagi roli yoritilgan. Elektron darsliklar, multimedia vositalari, interaktiv platformalar va bulutli texnologiyalar asosida ETR tayyorlash bosqichlari, foydalaniladigan dasturiy vositalar va metodik yondashuvlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'quv jarayonida raqamli resurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning faolligi va bilim darajasini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Elektron ta'lim resurslari, raqamli texnologiyalar, interaktiv darslik, multimedia, bulutli xizmatlar, masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'lim innovatsiyalari.

Kirish: Oliy ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitish, talabalar uchun o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishni ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. O'quv jarayonining samarali va sifatli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarini qo'llash, ayniqsa elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda o'qitish muhim ahamiyatga ega. Elektron ta'lim resurslari, xususan, raqamli o'quv materiallari, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv vositalar ixtisoslik fanlarining o'qitilishi samaradorligini oshirishi, o'quvchilarni faol ishtirok etishga rag'batlantirishi va talabalarning o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Elektron ta'lim resurslari - bu o'quv jarayonini samarali o'tkazish uchun mo'ljallangan raqamli vositalar, shu jumladan, o'quv materiallari, taqdimotlar, videolar, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn platformalar va boshqa turli xil vositalardan iboratdir. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchilarga o'z darslarini yanada jonli va samarali qilishda yordam berish, talabalar esa o'quv jarayonida faol ishtirok etib, bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishidir.

Metodlar: Elektron Ta'lim Resurslarining Turlari quyidagicha:

1. O'quv materiallari (e-kitoblar, maqolalar, leksikalar): O'quvchilarga darslarni mustahkamlash va yangi mavzularni o'rganish uchun zarur bo'lgan barcha manbalar. O'quv materiallari onlayn tarzda mavjud bo'lib, talabalar uchun ko'plab resurslarni bir joyda taqdim etadi.

2. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Ixtisoslik fanlari, ayniqsa tabiiy fanlar va texnik mutaxassisliklar uchun virtual laboratoriyalar katta ahamiyatga ega. Ular talabalar uchun tajriba o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa amaliy ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi.

3. Onlayn kurslar va platformalar: Massive Open Online Courses (MOOCs) va boshqa onlayn platformalar (Coursera, edX, Udemy kabi) talabalar uchun darslar, testlar va qo'llanmalar taqdim etadi. Bu kurslar ixtisoslashgan fanlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni olish imkoniyatini yaratadi.

4. Interaktiv materiallar (video, animatsiyalar): Video darsliklar va animatsiyalar orqali murakkab kontseptsiyalarni vizual tarzda tushuntirish talabalar uchun eng samarali usullardan biridir. Bu turdagi resurslar o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi va murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi.

Oliy ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitishda bir qancha muammolar mavjud. Ular orasida talabalar uchun murakkab, keng qamrovli va ko'p amaliyot talab qiladigan fanlar bo'yicha yetarli tushuncha va ko'nikmalarni berishda qiyinchiliklar mavjud. Asosan, ushbu fanlarning nazariy qismi va amaliyotini samarali o'zlashtirish talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, an'anaviy darslar ba'zan talabalarni kamroq jalb qiladi va ular o'z fikrlarini bayon etishda yoki materialni mustahkamlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Elektron ta'lim resurslari yuqoridagi muammolarni hal qilishda katta yordam berishi mumkin. Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning samaradorligi ko'rsatiladi:

1. Interaktiv o'qitish: Elektron ta'lim resurslari talabalar uchun interaktiv o'qish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan birlashtirishlari mumkin. Shuningdek, onlayn testlar va viktorinalar orqali talabalar o'z bilimlarini baholash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Mustaqil o'qish va o'z-o'zini baholash: Elektron ta'lim resurslari talabalar uchun mustaqil o'qish imkoniyatlarini yaratadi. Onlayn kurslar va video darslar talabalar o'z jadvaliga mos ravishda o'qishlari va vaqtlarini samarali boshqarishlari uchun qulayliklar taqdim etadi. Bu talabalarni o'z-o'zini baholashga va o'zlashtirgan bilimlarini tekshirishga rag'batlantiradi.

3. Moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o'qitish: Elektron ta'lim resurslari, ayniqsa AI va mashinasozlik asosidagi tizimlar, o'qitishni talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirishi mumkin. Masalan, talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun interaktiv testlar va masalalarni yechishlari mumkin.

4. Jamoaviy o'qish va kollaboratsiya: Elektron ta'lim resurslari talabalar orasida jamoaviy o'rganishni ham rag'batlantiradi. Forumlar, onlayn guruhlar va kollaboratsion vositalar yordamida talabalar o'zaro fikr almashishlari va birgalikda yechim topishlari mumkin.

Natijalar: Oliy ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslarini tizimli ravishda integratsiya qilish zarur. Bunda nafaqat onlayn materiallar, balki an'anaviy darslar bilan birgalikda ishlashni davom ettirish kerak. Elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarni tegishli texnologik va pedagogik malakalarga ega qilish zarur. Oliy ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun elektron ta'lim resurslarining ta'sirini tahlil qilish, ularning talabalarning bilim olish jarayonidagi o'rni va muvaffaqiyatlarini o'rganish lozim. Elektron ta'lim resurslari oliy ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitishda samarali vosita sifatida o'qituvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular talabalar uchun ta'limni yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va ko'proq jalb etuvchi qiladi. Oliy ta'lim tizimi va

o'qituvchilar elektron ta'limni to'g'ri qo'llash orqali o'qish jarayonini samarali va muvaffaqiyatli o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, bu resurslar talabalarga o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi bilimlarni o'rganish va o'zaro kollaboratsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning professional malakalarini oshirishga va ixtisoslik fanlarida chuqur bilim olishga yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyaning amalga oshirilishi, avvalo ta'lim samaradorligini oshirishga olib keladi. Pedagog va talabalar uchun foydasi elektron ta'lim resurslarning foydalari Interaktiv resurslar pedagoglar va talabalar o'rtasidagi aloqani yaxshilashga yordam beradi. Bu turdagi resurslar talabalarga faollikni oshirish, o'zaro muloqot va bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi.

a. Testlar va viktorinalar

Test va viktorina – talabalar bilimini baholash va ularni o'rganish jarayonida motivatsiya qilish uchun samarali vosita. Quyidagi platformalar orqali interaktiv testlar yaratish mumkin:

- **Quizizz** va **Kahoot!** — o'yin sifatida tashkil etilgan onlayn testlar.

- **H5P** — interaktiv testlar va vazifalar yaratish imkoniyatini beradi, va shu bilan birga, talaba natijalarini tezda ko'rish mumkin.

b. Interaktiv darsliklar

- **Canva** va **Genially** kabi vositalar yordamida vizual materiallar yaratish, diagrammalar va infografikalarni ishlab chiqish mumkin.

- **Prezi** platformasi yordamida ajoyib dinamik taqdimotlar yaratish.

c. Video darslar va animatsiyalar

Video materiallar va animatsiyalar yordamida murakkab mavzularni oddiy va tushunarli tarzda taqdim etish mumkin.

- **Camtasia Studio** — video darslar yaratish va tahrirlash uchun eng mashhur vositalardan biridir.

- **PowToon** — animatsiyalar orqali darsliklar yaratish imkoniyatini beradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarga sifatli ta'lim berish, o'qituvchilarga samarali resurslar yaratish, shuningdek, ta'lim tizimini boshqarishni optimallashtirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini yanada samarali qilish uchun zamonaviy raqamli platformalarni, sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish, va boshqa ilg'or texnologiyalarni joriy etishga intilmoqda. Oliy ta'limda raqamli transformatsiyaning asosiy vositalaridan biri bu ta'lim platformalaridir. Ta'lim platformalari talabalarga har qanday joyda va vaqtda ta'lim olish imkonini beradi. Bularga masofaviy ta'lim, interaktiv dasturlar, virtual sinflar, va boshqa ko'plab imkoniyatlar kiradi. Ushbu platformalar orqali talabalar o'zlari uchun qulay bo'lgan usullar bilan o'qishni davom ettirishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun ham o'z bilim va malakalarini yangilash, sinflarni boshqarish va talabalarning muvaffaqiyatlarini monitoring qilish kabi imkoniyatlar mavjud. Raqamli transformatsiya jarayonida sun'iy intellekt (AI) va ma'lumotlarni tahlil qilishning o'rni ham juda katta. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonlarini shaxsiylashtirish, talabalarni individual ehtiyojlariga moslashtirish mumkin. AI o'qituvchilarga talabalarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, o'qish materiallarini moslashtirish imkoniyatlarini beradi. Boshqa tomondan, ma'lumot tahlili orqali oliy ta'lim muassasalari o'z ta'lim tizimlarini yaxshilash uchun kerakli strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonida texnik va metodologik muammolar ham yuzaga keladi. Oliy ta'lim tizimlarida yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi platformalarni yaratish, o'qituvchilarni yangi metodologiyalar bilan tanishtirish kabi vazifalar murakkab bo'lishi mumkin. Bu jarayonda texnik muammolar, jumladan, internet tarmog'ining yetarli bo'lmasligi, tizimning ishonchliligi va xavfsizligi, va boshqa infratuzilma muammolari kutilganidan ko'ra

ko'proq vaqt va mablag' talab qiladi. Shuningdek, metodologik jihatdan yangi o'quv dasturlarini yaratish, interaktiv usullarni qo'llash va talabalarning ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilash zarurati mavjud. Raqamli transformatsiya jarayonida etik masalalar ham alohida e'tiborga molik. Masalan, talabalarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, onlayn ta'limda adolatni ta'minlash, hamda talaba va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmatni saqlash kabi muammolar mavjud.

Xulosa: Oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish ta'lim samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayon orqali ta'limning sifatini yaxshilash, talabalarning ta'lim olish jarayonini shaxsiylashtirish va o'qituvchilarga samarali vositalarni taqdim etish mumkin. Shu bilan birga, texnik, metodologik va etik masalalarni e'tiborga olish ham juda muhimdir. Kelajakda, raqamli transformatsiya oliy ta'lim tizimining barqarorligini va sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. N.Yu. Yuldosheva. Methods for determining the scientific and creative potential of a teacher. A collection of materials of the international scientific and practical conference program on the topic of: "Problems and solutions for creating a new image of vocational educational institutions based on international experience and raising personnel training to a quality level" 2024, November 9. 740-742 pages.
2. N.Yu. Yuldosheva. Advantages of Crocodile ICT software in fast and easy calculation of algorithms. Advanced international experience in improving the education system international and technical conference. November 22-23, 267-270 pages.
3. N.Yu. Yuldosheva. Use of digital technologies in preschool education classes. Globallashuv sharoitida pedagogika sohasidagi tadqiqotlar: nuammo va yechimlar. Xalqaro konferensiya. 2024.13.11. 200-205 b
4. www. Arxiv.uz saytidan

ELEKTR MUHANDISLIGI YO'NALISHIDA YETUK KADRLARNI TAYYORLASH

*Maxsudov M.T., dotsent, PhD
Andijon davlat texnika instituti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr muhandisligi sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning dolzarbligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritilgan. Ta'lim tizimining amaliyot bilan integratsiyasi, o'quv dasturlarining modernizatsiyasi, xalqaro tajriba va raqamli texnologiyalarning ahamiyati keng tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va hayot davomida ta'lim olish tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola elektr muhandisligi sohasida kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: elektr muhandisligi, texnik ta'lim, innovatsion yondashuv, amaliy ko'nikmalar, raqamli texnologiyalar, o'quv dasturlari, dual ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, kasbiy rivojlanish, zamonaviy laboratoriyalar, startap, malaka oshirish.

Hozirgi davrda texnologik taraqqiyotning keskin sur'atlar bilan rivojlanishi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq.

Elektr muhandisligi sohasi bugungi kunda zamonaviy ishlab chiqarish, infratuzilma, sanoat, energetika va boshqa ko'plab yo'nalishlarda asosiy hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Shu bois, elektr muhandisligi yo'nalishida yetuk, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – zamon talablariga javob bera oladigan, amaliy va nazariy bilimlarni o'zida uyg'unlashtirgan, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan elektr muhandislarini tayyorlashdir. Bu esa o'z navbatida, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda ta'lim berish, ilg'or tajribalarni joriy etishni talab qiladi.

Elektr muhandisligi – elektr energiyasining ishlab chiqarilishi, uzatilishi, taqsimlanishi va undan foydalanish jarayonlarini o'rganadigan muhim texnik fan hisoblanadi. Ushbu yo'nalish quyidagi sohalarni qamrab oladi:

- Elektr energetikasi tizimlari
- Avtomatlashtirish va boshqaruv tizimlari
- Elektr qurilmalari va apparaturalari
- Telekommunikatsiya tizimlari
- Elektronika va mikroprotessor texnologiyalari

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalarida elektr muhandislariga bo'lgan talabni oshirmoqda. Raqamli transformatsiya, "aqli" tizimlar, IoT (Internet of Things), avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish kabi yo'nalishlar ushbu sohaga doimiy yangilik va yangicha yondashuvlarni kiritmoqda. Shu bois, elektr muhandisi nafaqat texnik bilimlarga, balki IT, sun'iy intellekt, tizim tahlili kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston ta'lim tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada isloh qilinayotgan bo'lsa-da, hali-hanuz elektr muhandisligi sohasida qator muammolar mavjud:

– Amaliy ko'nikmalar yetishmasligi: Ko'plab talabalarda ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq amaliy tajriba yetarli emas.

– Laboratoriya bazasining zaifligi: Texnik universitetlar va kollejlarda zamonaviy laboratoriyalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan.

– Pedagogik kadrlar salohiyati: Ba'zi holatlarda zamonaviy texnologiyalardan xabardor, sohaga doir amaliy tajribaga ega ustozlar yetishmaydi.

– O'quv dasturlarining zamonga mos emasligi: O'quv rejalari va dasturlar tez-tez yangilanmasligi natijasida, talabalar yangi texnologiyalar bilan tanishmaydi.

– Ishlab chiqarish bilan integratsiyaning sustligi: Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalar sust, ko'plab talabalar amaliyotni real sharoitlarda emas, balki formal ravishda o'tashmoqda.

Sohada yetuk kadrlarni tayyorlash uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarda ishlash maqsadga muvofiq:

1. O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish

Ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalar, raqamli tizimlar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt asosida qayta ko'rib chiqish lozim. Darslar ko'proq amaliy mashg'ulotlar, loyiha ishlari, stsensariylar asosida tashkil qilinishi zarur.

2. Kadrlar salohiyatini oshirish

Ustozlar malakasini oshirish, xorijiy tajriba asosida treninglar, malaka oshirish kurslarini tashkil qilish, zamonaviy texnologiyalarni o'rgatuvchi seminar va vebinarlar o'tkazish kerak.

3. Innovatsion laboratoriyalar tashkil etish

Universitetlar va kollejlarda huzurida zamonaviy laboratoriyalar, startap markazlari, texnoparklar ochilishi, bu orqali talabalar o'z loyihalarini yaratishlari va tajriba orttirishlari mumkin.

Talabalarni ta'lim jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'lash, ular real sharoitlarda ishlab, amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi uchun dual ta'lim tizimini keng joriy etish kerak.

Elektr muhandisligini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan o'rganish, yuksak natijalarga erishgan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Dunyodagi yetakchi texnika universitetlari – MIT (AQSh), ETH Zurich (Shveysariya), TU Munich (Germaniya), Tsinghua University (Xitoy) kabi oliygohlar ilg'or o'quv dasturlari, innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi.

– “Erasmus+”, “DAAD”, “Fulbright” kabi dasturlar orqali talabalar va o'qituvchilarni xorijda tahsil olishga yo'naltirish;

– Akademik mobillikni yo'lga qo'yish, ya'ni xorijda semestr yoki amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish;

– Xalqaro diplomli qo'shma dasturlar tashkil etish.

Ingliz tilida yaratilgan zamonaviy texnik adabiyotlarni tarjima qilish, mahalliy sharoitga moslashtirish, onlayn kurslar, ochiq ta'lim platformalari (Coursera, edX)dan foydalanishni kengaytirish zarur.

Raqamli texnologiyalar elektr muhandisligi sohasini tubdan o'zgartirmoqda. Shuning uchun ularni ta'lim jarayonida keng qo'llash zarur:

– MATLAB, Simulink, AutoCAD Electrical, ETAP kabi dasturlarda ishlash ko'nikmalarini berish;

– Virtual laboratoriyalar orqali amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

– “Digital twin” (raqamli egizak) texnologiyasi asosida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish.

– Elektr muhandisligiga oid masofaviy kurslar, vebinarlar, interaktiv mashg'ulotlar;

– Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, robototexnika bo'yicha onlayn sertifikat dasturlari;

– Mahalliy platformalarda videodarslar va test tizimlarini yaratish.

Elektr muhandisligi bo'yicha yetuk kadrlarni tayyorlash ilmiy izlanishlar va innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim muassasalari quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishi lozim:

– Talaba va yosh olimlarning amaliy va nazariy ilmiy ishlanmalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

– Ilg'or texnologiyalarga asoslangan startaplar uchun inkubatorlar tashkil etish;

– Elektr energetikasining qayta tiklanuvchi manbalar, energiyani tejovchi tizimlar, aqlli tarmoqlar (smart grids) bo'yicha tadqiqotlar olib borish.

– Ilmiy-texnik loyihalarni ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda amalga oshirish;

– Korxonalarning texnik muammolariga yechim topuvchi ilmiy guruhlar tashkil qilish;

– Patentlar va amaliy natijalarga yo'naltirilgan faoliyatni kuchaytirish.

Elektr muhandisligi sohasida yetuk kadrlarni tayyorlash — bu davlat rivojlanishining strategik yo'nalishidir. Rivojlanayotgan iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik talablariga javob bera oladigan elektr muhandislarini yetishtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. O'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ko'rib chiqish;
2. Talabalarni amaliyotga keng jalb qilish va dual ta'lim tizimini joriy etish;
3. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va xorijiy tajribani o'rganish;

4. Zamonaviy laboratoriya va innovatsion markazlar tashkil qilish;
5. Ilmiy izlanishlar va sanoat bilan hamkorlikda loyihalarni rivojlantirish;
6. Raqamli ta'lim platformalari orqali ta'limni diversifikatsiya qilish;
7. Hayot davomida ta'lim olish va kasbiy rivojlanishni tizimli yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, elektr muhandisligi yo'nalishida yetuk kadrlar tayyorlash, faqatgina texnik bilim emas, balki keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan strategik harakatdir. Bu borada davlat, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va jamiyatning barcha qatlamlari birgalikda harakat qilishi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4963-sonli qarori. – 2019-yil 27-mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muhandislik ta'limi sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 12-iyuldagi 436-sonli qarori.
3. Isroilov A.A., Yusupov R.B. Elektr energetika asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
4. Norqulov O.N. Elektr muhandisligi asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
5. Gulyamov S.S., Mavlonov A.A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
6. "Elektr muhandisligi sohasi: jahon tajribasi va O'zbekistonda istiqbollar" – Ilmiy-texnik jurnal, №4, 2023.
7. IEEE Xplore Digital Library. – <https://ieeexplore.ieee.org>
8. World Bank. Skills for a Changing World: Advancing Quality Learning for Vibrant Societies. – Washington, D.C., 2017.
9. UNESCO. Engineering: Issues, Challenges and Opportunities for Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2010.

ПРОЕКТ МАНСАРДНОГО ОДНОКОМНАТНОГО ЖИЛОГО ДОМА ГОРГОННОГО ТИПА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА

*Жабборов Тўлқин Камолович - доцент
Жобборов Баходир Тўлқинжон ўғли – ассистент
Ферганский государственный технический университет*

Аннотация: В статье рассматривается разработка проекта мансардного однокомнатного жилого дома горгонного типа, типичного для сельских районов. Освещаются архитектурно-строительные особенности, практическое значение проекта в учебном процессе, а также роль подобных проектов в подготовке специалистов строительной отрасли. Приведены таблицы с техническими характеристиками объекта и компетенциями, приобретаемыми студентами в процессе проектирования.

Ключевые слова: мансардный дом, горгонный тип, сельское строительство, проектирование, квалифицированные кадры, образовательные технологии.

Развитие строительного образования тесно связано с практической ориентацией подготовки специалистов. Использование реальных архитектурно-конструктивных решений, таких как проектирование домов горгонного типа, позволяет не только закрепить теоретические знания, но и выработать навыки, приближённые к реальной практике. Особенно актуально это в условиях устойчивого развития сельской архитектуры.

Архитектурно-планировочная характеристика дома. Горгонный тип домов предполагает строительство из местных материалов (глинобит, кирпич-сырец и др.) с высокими теплоизоляционными свойствами и минимальными энергозатратами. Добавление мансарды позволяет эффективно использовать вертикальное пространство при сохранении компактности здания.

Основные параметры проекта мансардного однокомнатного дома горгонного типа

Таблица-1.

№	Показатель	Значение
1	Общая площадь дома	40 м ²
2	Жилая площадь	22 м ²
3	Тип фундамента	Ленточный монолитный
4	Тип перекрытий	Деревянные балки
5	Энергосбережение	Минеральная вата, глиняная штукатурка

Инженерно-технический анализ проекта. Проект предусматривает соответствие основным требованиям СНиП по прочности, теплоизоляции и энергоэффективности. Используемые материалы и конструктивные решения позволяют студентам практиковаться в расчётах нагрузок, планировке инженерных сетей, выборе оптимальных строительных решений.

Компетенции, формируемые у студентов при реализации проекта

Таблица-2

№	Область подготовки	Формируемые компетенции
1	Архитектурное проектирование	Создание чертежей, планировок, фасадов
2	Теплотехника и вентиляция	Выбор утеплителя, проект вентиляции
3	Сметное дело	Подсчёт объёмов и составление сметной документации
4	Градостроительство	Адаптация проекта под сельскую инфраструктуру

Проектирование мансардного однокомнатного дома горгонного типа является не только архитектурным, но и образовательным инструментом. Он позволяет будущим специалистам применять полученные знания на практике, глубже понять процессы сельского домостроения и подготовиться к профессиональной деятельности. Дальнейшее развитие таких учебных кейсов актуально в рамках модернизации строительного образования.

Литература

1. Миронов В.К. Сельская архитектура и проектирование. – СПб.: Лань, 2015. – 198 с.
2. Мухаммадиев А.Х. Энергоэффективные решения в строительстве. – Ташкент: Фан ва технология, 2020. – 174 с.
3. Абдуллаев А.К. Основы сельского строительства. – Ташкент: Фан, 2016. – 212 с.
4. Исматов А.А. Конструкции зданий и инженерные системы. – Ташкент: Мехнат, 2019. – 240 с.
5. Агафонов С.Ф. Основы архитектурного проектирования. – М.: Архитектура-С, 2012. – 256 с.

QISHLOQ JOYLARDA QORGON TIPIDAGI MANSARDALI UY QURILISHIDA IRRIGATSIYA INFRATUZILMASINING AHAMIYATI VA UMUMTEXNIKA FANLARINING O'RNI

*Jabborov To'liq Kamolovich – dotsent
Jobborov Baxodir To'liqjon o'g'li – assistant
Farg'ona davlat texnika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq joylarda barpo etilayotgan qorgon tipidagi mansardali uylar loyihalanishi va qurilishi jarayonida irrigatsiya infratuzilmasining ahamiyati, shuningdek, bu jarayonda umumtexnika fanlarining o'rni va ularning o'zaro integratsiyasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qorgon tipidagi uy, mansard, irrigatsiya, infratuzilma, umumtexnika fanlari, qishloq qurilishi, suv resurslari, muhandislik yondashuvi.

O'zbekiston qishloq joylarida zamonaviy qurilish loyihalari amalga oshirilayotganda mahalliy sharoit va ekologik omillarni inobatga olish muhimdir. Ayniqsa, qorgon tipidagi mansardali uylar qurilishida yer-suv resurslarini hisobga olgan holda barqaror infratuzilma yaratish dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, irrigatsiya tizimlarining holati va ulardan to'g'ri foydalanish ushbu turdagi uylarning bardoshligi, xavfsizligi va qulay yashash muhitini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Qorgon tipidagi mansardali uylar va ularning xususiyatlari.

Qorgon tipidagi uylar - bu tabiiy iqlim sharoitlariga moslashtirilgan, asosan xom g'isht, paxsadan yoki zamonaviy izolyatsion materiallardan barpo etilgan konstruksiyalar bo'lib, ular yuqori qavatda mansard (yarim qavat) bilan to'ldiriladi. Bunday uylar qishloq aholisi uchun iqtisodiy va energetik jihatdan qulay yechim hisoblanadi.

Irrigatsiya infratuzilmasining ahamiyati.

Qishloq joylarda irrigatsiya infratuzilmasi - bu yer osti va yer usti suvlarining oqimini nazorat qilish, uylarga zarar yetkazmasligi uchun suvni yo'naltirish, drenaj tizimlari orqali yerning namlik darajasini muvozanatlash kabi funksiyalarni bajaradi. Qorgon tipidagi uylar asosan tuproq asosida qurilgani uchun yerning namligi va yer osti suvlari ularning mustahkamligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Umumtexnika fanlarining o'rni.

Qurilish jarayonida umumtexnika fanlari – mexanika, gidravlika, materialshunoslik, issiqlik texnikasi, elektrotexnika – bevosita ishtirok etadi. Masalan:

1) Materialshunoslik – mahalliy materiallardan foydalanib, uzoq muddatli uylarni barpo etishda muhim;

2) Elektrotexnika – suv nasoslari, avtomatlashtirilgan irrigatsiya tizimlari va ichki elektr infratuzilmani ta'minlash uchun zarur;

3) Issiqlik texnikasi – mansardali qavatlarida havo aylanishi va issiqlik izolyatsiyasini ta'minlashda muhim;

4) Gidravlika – irrigatsiya tizimlarining samarali ishlashi, suv oqimlarini nazorat qilish va drenaj tizimlari loyihasida qo'llaniladi.

Amaliy tavsiyalar:

- Mahalliy texnika fanlari asosida loyihalashtirilgan irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish;
- Suvni tejovchi texnologiyalarni uy qurilishi bilan integratsiyalash;
- Yer osti suv darajasini doimiy monitoring qilish;
- Har bir uy uchun individual drenaj tizimlari joriy etish;
- Qurilishda zamonaviy suvga chidamli materiallardan foydalanish.

Qishloq joylarda qorgon tipidagi mansardali uylar qurilishida irrigatsiya infratuzilmasi nafaqat ekologik xavfsizlikni, balki qurilmaning mustahkamligi va qulay yashash muhitini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Umumtexnika fanlarini qo'llash orqali bu jarayonni ilmiy asosda boshqarish va iqtisodiy-energetik jihatdan samarali yechimlarga erishish mumkin. Shu asosda, bunday uy-joy loyihalari zamonaviy texnologiyalar va mahalliy sharoitlar uyg'unligida amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев А.Қ. Қишлоқ қурилиши асослари. – Тошкент: «Фан», 2015. – 198 б.
2. Ганиев Ш.И., Жўраев Ҳ.Ж. Қишлоқ жойларида мўътадил уй-жой қурилиши ва ердан фойдаланиш. – Тошкент: ТАТУ нашриёти, 2017. – 172 б.
3. Қўчқоров Қ.Қ. Умумтехника фанлари. – Тошкент: «Илм ва технология», 2010. – 240 б.
4. Эргашев Н.Н., Мираков Ш.М. Сув ресурсларини бошқариш ва гидротехника иншоотлари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 2018. – 221 б.
5. Ҳамидов У.Қ. Сув иншоотлари ва ирригация тизимларини лойиҳалаш. – Тошкент: «Меҳнат», 2014. – 260 б.
6. Раҳмонов Ж.Б. Қишлоқ хўжалиги инфратузилмаси ва уни модернизация қилиш. – Тошкент: «Иқтисодиёт», 2016. – 187 б.
7. Муҳаммадиев А.Х., Абдуллаев Ш.А. Қишлоқ қурилишида инновацион технологиялар. – Тошкент: «Фан ва технология», 2020. – 208 б.
8. Ташланов А.Қ. Мансардали уйларни лойиҳалаш ва қуриш технологияси. – Тошкент: «Архитектура», 2022. – 195 б.

PIEZOLEKTRIK MATERIALLARDAN FOYDALANILGAN AQLLI YO'LAKLAR VA YO'LLAR

Qulmamatov Romazon Juma o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti katta o'qituvchi

Qobilov Nurbek Suyun o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Piezolektrik materiallarning xossalari, ularning aqlli yo'lak va yo'llarda qo'llanilishi, shuningdek, joriy etish imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Piezolektrik material, aqlli yo'lak, energiya hosil qilish.

Kirish: Energiya manbalarining xilma-xillashuvi va yashil texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, Piezolektrik materiallardan foydalanish barqaror energiya ishlab chiqarish yo'llaridan biri sifatida qaralmoqda. Odamlarning yoki transport vositalarining harakati natijasida hosil bo'ladigan mexanik bosimni elektr energiyasiga aylantiruvchi bu materiallar yordamida shaharlarda barqaror energiya manbalarini yaratish imkoniyati mavjud.

Piezolektrik materiallar va ularning ishlash prinsipi .Piezolektrik effekt bu materialga mexanik kuch ta'sir etganda elektr zaryadlarining yuzaga kelishidir. Bu materiallar yo'laklar yoki yo'l qoplamalariga o'rnatilganda, odamlar yoki transport vositalari bosimi ostida energiya hosil qiladi.

Aqlli yo'laklar va yo'llar tushunchasi. Aqlli yo'laklar bu texnologik sensorlar, Piezolektrik elementlar, LED chiroqlar, signalizatsiya tizimlari va energiya yig'ish moslamalari bilan integratsiyalashgan infratuzilma tizimidir. Bu tizimlar nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki harakat monitoringi, xavfsizlikni oshirish va axborot almashinuvini ta'minlaydi.

Texnik jihatlari.


Material tanlovi: PVDF plyonka va PZT plastinalari

Montaj sxemasi: Modul ko'rinishidagi Piezolektrik elementlar yo'lak betonining ostiga joylashtiriladi

Energiyani saqlash: Akku batareyalar yoki superkondensatorlar

Chiqariladigan kuchlanish: Har bir moduldan 2-5 V (yig'ma tizimda esa ko'proq)

Iqtisodiy va ekologik samaradorlik.



Energiyadan foydalanish: LED yoritish, Wi-Fi nuqtalari, xavfsizli kameralarini quvvatlantirish.
Qayta tiklanuvchi energiya ulushi: Shu tizimlar bilan mahalliy elektr tarmoqlariga bosim kamayadi.

Xarajatlar va daromadlar: Dastlabki o'rnatish xarajatlari yuqori bo'lsa-da, 3-5 yil ichida investitsiya qoplanadi. **Piyodalar bosimi orqali energiya ishlab chiqarish.**

Piezoelektrik materiallar ishlatiladi. Bu materiallar bosim yoki silkinish ta'sirida elektr tokini hosil qiladi. Piyoda yo'lagi ostiga o'rnatilgan plastinkalar piyodalar harakatlanishi bilan bosiladi va bu energiya **kichik miqdorda tok** hosil qiladi. Bu tok, masalan, **ko'cha chiroqlari, yo'l belgilari yoki Wi-Fi routerlar** kabi kichik tizimlarni quvvatlantirishda ishlatiladi.

Piezoelektrik materiallarni montaj qilish.

Misol uchun piezoelektrik materiallar avtomobil yo'llarini ba'zi toifalarini kurib chuqamiz **3-toifali avtomobil yo'li mezonlari (umumiy hollarda):**



Yurish qismi kengligi (harakat qismi): 7.0 metr (2 ta harakat yo'nalishi uchun, har biri 3.5 m).
Yo'l chizig'i (yo'l ustki qismi) umumiy kengligi: taxminan 12–15 metr (shu jumladan yo'l chetlari, ariqchalar). **Tasma soni:** 2 ta harakat tasmasi (ikki tomonlama harakat). **Ruxsat etilgan tezlik:** 60–80 km/soat.

Kunlik o'rtacha transport oqimi: 2000–7000 ta/kun. Ushbu mezonlar hududga, relyefga va loyihalashtirish standartlariga qarab ozgina farqlanishi mumkin.

3-toifali yo'llar uchun piyodalar yo'lakchasi o'lchami:

Eng kam kengligi: 1,5 metr — odatiy hollarda kam piyoda harakati bo'lsa. **2,25 – 3,0 metr** — agar piyoda harakati ko'proq bo'lsa yoki savdo, xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'yicha joylashgan bo'lsa.

Ikki tomonlama yo'llarda: Har ikki tomonda ham trotuar bo'lishi tavsiya etiladi, lekin shahar tashqarisida yoki kam harakatli yo'llarda faqat bir tomonlama ham bo'lishi mumkin. **Nogironlar aravachasi harakati uchun:** 1,8 m kenglik maqbul deb hisoblanadi (agar mavjud bo'lsa). 12 metr uzunlik va 3 metr kenglikdagi aqlli yo'lakka piezoelektrik material o'rnatilsa, ishlab chiqariladigan elektr energiyasi bir necha omillarga bog'liq bo'ladi. Asosiy hisob-kitob



quyidagi parametrlar asosida amalga oshiriladi. **Asosiy yo'lak maydoni:** 1 ta **svetofor** va 2 ta **kuzatuv kamerasini** bir vaqtda doimiy ravishda ishlatsangiz: **220 kWh** energiya ularga **taxminan 229 kun** (ya'ni **7,5 oy**) yetadi.

Xulosa: Piezoelektrik materiallardan foydalanilgan aqlli yo'laklar va yo'llar shaharlarda barqaror energiya manbalarini yaratish uchun samarali vosita bo'lib, nafaqat energiya ishlab chiqaradi, balki xavfsizlikni oshiradi va raqamli infratuzilmani rivojlantiradi.

Aqlli yo'laklar, piyodalar va transport harakati orqali energiya ishlab chiqarish imkoniyatini taqdim etadi. Misol uchun, 12×3 m o'lchamdagi yo'lakda 220 kWh energiya ishlab chiqarilishi mumkin, bu esa ko'cha chiroqlari, kuzatuv kameralarini va boshqa kichik tizimlarni quvvatlantirish uchun yetarli. Biroq, boshlang'ich o'rnatish xarajatlari yuqori bo'lishi mumkin, lekin 3-5 yil ichida investitsiya qoplanadi.

O'zbekistonning turli hududlariga bu texnologiyani joriy etish, mahalliy elektr tarmoqlariga bo'lgan bosimni kamaytirishi va ekologik barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Foydalanilagan adabiyotlar.

1. Dewangan, Shailendra Kumar, and Abhas Dubey. "Design & implementation of energy harvesting system using piezoelectric sensors". Intelligent Computing and Control Systems (ICICCS), 2017 International Conference on. IEEE, 2017.
2. Sharma, Sukesha. "Energy harvesting using piezoelectric for Wireless Sensor Networks". Power Electronics, Intelligent Control and Energy Systems (ICPEICES), IEEE International Conference on. IEEE, 2016.
3. Ma, Dong, et al. "SEHS: Simultaneous Energy Harvesting and Sensing using Piezoelectric Energy Harvester". Internet-of-Things Design and Implementation (IoTDI), 2018 IEEE/ACM Third International Conference on. IEEE, 2018.

4. Yang, Hailu, et al. "A preliminary study on the highway piezoelectric power supply system". International Journal of Pavement Research and Technology 11.2 (2018): 168-175.
5. Кулмаматов Р.Ж. Расчет конструкций и сооружений методом конечных элементов/сборник материалов научно-практической online-конференции на тему «роль молодежи в развитии науки» министерства, 2020.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Lk_JGHAAAAAJ&citation_fo_r_view=Lk_JGHAAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
6. Миралимов М.Х., Кулмаматов Р.Ж. Расчет пролетного строения моста из железобетонных балок / Scientific and Practical Conference «Science and Practice: Implementation to Modern Society» (April 18-19, 2021),
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Lk_JGHAAAAAJ&citation_fo_r_view=Lk_JGHAAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC

OPPORTUNITIES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF URBANISM AND HOUSING AND COMMUNAL SERVICES

Kulmamatov Romazon Juma ogli
Termez State University of Engineering and Agrotechnology teacher
Sobirova Muhabbat Eshqabilovna
Surkhandarya architecture and construction technical school teacher

Abstract . In the article urban planning and housing and communal services activity, service of services place, service types, in communal households efficiency increase, economic indicators, their about the main directions thoughts statement done.

Keywords: Urban **planning** and housing and communal services, service delivery, efficiency, reforms, social service services, services formation , mechanisms.

Introduction. Urban planning and housing and communal services farm of the industry various to networks relevant was enterprises , organizations , associations and etc. farms from the sum appearance finds and general regulations and in front of placed goals and objectives based without only system as activity shows . Today's on the day the economy intense pictures with develop main from tasks one is considered. To us It is known that the economy development for everyone industries such as “urban planning” and housing and communal services "farm " system formation and development place big is considered . “ Urban planning and housing and communal services "farm " people intangible needs satisfy with together working services for producers as well shows , also , he is a consumer Industry development , population prosperous life for utility services place is incomparable . To them the most necessary was resources delivery to give through working release to the duration himself worthy contribution Addictive. Uzbekistan In the Republic take going economic of reforms bottom content people well-being from promotion consists of is the most first of all , social of the industry important part was housing utility farm field new technologies at the source from development consists of become is coming . Humanity historical development during , especially in our republic to independence from what has been achieved then population marriage conditions promotion of the state main and important from the duties to one Citizens life forgiveness , as well as material and cultural blessings existence in the field being shown service

services further development with is expressed . Own in turn material and cultural blessings human of thought product is , its effective labor as a result to the surface comes . Present on the day United Nations Foreign affairs by acceptance made to style appropriate in the world of countries progress their level (rating) economic potential or military to the power of looking at not , but , of the population marriage style and human resources practical development to the level looking at is evaluated [1]. THIS therefore, in our country take going socio-economic politics , social of the industry development with self is related . Social industry to the population material and spiritual blessings delivery giver from infrasound appearance finds. This because of "Urban Planning" and housing utility "farm " system develop main and full of life from problems one is considered.

Analysis. Urban planning and housing utility on their farms service service show quality and efficiency increase for , most first of all city and other in places being shown utility service service level assessment style analysis we do . Outside and internal development factors into account received without , city and other in places also urban planning and housing utility on their farms service service show quality level increase for the most first of all his/her current status evaluation and his/her quality increase style working our exit necessary .

This for urban planning and housing utility on their farms service service show of enterprises development indicators important importance has . State funds separation also important source is considered. Urban planning and house - place utility on farms service service show enterprises efficiency assessment point of view from the point of view analysis to do the most current problematic direction only methods to form , first of all , home - place utility on farms service the service to support separated funds saving , secondly and service show quality increase efficiency assessment to the fact that confidence harvest to do take comes . Urban planning and house - place utility on farms service service show enterprises management in front of standing from problems one this evaluation **digitized** methods is to create .

In this regard management efficiency of resources all types: **material, labor and financial** from resources right use means. Therefore for housing and communal services on their farms management efficiency in evaluation complex approach necessary.

Urban planning and housing and communal services on their farms service service show of the field population busyness in provision role effective methods using deep analysis to do and assessment industry in the networks population busyness increase according to and this important at work there is was opportunities to determine and this basically them to come true to release scientific based offer and recommendations working from the exit consists of.

Urban planning and housing and communal services on their farms service service show of the field status and development representative the most important main economic indicators to the composition the following our input necessary [3, 4].

Urban planning and house place communal farm service show of the field important indicators

General and population soul per head right coming part
 Busy population in the economy employment
 Service show employed population in the sector number
 Service show employed in the field one to the employee right coming population number
 GDP in the composition service show of the field share
 Population consumption expenses in the composition service show of the field share
 Export goods in the composition service to show share
 Service show to the field spent investments gross in investments share

Urban planning and housing and communal services on their farms service service show quality increase for , main attention housing and communal services on their farms service service show enterprises management efficiency to increase aimed at to be This is both scientific and practical from the side important research is considered . Because ownership many various forms under the circumstances not only working release process modern to manage, but product and of services considering the sale to take necessary . Therefore for modern management efficiency in evaluation external the environment into account to take to the goal is appropriate. Because management system last results working from issuing outside in process own on the contrary finds [4].

Conclusion. Conclusion as urban planning and home - place communal economy service in doing own inside received main results is formed and them practical from the test transfer for one row directions to do need. Leader organizations by support support efficiency evaluation theoretical sides study utility the service utility service show of objects socio-economic and innovative results levels budget expenses to the level ratio that to determine opportunity gave, this to evaluate complex approach of formation theoretical and methodological basis by designating gives of course.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi №PF-60 Farmoni.
2. “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PF-5052-sonli Farmoni.
3. Muxammedov M. va boshqalar. “Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari”- S.: Zarafshon 2017. – B. 299.
4. Yuldosheva Sh.A. “Uy-joy kommunal xo‘jaliklarida servis xizmatlarining o‘rni va ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari” “Biznes-ekspert” jurnalining 2021-yil № 2-son, 66-70-betlar.

O‘QITISHNING KREDIT-MODUL TIZIMIDA DUAL TA’LIMNI QO‘LLANILISHI

*Mamadaliyev Maxammadjon Axmadaliyevich- assistant
 Andijon davlat texnika instituti.*

Annotatsiya. Ushbu tezisda kredit-modul tizimi va dual ta'limni birlashtirish ta'lim jarayonini samarali qilishda, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni modullar va kreditlar asosida tashkil etish, shu bilan birga talabalarga vaqtni samarali rejalashtirish, dual ta'lim esa, aynan amaliy ta'limni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga yordam berishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, kredit-modul, integratsiya, ko'nikma, malaka, amaliyot, zamonaviy yondashuv.

Kirish: Kredit-modul tizimi (KMT) ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchilarga yuqori darajada moslashuvchanlik, o'quv rejalarining individualizatsiyasi, shuningdek, talabalarga o'z vaqtida bilim olish imkoniyatini yaratadi. Biroq, ushbu tizimni yanada samarali qilish uchun yangi o'quv metodlari va shakllarini joriy etish talab etiladi. Dual ta'lim, ya'ni amaliy va nazariy o'qitishning uyg'unlashuvi, KMTning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada, kredit-modul tizimida dual ta'limni qo'llashning afzalliklari va uni samarali amalga oshirishning usullari ko'rib chiqiladi.

Kredit-modul tizimi va dual ta'lim tushunchasi

Kredit-modul tizimi (KMT) – bu ta'limda yangi, zamonaviy yondashuvni anglatadi, unda ta'lim jarayoni o'quv modullari va kreditlar asosida tashkil etiladi. Bu tizimning asosiy maqsadi ta'limning yanada moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlashdir.

Modul esa ta'limning mustaqil bo'limidir. Har bir modul o'zida ma'lum bir fan yoki mavzuni qamrab oladi va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. KMTda o'quv dasturlari o'quv modullari sifatida tashkil etiladi, va har bir modul ma'lum bir kreditlar bilan baholanadi.

KMTning asosiy afzalliklari:

Moslashuvchanlik: Talabalar o'z o'quv dasturlarini shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda tanlashlari mumkin.

Individuallik: Har bir talaba o'z sur'atida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa uning o'ziga xos xususiyatlariga, qobiliyatlariga mos keladi.

Kompetensiya asosida baholash: Ta'limning har bir moduli nazariy bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni qamrab olgan holda o'quvchilarni baholashga yordam beradi.

Kredit-modul tizimi o'zining shaffofligi va talabalar uchun aniq maqsadlarni belgilab berishi bilan samarali. Tizimda talaba har bir modulni muvaffaqiyatli yakunlaganida kreditlarni olishadi va bu kreditlar o'zining umumiy o'qish rejasida talaba tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish uchun yig'iladi.

Ilmiy tadqiqot: Dual ta'lim – bu ta'limning amaliy va nazariy qismlarining uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim modelidir. Bu tizimda talabalar o'z bilimlarini faqat auditoriya mashg'ulotlarida emas, balki ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasidagi amaliyotlar orqali ham rivojlantiradilar.

Dual ta'lim tizimi ikki asosiy komponentdan iborat:

Nazariy ta'lim: Ta'lim muassasalarida olib boriladigan o'qish jarayonida talabalar fanlar va ularning asosiy kontseptsiyalarini o'rganadilar. Bu qismini, odatda, o'qituvchilar olib boradilar.

Amaliy ta'lim: Talabalar ishlab chiqarish yoki ish joylarida amaliyot o'tkazishadi. Bu bosqichda talabalar o'zlarining o'rganayotgan sohalariga oid haqiqiy ish sharoitlari bilan tanishadilar va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Metodlar: Dual ta'lim tizimi ishlab chiqarish sohasiga ko'proq e'tibor qaratadi. Shuning uchun ko'plab yirik kompaniyalar va ishlab chiqarish korxonalari dual ta'limda ishtirok etadi. Ish beruvchilar o'z talabalari uchun o'quv dasturlarini yaratishga, ularga amaliy tajriba taqdim

etishga va natijada mutaxassislar tayyorlashga yordam beradilar. Shuningdek, talabalar amaliyotda o'z bilimlarini qo'llash imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Dual ta'lim tizimi ta'lim muassasalarining o'quv rejasini ishlab chiqarish va xizmat sohaslarining talablariga moslashtirishga imkon beradi. Bu tizimning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, talabalar amaliyotda ishlash orqali o'z malakalarini oshiradilar va ish joylarida real vaziyatlarda qanday qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Natija: Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash: Talabalar o'zlarining bilimlarini amaliyotda sinash orqali bozor talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida shakllanadilar.

Ishga joylashish imkoniyatlarini oshirish: Ish beruvchilar tomonidan dual ta'lim dasturlarida ishtirok etgan talabalar ko'pincha o'z korxonalarida ishlashga taklif qilinadilar, chunki ular allaqachon kompaniyaning ishlash jarayonlarini yaxshi bilishadi.

Tezkor moslashuvchanlik: Dual ta'lim, talabalar va ish beruvchilar o'rtasida uzviy aloqani ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, talabalar o'zlarining ta'lim va amaliyotlarini bir vaqtda olib borish orqali vaqtni samarali ishlatishadi.

Muxokama: Kredit-modul tizimi va dual ta'limni birlashtirish ta'lim jarayonini samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Kredit-modul tizimida o'quv jarayoni modullar va kreditlar asosida tashkil etiladi, shu bilan birga talabalarga vaqtni samarali rejalashtirish imkoniyatini beradi. Dual ta'lim esa, aynan amaliy ta'limni nazariy bilimlar bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi.

Kredit-modul tizimi va dual ta'limni birgalikda qo'llash talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu ikki tizimning uyg'unlashuvi talabalarining ish bozoridagi o'rni va kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tushunchalar bir-birini to'ldirib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Talabalar nazariy bilimlarni o'rganish bilan birga, amaliy tajriba orttiradilar, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlari uchun muhim asos bo'ladi.

Kredit-modul tizimi – bu ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv modullari va kreditlar asosida ishlovchi tizim bo'lib, talabaga ma'lum vaqt davomida o'z malakasini oshirish imkoniyatini beradi. Tizimda talaba o'ziga mos o'quv rejasini tuzishi va uni muvaffaqiyatli yakunlashi uchun kerakli kreditlar sonini to'plashi lozim.

Dual ta'lim esa amaliy va nazariy bilimlarning uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim usulidir. Bu usulda talabalar o'qish jarayonining bir qismini ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida amaliyot o'rganish orqali o'tkazadilar. Dual ta'lim o'zida o'quv jarayonining ikki muhim jihatini birlashtiradi: akademik bilimlar va amaliy ko'nikmalar.

Xulosa qilib aytganda, kredit-modul tizimi va dual ta'limning uyg'unligi. Kredit-modul tizimi va dual ta'limning uyg'unligi ta'lim sifatini yaxshilash va talabalar tayyorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Dual ta'limni kredit-modul tizimida qo'llashning asosiy maqsadi talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham taqdim etishdir. Bu, o'z navbatida, ish beruvchilarning talablari asosida malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimi talabalarga vaqtni to'g'ri rejalashtirish va o'z faoliyatlarini mustaqil ravishda olib borishga yordam beradi, dual ta'lim esa ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshkent davlat pedagogika universiteti (2020). "Kredit-modul tizimi va dual ta'lim: o'quv jarayonini takomillashtirish yo'llari". Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Mirzaeva, L. (2018). "Dual ta'lim tizimi: rivojlanish jarayoni va istiqbollari". O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi. 2-jild. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
3. Akmalov, F. (2019). "Kredit-modul tizimida ta'limni tashkil etish va innovatsion uslublar". Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.

4. Jumanioyozov, S. (2021). "Kredit-modul tizimi va dual ta'limning ta'limdagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari". Ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti.

UMUMTEXNIKA FANLARINI O'QITISHDA MEXANIZM VA MASHINALAR NAZARIYASI FANINI O'QITISH O'RNI

*Yuldashev Kozimjon Komiljonovich. t.f.d., dotsent,
Qambarov Azamatjon Latifjon o'g'li
Andijon davlat texnika instituti talabasi*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi zamonaviy texnika asosida ishlab chiqarishni tez yangilanishi, eng ilg'or texnologik jarayonlarni va tez moslashuvchi ishlab chiqarishni keng joriy etilishi zarur. Barcha ishlab chiqarish sohalarida – to'qimachilik va yengil sanoatda, mashinasozlikda, avtomobilsozlikda, qishloq xo'jaligida va boshqalarda rivojlanishning boshqa omili bu qo'llanilayotgan mashina va mexanizmlarning sifatidir.

Ishlab chiqarish sohalarining muhandislari texnologik zanjirlarga kirgan mexanizm va mashinalarning tuzilishini va ishini puxta bilishini talab qilinadi. Ushbu bilim va ko'nikmalarni xosil qilish uchun bo'lajak bakalavr «Mexanizm va mashinalar nazariyasi» fanini o'rganadi. Fanning asosiy maqsadi talabalarni zamonaviy hisoblash texnikasini qo'llab mexanizmlarning analizi va sintezi usullarini o'rgatishdir.

«Mexanizm va mashinalar nazariyasi» o'quv fani mexanika-mashinasozlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlash o'quv rejasida umumtexnika fanlari tarkibiga kiritilgan bo'lib, mashina va mexanizmlarni turli xil konstruksiyalarini o'rganish, ularning tuzilishi, kinematik va dinamik tahlili va sintezi tushunchalariga ega bo'lish va nihoyat ularning optimal parametrlarini zamonaviy o'lchash va hisoblash masalalarini qamraydi.

Fan o'qitilishidan maqsad - ta'lim standartida talab qilingan bilimlar darajasini ta'minlashdagi maxsus fanlarni o'rganish uchun ilmiy-amaliy asos vazifalarini o'taydigan fanlardan biri «Mexanizm va mashinalar nazariyasi» fanini yo'nalishlar profiliga moslashadigan, avtomobillarda ishlatiladigan mexanizmlarni tuzilishlari, ularni konstruksiyasi, sifat ko'rsatkichlarini, ularni ishlatilishi hamda ularda foydalanish darajasini ta'minlashdir.

Texnologik mashinalar konstruksiyalaridagi asosiy mexanizm va zvenolarning tuzilishi, ularning turlari, xususiyatlarini bilish; bunday mexanizmlarni kinematik va dinamik tahlil etish; ularni loyihalashda kuch va momentlarni hisobga olish metodlarini talabalar o'zlashtirishidir.

«Mexanizm va mashinalar nazariyasi» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida yuqoridagi vazifalarini bajarishda bakalavr quyidagi bilimlar va tajribalarga ega bo'lishi kerak:

- ixtisoslik fanlarini o'rganishda umumkasbiy fanlari, jumladan «Mexanizm va mashinalar nazariyasi» o'quv fani ilmiy va amaliy asos ekanligi;
- o'zining bo'lajak kasbining mohiyatini bilgan holda, umumkasbiy fanlarni ahamiyati;
- mashina va mexanizmlarni analiz qilish va loyihalashni umumiy uslublarini o'rganish;
- mexanizmlar yordamida harakatlarni amalga oshirishini umumiy prinsiplarni bilish;
- mexanizmlarni mashinalarda o'zaro bir-biriga nisbatan harakat qilishi va joylashishi;
- mexanik sistemaning kinematik va dinamik xossalari tafakkur etish;
- qo'yilgan shartlarga asosan mexanizmlarni optimal parametrlarini aniqlash;
- konkret mexanizmlarni hisoblashda EHM da hisoblash programmalari ishlab chiqish;
- mashina va mexanizmlarning kinematik va dinamik parametrlarini aniqlashda o'lchov asbob-uskunalaridan foydalanishni bilishi.

Qo'yilgan vazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza, tajriba va amaliy mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi, hisob-grafika ishlarini bajarishi, adabiyotlar bilan

Dasturni amalga oshirish bakalavriaturaning ushbu ta'lim yo'nalishida o'qish jarayonida ushbu o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilgan ma'lumotlarga hamda o'quv rejasida rejalashtirilgan (oliy matematika, fizika, chizmachilik, nazariy mexanika) fanlarini bilishga asoslanadi.

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interaktiv usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlari (amaliyot va tajriba darslari) da va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan nazariy va amaliy bilimlarga qaratiladi.

«Mexanizm va mashinalar nazariyasi» fani dasturidagi materiallarni o'zlashtirish demonstratsiya usulda, zamonaviyi-informatsion va pedagogik texnologiyalar vositalardan foydalanib interfaol ma'ruzalarni o'qish, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi nazarda tutadi. Dasturiy materiallarni o'zlashtirishda muammoli mavzular, talabalarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha mustaqil o'zlashtirishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha, oldinga siljigan talabalar bilan ishlash yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba texnikaviy adabiyotlar, internet materillari va me'yoriy xujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilgan informatsiyasini to'g'ri mushohada qilish qobiliyanini ko'rsatishi zarur.

Kurs loyihasini bajarish ma'ruzalarda, mustaqil ishlash jarayonlarida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlashi, adabiyot bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini chuqurlashtirish, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganish uchun xizmat qiladi.

Dastur talabalar bilimini reyting nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi prinsiplari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofada o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'lumotlar elektron bazasidan, kompyuter jo'rligida ma'ruzalar o'qish, elektron plakatlar va virtual laboratoriya ishlaridan foydalaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Djuraev A. va b. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2004.
2. Karimov R.I, Saliyev A. Mexanizm va mashinalar nazariyasi fanidan o'quv qo'llanma. T.: ToshDTU, 2006.
3. X.Sobirov. Mexanizm va mashinalar nazariyasi uch tilda – A.:AndMI, 2024 y.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA FANLAR ORASIDAGI O'ZORO BOG'LANISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Islamova Nihola Xurram qizi
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'limning barcha bosqichlarida fanlar asoslarini o'qitishning mahsuldorligini oshirishda faqatgina o'zaro uzviy bog'liqlik va muvofiqlik, o'rganilayotgan fanlardan olinadigan ko'nikma bilim, malakalarni keng tadbiq qilish mumkin bo'lgan sharoitida turli o'quv kurslarining mazmunini maqsadga qaratilgan holda takomillashtirish hal qiluvchi rol ni o'ynadi. Mazkur jarayon ta'lim muassasasida faqatgina ob'ektiv voqelikning hodisa va

jarayonlari fanlararo bog'lanishi tizimli va rejali amalga oshirish orqali fan asoslarini yuqori darajada o'zlashtirilishiga erishish mumkin bo'ladi.

Kalit so'z: Dialektik, optimallashtirish, Fanlararo bog'lanish, Pedagogik imkoniyat, O'quv tamoillari ko'nikma, Malaka, Bilim, Hodisa

Аннотация: Для повышения производительности обучения основам наук на всех ступенях обучения решающую роль сыграло лишь целенаправленное совершенствование содержания различных учебных курсов, в условиях их органической связи и согласованности, широкого применения полученных навыков и знаний по изучаемым предметам. Этот процесс возможен в образовательном учреждении только посредством систематической и планомерной реализации междисциплинарных связей между явлениями и процессами объективной реальности, приводящей к высокому уровню освоения основ науки.

Ключевые слова: Диалектика, оптимизация, Междисциплинарная связь, Педагогическая возможность, Принципы обучения, навыки, Компетенция, Знание, Событие

Abstract: In order to increase the efficiency of teaching the basics of science at all stages of education, only in conditions of mutual interdependence and coherence, wide application of skills and knowledge obtained from the studied subjects, the purposeful improvement of the content of various training courses played a decisive role. This process can be achieved only through the systematic and planned implementation of the interdisciplinary connection of phenomena and processes of objective reality in an educational institution, which will allow achieving a high level of mastery of the basics of science.

Keywords: Dialectics, optimization, Interdisciplinary connection, Pedagogical opportunity, Principles of training, Skills, Competence, Knowledge, Phenomenon

O'qitishga bunday yondashuv talabalarda dialektik fikrlashni optimal rivojlantirishga, ularda ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, yaxlit fikrlash va nuqtai nazarni shakllantirishga yordam beradi. Ma'lumki, fanlararo bog'lanish hodisasi ko'p o'lchamli. U mazmunining ko'pqirraliligi, o'qitish metodlari va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Bu esa talabalarning o'quv-bilish faoliyati bilan o'qituvchilarning o'qitish faoliyatining o'zaro bog'lanishi asosini tashkil qiladi. O'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish muammosining yuazaga kelishi tarixiy nuqtai nazardan ta'lim jarayonining talabalarning ongida real dunyoning turli hodisalari to'g'risidagi bilimlarni alohida tizimli shakllantirishga yordam beradigan tuzilmaviy predmeti sababli paydo bo'lgan.

O'rta va oliy maktabda fanlararo bog'lanish muammosiga M.I.Aliev, A.R.Bektenyarova, P.M.Burdin, F.G.Ishkova, R.B.Lotshteyn, A.A.Xomich va boshqalarning tadqiqotlari bag'ishlangan [1, 2, 3, 5, 7, 8]. Bu ishlarda umumiy o'rta ta'lim va oliy maktabda o'quv jarayonini takomillashtirishda, shu jumladan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida, talabalarning bilim sifati hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining sifatini oshirishda fanlararo bog'lanishning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Fanlararo muammosini tarixiy kontekstda qarab chiqsak, u holda bu muammoga o'tgan asr pedagoglari va hozirgi zamon tadqiqotchilari katta e'tibor qaratganligini ko'rishimiz mumkin. V.N.Kelbakiani ta'kidlagandek, «bu muammo turli jihatlaridan o'rganilgan: uning rivojlanish tarixi, uning metodologik va nazariy ahamiyati, o'quv fanlarida fanlararo bog'lanishning mazmuni, o'qitish va tarbiya jarayonida ularni amalga oshirish motivlari...» [6; 11-b.].

Muhakama Dunyo pedagogikasining mumtoz namoyondasi Ya.A.Komenskiy shunday ta'kidlagan edi: "O'zaro bog'liqlikda bo'lgan hamma narsani xuddi shunday bog'liqlikda o'qitilish kerak, chunki bu narsa tizimli bilimlarni shakllantirishda juda muhimdir [4]. U bilimlar

tizimini shakllantirish uchun o'quv fanlari o'rtasida bog'lanishni o'rnatish kerak, deb hisoblagan. Ya.A.Komenskiyning fikricha, "hamma narsani o'qitish kerak". U maktab bolalarning aqli, ahloqi, his-tuyg'ulari va irodasini rivojlantiradigan, har tomonlama ta'lim berishi kerak deb hisoblagan.

Fanlarni o'qitishdagi bog'lanishlar haqida I.Pestalossi, I.Gerbart, A.Disterverg va boshqa pedagoglar ham o'z fikrlarini bildirishgan. Ular o'quv fanlari orasidagi bog'lanishlarni ta'lim oluvchilar o'zlarini o'rab turgan olamning xilma-xilligi va yaxlitligini ko'ra olishlari uchun yanada chuqurroq bilim olish usuli deb tushungan. O'qitiladigan fanlar orasidagi atrofdagi voqelikni to'g'ri idrok etishga yordam beradigan bog'lanish to'g'risida I.G.Pestalossi shunday yozgan: "O'zaro bog'langan buyumlarni o'z onginga ularning tabiatdagi haqiqiy bog'lanishida qanday bo'lsa, shunday keltirgan" [4], bunda u ayniqsa yuqori sinflarda bir fanning boshqasidan ajralib qolish xavfi to'g'risida gapirgan.

XVII asrda yashab ijod qilgan nemis pedagogi, psixologi va faylasufi I.Gerbartning ishlarida ham shunday fikrlar keltiriladi. U maktab ta'lim oluvchilarining aqliy faoliyati o'quv fanlari orasidagi bog'lanishga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq deb hisoblaydi. I.G.Pestolossining izdoshi, nemis pedagog-demokrati A.Disterverg ham turli o'quv fanlarini o'rganishda fanlararo bog'lanishning zarurligi haqida gapirgan.

Ma'lumki, maktabda o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo bog'lanish g'oyasi Rossiyada ham keng tarqalgan. XIX va XX asrlarda yashab o'tgan rus demokratlari bilimlarni erkin va faol o'zlashtirish kerakligi haqida gapirganlar, ular o'qitishda sxolastika va formalizmga qarshi chiqqanlar: V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, N.G.Chernishevskiy, A.I.Gersen, D.I.Pisarev va boshqalar bu g'oyaga chuqur tushunish bilan yondashganlar. Masalan, V.G.Belinskiy ta'lim tizimining "yaxlitlik" g'oyasini ilgari surgan, unda barcha o'quv fanlari birlikda va o'zaro bog'lanishda o'qitiladi. N.G.Chernishevskiy o'z navbatida bir fandan olingan bilimlar maktab dasturining boshqa fanlarini o'zlashtirishda ham o'z mevasini berishi kerak bo'lgan bilimlarni yoqlab chiqqan.

Xuddi shu davrda demokratlardan tashqari, mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy ham klassik pedagogikada fanlararo bog'lanishning didaktik ahamiyatini asoslab bergan. U fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarurligini XIX asrda endi tug'ilayotgan psixologiya fani nuqtai nazaridan asoslab berishga uringan. U ta'lim oluvchilarda o'quv fanlari o'rtasidagi bog'lanishlarsiz tizimli va yaxlit bilimlarni shakllantirib bo'lmaydi deb hisoblaydi. Uning fikricha bunday bilimlarning yo'qligi, juda katta nazariy materialni yodlab, real hayotda qo'llashni bilmaydigan odamlarni shakllantiradigan sxolastik maktabning asosiy kamchiligi hisoblanadi. K.D.Ushinskiy biror bir fan tomonidan beriladigan bilimlar va g'oyalar dunyoni yorug' va imkon qadar keng ko'rish asosida qurilishi, ya'ni nozik va tartibli tizim kabi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. K.D.Ushinskiy maktabda o'qituvchilar faqat o'zlarining fanlariga oid muammolar bilan cheklangan, ta'lim oluvchilarning umumiy aqliy rivojlanishiga e'tibor bermasdan o'qitishni yetarlicha keskin tanqid qiladi.

Natijalar.Bu buyuk rus pedagogi tanqiddan tashqari biz tadqiq qilayotgan hodisaga nisbatan ham o'z nuqtai nazarini bayon qiladi: "Umumta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarni taqsimlashda alohida fanlarni emas, balki ta'lim oluvchi ruhining yaxlit va uyg'un, asta-sekinlik bilan va har tomonlama rivojlanishini nazarda tutish kerak".

K.D.Ushinskiy pedagoglar va didaktiklarning nazariy merosi fanlararo bog'lanish nazariyasining rivojlanishiga va ishlab chiqilishga juda katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu nazariya XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab o'tgan ko'plab pedagoglarning, xususan, V.Ya.Stoyunin, D.D.Semenov, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqalarning ishlarida aks etgan. Bu pedagog-didaktiklarning tadqiqotlarida fanlararo bog'lanish asosida o'qitishni tashkil qilishning quyidagi tamoyillari aniqlangan:

- o'quv fanlari orasidagi bog'lanishni aniqlash;
- turli fan o'qituvchilari tomonidan umumiy atamashunoslikdan foydalanishdagi turli qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;
- alohida fanlarning mazmunini o'qitishdagi izchillik;
- turli fanlardan olingan bilimlarning o'zaro bir-biriga singdirilishi;
- nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- o'qituvchilarning o'z ta'lim oluvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikda ishlashi kabi fikrlar asoslangan.

Xulosa Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida yashab o'tgan ko'pgina buyuk pedagoglar ta'lim jarayonida, eng avvalo, maktabda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarurligini tan olganlar, deb xulosa chiqarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yati

1. Aliyev Madjid Ibod o'g'ly. Mejpredmetnye svyazi kak uslovie aktivizatsii uchebnoy deyatel'nosti studentov.: Avtoref. ... dis. kand. ped. nauk. – Tbilisi, 1986.
2. Bektenyarova A.R. Mejpredmetnye svyazi kak uslovie aktivizatsii poznavatel'noy deyatel'nosti uchashixsya.: Avtoref. ... dis. kand. ped. nauk. – Alma-Aty, 1993. – 25
3. Burdin P.M. Mejpredmetnye svyazi v politexnicheskoy podgotovke studentov pedvuza.: Avtoref. ... dis. kand. ped. nauk. – M., 1985. – 17 s.
4. Izbrannyye pedagogicheskiye proizvedeniya. – M., 1963. – 175 b.
5. Ishkova L.V. Metodicheskaya sistema osushchestvleniya svyazey fiziki s matematikoy v uchebnoy protsesse podgotovitel'nogo otdeleniya pedinstituta.: Avtoref. ... dis. kand. ped. nauk. – M., 1980. – 16 s.
6. Kelbakiani V.B. Mejpredmetnye svyazi v yestestvenno-matematicheskoy i pedagogicheskoy podgotovke uchiteley. – Tbilisi: Ganetleba, 1987. – 291 s.
7. Lotshteyn R.B. Mejpredmetnye svyazi v podgotovke uchiteleya (na materiale angliyskogo yazyka i profiliruyemykh predmetov v pedagogicheskom neyazykovom vuze): Dis. ... kand. ped. nauk. – Alma-Ata, 1976.
8. Xomich A.A. Sistema mejpredmetnykh zadaniy kak sredstvo formirovaniya nauchnogo mirovozzreniya shkolnikov.: Avtoref. ... dis. kand. ped. nauk. – Kiev, 1986. – 24 s.

MAHALLIY XOMASHYO ASOSIDA OLINADIGAN GIPS QURILISH MATERIALIDAN TAYYORLANADIGAN GIPSKARTON LISTLARI

*Mirzayev Baxtiyorjon Obloqulivich
Andijon davlat texnika instituti “Qurilish muxandisligi” kafedra mudiri
No'monov Mashrabjon Bahodirjon o'g'li
Andijon davlat texnika instituti “Qurilish muxandisligi” stajyor o'qituvchi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarilishi jihatidan tobora keng ko'lam kasb etayotgan gipsokarton va uning qurilish sohasida qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ekologik materiallarga bo'lgan ehtiyoj yil sayin oshib borayotgan bir paytda mahalliy xomashyolar asosida yuqori samaradorlikga ega kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish ushbu dolzarb muammoni yechimlaridan biri bo'la oladi.

Abstract. This scientific article provides information on plasterboard, which is becoming more and more popular today in terms of its production in the building materials industry, and its

use in the construction industry. At a time when the need for ecological materials is increasing every year, the production of high-performance composite materials based on local raw materials can be one of the solutions to this urgent problem.

Аннотация. В этой научной статье представлена информация о гипсокартоне, который сегодня становится все более распространенным с точки зрения производства в промышленности строительных материалов, и о его применении в строительной отрасли. Одним из решений этой насущной проблемы может стать производство высокоэффективных композитных материалов на основе местного сырья, в то время как потребность в экологических материалах возрастает из года в год.

Kalit so‘zlar: Gips, gipsakarton, mahalliy xomashyolar, gipsakarton listlar, gipsakarton list xossalari, gipsakarton list texnologiyasi, gipsakarton xususiyatlari, gipsakarton ishlatilishi


Key words: Gypsum, plasterboard, local raw materials, plasterboard lists, plasterboard list properties, plasterboard list technology, plasterboard properties, plasterboard uses

Ключевые слова: Гипс, гипсокартон, местное сырье, гипсокартон листы, свойства гипсокартона лист, технология гипсокартона лист, свойства гипсокартона, использование гипсокартона.

Hozirgi kunda mamlakatimizda uy-joy, sanoat va qishloq xo‘jaligi binolariga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Bu bino va inshootlarni bevosita talab darajasiga yetkazib berish, bizga o‘z-o‘zidan sifatli qurilish materiallariga ehtiyoj kattaligini anglatadi. Shu jumladan pardozbop qurilish materiallari ishlab chiqarish va yuqori sifatli pardozbop materiallarni import qilish zarur ahamiyatga ega. Misol uchun Qashqadaryoda yiliga 106 ming tonna gipsokarton, 102 ming kvadrat metr kafel va boshqa qurilish materiallariga talab bor. Lekin, kerakli xomashyo bo‘lishiga qaramay, viloyatda bu mahsulotlar umuman ishlab chiqarilmas edi. Shu bois bu sohada bir nechta loyiha rejalashtirilgan. Misol uchun, Chiroqchi tumanida 210 milliard so‘mlik loyiha evaziga gipsokarton, pardozbop toshlar, gazobeton, temir-beton konstruksiyalar ishlab chiqarish mo‘ljallangan. Buning natijasida uy-joylar qurilishida 1 kvadrat metr tannarxini 25 foizgacha qisqartirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘tmishdagi gipsokarton hozirgilaridan tubdan farq qilgan. Lekin u paytda pardozlash materiallari tanlovi keng bo‘lmagan, shu sababli, usti g‘ovak va ichi mo‘rt sifatsiz mahsulotga aytarli e‘tiroz bildirilmagan. 1932-yilda germaniyalik muhandislar – aka-uka Knauf o‘z vatanlarida birinchi gipsokarton fabrikasini ochishdi. Shu yerda bizga tanish ko‘rinishdagi, ya‘ni qator ijobiy iste‘mol xususiyatlariga ega gipsokarton ishlab chiqarilishi boshlandi. [Knauf gipsokartoniga](#) 86 yil to‘ldi va nemis brendining listlari bugunga qadar alohida shuhrat qozonib kelmoqda, buni ekspertlar fikrlari va iste‘molchilarning ijobiy mulohazalari tasdiqlab kelmoqda. Keyingi o‘n yillarda gipsokarton listlari sifati sezilarli tarzda o‘zgardi. Ilg‘or texnologiyalar tufayli iste‘molchi mustahkam, samarali ish beruvchi materialga ega bo‘lmoqda.


Gips “nafas oluvchilar” toifasiga kiradi, uning tuzilmasi xonadagi namlik darajasini barqarorlashtirish imkonini beradi. [Gipsokarton listi](#) havoda namlikni ko‘payganda uni yutadi va yetishmaganda qaytaradi. Gips “masallig‘i” joylangan karton ideal darajada tekislikka ega, u suvoq tortishdan oldin maxsus manipulyasiyalarni talab qilmaydi. Zamonaviy gipsokarton [ta‘mirlashda](#) keng qo‘llaniluvchi universal pardozlash materiali sanaladi. Qurilish bozoriga qanday kelib qolganligi noma‘lum “Xitoydan chiqqan” sifatsizlari bundan mustasno.




1-rasm. Gipsokarton qirqimi

Gips karton nomidan ko‘rinib turibdiki, har ikki tomondan yupqa va bardoshli qog‘ozga o‘ralgan, presslangan gipsdan iborat. Uning yuzasi mukammal tekis, materialning o‘zi etarlicha kuchli, og‘ir yuklarga bardosh beradi, lekin ayni paytda u bilan ishlash oson va sodda.

Gips va qog‘oz asoslaridan tashqari, gipsokartani ishlab chiqarishda gips uchun yopishtiruvchi va ko‘pikli moddalar qo‘llaniladi. Karton ikkita funktsiyani bajaradi: bu mustahkamlovchi ramkaning bir qismi va ayni paytda pardozlash materiallarini (dekorativ gips, devor qog‘ozi, bo‘yoq va boshqalar) qo‘llash uchun ajoyib asosdir.




2-rasm




3-rasm

Gipskarton list tashqi ko‘rinishi va tayyorlash aniqligi bo‘yicha ikki guruhga bo‘linadi: A va B.

Gipskarton listlar bo‘ylama yon tomonlari (kromki) shakliga ko‘ra beshta tipga bo‘linadi.



4-rasm. To‘g‘ri kromka.



5- rasm. Aylana kromka.

Bunda o‘lchamlar ma’lumot sifatida berilgan bo‘lib, listlar bu jihatda yaroqsiz hisoblanmaydi.

Gipskarton listlar nominal o‘lchamlarini ruxsat etilgan o‘zgarishi

1-jadval

Listlar qalinligi, mm	Nominal o'lchamlarning ruxsat etilgan o'zgarishi, mm, list guruhleri bo'yicha					
	A			B		
	Uzunligi bo'yicha	Eni bo'yicha	Qalinligi bo'yicha	Uzunligi bo'yicha	Eni bo'yicha	Qalinligi bo'yicha
16 mm gacha (16 mm ham)	0	0	$\pm 0,5$	± 8	0	$\pm 0,5$
16 mm ko'p	-5	-5	$\pm 0,9$	± 8	-5	$\pm 0,9$

Gipskarton listlar o'lchamlari va massasi

2-jadval

Nomi	Qalinligi S, mm	Eni, mm	Uzunligi, mm	Massa, 1m ² , kg
GKL	8	1200	2000 boshlab 4000 gacha 50 mm oralab	≤ 8
	9,5	1200		$\leq 9,5$
	12,5	1200		$\leq 12,5$
	14,0	1200		$\leq 14,0$
	16,0	1200		$\leq 16,0$
	18,0 yuqori	600		$\leq 1,0 S$
GKLV	9,5	1200	2000 boshlab 4000 gacha 50 mm oralab	7,6...10,07
	12,5	1200		10,07...13,3
	14,0	1200		11,2...14,9
	16,0	1200		12,8...17,0
GKLO	12,5	1200	2000 boshlab 4000 gacha 50 mm oralab	10,0...13,3
	14,0	1200		11,2...14,9
	16,0	1200		12,8...17,0
	18,0 yuqori	600		0,89...1,065
GKLVO	12,5	1200	2000 boshlab 4000 gacha 50 mm oralab	10,0...13,3
	14,0	1200		11,2...14,9
	16,0	1200		12,8...17,0

GKL – A – UK – 3000x1200x12,5 GOST 6266 – 97. Gipskarton listlarning nominal o'lchamlari bo'yicha ruxsat etilgan o'zgarishlar berildi.

Gipskarton list

KNAUF – list – listli bezak material bo'lib, ko'pirtirilgan gips asosidagi o'zak (o'rta qism) va yon (tores) tomonlaridan boshqa hamma yuzalari yelimlangan kartondan iborat.

Gipskarton listlar devorlarni qoplashda, parda-devorlar barpo qilishda, osma shiftlar, konstruksiyalarni olovdan himoyalashda hamda bezak va tovush yutuvchi buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. List o'zagi G-4 markali gipsdan tayyorlanadi, gips muayyan fizik va texnik xossalarga ega bo'ladi.

- Oddiy gipskarton listlar (GKL);
- Suvga chidamli gipskarton listlar (GKLV);
- Ochiq olovga yuqori darajada qarshilik ko'rsatuvchi gipskarton listlar (GKLO);
- Suvga chidamli va ochiq olovga yuqori darajada qarshilik ko'rsatuvchi gipskarton listlar (GKLVO). Listlarga yozuvlar quyidagicha yoziladi;
- GKL va GALV – havo rangda;
- GKLO va GKLVO – qizil rangda.

GKL nomenklaturasi

3-jadval

KNAUF – listlar turlari	Karton rangi	Yozuv rangi
Oddiy (GKL)	Kul rang	Havo rang
Suvga chidamli (GKLV)	Yashil	Havo rang
Ochiq olovga yuqori darajada qarshilik ko'rsatuvchi (GKLO)	Kul rang	Qizil
Suvga chidamli va ochiq olovga yuqori darajada qarshilik ko'rsatuvchi (GKLVO)	yashil	Qizil

Gipskarton listlar nominal o'lchamlari

4-jadval

Nominal o'lchamlar	Chegaraviy o'zgarishlar, mm		
	Uzunligi bo'yicha	Eni bo'yicha	Qalinligi bo'yicha
$L <$	0; -3;	0; -3;	$\pm 0,3$
$B <$	0; -3	0; -3	$\pm 0,3$
$L >$	0; -3;	0; -3;	$\pm 0,3$
$B >$	0; -3	0; -3	$\pm 0,3$

Xulosa

Respublikamizda gipsokarton ishlab chiqarish dolzarb muammolardandir. Gipsokarton ishlab chiqarish uchun xomashyolar yetarli lekin ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan.

Respublikamizda bu mahsulotga talab esa yuqori. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mahalliy xomashyolardan gipsokarton ishlab chiqarish dolzarb muammodir.

Mahalliy xomashyolar orqali gipsokarton ishlab chiqarila boshlasa mahalliy bozorda gipsokarton listlarining tannarhi sezilarli darajada pasayadi.

Gipstolali listlarning mustahkamlik xususiyatlari gipskarton listlarnikiga nisbatan yuqoridir. Listlarning o'ng yuzasida moy dog'lari, tirnalgan va yopishgan joylar, zararlangan burchaklar, bo'ylama va yopishgan joylar, zararlangan burchaklar, bo'ylama va ko'ndalang qirralar bo'lmasligi shart. Listlarning tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi 370 Bk/kr dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Gipstolali listlar tayyorlash uchun quyidagi hom ashyolar ishlatiladi: gips bog'lovchi, makulatura, suv. Listlarga changimaslik va suvni yuqtirmaslik xususiyatlarini berish maqsadida uning yuzalariga lateks bilan ishlov berish kerak.

O'zbekiston hududida gipsokarton listlar ishlab chiqarish loyihalari allaqachon mavjud va amalga oshirilayotganlari ham mavjud. Bu loyiha O'zbekiston aholisining xarid qilish qilish qobiliyatini hisobga olsak ayni muddao bo'ladi. Chunki chet eldan sotib olingan tovarlarga nisbatan arzonroq sotiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov E. qurilish ashelari. T., Mehnat, 2004 Yil.
2. Mahmudova N. A. Bo'glovchii moddalar T., taki, o'kuv qo' llanma 2012.-118 b.
3. Askarov, X., & Mirzayev, B. (2023). LEGO G 'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH. GOLDEN BRAIN, 1(5), 4-8.
4. Akramov, A. A. U., & Nomonov, M. B. U. (2022). Improving the Efficiency Account Hydraulic of Water Supply Sprinklers. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 364-370.
5. Achilov, A. N., Payazov, M. M., Akbarov, Z. N., & Madaminov, O. B. (2020). Issues to improving the social situation of the population of the republic of Uzbekistan and the qualitative organization of municipal services. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 5(85), 708-713.
6. Абдуллаев, И. А. (2023). ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ СХЕМА ПРОИЗВОДСТВА СУХИХ СТРОИТЕЛЬНЫХ СМЕСЕЙ ДЛЯ ТЕПЛОИЗОЛЯЦИИ СТЕН В КОЛОДЦЕВОЙ КЛАДКЕ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(11).
7. Абдуллаев, И. А. (2020). ПРИМЕНЕНИЕ ЯЧЕИСТОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ В ГРАЖДАНСКОМ СТРОИТЕЛЬСТВЕ. V Международный студенческий строительный форум-2020, 147-150.
8. Абдуллаев, И. А. (2022). ИЗДЕЛИЯ, ИЗГОТАВЛИВАЕМЫЕ НА ПРЕДПРИЯТИИ Г. ФЕРГАНА. *Экономика и социум*, (4-1 (95)), 212-215.
9. Абдуллаев, И. А. (2022). ИЗДЕЛИЯ, ИЗГОТАВЛИВАЕМЫЕ НА ПРЕДПРИЯТИИ Г. ФЕРГАНА. *Экономика и социум*, (4-1 (95)), 212-215.
10. Абдуллаев, И. А. (2022). ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОСТАВА ХОЛОДНОГО АСФАЛЬТОБЕТОНА. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 362-366.
11. Obokulovich, M. B. (2023). Rangli defektoskopik kapillyar usulning muhim afzalligi va kamchiliklari. *HOLDERS OF REASON*, 1(1), 671-675.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING BO'LAJAK MUHANDISLAR UCHUN O'QUV JARAYONIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*Mingyasharova Sevara Abdulla qizi
TerDMAU o'qituvchisi
Mamanov Jasur Hakim o'g'li
TerDPI o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak muhandis texnologlarga o'quv jarayonida fanlarni o'qitishdagi innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati haqida so'z olib borilgan. Barchaga ma'lumki, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samarasi yuqori darajada bo'lib, bu talabalarda o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirishga yordam beradi. Shuni hisobga olgan holda ta'lim jarayonidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarning ayrim jihatlarga alohida e'tibor berilgan. Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kerakli tavsiya va ko'rstmalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, texnologiya, resurs, muhandis, pedagogika, psixologiya.

Abstract. This article talks about the role and importance of innovative pedagogical technologies in teaching subjects to future engineering technologists. Everyone knows that the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the educational process is high, and it helps students to develop their professional knowledge, skills and competences. . Taking this into account, special attention was paid to some aspects of innovative pedagogical technologies in the educational process. Necessary recommendations and instructions for the development of professional competences of future engineers are given.

Key words. Education, technology, resource, engineer, pedagogy, psychology.

Абстрактный. В статье рассматривается роль и значение инновационных педагогических технологий в преподавании дисциплин будущим инженерам-технологам в образовательном процессе. Общеизвестно, что использование инновационных педагогических технологий в образовательном процессе является высокоэффективным, способствует развитию у студентов профессиональных знаний, умений и навыков. . С этой целью особое внимание уделено отдельным аспектам инновационных педагогических технологий в образовательном процессе. Даны необходимые рекомендации и указания по развитию профессиональных компетенций будущих инженеров.

Ключевые слова. Образование, технологии, ресурсы, инженерия, педагогика, психология.

Yurtimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Dunyoda ta'lim tizimida ro'y berayotgan ta'limning internatsionallashuvi, talabalarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturining tez o'zgaruvchanligi kabi global tendensiyalar qatoriga ta'lim sifatini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-ahloqiy, intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar ta'lim muassasalari oldiga xalqaro talablarga javob bera oladigan sifatli kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bu vazifalarni bajarish yo'lida esa ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Ammo ta'lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni, ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tizimida foydalanayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni isloh qilishning zamonaviy tajribalari nisbatan sekin o'zlashtirilmoqda [1,130].

Pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning izchil

metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, so'nggi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan matematika sohasidagi so'nggi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalarni keltirib o'tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi [2,282].

Bizning fikrimizcha ta'lim jarayonida avval qiziqish uyg'otib, motivatsiya berib, so'ngra raqobat muhiti yaratilsa bo'lajak muhandislarda innovatsiya yaratishdagi yashirin qobiliyatlari uyg'otiladi va albatta rag'batlantirish amalga oshirilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Talabalarga ilm-fan va innovatsiya yaratishda yutuqlarga erishgan insonlardan misol keltirib, iloji bo'lsa ulardan birini o'rnak bo'luvchi inson sifatida darsga taklif qilib, yoki innovatsiyalar markaziga talabalarni ekskursiyalarga olib borishni yo'lga qo'yilsa maqsadga tezroq erishilgan bo'lardi.

Hozirgi va kelajakda eng katta talab qaratilgan kasb bu - IT bo'yicha mutaxassislardir. Mana shu yo'nalishlar ko'proq ochilsa oliy ta'lim muassasalarida va shu sohada yetuk kadrlar tayyorlash uchun pedagoglar ham chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lib, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim berishadi. Mana shu kabi sohalarida yutuqlarga erishishi uchun zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta'minlangan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tiladigan oliy ta'lim muassasalari eng yaxshi institutlar safiga albatta kiradi deb aytsak albatta mubolag'a bo'lmaydi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:



Shulardan kelib chiqqan holda har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va salohiyatli shaxs bo'lib yetishishlari uchun nafaqat tarbiyachi ustozlar balki barchamiz

ma'sulmiz desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz kutgan natijaga erishish uchun bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachi ustozlar o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib, mustahkamlab, ularni rivojlantirib, o'z ustilarida ko'proq shug'ullanishga maqsadga muvofiq bo'ladi [3,525].

Yigirma birinchi asr axborot texnologiyalari asri bo'lib, har bir yosh avlod kelajagi va ertangi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot kommunikatsiyalarining rivojlanishi butun dunyo bo'ylab taraqqiy etib bormoqda. Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini oliy ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi.

Yillar davomida to'plangan ilm-fan xazinasini bugungi yosh kelajak avlodga o'rgatish, ularni dunyodagi ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiya va axborot tizimlari yordamida jahon standartlariga to'g'ri keladigan yetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash bugungi davrning asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunning muhim talablaridan yana biri, o'quv jarayonini to'liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir.

Ko'p bosqichli ta'lim tizimida, yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubiyat bo'yicha olib borilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni respublika pedagoglari ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga qo'llash bilan mustahkamlashlari zarur. Avval ta'kidlanganidek, buning uchun pedagoglarimizni o'quv jarayoniga texnologik yondashuvlarini o'rgatish talab etiladi, bu esa pedagogik texnologiyadan foydalanishdan tashqari uni O'zbekiston madaniyati, an'analari va tajribasi bilan boyitishga olib keladi [6,101].

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Talabalarga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish; ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish; talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish; fanga qiziqgira olish; berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish; bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur [5,386].

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga

ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

Yurtimizda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir [4,528].

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limni sifatini ko'tarsa, innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchdir. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-jild "O'zbekiston" Toshkent-2017 130-bet
2. Sh.S.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova.// "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. – T. 2005-y.282b
3. N.N. Azizxo'jayeva // Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003.– 174 b.
4. S.A. Mingyasharova // "Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodlari". Konf. II-qism. Qarshi 2023. -524-529 b.
5. S.A. Mingyasharova // "Mechanisms of professional competence development of future engineers in higher education institutions". European science Volume 10, issue10(2023).-384-387 b
6. S.A.Mingyasharova // "Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari". "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnal, 4-son.-101b.
7. Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi sayti – www.giu.uz

ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASI

Norqo'ziyev Jahongir Sheraliyevich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar

Abstract: This article briefly describes the Koshi problem and finding its particular solutions for a parabolic equation.

Аннотация: В статье кратко описывается задача Коши и нахождение ее частных решений для параболического уравнения.

Annotatsiya: Ushbu maqolada parabolik tipdagi tenglama uchun Koshi masalasi va uning xususiy yechimlari topish qisqacha bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Koshi masalasi, xususiy yechimlar, issiqlik tenglamasi.

Bizga cheksiz toʻgʻri chiziqda bir jinsli issiqlik tarqalish tenglamasi

$$u_t = u_{xx}, -\infty < x < \infty, t > 0 \quad (1)$$

berilgan boʻlsin. (1) - tenglama uchun

$$u(x, t)|_{t=0} = x \cdot e^{-x^2} \quad (2)$$

$-\infty < x < \infty$ Koshi shartini qanoatlantiruvchi yechimi topilsin.

Dastlab, yordamchi

$$u_t = u_{xx} \quad (1),$$

$$u(x, t)|_{t=0} = \varphi(x), \quad -\infty < x < \infty \quad (3)$$

cheksiz toʻgʻri chiziqda koshi masalasini yechamiz. Yechimni

$$u(x, t) = X(x)T(t)$$

koʻrinishida izlaymiz. Bundan quyidagilarni aniqlaymiz:

$$u_{xx} = X''(x)T(t), \quad u_t = X(x)T'(t), \quad X(x)T'(t) = X''(x)T(t)$$

$$\frac{T'(t)}{T(t)} = \frac{X''(x)}{X(x)} = -\lambda^2, \quad \begin{cases} X''(x) = -X(x)\lambda^2 \\ T'(t) + \lambda^2 T(t) = 0 \end{cases}$$

$$X''(x) + X(x)\lambda^2 = 0$$

bu tenglamaning yechimi quyidagidan iborat:

$$X_1 = e^{-i\lambda x}, \quad X_2 = e^{i\lambda x}.$$

Endi ikkinchi tenglamani yechaylik:

$$\frac{dT}{T} = -\lambda^2 dt \Rightarrow \ln T = -\lambda^2 t + C \Rightarrow T(t) = e^{-\lambda^2 t} * C$$

$$u(x, t) = \sum_{n=-\infty}^{\infty} u_n(x, t) = \sum_{\lambda=-\infty}^{\infty} T_{\lambda}(t)X_{\lambda}(t) = \int_{-\infty}^{+\infty} A(\lambda) e^{-\lambda^2 t} \cdot e^{\pm i\lambda x} d\lambda$$

Bunda λ ixtiyoriy haqiqiy son, shuning uchun soʻnggi integralda $+$ ishoraligini olamiz.

$$u(x, t) = \int_{-\infty}^{+\infty} A(\lambda) e^{-\lambda^2 t + i\lambda x} d\lambda$$

Yordamchi masala (3) shartiga koʻra $t = 0$ da

$$\varphi(x) = \int_{-\infty}^{+\infty} A(\lambda) e^{-i\lambda x} d\lambda$$

Furye almashtirishini qoʻllasak,

$$A(\lambda) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} \varphi(\xi) e^{-i\lambda \xi} d\xi$$

$$\begin{aligned}
u(x, t) &= \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} \left(\int_{-\infty}^{+\infty} \varphi(\xi) e^{-i\lambda\xi} d\xi \right) e^{-\lambda^2 t + i\lambda x} d\lambda = \\
&= \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} \left(\int_{-\infty}^{+\infty} e^{-\lambda^2 t + i\lambda(x-\xi)} d\lambda \right) \varphi(\xi) d\xi
\end{aligned}$$

Ichki integralni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
I &= \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-\lambda^2 t + 2i\lambda \frac{\sqrt{t}(x-\xi)}{2\sqrt{t}} - \frac{i^2(x-\xi)^2}{(2\sqrt{t})^2} - \frac{(x-\xi)^2}{(2\sqrt{t})^2}} d\lambda = \\
&= \frac{1}{\sqrt{t}} \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-\left(\lambda\sqrt{t} - \frac{i(x-\xi)}{2\sqrt{t}}\right)^2} d\left(\lambda\sqrt{t} - \frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right) e^{-\left(\frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right)^2} = \\
&= \frac{1}{\sqrt{t}} \sqrt{\pi} e^{-\left(\frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right)^2} \\
u(x, t) &= \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{\sqrt{\pi}}{\sqrt{t}} e^{-\left(\frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right)^2} \varphi(\xi) d\xi = \frac{1}{2\sqrt{\pi t}} \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-\left(\frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right)^2} \varphi(\xi) d\xi \quad (4)
\end{aligned}$$

Ichki integralni hisoblashda

$$\int_{-\infty}^{+\infty} e^{-x^2} dx = \sqrt{\pi} \quad (**)$$

tenglikdan foydalandik. Ushbu tenglikni isbotlash uchun $x = \lambda y$ ko'rinishida ifodalaymiz. $dx = \lambda dy$ ekanligini hisobga olsak,

$$I = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-x^2} dx = 2 \int_0^{+\infty} e^{-x^2} dx = 2 \int_0^{+\infty} e^{-\lambda^2 y^2} \lambda dy$$

tenglikni ikki tomonini $e^{-\lambda^2}$ ko'paytirib, $(0, +\infty)$ integrallaymiz.

$$\begin{aligned}
\frac{I}{2} &= \int_0^{+\infty} e^{-\lambda^2 y^2} \lambda dy \\
\frac{I}{2} \int_0^{+\infty} e^{-\lambda^2} dy &= \int_0^{+\infty} \int_0^{+\infty} e^{-\lambda^2 y^2} e^{-\lambda^2} \frac{d\lambda^2}{2} dy \\
\frac{I}{2} \frac{I}{2} &= \frac{1}{2} \int_0^{\infty} \frac{dy}{1+y^2} \int_0^{\infty} e^{-\lambda^2(y^2+1)} d(-\lambda^2(y^2+1)) \\
\left(\frac{I}{2}\right)^2 &= -\frac{1}{2} \int_0^{\infty} d\arctg y \left(e^{-\lambda^2(y^2+1)} \Big|_0^{\infty} \right) \\
\left(\frac{I}{2}\right)^2 &= \frac{1}{2} \int_0^{\infty} d\arctg y \\
\left(\frac{I}{2}\right)^2 &= \frac{1}{2} (\arctg \infty - \arctg 0)
\end{aligned}$$

$$\frac{I^2}{4} = \frac{1}{2} \left(\frac{\pi}{2} - 0 \right) \Rightarrow \frac{I^2}{4} = \frac{\pi}{4} \Rightarrow I = \sqrt{\pi}$$

Demak,

$$\int_{-\infty}^{+\infty} e^{-x^2} dx = \sqrt{\pi}$$

(1) tenglama yechimini (4) dan foydalanib, Koshi masalasini yechamiz:

$$u(x, t) = \frac{1}{2\sqrt{\pi t}} \int_{-\infty}^{+\infty} e^{-\left(\frac{x-\xi}{2\sqrt{t}}\right)^2} \xi e^{-\xi^2} d\xi$$

bo'laklab integrallash natijasida, ushbu yagona yechim kelib chiqadi:

$$u(x, t) = \frac{x}{\sqrt{(4t+1)^3}} e^{-\frac{x^2}{4t+1}}$$

MOLEKULAR FIZIKANING INVARIANT VA VARIATIV KOMPONENTLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID MASALALAR YECHISH METODIKASI

Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li
TerDMAU assistant.

Annotatsiya: Fizikadan masalalar yechish texnologiyasi fanini o'qitishdan maqsad – fizik masalalarning turlari, yechish metodi, masala yechish darslarini tashkil etish, masala yechishning tarbiyaviy ahamiyati kabi muammolarga tegishli alohida mavzular kiritilgan bo'lib, mashg'ulotlarni o'tishda masalalar yechish metodikasiga alohida e'tibor qaratilishi nazarda tutiladi. Fizika o'qituvchisi nazariy bilimga ega bo'lishi bilan birga o'qitish metodikasini ham puxta egallagan bo'lishi zarur, jumladan masalalar yechish metodikasini ham etarli darajada o'zlashtirgan bo'lishi talab etiladi.

Kalit so'zlar: Masala yechish metodikasi, maqsad va vazifalari, masalalarning berilish turlari, sifat masalalari, eksperimental masalalar, grafik masalalar.

Har bir fizika o'qituvchisi fizik masalalar yechish metodikasini mukammal bilgandagina o'z o'quvchilarida fizika faniga bo'lgan qiziqishni shakllantira oladi va ularga chuqur bilim bera oladi.

Fanning vazifasi - fizikadan masalalar yechish metodi, masalalar haqida umumiy tushunchalar, fizik masalalarning turlari, o'quv masalalar, ularning tuzilishi va xususiyatlari, masala yechishning asosiy bosqichlari, fizik masalalar yechish jarayonida fanlararo aloqani amalga oshirish usullari; fizik masalalar yechishning algoritmik usuli, ijodiy masalalar va ularni yechish usullari, masala shartini tahlil qilish, masala yechish rejasini tuzish, fizika o'qitishda masala yechishning ahamiyati, nazorat ishlarini o'tkazish metodikasi, ularning maqsad va vazifalari, olimpiada masalalari, masalalar yechishda zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan hamda innovatsion texnologiya metodlaridan foydalanish kabilarni bayon etilishi vazifalarni o'rgatishdan iborat. Umumta'lim maktablarining 9-sinfida molekulyar fizika bo'limiga doir masalalar yechish o'quvchilarni molekulyar fizika bo'limiga doir tushunchalar, kattaliklar va qonuniyatlarni chuqur o'rganishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 9-sinf

o'quvchilari uchun o'quv reja asosida molekulyar fizika bo'limini o'rganishlari uchun 48 soat ajratilgan bo'lib, shundan 10 soati masalalar yechish darslari hisoblanadi. 9-sinf fizika darsligining IV bobi Molekulyar fizika bo'limi hisoblanadi. Molekulyar fizika bo'limiga doir 23 ta mashq va bu mashqlar 161 ta masaladan iborat. Undan tashqari har bitta bobni yakunida 90 ta test savollari va 49 ta masalani yechilish namunalari berilgan.

Darslikda berilgan "masalalar yechish" darslari Bu masalalarni yechilish namunalari masalalarni yechish bosqichlari va qonunlar yoritilgan bo'lib, o'quvchilar uchun mashqlarda berilgan masalalarni yechishga yordam beradi va qonunlarni mazmunini anglashga va matematik amallarni mustahkamlashni o'rganish algebraik ifodalarni soddalashtirishga doir bilimlarini qo'llash. O'quvchilarni fizikadan masalalar yechishga yo'naltirishni biz fizika fanining 6-sinf 1-soatidan boshlashimiz kerak. Har bir mavzuni o'rganishda masalalar yechishni ham to'g'ri rejalashtirish lozim. Masalalar tanlangan metodikaga mos keladigan aniq sistemani tashkil etish va o'qitishning ma'lum maqsadga javob berishi kerak. Masalalar tanlashga ko'rsatilgan didaktik talabdan tashqari har bir masalani tanlashda o'qituvchi mo'ljallagan maqsadni amalga oshirish ahamiyatga ega. Masalalar yechishni analitik va sintetik metodlari mavjud. Masalalar yechishning analitik metodi murakkab masalani bir qator oddiy (analiz) masalalarga ajratishdan iborat bo'lib, shu bilan birga masalani yechish masalada qo'yilgan savolga bevosita javob beradigan qonuniyatni tanishdan boshlanadi. Natijaviy hisoblash formulasi xususiy qonuniyatlarni sintez qilish orqali hosil qilanadi. Bu metodga quyidagi masalani misol keltiramiz.

1-masala. Sirt yuzasi 200 cm^2 bo'lgan buyumga $1.5 \text{ }\mu\text{m}$ qalinlikda kumush qatlami qoplandi. Qoplamda qancha kumush atomi borligini aniqlang. Kumushning zichligi $10.5 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$, molyar massasi 108 g/mol ga teng.

Yechilishi: Berilgan masalani quyidagi masalalarga bo'lib olamiz.

1) Sirt yuzasi 200 cm^2 bo'lgan buyumga $1.5 \text{ }\mu\text{m}$ qalinlikda kumush qatlami qoplandi. Bu qoplam uchun ishlatilgan kumushning hajmi qancha?

2) Kumush qoplamaning massasi qanchaga teng?

3) Qoplamda qancha kumush atomi bor?

Berilgan:

$$S = 20 \text{ cm}^2$$

$$h = 1.5 \text{ }\mu\text{m}$$

$$\rho = 10.5 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$$

$$M = 108 \text{ g/mol}$$

$$N_A = 6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$$

Topish kerak

$$N = ?$$

Yechilishi:

Formulasi:

1) Jismning hajmi uning ko'ndalang kesim yuzasi

va balangligining ko'paytmasiga teng $V = S h$

2) Jismning massasi uning zichligi va hajmining

ko'paytmasiga teng. $m = \rho V = \rho S h$

3) Massasi m ga teng bo'lgan moddada

gani molekulalar soni $N = \frac{m}{M} N_A = \frac{\rho S h}{M} N_A$ formula

yordamida topiladi.

$$S = 20 \text{ cm}^2 = 2 \cdot 10^{-3} \text{ m}^2$$

$$h = 1.5 \cdot 10^{-6} \text{ m}$$

$$M = 108 \cdot 10^{-3} \text{ kg/mol}$$

$$N = \frac{10.5 \cdot 10^3 \cdot 2 \cdot 10^{-3} \cdot 1.5 \cdot 10^{-6}}{108 \cdot 10^{-3}} \cdot 6 \cdot 10^{23} = 1.75 \cdot 10^{20} \text{ ta}$$

Sintetik metodda masalani yechish topilishi kerak bo'lgan kattalikdan boshlanmasdan, masala shartidan bevosita topilishi mumkin bo'lgan kattaliklardan boshlanadi. Oxirgi formulaga izlanayotgan kattalik kirmaguncha, masalani yechish asta sekin tarmoqlanib boradi. Yuqoridagi masalani shu usulda yechish uchun avval molekulalar sonini toppish formulasi yoziladi, formuladagi noma'lum kattalik massani toppish formulasi va undagi noma'lum bo'lgan kattalik hajmini topish formulasi keltiriladi va berilgan kattaliklar topilib masala bajariladi.

Yechish usullariga ko'ra masalalar: sifat, eksperimental, grafik va ijodiy masalalarga bo'linadi. Bunday bo'linish ham shartlidir, chunki eksperimental masalalarni yechishda ham og'zaki mulohazalardan ham, grafikdan ham, hisoblash ishlaridan ham foydalanamiz. Biroq bu masalalarning har biri mazmun va murakkablik jihatidan xilma-xildir. Bu masalalarning echimlari aniq bir maqsadga qaratilgan bo'lib, echilish usullariga ega. Bu masalalarning har bir turlari uchun alohida adabiyotlar mavjud. Shunday bo'lsada, bu masalalar ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Sifat masalalari. Hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bu o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish va puxta bilim olishlaridan iboratdir. Shundan kelib chiqib o'quvchilarga fizik qonunlarni, fizik formulalarga tayangan holda, mantiqiy fikrlash orqali hal qilinadigan masalalarni ishlash qobiliyatini shakllantirishimiz kerak. Shunday masalalar borki ularni yechish uchun hisoblashlar talab etilmaydi, bunday masalalar sifat masalalari deb ataladi va bu masalalar o'quvchilarning formulalardagi fizik kattaliklar orasida qanday bog'liqlik borligini tushinishiga afzallik tomonlari ko'ppdir. Fizik qonunlarga asoslangan, mantiqiy xulosalar chiqarishdan iborat bo'lgan bu masalalarni yechish metodi, fikrlashning ajoyib maktabi bo'lib xizmat qiladi. Sifat masalalar o'quvchilarga fizik hodisalar va ularning qonuniyatlarini aniq tushuntirib beradi, nazariy bilimlarni amalda qo'llashga o'rgatadi, hisoblash masalalariga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi, har qanday masalani yechishni, uning fizik mazmunini tahlil qilishdan boshlashga o'rgatadi. Darsda o'tilgan materialni mustahkamlash maqsadida sifatga oid masalalar beriladi. Masalan: Izojarayonlar mavzusida gaz parametrlaridan biri o'zgarganda ikkinchi kattalikning qanday o'zgarishini o'rganaylik.

2-masala. Izobarik jarayonda ideal gazning hajmi 3 marta ortsa, uning tempereturasi necha marta o'zgaradi.

Yechish: Bilamizki ideal gazning bosimi ($p = \text{const}$) va massasi ($m = \text{const}$) o'zgarmas bo'lganda, hajm va temperatura orasidagi bog'lanishni ifodalovchi jarayonga izobarik jarayon deyiladi va bu jarayon 1802-yilda fransuz fizigi Gey-Lyussak tominidan aniqlangan. O'zgarmas bosimda berilgan massali gazning hajmi temperaturaga to'g'ri proporsional ravishda o'zgaradi. Shundan kelib chiqib, berilgan ideal gazning hajmi 3 marta ortishi uchun uning temperaturasi ham 3 marta ortishi kerak ekan. Javob: 3 marta ortadi.

Eksperimental masalalar: Nazariyani amaliyot bilan bog'lashning eng samarali usullaridan biri eksperimental masalalar yechishdir. Eksperimental masalalarning xarakterli xususiyati shundaki, ularni yechishda laboratoriya yoki demonstratsion eksperimentlardan foydalaniladi. Eksperimental masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning faolligi va

mustaqilligi oshadi. Chunki ular masala yechish uchun kerakli ma'lumotlarni darslikdan, masalalar to'plamidan tayyor holda olmasdan, balki o'zlari bajaradigan fizik o'lchashlardan oladilar. Eksperimental masalalarning yana bir afzalligi shundaki, bu masalalarni yetarlicha fikrlamasdan turib yechib bo'lmaydi. Ya'ni tajribada sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilar keng muhokama qilib olishlari kerak. Chunki eksperimental masalalarda, laboratoriya ishlaridagidek nazariya berilmaydi, ishni bajarish tartibi ko'rsatilmaydi. Kerakli asbob-uskunalar, materiallar berilib, topilishi kerak bo'lgan ma'lumot so'ralishi bilan kifoyalanadi. Yuqorida aytganimizdek o'quvchilar qator fikr va mulohazalardan, eksperimentda qanday fizik hodisa yotganini, qanday fizik qonun ifodalanayotganligini bilib oladilar. Va nihoyat, eksperimental masalada topilishi kerak bo'lgan fizik kattalik uchun oxirgi ifodani keltirib chiqaradilar. Oxirgi ifodani tahlil qilib, masalani yechish uchun kerakli kattaliklarni bevosita o'lchash yo'li bilan oladilar. Aytilganlarni quyidagi sodda eksperimental masalada ko'raylik:


3-masala. Hajmi 0.2 l, temperaturasi 10°C bo'lgan suv bilan, hajmi 0.2 l bo'lgan qaynoq suv aralashtirilsa, aralashmaning temperaturasi qanchaga teng bo'ladi?

Masalani bajarish: Menzurka yordamida 0.2 l hajmli suvni stakanga solamiz va termometr bilan uning temperaturasini o'lchaymiz, keyin yana menzurka yordamida 0.2 l hajmli suvni o'lchab olamiz va uni aluminiy dyuar idishiga solamiz va plitada suvni qaynagunicha qizdiramiz. Endi har ikkala idishdagi suvni kattaroq stakanga solib termometr yordamida aralashma temperaturasini o'lchaymiz. Bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi oladigan bilim va ko'nikmalari quyidagilar: suyuqlikning shaklga ega emasligi ammo hajmga ega ekanligi, hajm va zichlik orqali massani topish, temperatura va uning shkalalari haqida tushuncha, aralashmaning temperaturasi suvuq suv va issiq suvning temperaturalarini orasida qiymat qabul qilishi haqida tasavvurlarga ega bo'ladi. Undan tashqari issiqlik balans tenglamasi ya'ni bir jismning olgan issiqlik miqdori ikkinchi jismning bergan issiqlik miqdoriga teng ekanligini ushbu masala yordamida bilib oladi va xulosa chiqaradi.

Grafik masalalar. Grafik masalalarning umumta'lim va politexnik ahamiyati kattadir. Grafik masalalarni echish jarayonida o'quvchilar fizika fani asoslarini chuqur o'zlashtiradilar. Darsda grafik masalalarni echish jarayonida hamda uy vazifalarini mustaqil bajarish jarayonida o'quvchilar fizika va matematika fanlarining o'zaro bog'liqliklarini amalda ko'radilar. Grafik masalalar ham, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Fizika kursining barcha bo'limlarida amaliy ahamiyatga ega bo'lgan grafik masalalar bor. Eng sodda holda ikkita fizik kattaliklarning (p, V ; p, T ; V, T) bog'lanish grafiklaridan iborat bo'lgan masalalar grafik masalalar deyiladi.

Grafik usulda masala yechish metodikasiga doir quyidagi masalani tahlil qilaylik.

4-masala. Rasmda jism haroratining unga berilgan issiqlik miqdoriga bog'lanish grafigi keltirilgan. Jismning massasi 4 kg. Uning solishtirma issiqlik sig'imi qanday ($\text{J/kg} \cdot \text{K}$)?



Yechilishi: Berilgan grafik jism haroratining unga berilgan issiqlik miqdoriga bog'lanish grafigi keltirilgan bo'lib, grafikdan ko'rinadiki jismga issiqlik miqdori berilgan sari jismning temperaturasi oshayotganini ko'rishimiz mumkin. Grafikdan foydalanib jismning boshlang'ich temperaturasi $T_1 = 300 \text{ K}$, issiqlik miqdori $Q_1 = 20 \text{ kJ}$ ekanligini va temperaturasi $T_2 = 600 \text{ K}$ da

issiqlik miqdori $Q_2=80$ kJ ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jismning temperaturasi $\Delta T=T_2-T_1=60$ K ga oshirish uchun berilgan issiqlik miqdori $\Delta Q=Q_2-Q_1=60$ kJ. Issiqlik miqdorini toppish formulasi $Q=cm\Delta T$ dan foydalanib jismning solishtirma issiqlik sig'imi c ni topish formulasi $c = \frac{Q}{m\Delta T}$ ni hosil qilamiz. Bu formula yordamida va grafikdan olingan natijalardan foydalanib jismning solishtirma issiqlik sig'imini hisoblaymiz

$$c = \frac{60 \cdot 10^3}{4 \cdot 600} = 25 \text{ J/kg} \cdot \text{K}$$

Masala ishlash jaryonida soralgan kattalikning birligini albatta to'g'ri ekanligini isbotlashimiz kerak, bu o'quvchilarga fizik kattaliklarning birliklarini o'rganishlari uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqoridagi masaladagi solishtirma issiqlik sig'imining birligini:

$$c = \frac{J}{kg \cdot K} \text{ ga teng.}$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini darsda takomillashtirish metodikasi. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=-9NhegwAAAAJ&citation_for_view=-9NhegwAAAAJ:FxGoFyzp5QC
2. Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid masalalar yechish metodikasi <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9989313311040007409&btnI=1&hl=ru>
3. Ochildiyev Hasan Bahodir ugli, & Mahmudov Yusuf Ganiyevich. (2022). The difference between teaching molecular physics at school in russia and uzbekistan. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 237–241.
4. Ochildiyev H.B., Yusupov M.G. "Improving the invariant and variable components of molecular physics in school through media" "Экономика и социум" №2(81) 2021
5. Ochildiyev H.B., "Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid materiallarni takomillashtirish prinsiplari". Образование и наука в XXI века. Выпуск №13(том 1) (апрель,2021) 39-44

FIZIKA FANINI O'QITISHNING INVARIANT VA VARIATIV KOMPONENTLARINI MEDIA VOSITALARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'qitish jarayonida invariant va variativ komponentlarni media vositalari orqali takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda PhET simulatsiyalari, Algodoo, GeoGebra va Arduino kabi texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, media texnologiyalari orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi. Xususan, fizika qonuniyatlarini vizual tarzda o'rganish va amaliy loyihalar orqali chuqurroq tushunish imkoniyati yaratiladi. Maqola ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Invariant, variativ, media vositalari, PhET simulatsiyalari, Algodoo, GeoGebra, Quantum Physics

Аннотация: В статье рассматривается вопрос совершенствования инвариантных и вариационных компонентов посредством средств массовой информации в процессе обучения физике. В исследовании анализируется эффективность использования таких технологий, как моделирование PhET, Algodoo, GeoGebra и Arduino. Результаты показывают, что теоретические знания и практические навыки студентов значительно улучшаются благодаря медиатехнологиям. В частности, это создает возможность наглядно изучать законы физики и получать более глубокое понимание посредством практических проектов. В статье раскрывается актуальность использования инновационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: инвариантный, вариационный, медиа-инструменты, моделирование PhET, Algodoo, GeoGebra, квантовая физика

Abstract: This article discusses the issue of improving invariant and variational components in the process of teaching physics through media. The study analyzes the effectiveness of using technologies such as PhET simulations, Algodoo, GeoGebra, and Arduino. The results show that through media technologies, students' theoretical knowledge and practical skills increase significantly. In particular, it creates an opportunity to visually study the laws of physics and to understand them more deeply through practical projects. The article reveals the relevance of using innovative technologies in the educational process.

Keywords: Invariant, variational, media tools, PhET simulations, Algodoo, GeoGebra, Arduino

Mavzuning dolzarbligi:

Raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi — zamonaviy ta'limda media vositalaridan foydalanish o'quvchilar uchun tanish va qiziqarli usul bo'lib, ularni o'qishga rag'batlantiradi.

Visuallashtirish imkoniyati — animatsiyalar, 3D modellar va video darslar orqali murakkab fizik hodisalar oddiy va tushunarli ko'rinishda taqdim etiladi.

Onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar — o'quvchilarga tajriba o'tkazish imkoniyatini beradi, bu ayniqsa jihozlari yetarli bo'lmagan maktablarda muhim.

Интерактив dasturlar — masalan, PhET simulatsiyalari yoki GeoGebra orqali fizik hodisalarni tajriba asosida o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: O'zbekiston ta'lim muassasalarida media texnologiyalarini joriy etish bo'yicha izchil tajribalar amalga oshirilgan. Xususan, **Sh. Toshmatov, A. Axmedov, va M. Yuldashev** kabi olimlar tomonidan fizika darslarida media vositalarini qo'llash metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, **Sh. Toshmatov** — O'zbekistonda fizika fanini o'qitishda AKT vositalarini qo'llash, xususan, virtual laboratoriyalar va dasturiy vositalarni joriy etish bo'yicha izlanishlar olib borgan. **A. Axmedov** — mahalliy ta'lim muassasalarida PhET va GeoGebra dasturlarini joriy qilish bo'yicha tajriba loyihalarida ishtirok etgan. **M. Yuldashev** — Fizika darslarini interfaol tarzda tashkil etish uchun virtual laboratoriyalarni ishlab chiqish va joriy qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Media vositalarining invariant va variativ komponentlarga ta'siri: Media texnologiyalari ikki komponent uchun ham o'ziga xos usullarda foydali hisoblanadi.

Invariant komponentlar uchun: Интерактив darslar **orqali murakkab mavzularni tushuntirish osonlashadi**. Fizik qonuniyatlar animatsiya, video tajriba yoki 3D grafikalar orqali ko'rsatilganda, o'quvchilar ma'lumotni tezroq anglaydi. Misol: Molekulyar kinetik-nazaryaning asosiy qonunlarini virtual muhitda ko'rsatish, harakat qonuniyatlarini modellashtirish.

Variativ komponentlar uchun: **O‘quvchilar mustaqil izlanish va tadqiqot olib borishi uchun virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar muhim rol o‘ynaydi.** Fizika qonuniyatlariga asoslangan loyihalar orqali ijodiy tafakkur rivojlanadi. Misol: O‘quvchilar mobil telefonlariga Play Market, APP store ilovalari orqali yuklab olgan Quantum physics ilovasi orqali o‘z loyihalarini yaratib, elektr va magnit magnit maydon qonunlari yoki optika qonunlarini o‘rganishlari, mustaqil elektr zanjirlarini yig‘ib sinovdan o‘tkazib o‘rganishlari mumkin.

Media vositalarining afzalliklari

Media texnologiyalari quyidagi jihatlari bilan samaradorlikni oshiradi:

- ✓ **Visuallashtirish** — murakkab fizik hodisalarni 3D modellarda namoyish etish.
- ✓ **Interaktivlik** — o‘quvchilar tajribalarni bevosita virtual tarzda sinab ko‘rishi.
- ✓ **Qiziqishni oshirish** — o‘quvchilarga tanish bo‘lgan raqamli muhitda o‘qitish motivatsiyani kuchaytiradi.
- ✓ **Mustaqil ta’lim imkoniyati** — onlayn resurslar orqali o‘quvchilar mustaqil o‘rganishi mumkin.

Quyidagi media vositalari fizika ta’limida keng qo‘llanilmoqda:

Media Vositasi	Tavsifi
PhET Interactive Simulations	Fizik hodisalarni interaktiv modellashtirish
Algodoo	Fizika qonuniyatlarini o‘yin tarzida o‘rganish
GeoGebra	Matematik va fizik modellash jarayonida qo‘llaniladi
Tinkercad	Elektronika va dizaynni o‘rgatishda foydali
Raspberry Pi va Arduino	Amaliy loyihalar yaratishda mukammal vosita

Natijalar:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, media texnologiyalari orqali fizika darslarini tashkil qilish quyidagi natijalarga olib keldi:

Invariant komponentlar bo‘yicha: O‘quvchilarning asosiy fizik qonunlarni tushunishi va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari yaxshilandi. Masalan, PhET simulatsiyalari orqali Nyuton qonunlari va elektr maydonlari vizual tarzda yoritilganda tushunish darajasi sezilarli oshdi.

Variativ komponentlar bo‘yicha: Physics Lab orqali amaliy loyihalar bajarilishi o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirdi. Bu usul ayniqsa muhandislik va texnika universitetlari talabalarining fizika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirdi.

Muhokama:

Media vositalari orqali fizika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ekanligi aniqlandi:

Visuallashtirish: Murakkab fizik jarayonlarni animatsiya va interaktiv simulyatsiyalar orqali yoritish.

Interaktiv o'rganish: O'quvchilarga virtual laboratoriyalar orqali tajribalarni mustaqil o'tkazish imkoniyati berilishi.

Amaliy loyihalar: Physics Lab va Quantum Physics kabi ilovalardan foydalanib, fizika qonuniyatlarini loyihalar orqali mustahkamlash.

Xulosa:

Tadqiqot natijalariga ko'ra, fizika fanining invariant va variativ komponentlarini media vositalari orqali takomillashtirish nafaqat o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy qilish orqali fizika darslari yanada qiziqarli, tushunarli va interaktiv shaklda tashkil etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kolas, L.Staupe, A. (2010). *Digital Simulations in Science Education: PhET as a Tool for Learning Physics*. **Journal of Digital Learning**, 5(2), 80-92.
2. Toshmatov Sh, Yo'ldoshev M. (2021). *Fizika fanini o'qitishda interaktiv texnologiyalardan foydalanish*. **Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti**.
3. Moore E. , Perkins.K. K (2014). *Interactive Simulations as Effective Tools for Teaching Complex Scientific Concepts*. **Journal of Science Education and Technology**, 23(3), 507-515.
4. Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini darsda takomillashtirish metodikasi.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=-9NhegwAAAAJ&citation_for_view=-NhegwAAAAJ: FxGoFyzp5QC
5. Ochildiyev Hasan Bahodir o'g'li Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid masalalar yechish metodikasi
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9989313311040007409&btnI=1&hl=ru>
6. Ochildiyev Hasan Bahodir ugli, & Mahmudov Yusuf Ganiyevich. (2022). The difference between teaching molecular physics at school in russia and uzbekistan. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 237–241.
7. Ochildiyev H.B., Yusupov M.G. "Improving the invariant and variable components of molecular physics in school through media" "Экономика и социум" №2(81) 2021
8. Ochildiyev H.B., "Molekulyar fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid materiallarni takomillashtirish prinsiplari". *Образование и наука в XXI века*. Выпуск №13(том 1) (апрель,2021) 39-44.

DASTURLALI DIDAKTIK TA'MINOT VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MODEL VA MAZMUNI

O'.N.Sultonova (Dsc) prof.

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini joriy etish zahirida uning rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish uchun uning tizimini va elektron dasturini yaratish biz tanlagan maqolaning asosini tashkil etadi. Maqsadimiz shundan iboratki talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini

rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratish va amaliyotga ish faoliyatimizga tadbqiq etishdir va takomillashtirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Dasturlali, didaktik, vositasi, ijodiy, faoliyatini, takomillashtiris, elektron, talabalarning, mustaqil, amaliyotga.

Olib borilgan tadqiqotimizda takomillashtirishni amalga oshirish uchun o'z oldimizda qo'yilgan vazifani 3 – yo'nalish bo'yicha o'rganib chiqdik;

1. Ilk bosqichda talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini birgalikda o'rganib chiqdik.

2. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratishni takomillashtirishni amalga oshirish uchun fanlarni o'zlashtirish darajasi ,laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlarni birgalikda ishlab chiqarishdagi tadbqiq'ini hisobga olib takomillashtirishni amalga oshirdik.

3. Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini takomillashtirishni amalga oshirishda elektron dastur yaratdik, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'z dasturimiz asosida dars o'tish, masalalar yechish, laboratoriya ishlari, test sinovlari , turli didaktik o'yinlar tamoyillarini amalga oshirishda amaliyotda ko'rsatdik. Biz kutgan samaradorlik shundan iborat bo'ldiki dasturimiz talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillash orqali talabalarning tanlagan mutaxassislik kasblarini a'lo darajada bajarish imkoniyatiga ega bo'ldik va ularni tayyorlash tizimini tashkil etdik va yuqori samaradorlikka erishdik. Dasturimizda loyihani bajarish, amalga oshirish bosqichlarini asoslab berdik. Bunda: Dasturimizni tayyorgarlik izlanish bosqichida mavzu aniqlashtiriladi, ta'lim muhiti uchun vositalar tanlanadi.(Moodle, Zoom va boshqa.), dars turi, maqsadi, mazmuni, asosiy tushunchalar, terminlar (dars jarayoni) tanlab olinadi. Dasturimiz fizika fan predmeti, fan mavzulariga qiziqishlari, tafakkuri, dunyoqarshi va bu boradagi ularning qobiliyatlari e'tiborga olinib kutiladigan natijalar belgilab olinadi, dars bosqichlari qo'llaniladigan pedagogika, didaktika, pedagogik texnologiyaga oid tushunchalar va axborot texnologiyalari tanlanadi.

Loyihani tayyorlash konstruktorli bosqichida mavzuga mos tayyorlangan o'quv materiallarning asosiy tushunchalarning mazmuni dars bosqichlari tartibga solinadi va har bir bosqichda talabalar faoliyati aniqlashtiriladi, darsni yoritishda qo'llaniladigan metodlar, pedagogik va texnik bilimlar, axborot texnologiyalari, multimediali vositalari, slaydlardan, raqamli ta'lim muhitidan foydalanish, kutiladigan natijalarni rejalashtirish dars ishlanmasi va texnologik xarita ko'rinishini oladi.

Loyihani bajarish, amalga oshirish bosqichi. Bu bevosita o'quv faoliyati, dars jarayoni bo'lib, o'qituvchi tomonidan tayyorlangan loyihani dars bosqichlariga, dars ishlanmasi va texnologik xaritasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Bu o'rinda o'qituvchi xatoga yo'l qo'ymaslik lozim, aynan shu bosqichda o'quvchilarda tushunchalar, bilimlar, ko'nikma va malakalar tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu jarayon 4 bosqichdan iborat: Mavzuga kirish yangi tushuncha va bilimlarni shakllantirish, tushuncha va bilimlarni mustahkamlash, yakuniy xulosalarni chiqarish. Dars mashg'uloti raqamli ta'lim muhiti (Moodle, Zoom) dan, integrativ yondashuvdan foydalanib olib boriladi.

Loyihani tayyorlash (konstruktorlik) bosqichi. Bu bosqichda maqsadni aniqlash, mundarija tuzish- rejalashtirish, dasturiy mahsulotni tayyorlash kabi kichik bosqichlardan tashkil topadi. Maqsadni aniqlash dasturiy vosita maqsadi , fizika fanning mavzularini matn, video, animatsiyalar, izohli lugat, slaydalar yordamida kompyuterni o'rganish, mavzuga mos test

savollariga javob berib, individual baho olishga erishishdir. Mundarija tuzish rejalashtirishda fanning mavzulari, asosiy tushunchalari, tayanch iboralar asosida ma'ruza matnlari, amaliy, seminar topshiriqlari, nazorat, test savollari tayyorlanadi. Dasturiy mahsulotni tayyorlash. pedagogik dastur vositani tayyorlash uchun dasturiy vosita tanlanadi. (Macromedia Dreamweaver, Autopley, JavaScript, Turbo Sayt, HTML, Delphi va h.k.) tayyorlangan manbalarning kompyuterli matni, gipermatni tuziladi, multimedia uchun ma'lumotlar tanlanadi, slaydlar, animatsiyalar, vizuallashtirish materiallari tayyorlanadi, ovoz yoziladi, ovoz hamohangligi tekshiriladi[85]. Loyihani bajarish, amalga oshirish bosqichida tayyorlangan pedagogik dasturiy vosita pedagogik amaliyotda joriy etiladi, qo'llaniladi. Yakunlovchi bosqichda tayyorlangan pedagogik dasturiy vositaning ta'lim jarayonidagi samaradorligi aniqlanadi. Xulosa va tavsiyalar berish bosqichida RTR ning samaradorligini hisobga olib uni qo'llash uchun tavsiyanomalar ishlab chiqiladi va shu fanni o'qitadigan o'qituvchilarga ta'limda qo'llash uchun tavsiya qilinadi. Biz yuqoridagi loyihalash bosqichlari asosida dasturiy mahsulotlarni yaratdik va egalik guvohnomalarini olishga erishdik Pedagogik dasturiy vositalar, elektron ta'lim resurslarini yaratish jarayonida dasturlar integratsiyasi quyidagicha bo'ladi.

1-jadval

Pedagogik dasturiy vositalarda dasturlar integratsiyasi

№	Pedagogik dasturiy vositani (PDV) yaratuvchi bazaviy dastur	PDV bir butunligini ta'minlovchi materiallar fayllari	Dastur natijasi
1	Masofalida Moodle	-matnli fayllar.doc(x); -grafik fayllar pdf,jpg,jpeg, svg va hokazo -audiofayllar. mp3,.wav,.ogg,.vma va bosh.	-masofali, Moodle da o'quv jarayonini tashkil etishning didaktik bazasi;
2	Masofamizda Auto Pley Media8, Namoeeditor, Flash, Turbo Sayt va boshqalar	Videofayllar mpeg, mpegI dan 4 gacha,.hd,.mp4,.m4v,.mov va hakoza -test fayllari.txt,exe,.swf va hakoza	-masofamizda, o'quv jarayonini tashkil etishda yordam beradigan elektron ta'lim resursi, pedagogic dasturiy vositalar

Kursni yaratishda qo'llanilgan vositalar:

Ushbu texnologiyalarga PhP, JavaScript, HTML, CSS, SQL kabilarni kiritish mumkin. HTML, CSS va JavaScript elektron kurslarning strukturasi va dizaynini shakllantirishda foydalaniladi. Ma'lumotlar baza va kursning dinamik ishlashi SQL tili va PHP dasturlash tilidan foydalanilgan holda shakllantirilgan. Ushbu elektron kurs SaaS (xizmat sifatida dasturiy ta'minot) ga asoslangan bo'lib uni kelgusida yanada rivojlantirish uchun barcha dasturiy va texnik imkoniyatlar mavjud.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida fanini o'rgatishga qaratilgan ko'plab kurslar yaratilgan. Ushbu kurslar va ularning imkoniyatlari bir-biridan turli ko'rsatkichlarga asoslangan holda o'zaro farq qiladi. Misol uchun ba'zi kurslar pullik, ba'zi kurslar bepul ba'zilar ochiq kodli bo'lishi mumkin. Shuningdek, elektron kurslarda talabalarni baholash, ta'lim olish usuli

majburiy bosqichma-bosqich mavzularni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Online elektron kurslar bir necha turga bo'linadi va ular talabalarning o'rganish ehtiyojlariga, uslubiga va maqsadlariga qarab farqlanadi. Quyida eng asosiy elektron kurs turlari keltirilgan:

1. Asinxron Kurslar (O'z-o'zidan o'rganish)Tavsif: O'quvchilar kurs materiallarini o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda o'rganadi. Kurs materiallari oldindan tayyorlanadi va talabalar istalgan vaqtda kursga kirishi va ta'limni davom ettirish imkoniyati mavjud. Afzalliklari: O'rganish uchun to'liq moslashuvchanlik, talabalarga bosimsiz o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'qish imkoniyatini taqdim etadi. Misollar: Udemy, Coursera'dagi ko'plab kurslar mavjud.

2. Sinxron Kurslar (Real vaqt rejimida o'rganish)Tavsif: O'qituvchilar bir vaqtning o'zida darslarda ishtirok etishadi. Vebinarlar yoki jonli (live) darslar orqali dars mashg'ulotlari amalga oshiriladi. Afzalliklari: talabalarning mustaqil o'quvfaoliyatini savol-javob imkoniyatlari.Misollar: WiziQ, Zoom yoki Microsoft Teams orqali jonli onlayn darslarni tashkil etish orqali o'qitish mumkin.

3. Blended Learning (Gibrid ta'lim)Tavsif: Onlayn va an'anaviy (offline) ta'limni birlashtiruvchi kurslarni ifodalaydi. Bir qismi onlayn, bir qismi esa an'anaviy auditoriyada o'tkaziladi. Afzalliklari: Moslashuvchan onlayn ta'lim va an'anaviy ta'limning afzalliklarini taqdim etadi. Misollar: Ko'plab universitetlar o'quv faoliyati misol bo'lishi mumkin.

4. MOOC (Massive Open Online Courses)Tavsif: Katta hajmdagi Talabalar soni uchun ochiq kurslar. Odatda ushbu toifadagi onlayn elektron kurslar bepul yoki arzon narxda bo'ladi. Biroq odatda ushbu kurslarda sertifikat olish uchun to'lov talabi qo'yiladi. Afzalliklari: Keng qamrovli mavzularni qamrab olgan, ko'plab o'quvchilar uchun ochiq. Misollar: Coursera, edX, FutureLearn.

5. Gamifikatsiyalangan Kurslar Tavsif: O'rganish jarayoni o'yin elementlari orqali qiziqarli va rag'batlantiruvchi shaklda amalga oshiriladi. Ballar, nishonlar, darajalar yoki o'yinli vazifalar qo'shiladi.Afzalliklari: talabalarning ishtirokini va qiziqishini oshiradi.

Misollar:Fizikadan kattaliklarni ,formulalarni o'rganish va viktorina o'yinlari kabi onlayn ta'lim kurslarini ushbu turga misol sifatida ko'rsatish mumkin. Fizika fanidagi muammolar M.elektromagnit induksiya hodisalari, gneratorlarni yaratilishi va boshqa juda ko'plab ma'lumotlar kiritilgan bo'ladi . Ushbu jadvalda "fizikani o'rganamiz" onlayn elektron kursini "OMKFBO" kabi qisqartmada ifodalanadi.

Elektron kurslarning asosiy xususiyatlari umumlashtirish va o'zaro taqqoslash .

2.-jadval

Platforma	Kurs nomi	Turi	Kontent turi	Format	Narxi	Sertifikat lash
Coursera	mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish	Asinxron, MOOC	Video, test savollari, ta'limiy o'yinlar, intraktiv mashqlar, masalalar.	Mustaqil o'rganishga qaratilgan.	60 dollar	Sertifikat siz

EdX	Mathematical understanding of uncertainty	Asinxron, MOOC	Video, test savollari, taqdimot	Mustaqil o'rganishga qaratilgan	54 dollar	Tasdiqlangan sertifikat
Khan akademiyasi	Fizik boshqotirmalar	Asinxron, MOOC	Video, test savollari	Mustaqil o'rganishga qaratilgan	Bepul	Sertifikat siz
matematika kursi	fizikanikani o'rganish	Gibrid, MOOC	Video, maruza matni, taqdimot, amaliy topshiriq, test savollari	Mustaqil o'rganishga qaratilgan	Bepul	Sertifikat li

Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish bugun har bir pedagog oldidagi ulkan mas'uliyatli vazifadir. Ayniqsa, ijtimoiy sohalarini to'liq qamrab olgan zamonaviy hisoblash mashinalaridan unumli foydalana oladigan malakali mutaxassislariga bo'lgan talab bugun yaqqol sezilmoqda. Ma'lumki, kompyuter texnologiyasi kompyuter tizimining eng asosiy elementi hisoblangan dasturlashning rivojlanishi har xil bosqichlarida turlicha rol o'ynagan. Kompyuterlar quvvati va texnik vositalar rivojlanishining ortishi hamda dasturlash uslubi o'sib borishi bilan kompyuterda yechiladigan masalalar murakkabligi ham orta boshlaydi, bu esa dasturlash texnologiyasiga yuqori etibor qaratilishiga sabab bo'ladi. Yaqin kungacha foydalanuvchi o'zining fizik masalalarni yechish uchun nafaqat fizikani bilish, balki kompyuterda ishlashni, kamida bitta dasturlash tilini bilishi va murakkab hisoblash usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, "Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari" Toshkent "Yangi nashr" 2018. Foydalanilgan adabiyotlar
2. Султонова Ў.Н. Физикадан дарс ва тўғарак машғулотларида янги педагогик технологиядан фойдаланиш // Высшая школа. 2018. 23 декабрь. -С. 255-258.
3. Sultanova. O'N. Basad on students' competency – based approach to physics solve experimental and graphical problems // International interdisciplinary research. In volume 9, May, 2021. -903-98 pp.
4. Sultonova O'N. The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach" Vol 12 no 1 Jan-Feb-: 2020 й, 52-57,Б www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html

5. Sultanova O'.N. "Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training
5. Султонова Ў.Н. Galaxy international interdisciplinary research journal. (giirj) импакт фактори: 7.472 issn: 2347-6915ссылкаси: based on students' competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems 2021-yil may.

DASTURIY TA'MINOT DAVR TALABIDIR

O'.N.Sultonova (Dsc) prof.

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini joriy etish zamirida uning rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirish uchun uning tizimini va elektron dasturini yaratish biz tanlagan maqolaning asosini tashkil etadi. Maqsadimiz shundan iboratki talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini yaratish va amaliyotga ish faoliyatimizga tadbiq etishdir va takomillashtirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar. Dasturlali, didaktik ,vositasi, ijodiy, faoliyatini, takomillashtiris, elektron, talabalarning, mustaqil, amaliyotga.


Hozirda esa dasturlashni mukammal bilmaydigan yoki bilish imkoniyati mavjud bo'lmaganlar uchun shunday tayyor ilmiy dasturlar majmualari, elektron qo'llanmalar va tipik hisob-kitoblarni bajarishga mo'ljallangan dasturiy vositalar – matematik amaliy dasturlar paketlari (ADP) mavjud. Xususan, kompyuter fizikaning nisbatan imkoniyatli paketlari bu - Mathematica, Maple, Matlab, MathCAD, Derive va Scientific WorkPlacelardir. Bulardan birinchi ikkitasi professional matematiklar uchun mo'ljallangan bo'lib, imkoniyatlarning boyligi, ishlatishda murakkabligi bilan ajralib turadi. MatLab dasturi matrisalar bilan ishlashga va signallarni avtomatik boshqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan. MathCAD va Derive esa qo'llanilishi juda oson bo'lib, talabalarning tipik talablarini qondirishni ta'minlaydi. Bular qatoriga 3 Evreka paketini ham qo'shish mumkin, ushbu qo'llanmada esa hisoblash usullarining bir nechta sinflari bo'yicha amaliy masalalar MathCAD amaliy dasturlar paketi yordamida yechiladi. Ulardan oqilona va samarali foydalana olish bugungi kunda har bir inson uchun zarur bo'lib qolmoqda. MathCAD dasturining eng sodda tushunchalaridan foydalanib turli xil amaliy masalalarning matematik modellarini sonli usullarga asoslanib yechishga oid masalalar turkumi batafsil qaraladi hamda MathCAD dasturini imkoniyatlaridan to'la foydalanishga oid yo'riqnomalar keltiriladi.

Tabaqalashtirishning asosiy tamoyili sifatida o'quv materialini to'xtovsiz soddalashtirish emas, balki o'qituvchi tomonidan talabalarga tabaqalashgan yordam berish orqali o'quv amaliyotida tabaqalashgan yondashuvni qo'llash uchun "maslahat-kartochkalari"dan foydalanilgan, ularning bittasida masalaning echimi berilgan bo'lsa, boshqasada masalaning sxemasi yoki grafigi yo'llanma sifatida beriladi. Boshqa bir holda esa, andoza sifatida berilgan masalaga o'xshash masalaning echimi beriladi. Natijada, barcha o'quvchilar amaliy mashg'ulotda bitta masalani echishadi, ammo ularga ko'rsatilgan yo'llanma va maslahatlar bir-

biridan farq qiladi. Guruhdagi kuchliroq o'quvchilar uchun qiyinroq topshiriqlar taklif qilinadi. Bunday topshiriqlar darsliklarga kiritilgan bo'lishi yoki o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'lishi shart. foydalanib masalalar yechishimiz mumkin.

O'qitishni individuallashtirish mashg'ulot jarayonida va audito

MathCAD dasturining eng sodda tushunchalaridan boshlab turli xil amaliy masalarning matematik modellarini sonli usullarga asoslanib yechishga oid masalalar turkumi batafsil qaraladi hamda MathCAD dasturi imkoniyatlaridan to'la foydalanishga oid yo'riqnomalar keltiriladi. XXI asrni ma'naviyat va ma'rifat asri, ilm-fan, madaniyat va axborotlar asri deb ta'riflandi, bu bilan hozirgi davrning muhim belgisi va xususiyatlarini ham belgilab berishni paygash qiyin emas.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov Yusuf, Qosimov Asroriddin, "Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishning metodik-didaktik asoslari" Toshkent "Yangi nashr" 2018. Foydalanilgan adabiyotlar
2. Султонова Ў.Н. Физикадан дарс ва тўғарак машғулотларида янги педагогик технологиядан фойдаланиш // Высшая школа. - 2018. 23 декабрь. - С. 255-258.
3. Sultanova O'.N. Basad on students' competency – based approach to physics solve experimental and graphical problems // International interdisciplinary research. In volume 9, May, 2021. - 903-98 pp.
4. Sultonova O'.N. The Dependence of Didactic Comes on Physics in the Preparation of Technical Engineers and its Competence Approach" Vol 12 no 1 Jan-Feb-: 2020 й, 52-57,Б www.enggjournals.com/ijet/vol12issue1.html
5. Sultanova O'.N. "Technology to improve the methods of teaching physics in higher education based on a competency approach (on the example of training

6. Султонова Ў.Н. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj). Импакт фактори: 7.472 issn: 2347-6915ссылкаси: based on students' competency-based approach to physics solve experimental and graphical problems 2021-yil may.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH PANELLARI QURISH UCHUN QULAY HUQUQIY VA IQTISODIY SHAROITLAR

Radjabov Shaxboz Baxtiyor o'g'li
Abdirasulov Komil Fayzulla o'g'li
Tog'aymurodov Xushnud Xusniddin o'g'li
Annamurotov Rasul Baxtiyor o'g'li
TerDMAU

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasi global iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va energetika xavfsizligini ta'minlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga, xususan, quyosh energiyasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Quyosh energiyasi – bu O'zbekistonning geografik joylashuvi, iqlimi va keng bozor imkoniyatlari nuqtai nazaridan yuqori samarali va istiqbolli energiya manbalaridan biridir. Hozirgi kunda quyosh panellari qurish uchun O'zbekistonda qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib, bu sohani rivojlantirish uchun zaruriy davlat dasturlari va imtiyozlar joriy etilgan. Ushbu maqolada O'zbekistonda quyosh panellari qurish uchun mavjud huquqiy va iqtisodiy sharoitlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. energiya manbalari, quyosh energiyasi, qayta tiklanuvchi energiya, yuqori samarali va istiqbolli energiya.

